

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

QIYOSIY SIYOSIY TIZIMLAR

fanining

MA'RUZALAR TO'PLAMI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 5310100 – Siyosatshunoslik

Toshkent 2012

O‘quv-uslubiy majmua namunaviy dastur va ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasida ishlab chiqilgan va kafedra majlisining 2012 yil sonli majlisida, fakultet ilmiy-uslubiy kengashining 2012 yil sonli majlisida muhokama qilingan.

Tuzuvchi:

s.f.n. Muhammadsidikov M.M.

Taqrizchilar:

1. s.f.d. Yovqochev Sh.A.

2. s.f.d. Saidolimov S.T.

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2012 yil dagi “ ”
– sonli bayonnoma

QIYOSIY SIYOSIY TIZIMLAR

Fanidan

MA`RUZALAR MATNI

Mavzu - 1. Siyosiy taraqqiyot

Dars maqsadi:

- Siyosiy taraqqiyot tushunchasi haqida ma'lumot berish;
- Siyosiy taraqqiyot siyosiy tizimning bir sifat darajasidan ikkinchisiga yoki bir turdan ikkinchisiga o'tish jarayonini tahlil etish;
- Siyosiy taraqqiyot siyosiy institutlarning o'sishi, o'zgarishi va mutaxassislanishi sifatida;
 - Bundan tashqari ushbu darsning maqsadi siyosiy taraqqiyotning o'zgarishi haqida ma'lumot berish;
 - mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishda ko'maklashish;
 - Yoshlar o'rtasida sog'lom ma'naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

- Siyosiy ong, siyosiy tasavvurlar, siyosiy ko'rsatmalar, siyosiy qadriyatlar, siyosiy harakat, Taraqqiyot nazariyalari, zamonaviylashuv nazariyalari, Tobelik nazariyalari. Siyosiy taraqqiyot va siyosiy tartibotlarning o'zgarishi

Asosiy savollar:

1. Siyosiy taraqqiyot tushunchasining mohiyati, nazariy konsepsiyalari
2. Siyosiy taraqqiyotni o'rganish usullari.

Siyosat - ijtimoiy xayotda keng tarkalgan tushunchalardan biridir. U kundalik turmushda xam, ilmiy adabiyotlarda xam kup ma'noda ishlatiladi. Kundalik xayotda kishilar kupincha xar kanday maksadga muvofik ijtimoiy faoliyatni siyosat deb atashadi. Bu muayyan maksadga buysundirilgan partiya yoki firma raxbarining faoliyati yoki erkin uz xotiniga, bolalariga, butun oilasiga munosabati bulishi xam mumkin. Siyosatni kishilarning birgalikda yashash, imkoniyatini ruyobga chikarish san'ati, kup xollarda esa uni «zurovonlik vositasi» sifatida talkin etaladi. Ilmiy Adabiyotlarda siyosatning turli xil ta'riflari bulib, ularni, asosan 3 guruxga: 1) sotsiologik; 2) substansional va 3) faollik guruxlariga bulish mumkin.

1.Siyosatning sotsiologik ta'riflari sotsiologik yondashuvga asoslanadi. Ular boshka ijtimoiy xodisalar: iktisodiy, ijtimoiy guruxlar, xukuk, axlok, madaniyat, din orkali ta'riflanadi. Sotsiologik ta'riflarni jamiyatning aks ettiradigan soxalariga karab 1) iktisodiy, 2) ijtimoiy, 3) xukukiy, 4) axlokliy (me'yoriy) va shu kabilarga bulish mumkin.

1) Iktisodiy ta'rifi - marksizm va iktisodiy determinizmning boshka konsepsiyalarida berilgan. Iktisodiy bazis ustidagi ustkurma, iktisod extiyojlari, manfaatlarining jamlangan ifodasi sifatida tavsiflanadi. Xozirgi vaktida albatta, iktisod va siyosatni ijtimoiy xayotning uzaro uzviy xarakati sifatidakaramok lozim. Bu tushunchalarning birini ikkinchisidan ustun kuyib bulmaydi, ularni teng anglamok kerak.

2) Stratifikatsiya talkini: Bunda siyosat muayyan ijtimoiy guruxlar: sinflar va millatlarning yoki manfaatdor guruxlarning rakobati sifatida talkin etiladi. Sinflar urtasidagi kurashning markscha talkini hozirgi vaktida uz ta'sirini yukotdi.

3) Siyosatning xukukiy talkini, uning axlokiy ta'rifiga bevosita kushilib ketadi. Siyosatning xukukiy konsepsiyasiga kura davlatni xukukdan kelib chikadigan xodisa sifatida karayodi. Xukuk siyosatning maxsuli sifatida karaydigan tushunchalar xam mavjud.

4) Siyosatning me'yoriy talkini - bunda me'yoriy yondashuv siyosatni ideallardan, kadriyatlardan kelib chikkanligini unutmashlik kerak. Uningoliy kadriyati - adolat, tinchlik, erkinlik va umumiy farovonlikka xizmat kilishdir.

2. Siyosatning substansional (obektiv reallik) ta'rifi: Bu tariflar siyosatning kandy birinchi asoslardan, tukimalardan tashkil topganligini ochib berishga muljallangan. Bu guruxda xam siyosatning bir necha ta'riflari bor. Bu siyosatni xokimiyatga, uni egallash, kulda ushlab turish va kullashga karatilgan xarakatlar sifatida talkin kilinadi. M Veber: «Siyosat, bu xokimiyatda ishtirok etishga yoki xokimiyatning davlatlar urtasidami, davlat ichidagi kishilar guruxlari urtasidami taksimlanishiga ta'sir kursatishga intilishdir», deb yozadi.

1) Siyosatning «xokimiyatiy» ta'rifi, uning yaratuvchilik sifatini aks ettiradi.

2) Muassasaviy ta'rifi - asosiy siyosiy institut - davlat orkali ta'riflanadi. Bu ta'rifda siyosat - davlat ishlarida ishtirok etish, davlat faoliyatining mazmuni, vazifalari, shakllarini aniklash bulib kurinadi.

3) Siyosatning antropologik (olaning kelib chikishi, evolyusiyasi) talkini uning ixtilof - konsensus ta'riflari bilan yanada boyiydi. Ixtilof - bu siyosatning negizida yotuvchi ziddiyatlarga karatiladi, uning dinamikasini belgilaydi. Konsensusda - nizolarni tuxtatish va xal etish.

3. Siyosatning faollik guruxidagi ta'rifi: siyosatning dinamikasini ochib beradi. Ular siyosatni butun jamiyat uchun majburiy bulgan karorlarni tayyorlash, kabul kilish va amalga oshirish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Bunda siyosatning maksadini aniklash, karorlar kabul kilish, ushbu maksadlarni amalga oshirish uchun ommani tashkil etish, resurslarni safarbar etish, siyosiy faoliyatni tartibga solish, ularni nazorat kilish, olingan natijalarni taxlil kilish va siyosatning yangi maksadlarini aniklash kiradi. Faollik talkin siyosiy karorlar nazariyasida keng kullaniladi.

1) Siyosatning teleologik (yun. Xodisa-jarayonlar xudo tomonidan biror maksadga yunaltiriladi) ta'rifi: a) faoliyatning jamoaviy tabiati va b) ongli turi mavjud.

2) Siyosatning sistemali talkini - siyosiy tizim turli nazariyalarda asoslab berilgan.

Siyosatning ijtimoiy xayotdagi urni va vazifalari: Siyosatning ijtimoiy tabiyati, vazifalari xakida jaxon ijtimoiy-siyosiy fikrida xilma xil karashlari mavjud:

1) Totalitar ijtimoiy-siyosiy karashlar.

2) Anarxistik ijtimoiy-siyosiy karashlar.

3) Liberal ijtimoiy-siyosiy karashlar.

4) Keyksian ijtimoiy-siyosiy karashlar: XUSH-XIX asrlarda G'arbdaxukmronlik kilgan liberal karash D.M.Keyns tomonidan kurib chikildi. Bunda kapitalizmga uz-uzini tartibga soluvchi jamiyat sifatida liberal karamlardan voz kechish, butun jamiyat ijtimoiy tizimining, uning barcha elementlarining farovonligi uchun mas'uliyatni xukumatning uz zimmasiga olish zarurligini asoslab berishdan iborat.

Siyosat - jamiyatning asosiy soxalaridan biri xisoblanadi. U ijtimoiy xayotda tutgan urni va roliga kura iktisodiy va ma'naviy soxalarga kup jixatdan uxshashdir. Siyosat jamiyatda xalk manfaatlarini ximoya kiladi. U xam xalkka, ijtimoiy tarakkiyotga xizmat kiladi. U jamiyatning iktisodiy va ma'naviy soxalaridan tubdan fark kiladi.

Siyosat -jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bulgan moddiy va ma'naviy boyliklarini ishlab chikaruvchi soxa emas, balki uning birligi va yaxlitligi, xavfsizligi va barkarorligi, tinch-totuvligi va osoyishtaligini ta'minlovchidir. Bu soxa xujalik va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan emas, balki ijtimoiy xayotni boshkarish, tartibga solish, xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan shugullanadi.

Siyosat - jamiyatning ijtimoiy muammolariga chukur kirib boruvchi, ta'sir utkazuvchi va ularni xal etuvchi soxadir. Bu soxada barcha ijtimoiy guruxlar, katamlar uchun belgilovchi axamiyatga ega bulgan, turli yulni kursatib beradigan karorlar ishlab chikadi va kabul kilinadi. Shu bilan birga siyosat - ular amalda bajariladigan ijtimoiy muammolar xal etiladigan va jamiyatning bir butunligi, xavfsizligi, tinch-totuvligi va osoyishtaligi ta'minlanadigan soxadir. Demak, u ijtimoiy soxani, shuningdek iktisodiyotni xam tartibga solib, yuksaltirishga, eski xujalik yuritish tizimi urniga yangi xujalik yuritish tizimi karor topishiga doir tadbirlarni xam ishlab chixadi, amalga oshiradi. Agar iktisodiyotdan ustun tursa, uning yigilib kolgan muammolarini xal etishdan bosh tortsa, uz maksad va vazifalarini bajara olmaydi. Iktisodiyotdan doim ustun turgan siyosat xakikiy siyosat bula olmaydi.

Siyosat jamiyatning ma'naviy, madaniy-ma'rifiy soxasini xam boshkaradi, tartibga solib turadi. U ommaning, xar bir inson ma'naviy madaniyatini oshirishga, uning tabiyat, jamiyat sirlarini, ijtimoiy xayotdagi uz urnini bilib va anglab olishiga doir tadbirlarni ishlab chikadi va amalga oshiradi. Chunki ijtimoiy, iktisodiy soxalarni tartibga solish va mustaxkamlashga karatilgan tadbirlarning uzi kutilgan natijalarni beravermaydi. Agar iktisodiyot, ma'naviyat - ma'rifatda u yoki bu masalani ushbu soxa doirasida xal etilsa, siyosatda esa butun jamiyatga, barcha ijtimoiy guruxlarga doir masalalar xal etiladi. Siyosat - butun jamiyatga dalxildor bulgan masalalarni xal etuvchi soxadir.

XI asr buyuk mutafakkirni Yusuf Xos Xojib xam siyosat xakida shunday degan: Beklar dargoxini siyosat bezatadi,

Siyosat bilan Beklar elni tuzatadi,
Yomonlarga siyosat yuritish kerak,
Yurt orasidagi yaramaslarni siyosat tozalaydi.

Demak kishilar jamiyati paydo bulibdiki, bu jamiyatning xayoti muayyan mafkura, siyosat bilan boglik. XU asrning allomalaridan biri Xusayn Voiz Koshifiy «Axloki Muxsiniiy» asarining «Siyosat» degan bobida aytadi:

«Mamlakat tobkay siyosatdin nizom,
Gar siyosat bulmasa yetgay xalal,
Tobmagay olam ishi aslo tuzut,
Besiyosat xech vaktu xech maxal».

Ulug bobimiz Amir Temur muazzam davlatini 3 tamoyilga asosan olib borgan: diyonat, adolat, siyosat - ya'ni dinu iymon, odillik va kuchli iroda. Iymon yuk yerla xalollik yuk, demak, yurtda baraka yuk. Adolat bulmasa totuvlik, xamjixatlik urnini zulm va zurlik oladi. Elda tinchlik yukoladi. Siyosat, talabchanlik, konun kuchi bulmasa, ugri, muttaxam, kallakesarlarning ovi yuradi.

Siyosatning bosh maksadi - jamiyatning fakat iktisodiy yoki ma'naviy-ma'rifiy soxasini rivojlantirish va moddiy, ma'naviy boyliklarni tobora kuprok ishlab chikarish emas, balki uning beistisno barcha soxalarini tarakkiy ettirish va mustaxkam bir butunligini, Xavfsizligini, barkarorligini, tinch-totuvligini, osoyishtaligini ta'minlashdan iboratdir. Bu ulkan maksadni ruyobga chikarish uchun xilma-xil nazariy va amaliy vazifalarni bajaradi.

1. Nazariy vazifasi: ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va jamiyatning xavfsizligini, barkarorligini ta'minlash va mustaxkamlash yullarini kursatib beradigan, ilmiy asoslangan okilona dasturlarni, konunlarni, karorlarni ishlab chikishdir. Bunda pala-partishlikka yul kuymaslik kerak. Shuningdek, siyosat dasturlar, konunlar, karorlarni ishlab chikish bilan birga ularni kabul kilish vazifasini xam bajaradi.

2. Siyosatning asosiy amaliy vazifasi - kabul kilingan dasturlar, konunlar, karorlarni xayotda izchilik, kat'iyatlilik bilan amalga oshirish, butun jamiyatni turli-tuman illatlardan, xastaliklardan tozalashdir. Chunki bu vazifa ijtimoiy xayotda amalga oshirilmas ekan, unda jamiyatning mustaxkam xavfsizligiga, barkarorligiga, tinch-totuvligiga, baxt-soadatga erishib bulmaydi.

Siyosat uz maksad va vazifalarini amalga oshirishda kuyidagi uslublardan foydalanadi: 1) ishontirish, 2) tarbiyalash, 3) kuch ishlatish, 4) majburlash uslublaridan ken foydalaniladi.

Xozirgi vaktida «siyosat» tushunchasi xam keng, xam tor ma'noda kullaniladi.

Keng ma'noda siyosat ijtimoiy xayotning ob'ektiv manzarasini ifodalaydi. U jamiyat xayotining xilma-xil soxalarida ruy beradigan vokea-xodisalar, uzgarishlarni aks ettiradi va ularni iktisodiy siyosat, madaniy siyosat, sotsial siyosat, xarbiy siyosat kabi turli tushunchalar orkali ifodalaydi.

Tor ma'noda esa siyosat jamiyat xayotining aloxida bir soxasida, ya'ni uning siyosiy soxasida ruy beradigan uzgarishlarni ifodalaydi va shu soxaning uziga nisbatan kullaniladi. Jamiyatdagi barcha siyosiy va ijtimoiy tashkilotlarning faoliyati siyosatning tor ma'nosi orkali ochib beriladi. Xalkaro tashkilotlarning siyosiy faoliyati xam siyosatning tor ma'nodagi ifodasidir. Siyosat tor ma'noda davlatlarning 1) ichki va 2) tashki faoliyati, xalkaro siyosiy munosabatlar bilan boglik bulgan masalalarni xam uzida aks ettiradi.

Siyosat ijtimoiy xodisa sifatida jamiyatning ob'ektiv konuniyatlariga muvofik ravishda ishlab chikilishi va amalga oshirilishi zarur. Ob'ektiv konuniyatlar xarakteriga mos kelmaydigan siyosat jamiyat xayotida turli xildagi ziddiyatlar, karama-karshiliklar xamda kuplab noxush xolatlarining kelib chikishiga sabab buladi.

Siyosat sub'ektiv faoliyatning nitjasidir. Uni ishlab chikish va amalga oshirishda siyosatning xilma-xil sub'ektlari ishtirok etadi. Siyosat jamiyatdagi boshka ijtimoiy xodisalarga karaganda tez uzgarib turadi. Barcha davrlar uchun bir xildagi siyosatni kullash mumkin bulmagani kabi ijtimoiy xayotdagi xilma-xil muammolarni xam aynan bir xildagi siyosatni kullash yuli bilan xal kilib bulmaydi. Vaziyatning uzgarishi siyosatning uzgarishiga sabab buladi. Bu xususiyat davlatlarning ichki va tashki siyosatiga xam, xalkaro siyosiy munosabatlarga xam boglik. Xar bir davlat, xar bir siyosiy partiya siyosatni bir-biridan mustakil ravishda ishlab chikadilar. Bir davlat yo partiyaning olib boradigan siyosiy yuli boshkalar uchun majburiy bulmaydi. Siyosat uz ijtimoiy moxiyatiga kura bekiyos bir san'atdir. Siyosat - bu uylab bosadigan kadam, kelishuvlar, yonberishlar, sikuvlardir. Siyosat - bu ba'zida ayyorlik kilish, aldash, ba'zida ishontirish xamdir.

Siyosat uz moxiyati va xususiyatlariga kura 2 turga: bulinadi:

- 1) adolatli yoki tarakkiyparvar siyosat
- 2) adolatsiz yoki reaksiyon siyosatga bulinadi.

Siyosat uzining tuzilishiga kura 2 turga: 1) ichki va 2) tashki siyosatga bulinadi.

1. Ichki siyosat - bu siyosat sub'ektlarining mamlakat ichkarisida amalga oshiriladigan faoliyatidir.

2. Tashki siyosat - tashki turli davlatlar bilan olib boriladi. Bu davlat idoralari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari tomonidan xalkaro maydonda amalga oshiriladigan faoliyatdir.

«Siyosat deganlari shunday narsaki, xuddi bukkalamun kabi bir zumdayok uzgarishi mumkin. Shu damgacha xech kim uni muayyan bir izga sololgan emas. Bunga sabab: siyosat raftorining uz surati va uz yunalishi borligida. Shu boisdan xam xar bir xukmdor uzi yurgizib turgan siyosat uchun yakka bir maksadni muljal kilib oladi. Goxo chor-atrofdan esib kelayotgan siyosat shamollari bir-biri bilan tuknashib, daxshatli buron paydo kilishi mumkin». Uiston Cherrchill yozadi: «Davlat arbobi bilan siyosatchining farki shundaki, siyosatchi kelgusi saylovlarni uylasa, davlat arbobi kelgusi avlodlarni uylaydi». Shark mumtoz adabiyotining buyuk namoyondasi Sa'diy Sheroziy (1184-1292) bitadi: «Uch narsa mangu bulmaydi: «Mol - savodsiz, ilm - baxosiz va davlat - siyosatsiz».

Muhokama uchun savollar

1. Siyosatning ijtimoiy xayotda tutgan urni va vazifalarini aniklang.
2. Siyosatning uslublari nimalardan iborat?
3. Siyosatning sotsiologik, subotansional va faollik ta'riflarini izoxlang.
4. Siyosatning totalitar konsepsiyasini bayon eting.
5. Siyosatning iktisodiyot va ma'naviyat bilan boglikligi nimalarda kurinadi?
6. Siyosiy jarayon tushunchasini Siz kanday izoxlaysiz?

7. Siyosiy jarayon mavjudligi va tartiblarini gapirib bering.
8. Siyosiy jarayonning kandy turlari bor?
9. Siyosiy karorlar kabul kilish jarayonini bayon eting.
10. Siyosiy ishtirokchining uziga xos xususiyatlari nimalarda seziladi?
11. Uzbekistondagi siyosiy jarayonlarning uziga xosligini izoxlab bering.

Mustaqil ish torshiqalari:

1. Ma'lumki hozirgi zamonning yirik mafkuralari qatorida milliy mafkuralar ham muhim o'rinni egallaydi. Bizning milliy mafkuramiz kelib chiqishi va mazmun-mohiyatiga ko'ra boshqa mafkuralardan farq nimada ekanligini tushuntirishga urinib ko'ring.
2. Siyosiy mafkuraning amal qilish darajalari bir xil emasligini inobatga olib, uning nazariy-konseptual, dasturiy-direktivalik va xulq-atvorlik darajalari haqida tahliliy fikringizni bayon eting.
3. Bugun dunyoda ko'plab mafkuraviy oqimlar tarqalgan. Ushbu zamonaviy yirik mafkuraviy oqimlarni, jumladan, liberalizm, neoliberalizm, konservatizm, neokonservatizm, sotsial-demokratiya, diniy mafkuralarning maqsad va vazifalari haqida qisqa ma'lumot tayyorlang.
4. Mamlakatimizda milliy mafkurani rivojlantirish va takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamdagi chora-tadbirlarga doir referat tayyorldang.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Хошимов Т.Р., Рафиков Ф.А., Тураев А. Сиёсатшунослик асослари. Укув кулланма. Термиз. 1997, 38, 113-115-бетлар.
2. Рамазонов М., Муминов Э. Политология. Дарслик. Тошкент: «Адолат», 1997, 40-57-бетлар.
3. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов И., кодиров А. Политология. Тошкент: Узбекистон, 1999, 41-50-бетлар.
4. Политология курси буйича маърузалар матни. 1-кисм. Тошкент: М. Улугбек ном. УзМУ, 2000, 15-27-бетлар.
5. Политология. Маърузалар матни. Т.: УАКЕНТ, 2000, 41-150-бетлар.
6. Машарипов О., Хошимов Т.Р., Рафиков Ф.А. Политология. Тошкент: ТошДИУ, 2000, 24-30-бетлар.
7. Девитин Л. Узбекистон тарихий бурилиш палласида. Тошкент: Узбекистон, 2001, 166-265-бетлар.
8. Politologiya. O'quv qo'llanma. T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. "O'ZJBNT" markazi. 2002.
9. Dubkov V.V. Politologiya («Osnovi politicheskix znaniy») Uchebnik. T.: "Mehnat", 2004, 126-146-betlar.
10. Pyanix Ye.P. Politologiya. Konspekt dlya studentov vsex spetsialnostey zaohnogo otdeleniya v dvux chastyax. Chast 1. Yekaterinburg 2004, 26-29-betlar.
11. Pugachev V.P, Solovev A.I. Politologiyaga kirish. Tarjima. T.: "Yangi asr avlodi", 2004, 306-
12. Siyosatshunoslik asoslari. Ma'ruzalar matni. JIDU, 2005.
13. G'afurov S.M, Haydarov A.A, To'laganova N.O'. Siyosatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005.
14. Nishanov M.N, Djavakova K.V. Politologiya. Uchebnoe posobie. T.: "Yangi asr avlodi", 2005, 224-237-betlar.
15. Politologiya. O'quv qo'llanma TDYuI, 2006, 196-210-betlar.
16. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: "Sharq", 2006.
17. Musaeov F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. T.: O'zbekiston, 2007, 247-259-betlar.

5-mavzu. Xalqaro zamonaviy jarayonlarning qoyosiy tahlili

Dars maqsadi:

- Siyosiy jarayon tushunchasi haqida ma'lumot berish;
- Siyosiy jarayon siyosiy tizimning bir sifat darajasidan ikkinchisiga yoki bir turdan ikkinchisiga o'tish jarayonini tahlil etish;
- Siyosiy jarayonlar rivojlanishi, o'zgarishi va mutaxassislanishi sifatida;
 - mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishda ko'maklashish;
 - Yoshlar o'rtasida sog'lom ma'naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

- Siyosiy jarayon, siyosiy tasavvurlar, siyosiy ko'rsatmalar, siyosiy qadriyatlar, siyosiy harakat, Taraqqiyot nazariyalari, zamonaviylashuv nazariyalari, Tobelik nazariyalari. Siyosiy taraqqiyot va siyosiy tartibotlarning o'zgarishi

Asosiy savollar :

1. Siyosiy jarayonlar tushunchasi va uning mohiyati.
2. Xalqaro siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Siyosiy jarayonlarning strukturasi.
4. Xalqaro siyosiy faoliyat va siyosiy jarayonlar.
5. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida siyosiy jarayonlar.

1. Siyosiy jarayonlar tushunchasi va uning mohiyati.

Insoniyat XXI asrga xususan fan, texnologiya va axborot sohalaridagi ulkan yutuqlari bilan kirib keldi. Binobarin, yangi asr ostonasidan butun dunyoda siyosiy jarayonlar yanada jo'shqinlandi, o'ziga xos ahamiyat kasb eta boshladi.

Xo'sh, siyosiy jarayonlarning o'zi nima?

Siyosiy jarayonlar o'n yoki yuz yillar oldin paydo bo'lgan tushuncha emas. Uning tarixiy ildizlari davlatchilikning, qolaversa, ilk jamiyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Zotan, har bir jamiyatni xarakterlaydigan asosiy xususiyatlardan biri siyosiy jarayonlarning mavjudligidir.

Siyosiy jarayonlar kishilik jamiyati rivojlanishining barcha davrlarida mavjud bo'lgan, ammo uning faollik darajasi turli davrlarda turlicha namoyon bo'lib, o'ziga xos xarakter kasb etgan.

Jamiyatda turli ijtimoiy va siyosiy hodisalar, murakkab siyosiy voqealar ro'y berib turadi. Ammo ularning mohiyati, maqsadlari, shuningdek, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni anglab olish ancha mushkul. Siyosiy jarayonlarning bugungi kunda dolzarbligi ham aynan ana shunda namoyon bo'lmoqda.

Siyosiy jarayonlarga ko'p sonli kishilarning tortilishi, siyosiy arboblarning faoliyati, siyosatning yanada ko'proq darajada omma nazorati ostiga o'tishiga olib kelmoqda.

Bularning hammasi qo'shib, shaxsning siyosiy maqomi, uning huquq va erkinliklari muammosini o'ta keskinlashtirdi. Binobarin, siyosiy jarayonlarning mohiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Siyosiy jarayonlar va uning xususiyatlari, ta'riflari to'g'risida turli xil fikr-mulohazalar mavjud:

Siyosiy jarayonlar – jamiyat siyosiy hayotining barcha sohalarida ro'y beradigan voqea-hodisalar va o'zgarishlar birligidan iborat. Davlatlarning ichki hayoti va xalqaro siyosiy munosabatlari bilan bog'liq voqea-hodisalar ham siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Siyosiy jarayonlarning yana bir boshqa ta'rifini quyidagicha ifodalani:

Siyosiy jarayonlar deb jamiyatning siyosiy hayotida turli xildagi voqea-hodisalarning ro'y berib turishi, ularning ob'ektiv qonuniyatlar harakati asosida davom etishi va shu asosda jamiyatning siyosiy jihatdan rivojlanib borishiga aytiladi.

Xullas, siyosiy jarayonlarning turli davr olimlari tomonidan berilgan turfa ta'riflari mavjud. Ammo uning mohiyati yagona, ya'ni siyosiy jarayonlar bu – jamiyat va siyosat yoki shaxs va siyosat munosabatidir.

Keng ma'noda esa siyosiy jarayonlar— jamiyatning siyosiy faoliyatidir.

Jamiyatning siyosiy hayotida sodir bo'ladigan barcha harakatlar oqimi yaxlit jarayondir.

Umuman, «jarayon» so'zining tub mohiyatiga e'tibor bersak, «jarayon» so'zi lotincha «processus», ya'ni «davom etish» ma'nosini bildiradi. Demak, siyosiy jarayon hech qachon turg'un holatda bo'lmaydi, u har doim harakatda bo'ladi. Xuddi shuningdek, «jarayon» so'zi nafaqat siyosiy sohada, qolaversa, ijtimoiy fanlarning barcha sohalarida keng qo'llaniladi, jumladan, tarix, falsafa, psixologiya, huquqshunoslik va boshqalar.

Siyosiy jarayonlar siyosiy munosabatlar ishtirokchilari va institutlarning faoliyatini amalga oshirish hamda siyosatdagi sub'ektlarning o'zaro munosabatlarini ta'minlash mexanizmlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Siyosiy jarayonlarning faolligi qay darajada bo'lmasin, uni nazorat qilish yoki to'xtatib qolish mumkin emas. U ob'ektiv jarayon bo'lib, kishilar yoki guruhlarining xohish-istagiga bo'ysunmaydi. Shu sababdan ham, siyosiy jarayonlarning borishini istagan vaqtda, istagan tomonga burib yuborish mumkin emas. Siyosiy jarayonlardan faqat bir guruh yoki biror shaxs ham o'z manfaatlari yo'lida foydalana olmaydi. Siyosiy shaxs va siyosiy guruhlar hamda tashkilotlar siyosiy jarayonlarga ta'sir qilishi mumkin, holos. Bu jarayonlar o'zining ob'ektiv qonuniyatlari asosida davom etadi.

Siyosiy jarayonlar «siyosiy munosabatlar», «siyosiy institutlar» kabi tushunchalarga nisbatan mazmunan ancha keng ma'noni anglatadi. Agar "**siyosiy munosabatlar**" tushunchasi turli sub'ektlar o'rtasidagi munosabatni ifodalasa, siyosiy jarayonlar esa ham sub'ektlar, ham ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni va ularning har birida ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiradi.

Shuningdek, siyosiy munosabatlar va siyosiy jarayonlarni siyosiy institutlarning ta'sirisiz, ularning faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. **Siyosiy institutlar** nisbatan mustahkam, o'zgarmas, barqaror xususiyatga ega bo'lib, siyosiy tizimga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan siyosiy jarayonlarning yana bir ta'rifini vujudga keladi:

Siyosiy jarayonlar – siyosiy voqealarning taraqqiyoti, siyosiy sub'ektlarning jamiyat siyosiy tizimini shakllantirish va amalga oshirish maqsadida olib borgan siyosiy harakatlari mexanizmidir.

Shu o'rinda, siyosiy jarayonlarning ta'rifini to'g'risida gapirganda, yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, hozirgi siyosiy jarayonlarning mohiyatiga mos xulosaviy ta'rifni yaratish ehtiyoji paydo bo'ladi:

Siyosiy jarayonlar jamiyatning barcha sohalarida ro'y berayotgan siyosiy va ijtimoiy voqea-hodisalarning yaxlit tizimidir. Siyosiy ong, siyosiy xabardorlik, siyosiy faoliyat va ichki hamda tashqi siyosat bilan bog'liq barcha harakatlar siyosiy jarayonlarning siyosiy tizim sifatida rivojlanishida asosiy omil vazifasini o'taydi.

Siyosiy jarayonlar siyosiy ong, siyosiy faollik va demokratik tamoyillarning qay darajada rivojlanganligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Siyosiy institutlarga davlat yoki uning organlari – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, lobbizm va siyosiy rahbarlik institutlari kiradi. Jamiyatda siyosiy faoliyat, siyosiy harakatlar ham siyosiy institutlar ta'sirida amalga oshiriladi. Siyosiy ongning shakllanishi ham xuddi mana shu siyosiy institutlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, jamiyatda

siyosiy ongning yuqori darajada shakllanishi siyosiy jarayonlar dinamikasini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

2. Siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.

Ma'lumki, siyosiy jarayonlar davlatning ichki hayotida va xalqaro miqyosda hamda umuman jamiyatda ro'y beradigan barcha o'zgarishlarni aks ettiradi. Bu o'zgarishlar o'zining mohiyati, mazmuni va xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan farq qilganligi uchun ham ularning sifat va miqdor mezonlarini bir xil o'lchov bilan izohlash mumkin emas.

Hozirgi dunyodagi *siyosiy rejim* va davlatlardagi siyosiy manzaraning xilma-xilligi tufayli har bir davlatdagi siyosiy jarayonlar o'zining xususiyatlariga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi.

Har bir davlatda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy kuchlarning har xilligi ham siyosiy jarayonlarning xilma-xilligiga ta'sir ko'rsatadi. Hatto biror-bir mamlakatda siyosiy hokimiyatning almashishi va, pirovardida, shu mamlakat ijtimoiy hayotidagi tartiblarning o'zgarishi ham siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Chunki yangi hokimiyat mamlakatning siyosiy yo'lini o'zgartirishga, mavjud muammolarni yangicha usullar yordamida hal etishga harakat qiladi.

Ammo siyosiy jarayonlarning keskin farq qiluvchi tomonlari bilan birga ularning umumiy, o'xshash tomonlari ham mavjud. Hozirda, ayniqsa, butun jahon hamjamiyatini o'z domiga tortayotgan globallasuv jarayoni davrida ham siyosiy jarayonlar ayrim xususiyatlarining umumlashishi tabiiy hodisadir.

Masalan, butun dunyo mamlakatlarida demokratlashtirish, ko'ppartiyaviylik tizimini yaratish, inson huquqlarini ta'minlash, uni himoya qilishga doir jadal harakatlar siyosiy jarayonlarning umumiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Albatta, globallasuv jarayonida nafaqat siyosiy sohalarda, balki boshqa sohalarda ham umumiy mexanizmlar vujudga kelishi muqarrar.

1-jadval. Siyosiy jarayon tarkibi

Siyosiy munosabatlar. Sub'ektlarning hokimiyat doirasidagi siyosiy manfaatlarini boshqarish va muvofiqlashtirish borasidagi aloqalar. Siyosiy munosabatlarning amalga oshishi natijasida siyosiy jarayonning yangilanishi, siyosiy g'oyalar, bilimlar, tajriba, qadriyatlar, axborot va h.k., shuningdek, siyosiy faoliyat shakllari va usullarining to'planishi va uzatilishi ro'y beradi.	Siyosiy jarayon sub'ektlari. Siyosiy jarayon ishtirokchilari. Ularga shaxslar, qatlamlar, etnoslar, konfessional va demografik guruhlar (ijtimoiy) va siyosiy institutlar kiradi. Ikkita muhim jihatni birlashtiradi: Onglilik; faollik.	Siyosiy xulq-atvor. Shaxs ijtimoiy guruhlarining siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda, o'z siyosiy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish shakli. Siyosiy ishtirok. Siyosat sub'ektlarining siyosiy munosabatlarga jalb qilinganligi.
---	--	--

Manba: Otamurodov S., Ergashev I., Akromov Sh., Qodirov A. Politologiya. T., 1999.

Siyosiy jarayonlar qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ularning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- har qanday davlatda ham siyosiy jarayonlarning bosh manbai va lider kuchi xalq ommasining ongli faoliyatidir;
- agar kishilar jamiyatning siyosiy hayotida faol ishtirok etmasalar, siyosiy jarayonlarning kechishi sustlashadi va bunday sharoitda har qanday siyosiy institutlarning faol harakati ham o'zining samarali natijasini bermaydi.

Siyosiy jarayonlarning yana bir xususiyati shundaki, u «siyosiy faollik» tushunchasi bilan ham uzviy bog‘liq, ya’ni kishilarning ongli siyosiy faoliyati siyosiy jarayonlarning borishini belgilar ekan, unda jamiyatning har bir a’zosining davlatda amalga oshirilayotgan siyosiy ishlarda faollik bilan ishtirok etishi taqozo etiladi. Binobarin, jamiyatdagi siyosiy faollik insonlarning erkinliklari, demokratik tamoyillarning ta’minlanishi bilan uzviy bog‘liq. Jamiyatda fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy huquqlari ta’minlansa, demokratik tamoyillarga amal qilinsa, siyosiy jarayonlar ham, siyosiy faollik ham yuqori darajada bo‘ladi. Yoki aksincha, totalitar yoki demokratik tamoyillar ta’qib qilingan davlatlarda, siyosiy jarayonlar ancha sust darajada namoyon bo‘ladi.

Siyosiy jarayonlarning borishini, uning darajasini belgilab beradigan lider kuchli siyosatning xilma-xil sub’ektlaridir.

Siyosat sub’ektlari dunyoning barcha mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlarga bo‘lgan katta ta’siri bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosat sub’ektlari, bir tomondan, siyosiy jarayonlarning ifodasi sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular jamiyatning siyosiy rivojlanishiga ta’sir etadi, siyosiy jarayonlarni ta’minlab turuvchi kuch sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Siyosiy jarayonlarda siyosat sub’ektlarining faoliyat ko‘rsatishi har bir mamlakatning siyosiy rejimi, uning tarixiy va milliy sharoitlariga ko‘ra, turli darajada bo‘ladi. Masalan, dunyoning ayrim mamlakatlarida siyosiy partiyalar va harakatlarning jamiyat siyosiy hayotidagi mavqei kuchli bo‘lsa, ba’zilarida esa siyosiy partiya va harakatlarning ishtiroki ancha sust bo‘ladi. Lekin shunga qaramay, siyosiy jarayonlarning davlat tashkiloti hamma mamlakatlarda ham lider kuch sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Siyosatning boshqa biron-bir sub’ekti davlat tashkiloti singari imkoniyatlarga ega emas. Shuning uchun ham, siyosiy jarayonlarning borishida, ularda ro‘y beradigan siyosiy muammolarni hal qilishda davlat asosiy kuch sifatida faoliyat ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy tamoyillaridan biri, ya’ni davlatning bosh islohotchi ekanligining mohiyati ham mana shunda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu tamoyillar nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, qolaversa, siyosiy sohalarida ham aholining kuchli himoyalanganligi bilan ajralib turadi.

3. Siyosiy jarayonlarning strukturasi.

Siyosiy jarayonlarning yana bir xususiyati shundaki, ularni yaxlit bir tizim holida o‘rganib bo‘lmaydi. Binobarin, siyosiy jarayonlar o‘z xarakteriga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Umumiy siyosiy jarayonlar;
2. Xususiy siyosiy jarayonlar.

Siyosiy jarayonlarning bu ikki guruhi nafaqat o‘zining ta’sir doirasi va unda qatnashuvchilar ko‘lami bilan, balki shakllanish mohiyati, maqsad va vazifalari hamda natijalari bilan farqlanadi. Ammo, shu bilan birga, siyosiy jarayonlarning bu ikki guruhi o‘rtasida ularni bog‘lab turuvchi jihatlar ham mavjud. Masalan, xususiy siyosiy jarayonlar umumiy siyosiy jarayonlarning mohiyati, shakli va amalga oshirilishiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

Umumiy siyosiy jarayonlar butun jamiyatni qamrab oladi va jamiyatda mavjud siyosiy tizimning o‘zgarishiga olib keladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, umumiy siyosiy jarayonlar xususiy siyosiy jarayonlarning yig‘indisi emas.

U xususiy siyosiy jarayonlardan nafaqat ta’sir doirasi va ko‘lami bilan, balki jarayonlar o‘z mazmun-mohiyati va shakliga ko‘ra ham farq qiladi.

Umumiy siyosiy jarayonlar quyidagi uch shaklda amalga oshiriladi:

- evolyusion (tadrijiy);
- revolyusion (inqilobiy);
- krizis (inqiroz).

Evolyusiya – siyosiy jarayonlarni asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat bo‘lib, siyosiy jarayonlarning eng asosiy va nisbatan keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Evolyusion o‘zgarishlar ma’lum davr sharoitida jamiyatda siyosiy jarayonlarning amalga oshirilishida siyosat sub’ektlari va fuqarolar o‘rtasida keskin farqlarni vujudga keltirmaydi.

Siyosiy tizimning miqdor va sifat o‘zgarishida evolyusion jarayonlar eng ma’qul yo‘lni tanlashda va barqaror rivojlanishni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Siyosiy jarayonlarning evolyusion davrida aholi barcha qatlamlarining manfaatlari hisobga olinadi. Evolyusion davrda mavjud muammolarni imkon darajada hal etish ustuvor va maqbul usul hisoblanadi. Siyosiy jarayonlarning evolyusion davriga xos bo‘lgan yana bir asosiy jihati shundaki, ushbu davrda mavjud muammolarni yechishda kuch ishlatish inkor etiladi.

Siyosiy jarayonlarning bosqichma-bosqich shaklda rivojlanishi davlatni boshqaruvchi elita va elektorat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, o‘z-o‘zini boshqarish organlari o‘rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar keltirib chiqarmaydi.

Siyosiy jarayonlarning **revolyusiya** shaklida rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan va keskin o‘zgartiradi va u davlat to‘ntarilishi sodir bo‘lishi bilan bog‘liq.

Siyosiy inqilobda kuch ishlatish, qurol yo‘li bilan davlat hokimiyatini o‘zgartirish kabi keskin xatti-harakatlar amalga oshiriladi. Natijada, mavjud barcha siyosiy organlar faoliyati to‘xtatiladi. Unda million-million qurbonlar, katta (har sohadagi: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy) yo‘qotishlar ham sodir bo‘lishi mumkin.

Tarixiy tajribadan ma’lumki, inqilobiy shaklda rivojlangan siyosiy jarayonlarda, ko‘pincha erishilgan yutuqlardan ko‘ra jamiyatning zarar ko‘rgan holatlari va yo‘qotishlar ko‘proq uchrab turadi.

Va nihoyat, umumiy siyosiy jarayonning uchinchi shakli **siyosiy inqiroz** bo‘lib, uning asosiy ko‘rsatkichi – qarama-qarshilik, kelishmovchilik, to‘qnashuv va ziddiyatlar natijasida hokimiyat stukturasi nazorat qilishning yo‘qolishidir. Siyosiy jarayonning bunday sharoitida siyosiy institutlar o‘rtasida mutanosiblik buziladi, natijada, aholining amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlardan noroziligi kuchayadi.

Xuddi shu o‘rinda islohotlarning inqiroz shaklida rivojlanishi hozirgi paytda muhim bo‘lgan xavfsizlik masalasini keskinlashtiradi. Ammo siyosiy jarayonlarning inqilobiy va inqiroz holatlarining vujudga kelishiga aniq sabablar va omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Inqirozning negizi iqtisodiy va ijtimoiy sohada namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham, islohotlarni amalga oshirish chog‘ida barcha sohalarni e’tiborga olish taqozo etiladi. Albatta, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi o‘zgarishlar siyosiy jarayonlarga yoki ijobiy, yoki salbiy ta’sir etishi mumkin.

Xususiy siyosiy jarayonlarning tarkibiy elementlari quyidagilardir: sabab va uning paydo bo‘lishi, ob’ekt va sub’ekt hamda maqsad.

Xususiy siyosiy jarayonlar jamiyatda muammo va qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi va ularning o‘z yechimlarini talab qilishlari natijasida paydo bo‘ladi.

Masalan, biron-bir davlatning soliq tizimidagi norozilik qonunchilik faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunday muammolar kichik bir guruh yoki keng jamoatchilikning fikrini, manfaatlarini ifoda etishi mumkin.

Xususiy siyosiy jarayonlarning ob’ektlari deganda siyosiy jarayonlarni rivojlantiradigan muammolar nazarda tutiladi. Ular turli sohadagi muammolar bo‘lishi mumkin:

- biror-bir siyosiy (maqsadlarning) manfaatlarining paydo bo‘lishi va ularni amalga oshirishning zarurligi;
- yangi siyosiy institutlar, partiyalar, tashkilotlar, harakatlar, bloklar tashkil etish;
- hokimiyat tarkibini qayta tashkil etish, hokimiyat tizimidagi siyosiy o‘zgarishlar, Vazirlar Mahkamasi tarkibining qayta tuzilishi;
- mavjud siyosiy hokimiyatni qo‘llab-quvvatlash, qayta tashkil etish va boshqalar.

Yuqoridagi muammolarning mohiyatini tushunish uchun siyosiy jarayonlarda qatnashadigan sub'ektlarning maqsad va vazifalarini bilish lozim. Aytish joizki, xususiy siyosiy jarayonlar faqatgina siyosiy sohaga tegishli emas. U jamiyatning har qanday: iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy sohalarida ham paydo bo'lishi va rivojlanishi mumkin (masalan, iqtisodiy yoki ijtimoiy muammoning siyosiy muammoga aylanib ketishi).

Xususiy siyosiy jarayonlarning maqsadlari. Ushbu element siyosiy jarayonlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki siyosiy jarayonlarning maqsadlari uning nimaga yo'naltirilganligi, uni keltirib chiqargan sabablar va siyosiy harakatning mohiyatini anglatadi. Siyosiy jarayonlarning aniq maqsadlarini bilish va to'g'ri tushunish ushbu harakatlarga to'g'ri baho berish imkonini ham yaratadi. Siyosiy jarayonlarning maqsadlari bir guruh yoki butun jamoatchilik maqsadlari yig'indisidan iborat bo'lishi mumkin.

Xususiy siyosiy jarayonlarning yana bir xususiyatlaridan biri— jarayon qatnashchilarining tarkibiy miqdori turli xil bo'lishidadir. Masalan, xususiy siyosiy jarayonlar turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, tashkilotlar va hatto davlat ishtirokida ham bo'lishi mumkin. Siyosiy jarayonlarda butun bir siyosiy partiya yoki alohida biror bir shaxs ham ishtirok etishi mumkin.

Son jihatdan xususiy jarayonlarning ishtirokchilari butun bir davlatni ham qamrab olishi mumkin. Bu siyosiy jarayonlarning yuqorida ko'rib o'tilgan tarkibiy elementlariga bog'liq. Masalan, siyosiy jarayonlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadi butun jamiyat yoki ko'pchilik manfaatlarini ifoda etsa, bunday hollarda siyosiy jarayonlarning keng tarqalishi— butun davlatni qamrab olishi mumkin.

Xususiy siyosiy jarayonlarning tipologiyasi ham mavjud:

1. Xususiy siyosiy jarayonlarni o'z ko'lamiga ko'ra ikkiga— asosiy (bazaviy) va lokal (mahalliy) siyosiy jarayonlarga bo'lish mumkin.

Asosiy siyosiy jarayonlarda aholining faolligini, ya'ni harakatlarda aholining turli qatlamlarining ishtiroki taqozo etiladi. Bunday keng miqyosli siyosiy jarayonlarga misol tariqasida davlat hokimiyatining siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarida qarorlar qabul qilish va unda ommaning faol ishtirok etishini keltirish mumkin.

Lokal (mahalliy) siyosiy jarayonlar nisbatan tor doirada bo'lib, o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish, shakllantirish va siyosiy partiyalar hamda harakatlarning rivojlantirilishi bilan bog'liq.

2. Siyosiy jarayonlarni jamiyat bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin. Ushbu xarakterga (xususiyatlarga) binoan xususiy siyosiy jarayonlar ikkiga bo'linadi:

- 1) Barqaror siyosiy jarayonlar;
- 2) Beqaror siyosiy jarayonlar.

Hozirda siyosatshunoslar tomonidan xususiy siyosiy jarayonlarning barqaror turi ancha mukammal o'rganilgan. Ular mustahkam siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy, yuqori darajadagi huquqiy me'yorlar, siyosiy madaniyat bilan bog'liq. **Barqaror siyosiy jarayonlar** qonuniy hokimiyat va jamiyatda mojarolarning keskinlashmagan davrida ro'y beradi.

Beqaror siyosiy jarayonlar esa siyosiy tizimdagi yoki siyosiy hokimiyatdagi inqirozli vaziyatlarda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Mavjud siyosiy hokimiyat keskin vaziyatni hal eta olmagan taqdirda siyosiy jarayonlarda barqarorlikning buzilishi holati vujudga keladi. Bunday vaziyatda mavjud siyosiy hokimiyatga qarshi muxolifatning shakllanishini ham kuzatish mumkin.

Siyosiy jarayon hokimiyatni harakatda o'rganadi. Shu tufayli, siyosiy jarayon mavjudligining 3 tarkibi ajratiladi: turg'unlik, rivojlanish, inqiroz tartiblari.

1) **Turg'unlik tartibida** shakllanib bo'lgan siyosiy munosabatlar odatdagi chegaralarda tutib turiladi. Bu tartibda siyosat sub'ektlari faoliyatida konservatizm va an'analarga sodiqlik yetakchi bo'ladi.

2) **Rivojlanish tartibida** jamiyat ichidagi va xalqaro munosabatlardagi o'zgarishlarga muvofiq ravishda siyosiy tizimning boshqaruv va amal qilish uslublari o'zgarib boshlaydi.

3) **Inqiroz tartibi** – siyosiy yaxlitlikning yo'qolishi, markazdan qochma kuchlarning ortib borishi, hokimiyat qabul qilayotgan qarorlarning bajarilmasligi, siyosiy hokimiyat legitimligi yo'qolib borishini anglatadi.

Siyosiy jarayon turlari. Siyosiy jarayonlarni turkumlashning bir qancha usullari mavjud:

1. **Madaniyat turi.** Demokratik jamiyatlar uchun madaniyatni o'zlashtirish qiyinchiliklari mavjud.

2. **Siyosiy jarayonning ustuvor turi:** a) konsensusli (kelishuvli) turi; b) konsensusli, ammo unda muammolarni hal etish turi; v) davlat muammolarini bayon etish va ijtimoiy guruh turi; g) muammolarni qo'yishda passiv, lekin dolzarb masalalarni yechishda faol, shuning uchun manfaatli guruhlar qarshiligini yechishga asoslangan turi.

3. **O'tish davrini** boshidan kechirayotgan jamiyatlarda siyosiy tizim muvozanatini ta'minlash uslublariga ko'ra 3 turga bo'linadi: a) texnokratik turi (qonunchilik va siyosiy an'analar doirasida); b) ideokratik turi (an'anaviy jihatlarga xos, umummilliy g'oya asosida birlashtirish); v) xarizmatik turi (Sharq madaniyatida siyosiy yetakchi rolga yuqori baho beriladi).

Umuman, siyosiy jarayonlarning ko'rsatib o'tilgan bu turlari sof holda uchramaydi, ular bir-birini to'ldirib keladi.

Siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayoni. Siyosiy qaror — hokimiyat amal qilishi bilan bog'liq vazifalar, bosqichlar, vositalarni belgilovchi jarayon. Siyosiy hokimiyatning xususiyati shundaki, unda siyosiy talab aniq ifodalanmagan bo'lsa va shu talabni ifodalayotgan sub'ektlarning doimiy tazyiqi sezilmasa, tizim bunday talab va ehtiyojlar jamiyat hayoti uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lsa ham javob bermaydi. Shuning uchun turli darajadagi siyosiy jarayonlar ishtirokchilarining bosh vazifasi — o'z manfaatlari va talablarini davlat hokimiyati institutlari amalga oshirayotgan boshqaruvga doir qarorlarga kiritishdan iborat. Siyosiy qarorlar siyosiy hokimiyatni ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga aylantirish texnologiyasidir. Siyosiy qarorlarni qabul qilish 3 bosqichdan iborat:

1. **Tayyorgarlik bosqichi** (xalq ommasi faol ishtirok etadi).
2. **Qarorlarni qabul qilish bosqichi** (davlat, uning organlari, partiya).
3. **Qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bosqichi.**

Ikkinchi bosqichdagi siyosiy qarorlarni qabul qilishning bir necha usullari mavjud:

Kompromiss – uzaro yonbosishlar natijasida erishilgan bitim.

Konsensus (kelishuv) – qaror ovoz berish yo'li bilan emas, kelishuv yo'li orqali qabul qilinadi.

Ustunlik — siyosatda biror siyosiy kuch yoki davlatning boshqa siyosiy kuch yoki davlatlarga nisbatan kuchliroq boshqa mavqeni egallashi.

Uchinchi bosqichda hokimiyat qabul qilingan qarorlarni hayotga tatbiq etadi. Bu qarorlar siyosatning barcha sub'ektlarini qoniqtirmaydi, lekin ularning amal qila boshlashini ta'minlash zarur.

Siyosiy ishtirok jamiyat a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligini bildiradi.

Siyosiy ishtirokning quyidagi asosiy turlarini sanab o'tish mumkin:

- 1) to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va bilvosita siyosiy ishtirok;
- 2) umumiy va cheklangan siyosiy ishtirok;
- 3) ixtiyoriy va majburiy siyosiy ishtirok;
- 4) an'anaviy, faol va passiv siyosiy ishtirok;
- 5) legitim va nolegitim siyosiy ishtirok;

6) qonuniy va noqonuniy siyosiy ishtirok¹.

Siyosiy ishtirok shakllari ham turlicha. Ularga axborot qabul qilish va uzatish; siyosat va davlat arboblari hamda tashkilotlari bilan muloqot; saylov va boshqa siyosiy kampaniyalarda ishtirok etish; namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlarida, ozodlik urushlari va inqiloblarda; boshqaruv va o'z-o'zini boshqaruvda; qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda; siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlar faoliyatida ishtirok etish kiradi.

Siyosiy ishtirok quyidagi vazifalarni bajaradi:

- turli manfaatlar, talablar, umidlarni ifodalash, muvofiqlashtirish, amalga oshirish;
- siyosatchilar va boshqaruv apparati xodimlarini tanlash. Ular faoliyatini nazorat etish;
- Boshqaruvga doir qarorlar va siyosat yo'nalishini belgilashga aholini jalb etish;
- siyosiy ijtimoiylashuv;
- ixtiloflarning oldini olish va bartaraf etish;
- byurokratiya bilan kurashish, fuqarolarning siyosat va boshqaruvdan begonalashuviga qarshi kurash.

Siyosatni amalga oshirish uchun uning barcha darajalarida zarur narsalar quyidagilar:

1. Shaxslar — siyosiy faoliyat sub'ektlari.

2. Mexanizmlar — an'analar, urf-odatlar, qoidalar, qonunlar siyosiy faoliyat sub'ektlariga ta'sir etish uslublari.

3. Institutlar — siyosiy faoliyat sub'ektlarining siyosiy faoliyat mexanizmlari bilan aloqadorlikda amalga oshuvchi tadbirlarni qo'llab-quvvatlovchi, turtki beruvchi, nazorat qiluvchi va tekshiruvchi tashkilotlar.

Shunday qilib, siyosiy jarayonlar jamiyatning siyosiy hayotida turli xildagi voqea-hodisalarning ro'y berib turishi, ularning ob'ektiv qonuniyatlar harakati asosida davom etishi va shu asosda jamiyatning siyosiy jihatdan rivojlanib borishini anglatadi.

4. Siyosiy faoliyat va siyosiy jarayonlar.

Siyosiy jarayonlarning asosi va uni harakatga keltiruvchi omil – siyosiy faoliyatda qatnashuvchi insonlar yoki ularga ta'sir qiluvchi siyosiy guruhlar va tashkilotlardir.

Siyosiy faoliyat keng tushuncha bo'lib, u biror bir partiya faoliyati yoki siyosiy rahbarning nutqi yoki siyosat sub'ektlarining siyosiy jarayonlarda yoki boshqaruvda qatnashishi bilan izohlanadi. Siyosat sub'ektlarining siyosiy faoliyati uch turga bo'linadi:

- 1) Davlat boshqaruvi;
- 2) Siyosiy rahbarlik va boshqaruv;
- 3) Oddiy fuqarolarning siyosiy harakatlardagi ishtiroki.

Yuqoridagi kategoriyalar, ya'ni davlat boshqaruvi, siyosiy rahbarlik va boshqaruv, oddiy fuqarolarning siyosiy ishtiroki asosan siyosiy faollik mavzusiga tegishli bo'lganligi va uning umumiy holda siyosiy jarayonlarga bog'liqligini bilish bilan kifoyalanish mumkin.

Siyosiy jarayonlar dinamikasi. Umuman olganda, siyosiy jarayonlar jamiyatda siyosiy tizimni shakllantirish, amalga oshirish va o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Siyosiy jarayonlar jamiyatdagi turli xil ijtimoiy guruhlar (siyosatning mikro va makroaktyorlari)ning o'z manfaatlarini amalga oshirishga bo'lgan harakatlari natijasida rivojlanadi. Jamiyatdagi juda ko'p omillarga bog'liq ravishda siyosiy jarayonlar rivojlanib boradi.

¹ Qonuniy va noqonuniy siyosiy ishtirok ilmiy adabiyotlarda konvensional va nokonvensional siyosiy ishtirok deb ham yuritiladi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida siyosiy jarayonlar yanada jadallashdi, rivojlandi. Buning asosiy sabablaridan biri ommaviy axborot tizimlarining rivojlanishi va axborot texnologiyalarining taraqqiyotidir.

Siyosiy jarayonlarda *shaxsning o'rnini va roli* juda muhim. Ijtimoiy taraqqiyotning keskin rivojlanishi shaxsning siyosat maydonidagi o'rnini va roli hamda uning ahamiyatining oshishiga olib keldi. Odam nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudotdir. Shuning uchun ham, har bir siyosiy faoliyat shaxsning turmush darajasi, ongi, uning ijtimoiy va siyosiy faoliyatlariga ta'sir qilmoqda. Siyosatga afkor omma yanada kengroq tortilmoqda, ular faoliyatining jadallashuvi yuz bermoqda. Bu jarayon aholining barcha tabaqalarini, hatto ilgari siyosiy manfaatlari bo'lmagan tabaqalarni ham o'ziga tortmoqda.

Siyosiy jarayonlarga ko'p sonli kishilarning tortilishi siyosiy arboblarning faoliyati va siyosatning yanada ko'proq darajada omma nazorati ostiga o'tishiga olib kelmoqda.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. O'zbekiston demokratiyaning kaysi yullaridan bormokda?
2. Xokimiyat va siyosiy xokimiyat masalalariga tulik ta'rif bering?
3. Siyosiy jarayonlar tushunchasiga oid eng muxim yondashuvlarni bayon eting?
4. Siyosiy jarayonlarning tuzilishi va kurinishlaridagi sub'ekt, ob'ekt, resurslar kabi tushunchalariga tulik ta'rif berib uting?
5. Siyosiy jarayonlarning siyosiy, iktisodiy, sotsial, madaniy-axborot, mjburlovchi kabi xokimiyat shallarini siz kanday tushunasiz?
4. Xokimiyatning legitimlik turlarini keltiring.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar.

1. Siyosiy tizim sub'etlarini bayon eting.
 2. Siyosiy tizim kanday tarkibiy tuzilishlardan tashkil topgan?
 3. Siyosiy tizim tipologiyalarini izoxlab bering.
 4. Siyosiy tizimning asosiy vazifalari nimalardan iborat deb bilasiz?
 5. Siyosiy xokimiyatdagi 3 xil tashkilotlarni tulik bayon eting.
 6. Qanday tuzumga mustabid tuzum deyiladi?
 7. Xozirgi zamon siyosiy tuzumlarining asosiy guruxlarini keltiring?
1. Liberal siyosiy tuzum bilan totalitar siyosiy tuzumning uziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
 2. Vakillik va bevosita demokratiyaga ta'rif bering.
 3. Liberal, identitar, plyuralistik demokratiyaning zamonaviy modellarini sharxlab bering?

i. Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

4. Раифков Ф А. Хошимов Т Р, Тураев А. Сиёсатшунослик асослари. Термиз, 1997, 37-47-бетлар.
5. Рамазонов И, Муминов Р. Политология. Дарслик. Тошкент: «Адолат», 1997, 58-125-бетлар.
6. Отамуродов С, Эргашев И, Ақромов И, кодиров А. Политология. Тошкент: Ўзбекистон, 1999, 51-64-бетлар.
7. Политология курси буйича маърузалар матни. 1-кисм. Тошкент: М, Улугбек ном. УзМУ, 2000, 46-54-бетлар.
8. Политология. Маърузалар матни. Тошкент: УзАКБНТ, 2000, 51-62-бетлар.
9. Машарипов О, Хошимов Т Р, Рафиков Ф А. Политология. Тошкент: ТошДИУ, 2000, 30-37-бетлар.
10. Мамадалиев Ш. Сиёсий тизимимиз: реаллик ва такомил. Тафаккур. 1999, №3, 4-9-бетлар.

11. Жураев Н. Тарих фалсафаси. Т.: «Маънавият», 1999, 133-184-бетлар.
12. Миллий истиклол гоъси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: «Янги аср авлоди», 2001, 79-100-бетлар.

Mavzu – 3. Krossmilliy tahlil: Qiyoslashning asoslari va metodlari

Dars maqsadi:

- Milliy davlat qiyoslash ob'ekti sifatida ekanligini tadqiq etish;
- Davlat, xukumat, siyosiy tartibot haqida o'rganish;
- Qiyoslash o'lchovlari: mustaqil, oraliq va bog'langan o'zgaruvchilar tahlil etish;
- Tadqiqot yo'nalishi: umumiylikda o'ziga xos va o'ziga xoslikda umumiylikni izlashdan iborat.
- Bundan tashqari ushbu darsning maqsadi qiyoslashning asosiy mutodlari haqida batafsil ma'lumot berishni maqsad etadi.
- mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishda ko'maklashish;
- Yoshlar o'rtasida sog'lom ma'naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: siyosiy rejim, madaniy-sivilizasion determinizm, Demokratik, Liberal, despotik, mustabidlik, Tiraniya, Avtoritar, Totalitar, harbiy, Fashistik, Irqiy, Diniy siyosiy rejim.

Asosiy savollar:

1. Krossmilliy tahlil tushunchasi va uning asosiy ko'rinishlari
2. Qiyoslashning asoslari va metodlari

Siyosiy xokimiyat murakab ijtimoiy xodisa bulib, u davlat xokimiyati va boshka siyosiy tashkilotlardan tarkib topadi.

Davlat - ijtimoiy xodisa bulib, jamiyatning xarakatlanishida muxim rol uynovchi aloxida bir tashkilotdir. U xar kandayo jamiyat siyosiy tizimining bir kismi (elementi), xokimiyatni amalga oshiruvchi vositadir. Uning faoliyati jamiyatning xamma soxasiga ta'sir kiladi. U vakolatni xalkdan olami va uziga tegishli vakolatni uzining maxsus tuzilmalari - davlat organlari orkali amalga oshiradi. Davlat xalk manfaatini kuzlasa, unga ijtimoiy xayotda, davlat ishlarida, xujalik yuritishda erkinlik bersa, tinchlik siyosati yurgizsa, davlat demokratik xisoblanadi va tarakkiyotga sabab buladi. Aksincha, xalkning erkinligini cheklasa, tarakkiyotga tuskinlik kilsa, zurovonlik bilan ish olib borsa - reaksion davlat xisoblanadi. «Davlat» suzi kupincha «mamlakat» suzi urnida xam ishlatiladi. Masalan, ayrim xollarda «mamlakatimiz» degan suz urnida «davlatimiz» degan suzlarni uchratishimiz mumkin. Davlatning kursatmasi jamiyatning xamma a'zolari - fukarolar. Fukaroligi bulmagan shaxslar, chet fukarolari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari uchun majburiydir. Davlat konun yaratadi va uzi xam konunlarga buysunadi.²

Davlat jamiyat siyosiy tizimida markaziy urinni egallaydi. Negaki, u xokimiyatni uziga eng kup mujassamlashtirgan siyosiy tashkilot bulib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yechishning eng kup imkoniyatlariga xam egadir. Shu tufayli jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi boshka institut va tashkilotlar xam aynan davlat atrofida birlashadilar. «Davlat» keng ma'noli tushunchadir. Davlatning moxiyatini tushunishda 3 asosiy nazariy yondashuv mavjud: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy.

Davlat moxiyatini tushunishdagi 1-yondashuvga kura, davlat - umumiy muammolar va ishlarni xal etish vositasi, u xukmdorlar va xalkning uzaro munosabatini tartibga soladi. 2-

² Konstitutsiyaviy huquq. Izohli lug'at. T.: «Akademiya» 2001, 27-bet.

yondashuvning mohiyati shundaki, davlat sinflarning paydo bulishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshkasini bostirish kuroli bulib xizmat kiladi. 3-yondashuvning asosi: kuyidagicha: davlat jamiyatning va davlatning uzining xayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.² Albatta uchala yondashuvda xam muayyan asos bor. Yangilishuv bir nazariy karash boshkalaridan ustun kuyilib, mutlaklashtirganda boshlanadi. Demak.

Davlat - suverenitetga, boshkaruvning xamda fukarolar huquq va erkinliklarini ximoya kilishning maxsus apparatiga ega bulgan, shuningdek, huquq normalari (koidalari)ni yaratishga kodir bulgan ommaviy xokimiyatning siyosiy-xududiy tashkilotidir.

Davlat - butun mamlakat mikiyosidagi xokimiyatning maxsus boshkaruv va majburlov apparatiga ega bulgan, barcha uchun majburiy konunlar chikaradigan va suverenitetga ega bulgan yagona siyosiy tashkilotdir.

Davlat - jamiyat siyosiy tizimning odamlar, guruxlar, sinf, tashkilot, shamkorlikdagi faoliyatini va uzaro munosabatini tashkil etuvchi, yunaltiruvchi va nazorat kiluvchi asosiy institutdir.

Davlat - xokimiyatning bosh instituti. Xokimiyat davlat orkali uz siyosatini amalga oshiradi. «Xokimiyat», «davlat» va «siyosat» tushunchalari bir-biriga juda yakin bulib, bir-birlarini belgilab beradi.

Davlatning kelib chikishiga doir nazariyalar kuyidagilardan iborat:

1. Teologik nazariya («butun xokimiyat xudoniki» degan koidaga asos.)
2. Patriarxat nazariya (davlat kattalashib ketgan oiladan kelib chikan).
3. Shartnoma nazariyasi (XU11-XU111 asrlarda yoyilgan, davlat -ongli ijod maxsuli, odamlar kelishgan axd natijasi).
4. Zurlik nazariyasi (davlat zurlikdagi golibning xokimiyati).
5. Irrigatsiya nazariyasi (Sharkda ulkan irrigatsiya inshootlarini kurish va ulardan foydalanish bilan kelib chikkan).
6. Sinfiy nazariya K.Marks, F.Engels, V.I.Lenin -fikricha davlat iktisodiy sabablar, ijtimoiy mexnat taksimoti, kushimcha maxsulot va xususiy mulkning paydo bulishi, jamiyat karama-karshi sinflarga ajralish tufayli kelib chikkan).

Davlat tugrisidagi karashlarni eng kadimgi davrlardan uchratsak-da, uning xozirgi ma'noda tushunish, ya'ni jamiyatning siyosiy tashkiloti tarzida urganish N.Makiavellidan boshlangan.

Davlat xokimiyati - (davlat apparati) - bir-biri bilan uzaro boglik bulgan muayyan tuzilmaga birlashgan davlat xokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining tizimidir. Davlat xokimiyati - xalk xokimiyatining maxsus tuzilma - davlat orkali amalga oshirilishi. Davlat uzining organlari orkali siyosiy xokimiyatni amalga oshiradi. Xokimiyat davlat kulida tuplagandagina u malakali va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat uziga tegishli xokimiyat yordamida va ta'sir choralarini kullaydi. Davlat xokimiyati konuniydir, ya'ni davlatning, uning organlarining vakolatlari konun bilan belgilab kuyiladi. Davlat xokimiyati xayotning xamma soxalariga ta'sir kilib turuvchi, ijtimoiy jarayonlarnitartibga soluvchi yetakchi siyosiy kuch xisoblanadi. Siyosiy xokimiyatning boshka biron-bir shakli davlat xokimiyati singari keng imkoniyatga ega emas.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda davlat xokimiyatining 4 ta bulinish prinsipi mavjud. Uzbekiston Konstitutsiyasining xalk xokimiyatchiligiga bagishlangan 11-moddasida esa davlat xokimiyati 3 ta bulinish prinsipiga asoslanishi bayon etilgan. Ular 1) konun chikaruvchi (parlament), 2) ijro etuvchi (Vazirlar Maxkamasi) va 3) sud xokimiyati. 4) Ommaviy axborot vositalari turtinchi xokimiyatdir (Bu dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda). 2002 yil 4 aprelda Oliy Majlis 8-sessiyasida «Referendum, yakunlari xamda davlat xokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari tugrisida»gi Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy konuni kabul kilindi.

1. Konun chikaruvchi xokimiyat jamiyat xayotining xilma-xil soxalaridagi uzgarishlarni, uzaro munosabatlarni tartibga solish, ularni huquqiy jixatdan kafolatlashga doir konunlarni ishlab chikadi. Davlat xokimiyati tomonidan ishlab chikilgan konunlarni bajarish va ularga amal kilish

² 1. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq asoslari. T.: O'zR IIV Akademiyasi, 1999, 9-10-betlar.

majburiy xisoblanadi. konun chikaruvchi xokimiyat /arbd: Parlament, Seyi, Kongress va x.k. deb yuritilsa Sharkda: Oliy majlis, Kengash, Xalk kurali va x.k. deb ataladi.

Parlament (fran. Parle - gapirmok suzidan kelib chikkan bulib, rasmiy suzlashish joyi ma'nosini anglatadi) - davlatning oliy vakillik organi xisoblanadi va konun chikaruvchi xokimiyatini amalga oshiradi. Parlament konun buyicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bulib, xududiy saylov okruglari buyicha kuppartiyaaviylik asosida belgilangan yoshga tulgan fukarolardan saylanadi. Parlament birinchi marta X111 asrda Angliyada tashkil kilingan. Oliy vakillik organlari bir necha mamlakatlarda, jumladan Angliya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiyada tugridan tugri parlament deb ataladi. AkSh va ba'zi Lotin Amerikasi mamlakatlarida Kongress, Rossiyada Federal Majlis, Litvada, Latviya, Polshada Seyi deb ataladi. Parlamentni tashkil kilish tartibi, vakolat muddati, vakolat doirasi turli mamlakatlarda turlicha bulib, ular Konstitutsiya xamda konunlarda belgilab kuyiladi. Dunyoda 130 davlatda parlament boshkaruvi mavjud.

Dunyo mamlakatlarining ba'zilaridagi parlamentlarida deputatlar soni kuyidagicha:

- 1) AkSh Kongressiga 535 deputat saylanadi.
- 2) Rossiya Federal Majlisiga 626 deputat saylanadi.
- 3) Misrda Xalk Assambleyasiga 454 deputat saylanadi.
- 4) Isroil Knessetiga 120 deputat saylanadi.
- 5) Finlyandiya, Eduskuktiga 200 deputat saylanadi.
- 6) Islandiya Altinggiga 63 deputat saylanadi va x.k.

2. Parlamentarizm tajribasi kursatadiki, parlament 1 palatali yoki 2 palatali bulishi mumkin. Ma'lumki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida 2 palatalidir. XX asr sunggi un yilliklarining uzida 2 palatali parlamentlar soni 45 tadan 70 taga kupaydi. Xozirgi zamonda 2 palatali tizim parlamentarizm tarakkiyotining asosiy tendensiyasiga aylandi. 2000 yilning 14 martida Parij shaxrida bulib utgan jaxon senatlarining maxsus anjumanida parlamentning 2 palatali bulishi mamlakat xayotida ijobiy rol uynaydi, degan xulosaga kelindi.

3. **Ijro kiluvchi xokimiyat** davlatning turli xildagi idaralari va muassasalaridan tashkil topgan bulib, ular konunlarda ifodalangan tadbirlarni xayotga joriy etadi. Ijro etuvchi xokimiyat - xokimiyatning aloxida turi, u konunchilik (vakillik), sud xokimiyatidan xoli, mustakil ravishda ish olib boradi. Respublika ijro etuvchi xokimiyatga Prezident boshchilik kiladi, joylardagi ijro etuvchi xokimiyatga xokim boshchilik kiladi. Ijro etuvchi xokimiyat ijro organlari tomonidan amalga oshiradi. Ijro organlari - ijro etuvchi xokimiyatni amalga oshiruvchi davlat organlaridir. Uzbekiston respublikasida Oliy ijro organi - Vazirlar Maxkamasidir, u xukumat xam xisoblanadi va kollegial, umumiy vakolatli organdir. Ijro organlari turli tarmok va soxalarni idora etadi. Respublikaning markaziy idoralari: vazirliklar, davlat kumitalari va boshkalar, ular yakkaboshchilik asosida ish olib boradi. Joylarda ijro etuvchi xokimiyatni xokimlar yakkaboshchilik asosida amalga oshiradi. Joylarni idora etishda u uzining tarmok idora organlaridagi bulim va boxkarmalariga tayanadi. Masalan, ichki ishlar, soglikni saklash, maorif bulimi yoki boshkarmalari. Ijro organlari tayinlash va tasdiklash yuli bilan tashkil kilinadi va ular uzini tayinlagan shaxs oldida, shuningdek vakillik organi oldida xisob beradi.² Xozirgi zamon konstitutsiyalari ijroiya xokimiyat vakolatlarini davlat boshliklariga (parlamentar monarxiyalar va respublikalarda, prezidentlik respublikalarida) yoki xukumatga (aralash tipdagi respublikalarda beradi. Birok parlamentar monarxiyalar va respublikalar ishida butun ijroiya xokimiyat xukumatga, dualistik monarxiyalarda - monarx va xukumatga tegishlidir, aralash tipdagi respublikalarda xukumat tomonidan ijroiya xokimiyatni amalga oshirish koida tarikasida davlat boshligi (Prezident)-ning bevosita raxbarligi yoki ostida yuz beradi. Mintakaviy va maxalliy darajada ijroiya xokimiyat maxalliy boshkaruv va maxalliy uz-uzini boshkaruvning turli organlari (gubernatorlar, merlar, prefentlar, oksokollar va ularga buysunuvchi apparati) tomonidan amalga oshiriladi.

Uzbekiston Respublikasida ijroiya xokimiyatining raxbari - Prezident, shuningdek ijroiya xokimiyat organi bulib Vazirlar Maxkamasi va viloyatlar. Toshkent shaxar, tuman (shaxar) xok

² Azizxo'jaev A. va bosh. Konstitutsiyaviy huquq. T.: «Akademiya», 2001, 44-45-betlar.

imliklari, karokalpogiston Respublikasida esa Vazirlar Kengashi va tuman (shaxar) xokimliklari xisoblanadi.¹

3. Sud xokimiyati kabul kilingan va xayotga joriy etilgan konunlarning bajarilishini nazorat kiluvchi davlat idoralari muassasalaridan tashkil topadi.²

Davlat xokimiyati uzining tuzilishi, mazmuni, maksad va vazifalariga kura bir xil bulmaydi. U ayrim mamlakatlarda keng xalk ommavining irodasini ifoda kilsa, ba'zi mamlakatlarda esa aloxida siyosiy kuchlarning yoki ozchilikning manfaatlarini ximoya kiladi. Shunga kura bu xokimiyat yo xalk xokimiyati yoki mustabid xokimiyat buladi.

Mustabid xokimiyat ozchilikning xokimiyati bulib, u zurlikka asoslanadi. Bunday xokimiyatlar kupchilikni itoatda tutib turishga, ularning huquq va erkinliklarini bugib kuyishga, demokratiyani takiklashga xarakat kiladi. Mustabid xokimiyat jazolash, majbur kilish usullarini kuchaytirishga va shu yul bilan uz xukumronligini saklab kolishga intiladi. Utmishda bunday xokimiyatlar juda kup bulgan. Napoleon, Gitler, Mussalinolar boshchilik kilgan xokimiyatlar zurlikka asoslangan ana shunday xokimiyatlar bulgan.

Uzbekiston respublikasida davlat xokimiyati keng xalk ommasining irodasini ifoda kiluvchi xalk xokimiyati xisoblanadi va xalk manfaatlariga xizmat kiladi.

Davlat tuzumi - Konstitutsiyaviy huquq (davlat huquqi) normalari bilan belgilanadigan va mustaxkamlanadigan ijtimoiy, iktisodiy va siyosiy manfaatlar tizimi. «Davlat tuzumi» «konstitutsiyaviy tuzum»ga karaganda kengrok tushunchadir.

Davlat suvereniteti - (fran.) - davlatning uz ichki ishlarida va tashki munosabatlarida boshka bir davlatdan tula mustakilligi³. Suverenitet -xokimiyatning oliyligi, mustakilligi bulib, mamlakatning mustakilligini bildiruvchi tushuncha. Konstitutsiyaviy huquqa davlat suvereniteti, millat suvereniteti, xalk suvereniteti tushunchalari ishlatiladi. Davlat suvereniteti - xokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashki munosabatlarda tula mustakilligidir. Bunda xech kandy tashki davlat ishlariga ta'sir kila olmaydi. Millat suvereniteti - millatlarning tula xokimiyatini, ularning tula siyosiy erkinligini, uz xayotini ixtiyoriy tashkil kila olishini, mustakil davlatni tashkil kila olishini bildiradi. Xalk suvereniteti -xalkning tula xokimiyatini bildiradi, ya'ni xalk jamiyat va davlatni boshkarish imkoniyatini beradigan xamma iktisodiy va siyosiy vositalarga ega buladi¹.

Davlat ramzlari - Konstitutsiyada belgilangan bulib (5-modda), bayrok, gerb va madxiya xisoblanadi. Ularning tuzilishining shakli, maksadi, ishlatilishi maxsus konunlar bilan tasdiklangan. Bular mamlakatning mustakilligini ifodalovchi ramziy belgilardir². Ularda mamlakat xususiyatlari aks ettiriladi. Davlat ramzlari (yunon. belgi) umuman Konstitutsiya yoki maxsus konun bilan aloxida bir davlatning tarixiy davrdan kelib chikib urnatilgan maxsus belgisi bulib, bu belgi milliy severeniteti aks ettiradi, ba'zan ma'lum mafkuraviy ma'noga xam ega buladi. Assan va umuman davlat ramzlariga (bayrok, gerb, madxiyadan tashkari xam) kuyidagilar kiradi:

- 1) Mustakil Uzbekiston Respublikasining bayrogi, gerbi va madxiyasi.
 - a) davlat bayrogi - 1991 yil 18 noyabrda kabul kilindi.
 - b) davlat gerbi - 1992 yil 2 iyulda kabul kilindi.
 - v) davlat madxiyasi - 1992 yil 10 dekabrda kabul kilindi.
- 2) Mustakil Uzbekiston davlatining nomi. Konstitutsiyamizning 1-moddasidayok «Davlatning Uzbekiston Respublikasi» va «Uzbekiston» degan nomlari bir ma'no anglatadi» deb yozib kuyilgan. «UzR» yoki «RU» deb yozish kerak.
- 3) Mustakil Uzbekistonning Konstitutsiyasi. (1992 yil 8 dekabrda kabul kilingan).
- 4) Uzbekiston Respublikasining davlat tili. 1989 yil 21 oktyabrda kabul kilingan va konstitutsiyaning 4-moddasida xam aytilgan.
- 5) Mustakil davlat poytaxti. Konstitutsiyamiz 6-moddasida bayon etilgan.

¹ Yuridik Endiklopediya. Toshkent: «Sharq», 2001, 175-176-betlar.

² Ramazanov I., Mo'minov E. Politologiya. T.: «Adolat», 1997, 104-bet.

³ Konstitutsiyaviy huquq asoslari. T.: «Sharq», 2001, 251-bet.

¹ Konstitutsiyaviy huquq. Izohli lug'at. T.: Akademiya, 2001, 97-bet; Yuridik ensiklopediya. Toshkent: «Sharq», 2001, 404-bet.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2001, 6-7-betlar.

6) Mustakil davlat fukaroligi. Konstitutsiya 21-moddasida aytilganidek, fukarolik xar kanday davlatning ajralmas belgisidir³.

7) Davlat mukofotlari va unvonlari (1997 yil noyabrgacha 30 ta Uzbekiston Respublikasi faxriy unvoni ta'xis etilgan.

8) Milliy valyuta. 1994 yil 16 iyunda kabul kilgan «Uzbekiston Respublika milliy valyutasini muomalaga kiritish tugrisida»gi Prezident Farmoni. 1994 yil 1 iyuldan «Sum» muomalaga kiritildi.

9) Umumxalk bayramlari...

Muhokama uchun savollar

1. Siyosatning iktisodiyot va ma'naviyat bilan boglikligi nimalarda kurinadi?
2. Siyosiy jarayon tushunchasini Siz kanday izoxlaysiz?
3. Siyosiy jarayon mavjudligi va tartiblarini gapirib bering.
4. Siyosiy jarayonning kanday turlari bor?
5. Siyosiy karorlar kabul kilish jarayonini bayon eting.
6. Siyosiy ishtirokchining uziga xos xususiyatlari nimalarda seziladi?
7. Uzbekistondagi siyosiy jarayonlarning uziga xosligini izoxlab bering.

Mustaqil ish torshiqlari:

1. Ma'lumki hozirgi zamonning yirik mafkuralari qatorida milliy mafkuralar ham muhim o'rinni egallaydi. Bizning milliy mafkuramiz kelib chiqishi va mazmun-mohiyatiga ko'ra boshqa mafkuralardan farq nimada ekanligini tushuntirishga urinib ko'ring.

2. Siyosiy mafkuraning amal qilish darajalari bir xil emasligini inobatga olib, uning nazariy-konseptual, dasturiy-direktivalik va xulq-atvorlik darajalari haqida tahliliy fikringizni bayon eting.

3. Bugun dunyoda ko'plab mafkuraviy oqimlar tarqalgan. Ushbu zamonaviy yirik mafkuraviy oqimlarni, jumladan, liberalizm, neoliberalizm, konservatizm, neokonservatizm, sotsial-demokratiya, diniy mafkuralarning maqsad va vazifalari haqida qisqa ma'lumot tayyorlang.

4. Mamlakatimizda milliy mafkurani rivojlantirish va takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamdagi chora-tadbirlarga doir referat tayyorlang.

A d a b i y o t l a r

1. Xoshimov T R., Rafikov G' A., Turaev A. Siyosatshunoslik asoslari. Ukuv kullanma. Termiz. 1997, 38, 113-115-betlar.

2. Ramazonov M., Muminov E. Politologiya. Darslik. Toshkent: «Adolat», 1997, 40-57-betlar.

3. Otamurodov S., Ergashev I., Akramov I., kodirov A. Politologiya. Toshkent: Uzbekiston, 1999, 41-50-betlar.

4. Politologiya kursi buyicha ma'ruzalar matni. 1-kism. Toshkent: M. Ulugbek nom. UzMU, 2000, 15-27-betlar.

5. Politologiya. Ma'ruzalar matni. T,: UAKENT, 2000, 41-150-betlar.

6. Masharipov O., Xoshimov T,R., Rafikov G' A. Politologiya. Toshkent: ToshDIU, 2000, 24-30-betlar.

7. Devitin L. Uzbekiston tarixiy burilish pallasida. Toshkent: Uzbekiston, 2001, 166-265-betlar.

³ «Turkiston». 1997 yil 19 noyabr.

Mavzu - 4 . Buyuk Britaniya siyosiy tizimi

Dars o'quv maqsadi:

- Tarixiy taraqqiyotning xususiyatlarini o'rganish;
- Buyuk Britaniyadagi unitar va AQShdagi federativ tizimlarni qiyosiy o'rganish;
- Zamonaviy taraqqiyotning xususiyatlari: yangi leyborizm va yangi demokratlar. Buyuk Britaniyaning unitar tizimi va saylov qonunlaridagi o'zgarishlar haqida ma'lumot berish;
- Davlatlarning siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan tanishtirish;
- Talabalarni siyosiy tuzum, siyosiy rejim va uning turlari bilan tanishtirish;
- qiyosiy politologiyaning siyosiy fanlar tizimidagi o'rnini aniqlash va ko'rsatish;
- Bundan tashqari ushbu darsning maqsadi siyosiy tuzumlarning klassifikatsiyasini tahlil etish;
- mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishda ko'maklashish;
- Yoshlar o'rtasida sog'lom ma'naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Siyosiy tizim, siyosiy rejim, madaniy-sivilizasion determinizm, Qiyosiy politologiyada «sivilizatsiyalar to'qnashuvi» muammosi, Demokratik tuzum, Liberal tuzum, Avtokratik despotik rejim, mustabidlik rejimi, Tiraniya rejimi, Avtoritar siyosiy rejim, Totalitar siyosiy rejim, harbiy siyosiy rejim, Fashistik siyosiy rejim, Irtiq siyosiy rejim, Diniy siyosiy rejim

Asosiy savollar:

1. Buyuk Britaniyadagi ikki partiyali tizimning o'ziga xos xususiyatlari
2. Buyuk Britaniya palatalarning tashkiliy tuzilmasi
3. B.Britaniya parlamentininn va hukumat ustidan nazorati

1. Buyuk Britaniyadagi ikki partiyali tizimning o'ziga xos xususiyatlari

Britaniya parlamenti dunyodagi eng keksa parlamentlardan biri hisoblanadi. U XIII asrning oxirida yuzaga kelib, o'shandan buyon mamlakatning butun siyosiy hayoti davomida to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib kelmoqsa. Buyuk Britaniya davlat — siyosiy tuzumi o'zining XVIII—XIX asrlardagi rivoji natijasida parlamentarizm tizimining eng klassik namunalaridan birini shakllantirdi.

Uzoq evolyusion yo'l mamlakatning oliy vakillar organi uchun xarakterli bo'lgan vorislikni shart qilib qo'ydi. Britaniya parlamenti eski va yangi shakllarning birlashishi, qatlamlashishi va ularning hamjihatliqda yashashi namunasidir. Bu jihat uning tuzilishi va faoliyatining ko'p tomonlarida o'z aksini topgan.

Bu yerda «parlament» tushunchasining o'zi turli ma'nolarda qo'llanadi. Parlament to'g'risida qonun chiqaruvchi oliy organ sifatida gapirganda nafaqat parlamentning ikki organi — Jamoalar palatasi va Lordlar palatasini, balki monarxni ham nazarda tutadilar, chunki nomi sanalgan barcha unsurlarning birligigina huquqiy ma'nodagi parlament deb ataluvchi muassasani tashkil etadi. Jamoalar palatasi a'zolari «parlament a'zolari» deb ataladilar. Hukumat faqat Jamoalar palatasi oldida mas'ul bo'lib, bunga «parlament mas'uliyati» deb nom berganlar. Aynan Jamoalar palatasi «moliya ustidan parlament nazorati» deyiluvchi faoliyatni amalga oshiradi.

Britaniya parlamentining o'ziga xosligi shundaki, u mamlakatda yozma holdagi konstitutsiyaning yo'qligidek ajoyib sharoitda faoliyat ko'rsatadi. Uning tashkil etilishi va faoliyatiga doir ba'zi qoidalar mamlakatning oddiy qonunlaridan (ular juda ko'p), boshqalari esa yozilmagan konstitutsiya normalaridan, konstitutsiyaviy bitimlardan o'rin olgan. Parlamentning konstitutsiyaviy tizimdagi o'rnini ikki asosiy prinsip — parlament ustuvorligi va parlament (mas'ullik) boshqaruvi bilan belgilanadi. Butun parlament mexanizmining amaldagi faoliyati esa mamlakatda ikkipartiyalik tizim mavjudligiga asoslangan. Saylov jarayonini tashkil etish —

nomzodlarni ilgari surish, mamlakatni saylov okruglariga bo'lishdan boshlab, saylovchilarning ovozlarini sanashgacha, barchasi shu tizim ta'siri ostida bo'ladi. U parlamentning ichki tashkiliyligi va faoliyatiga tegishli darajada ta'sir ko'rsatadi. Uning ta'siri ostida parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlarning butun majmuini shart qilib qo'yuvchi eng muhim konstitutsiyaviy bitimlar yuzaga kelgan.

Ikki partiyali tizimda har ikki partiya navbati bilan hokimiyatga keladi. Bunday sharoitda hokimiyatni, odatda, Jamoalar palatasidagi ko'pchilik qo'llaydi va bu, unga parlamentda nihoyatda kuchli mavqega ega bo'lish imkoniyatini beradi. Davlat boshqaruvida «doimiy, professional amaddorlik» deb atalmish tushuncha ahamiyatining odatdan tashqari oshishi hukumat rolining kuchayishi omillaridan biri bo'ldi. Eslab o'tilgan har ikki omil «vestministrlik» (parlament joylashgan nom) deb nomlangan parlament boshqaruvining klassik modelini yangi — «Uaytxoll modeli» tomonidan siqib chiqarishga ko'mak berdi.

Hokimiyat markazining parlamentdan hukumatga surilish jarayoni bu e'tiborli organdan ko'zlangan maqsad, uning konstitutsiyaviy tizimdagi aniq o'rni masalasini keskin qo'ydi. Oxirgi ikki o'n yillikda Angliyada umumiy mazmuni parlament faoliyati ta'sirchanligini oshirishga, vakillik organining asosiy vazifalarini bajarishda ishtirok etishlari uchun parlament a'zolarini yanada kengroq imkoniyatlar bilan ta'minlashga qaratilgan jiddiy islohotlar o'tkaziddi. Parlament qo'mitalari tizimi qayta tashkil etildi, ombudsmen lavozimi yaratildi, deputatlarning professionaligini oshirish choralari va boshqalar ko'rildi.

Britaniya parlamenti — o'ta faol vakillik muassasasi. U ko'p yillik siyosiy an'analarga ega bo'lib, ommaviy munozara va bahslar olib borish bo'yicha boy tajribaga ega. Uning haqiqiy ahamiyati o'ziga rasman tegishli bo'lgan vakolatlari bilan emas, balki ichki va tashqi siyosat masalalari, mamlakat aholisini qiziqtiruvchi muhim ijtimoiy va siyosiy ishlar ochiq va oydin hal etiluvchi anjuman sifatidagi aniq mavqei bilan belgilanadi. Parlamentning bunday roli uning keskin siyosiy va ijtimoiy inqirozlar davrida siyosiy munozaralar markazi, butun siyosiy hayotning fokusiga aylanganida yaqqol namoyon bo'ladi. Parlament voqealar rivoji, ijtimoiy fikr va hukumat siyosatiga ta'sir etishga qodir.

Buyuk Britaniyada saylovlar o'tkazish ko'p mamlakatlardagidek konstitutsiya tomonidan emas, balki qonunchilik bilan belgilanadi. Parlament saylovlari bu yerda chuqur tarixiy iddiz va an'analarga ega bo'lib, saylov huquqi normalari uzoq evolyusiya jarayonida yuzaga kelgan. Saylov huquqi va saylov tizimining boshqa xususiyati ularning ikki partiyali tizimni tashkil etgan siyosiy partiyalar bilan yaqin aloqadaliigidir.

Jamoalar palatasi. Jamoalar palatasining 650 a'zosidan 523 tasi Angliyadan, 72 tasi Shotlandiyadan, 38 tasi Uelsdan, 17 tasi Shimoliy Irlandiyadan saylanadi.

Ovoz berishda qatnashish huquqiga Britaniyaning 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolari egadirlar. Qonun, shuningdek, Irlandiya Respublikasi fuqarolari va Hamdo'stlikning Buyuk Britaniyada yashovchi barcha fuqarolariga parlament saylovlarida ishtirok etish huquqini beradi. Ammo buning o'zi ovoz berishda ishtirok etish uchun yetarli emas. Buning uchun fuqaro qayd etish ro'ixatini tuzish uchun tayinlangan vaqtda (10 oktyabr) shu saylov okrugida yashayotgan bo'lishi va qayd etish ro'yxatiga kiritilgan bo'lishi shart.

21 yoshga to'lgan har qanday britan fuqarosiga «sust (passiv) saylanish» degan huquq berilgan. Ammo ingliz huquqida Jamoalar palatasi a'zosi bajarishi lozim bo'lgan asosiy shartlar ro'yxati mavjud emas. Palata a'zosi bo'lish huquqidan, binobarin, saylovlarda nomzodliqdan mahrum etuvchi shartlar ro'yxati esa bor. Tegashli me'yorlar parlament qonunlari va umumiy huquq me'yorlaridan o'rin olgan.

Chet elliklar Jamoalar palatasi a'zosi bo'la olmaydilar (bu Irlandiya respublikasi fuqarolariga tegishli emas). Ba'zi bir davlat lavozimini egallagan shaxslar Jamoalar palatasi a'zosi bo'lish huquqidan mahrumdirlar. Ular sirasiga oliy va quyi sudlarning maosh oluvchi professional sudyalari (Oliy sud sudyalari, okrug sudyalari, maosh oluvchi magistratlar) kiradi.

Qonun tomonidan o'rnatilgan qoida maosh olmaydigan magistratlarga taalluqli emas. Fuqaro xizmatchilari, ya'ni vazirlik va markaziy idoralarning professional kadr xizmatchilari Jamoalar palatasi a'zosi bo'la olmaydilar. Diplomatik xizmatda bo'lgan shaxslar ham shu jumlag

kiradilar. Parlament saylovlarida o'z nomzodini qo'ymoqchi bo'lgan fuqaro xizmatchisi bundan avvalroq iste'fo berishi lozim (bu qoida hukumatning maxsus qarorida ko'zda tutilgan). Jamoalar palatasi a'zolari qatori Dan qurolli kuchlarda xizmat o'tayotgan shaxslar ham chiqariladi. Bu qoida qurolli kuchlarning iste'fodagi zobitlariga tegishli emas. Harbiy xizmatchilar (fuqaro xizmatchilari kabi) parlament sayloviga nomzod bo'lmay turib, iste'foga chiqishlari kerak.

Qo'sh lavozimni egallab bo'lmasligi prinsipi davlatning bir qator boshqa idoralarida lavozimga ega shaxslarga taalluqlidir. Bunday lavozimlar ro'yxati qonunning maxsus ilovasidan o'rin olgan. Unga o'zgartirishlar hukumat qarorlari bilan kiritiladi, bu esa Jamoalar palatasi tomonidan tasdiqlanishi lozim. Qoidalarga ko'ra ommaviy korporatsiyalar rahbarlari (BiBiSi, Mustaqil televidion boshqarmasi (MTB), milliy lashtirilgan sanoat boshqarmalari), mahalliy kengashlar klerklari, ma'muriy tribunal a'zolariga bu prinsip taalluqli emas.

Sust (passiv) saylanish huquqining ba'zi cheklashlari o'tgan asrda qabul qilinib, hozirgi kunga qadar amadda bo'lgan qonunlarda ko'zda tutilgan. Xususan, ingliz, shotland, irland va rim katolik cherkovlari ruhoniylari vakillari Jamoalar palatasi a'zosi bo'lish huquqidan mahrum qilinadilar. Umumiy huquq per va peresslarni (Lordlar palatasi a'zolari bo'la olmaydigan Irlandiya perlari bundan mustasno) Jamoalar palatasiga a'zo bo'lishdan mahrum qilgan.

Cheklashlar shuningdek davlatga xiyonat qilgani uchun jazo mudsatini o'tayotgan shaxslarga, kasodga uchraganlarga, ba'zi bir og'ir ruhiy xastalikka uchragan shaxslar, «saylovlarda g'irrom va noqonuniy yo'llar»ni ishlatishda aybdor deb topilgan shaxslarga tegishli. Oxirgi holatda Jamoalar palatasi a'zosi bo'lish huquqidan mahrum etish muddati saylovda yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik darajasiga qarab 5—10 yilni tashkil etishi mumkin. Huquqdan mahrum etish alohida saylov okrugiga aloqador bo'lishi yoki hamma uchun bir xil bo'lishi mumkin.

Basharti, Jamoalar palatasiga tegishli talablarga javob bermaydigan kimsa saylanib qolsa, saylov haqiqiy emas deb topiladi, o'rin esa bo'sh (vakant) hisoblanadi. Yangi saylov tayinlanadi. Aytish joizki, Jamoalar palatasi, agar palatadan o'rin olishga moneliklar bartaraf etilgan bo'lsa (masalan, saylangan deputat o'z lavozimidan iste'foga ketgan bo'lsa), o'sha paytda mavjud (huquqdan) mahrum etish e'tiborga olinmasligi to'g'risidagi qarorni e'lon qila oladi. Bu hodda yangi saylovga zarurat qolmaydi.

Shaxsning Jamoalar palatasida a'zolik shartlari to'g'risidagi qonun talablariga javob berishbermasligi masalasini hal etish huquqiga Maxfiy kengashning Sud qo'mitasi ham ega. Har qanday shaxs tegishli qarorni olish maqsadida mazkur idoraga murojaat etishga haqli, ammo shu bilan birga u sud jarayonini olib borish bo'yicha xarajatlarni ham qoplashi lozim. (Huquqdan) mahrum etish tortishuvlari kamdankam uchraydi.

G'arbiy Yevropa davlatlaridan farqli o'laroq Angliyada saylovlar o'tkazish bo'iicha bironbir maxsus markaziy organlar mavjud emas. Ular saylov okruglarida ham yo'q. Mamlakat miqyosida saylov o'tkazishga ichki ishlar vazirligi, saylov okruglarida esa saylovlar bo'yicha amaldor (graflik sheriflari va mahalliy kengash raislari) rahbarlik qiladi.

Buyuk Britaniyada deputatning saylovchiga nisbatan majburiyatlari va uning oldidagi mas'uliyatini belgilaydigan qonunchilik me'yorlari mavjud emas. Bu o'rinda deputatning saylovchilardan mustaqilligi qoidasi (doktrinasi) e'lon qilinadi. Saylovchilarning alohida guruhi emas, balki deputat butun millatning ifodasi sifatida qabul qilingan. Deputatga saylovchilar oddida hisobot berish yuridik majburiyati yuklanmagan, shunga ko'ra deputatlarni chaqirib olish qoidasi ham o'rnatilmagan.

Shu bilan birga deputat nafaqat o'z partiyasi bilan, balki saylov okrugi bilan ham bog'liq. Deputat muttasil (haftasiga yoki har ikki haftada bir, odatda, shanba yo yakshanbada) okrugga boradi, saylovchilar bilan uchrashib, suhbat o'tkazadi, ularni qabul qiladi va arzlarni tinglaydi. Deputat saylov okrugidagi partiyaning mahalliy tashkiloti bilan doimiy aloqada bo'ladi. Bundan tashqari, u o'z okrugi saylovchilari yoki hay'atni Londonda qabul qiladi.

Jamoalar palatasining ko'pchilik deputatlari o'z ijtimoiy tarkibiga ko'ra «o'rta tabaqa»ga tegishli shaxslardir. Ular asosan yurist, oliy o'quv yurti va maktab o'qituvchilari kabi kasb vakillaridir. Konservator deputatlar orasida, odatda, ishbilarmonlar foizi katta.

Lordlar palatasi saylovsiz shakllanadi va undagi a'zolik tegishli dvoryanlik unvoni bilan bog'liq. Palata a'zolari orasida 1195 nafar gersog, markiz, graf, vikont va baronlar bo'lib, ularning nomlari ingliz zodagonlari «oltin kitobi»ga yozilgan. Parlament perlari dindor va dunyoviydarga, shuningdek, unvonlari nasliy bo'lgan va umrbod berilganlarga bo'linadilar.

Dindor lordlar qatoriga 26 arxiepiskop va yepiskop kirib, ularning palata a'zosi bo'lish huquqlari tegishli lavozimlarni egallab turishlari bilan bog'liq deb hisoblanadi. Palataning boshqa barcha a'zolari dunyoviy kishilardir. Asosiy guruhni «palata a'zosi» degan huquq meros bo'lib o'tgan dunyoviy perlar tashkil etadilar. Palatada 789 nafar nasliy perlar va peresslar bor. Palatada ijtimoiy va siyosiy hayotdagi xizmatlari uchun unvonga erishgan 359 nafar umrbod per va peresslar mavjud.

Lordlar palatasining o'n bitta a'zosi yuristlordlar bo'lib, ular yuqori sud lavozimlarini egallagan va egallab turgan shaxslar sirasidan, palataga, sud ishlarini hal etishda yordam berish uchun tayinlanadilar.

Lordlar palatasida ham Jamoalar palatasidagidek partiya guruhlariga bo'linish mavjud, ammo uning ahamiyati Jamoalar palatasidagi kabi ta'sirchan emas. Lordlar partiya va saylovchilardan anchayin mustaqil va partiyaviy intizom bilan kamroq bog'liqsirlar.

Lordlar palatasi mansabdor shaxslari. Palata raisi — lordkansler. Uning palatadagi maqomi va roli Jamoalar palatasidagi spiker egallagan maqomdan ancha farq qiladi. Lordkansler mahkama a'zosi hisoblanadi va bosh vazir tomonidan tayinlanadi. U Lordlar palatasida munozaralar va ovoz berishda ishtirok etadi. Lordlar palatasidagi majlislar parlament tartibqoidalari bilan chegaralab qo'yilgan emas va lordkanslerning munozaralar olib borish tartibiga ko'p ham aralashishiga to'g'ri kelmaydi. U tartibqoida bo'yicha qarorlar chiqarmaydi, tegishli savollar paydo bo'lganda esa, palata unga emas, balki palata yetakchisiga murojaat qiladi.

Lordlar palatasida qo'mitalar lordraisi va uning muovini bor bo'lib, ular mazkur palata qo'mita majlisiga aylangan vaqtda (qonun loyihalarining qo'mitada ko'rilishi jarayonida) lordkansler o'rniga raislik qiladilar. Ularni palata har yili, sessiya oldidan tayinlaydi.

Klerk palataning doimiy mansabdor shaxsi hisoblanib, uning vakolatlari Jamoalar palatasi klerki vakolatlari bilan bir xil va qo'l ostida palataning ish yuritish yumushlari bilan band klerklar doimiy shtati ishlaydi.

Lordlar palatasidagi har bir partiya o'z yetakchisiga ega. Hukumat partiyasining yetakchisi palata yetakchisi hisoblanadi; muxolifatga esa muxolifat partiyasi yetakchisi bosh bo'ladi. Palatadagi munozaralarni rejalashtirish yetakchilar vazifasiga kiradi. Lordlar palatasida bosh «qamchilar» va ularning yordamchilari ham bo'lib, ular Jamoalar palatasidagi «qamchilar» bajaradigan vazifalarni bajaradilar. Partiya tarafdorlariga yozma «qamchilar» yuboriladi. Ammo Lordlar palatasidagi majlislarda yetakchi va muxolifat partiyalardan teng miqdorda palata a'zolarining boryo'qligi haqida «qamchilar» hech qanday bitimga kelmagan.

Ichki ishni tashkil etish. Majlislar vaqtida palata a'zolari (diniy lordlarni istisno qilganda) ilgari paytlardagidek unvonlarining kattakichikligiga qarab emas, balki tegishincha hukumat va muxolifat kursilarida o'tiradilar.

Majlislar dushanbadan payshanbagacha va sessiya oxirida juma kunlari (hammasi bo'lib sessiyada 160 kun) o'tkaziladi. Majlislar qisqacha «savollar soati» (bu marosim taxminan 20 daqiqa davom etadi) bilan boshlanadi, lekin savol berish asosiy kun tartibi muhokama qilingandan so'nggina mumkin. Vaqtning yarmidan ko'prog'ida palatalar hukumat «bill»lari — hujjatlar loyihalari bilan band bo'ladilar.

Lordlar palatasi o'zining doimiy qoidalariga ega. Ammo undagi cheklashlar Jamoalar palatasidagi kabi nihoyatda talabchan va qattiq emas. U palata a'zolarini Jamoalar palatasidagidan ko'ra kamroq band qiladi. Palatada tartib saqlash uning barcha a'zolari zimmasida bo'ladi. So'zga chiqishlar avvaddan belgilangan bo'ladi va lordkansler palata a'zolarini munozarada ishtirok etishga chaqirib o'tirmaydi. Lordlar palatasida qonun loyihalari bo'yicha munozaralarni qisqartirish to'g'risida biror qoida mavjud emas. Bu yerda yana hukumat ishlarining boshqa ishlardan ustunligani shart qilib qo'yuvchi qoidalar ham yo'q.

Palata majlislarida doimiy ravishda, a'zolarining uchdan bir qismi ishtirok etadi va ovoz berishda qatnashadi. Palata a'zolarining bir qismi umuman uning majlislarida ishtirok etmaydi, boshqalar esa majlislarda qatnashmaslik uchun ruxsat oladilar. Bunday ruxsat muayyan chaqiriqdaga parlament vakolatining hamma muddatiga yoki sessiya muddatiga beriladi.

Perlar maosh olmaydilar, lekin ularning majlislarda qatnashishi bilan bog'liq xarajatlar qoplanishi mumkin. Palata a'zosi Londonda yashashi, mehmonxona, transport haqlari, shuningdek, ofis, kotib, ilmiy tadqiqotlar bo'yicha yordamchi tutish kabi sarfxarajatlari uchun, jami 100 funt sterling olishi mumkin.

Parlament va siyosiy partiyalar

Buyuk Britaniya saylov huquqi va saylov tizimining bosh xususiyatlaridan biri ularning mamlakat ikki partiyali tizimini tashkil etuvchi siyosiy partiyalar bilan uzviy aloqada ekanida. Aynan parlament saylovlari jarayonida ikki asosiy partiyadan (Konservativ va Leyboristlar) qaysi biri mamlakatni boshqarishi to'g'risidagi masala hal etiladi,

Amaliy jihatdan nomzodlar siyosiy partiyalar tomonidan ilgari suriladi. Ular partiya tashkilotlari tomonidan saylov okruglarida, partiyaning markaziy organlari bilan hamkorlikda tanlanadi. Nomzod markaziy rahbariyat tomonidan oddindan ma'qullangan da'vogarlar ro'yxatidan olinadi.

Partiya tuzilmasi Jamoalar palatasining butun tashkiloti va faoliyati asosidir. Ikki asosiy partiya Jamoalar palatasi rasman tan olingan tomonlarni — hukumat ko'pchiligi va «Hazrati oliylarining rasmiy muxolifatlari»ni tashkil etadilar. Saylovda golib chiqqan partiya hukumatni tuzadi. Shu partiya yetakchisi Bosh vazirlikka ko'tariladi. Yutib chiqqan partiya tarafdorlari palatada hukumat ko'pchiligani tuzadilar.

Urinlar miqsori bo'yicha ikkinchi bo'lgan partiya boshliga muxolifat yetakchisiga aylanadi. Muxolifat yetakchisi lavozimi 1937 yilda o'z qonuniy tasdig'ini topgan edi. Muxolifat uchun hukumat ko'pchiligidan hokimiyatni olishga tayyor turish odatiy holdir. Muxolifat yetakchisi fraksiyaning rahbar a'zolaridan «xufiyona kabinet» tashkil etadi va «maxfiy vazirlar»ni tayinlaydi, ularga parlamentda davlat siyosatining ba'zi masalalari bo'yicha so'zga chiqish topshiriladi.

Jamoalar palatasida deputatlar joylashishining o'ziy oq uning hukumat ko'pchiligi va rasmiy muxolifat partiyasiga bo'linganini aks ettiradi. Spikerdan o'ngda hukumat ko'pchiligining kursilari joylashgan, chapda esa — muxolifat kursilari. Palata a'zolari — vazirlar oldingi qator kursilarda, muxolifat rahbarlari ularning ro'parasida o'tiradilar.

Jamoalar palatasida partiyalar o'rtasidagi munosabatlar qandaydir yozilmagan qonunga yoki «halol o'yin» («Mg r lau») qoidalariga bo'ysunadi. Ko'pchilikka rahbarlik qiluvchi hukumat mas'uliyatli boshqaruv prinsipiga binoan harakat qilmog'i kerak.

Parlament tartibotining doimiy qoidalari uchun «partiyalar» yoki «fraksiyalar» tushunchalarining ma'lum bo'lishi amri mahol, lekin palataning umumiy shakllanishi va faoliyati uning partiyaviy bo'linishiga muvofiq quriladi.

Partiya fraksiyalari Jamoalar palatasidagi asosiy birliklardir. Ular parlament partiyalari deb ataladilar. «Partiya» atamasi fraksiyalar Jamoalar palatasida mustaqil, muxtor tuzilma hisoblanishini va o'z faoliyatida parlamentdan tashqaridagi partiya tashkilotlarining qaror va buyruqlari bilan bog'liq emasligini bidsiradi.

Yetakchi partiya parlament fraksiyasi yetakchisi hamdir. Buni partiyalar tomonidan parlament faoliyatiga beriladigan e'tibor tasdiklaydi.

Konservativ partiya yetakchisini parlament fraksiyasi a'zolari perkonservatorlar va parlamentdan tashqari partiyalar bilan maslahatlashgandan so'ng saylaydilar.

Fraksiya oddiy a'zolarining «1922 yil qo'mitasi» deb nomlangan uyushma shaklidagi, ya'ni yetakchining oddiy a'zolar bilan aloqa vositasi bo'lgan, majlislari o'tkazib turiladi.

1980 yiddan boshlab leyboristlar partiyasi yetakchisi va uning muovini saylashda nafaqat parlament partiyalari a'zolari, balki tredyunionchilar va mahalliy partiya tashkilotlari vakillari ham ishtirok etadilar. Partiya muxolifatda bo'lgan vaqtda parlament fraksiyasi a'zolari «parlament qo'mitasi» deb nomlanuvchi uyushma saylaydilar (amadda bu «xufiyona kabinet»ning o'zidir). Fraksiya barcha a'zolarining doimiy majlislari o'tkazib turiladi.

Parlamentning har bir fraksiyasi palatada o'z partiya qo'mitalariga ega. Ularning shakllanishi va faoliyati birorbir hujjat bilan tartibga solib turilmaydi, balki fraksiyalar faoliyati davomida yuzaga kelgan me'yorlar bilan belgilanadi. A'zolarining aniq va qat'iy belgilangan tarkibi bo'lmaydi. Majlisda biror sababga ko'ra uning ishi bilan qiziqqan istalgan fraksiya a'zosi ishtirok eta oladi.

Partiya fraksiyalari palatada parlamentning butun ishlari borishini tashkil etishda roli juda katta bo'lgan alohida mansabdor shaxslariga ega. Bular partiyalarning parlamentdagi tashkilotchilari bo'lib, ular rasman «qamchilar» deb nomlanadi. «Qamchi» lavozimi parlament qoidalariga ko'ra nazarda tutilmagan. U partiya tashkilotining Jamoalar palatasidagi evolyusiyasi jarayonida paydo bo'lgan. «Qamchilar»ning asosiy vazifasi fraksiyalar hamkorligida haddan oshish va tasodiflarga yo'l qo'ymaslik hamda ularning faoliyatlarini o'zaro muvofiqlashtirishdan iborat.

Konservativ partiyada «qamchilar» partiya yetakchisi tomonidan tayinlanadi, leyboristlarda esa parlament fraksiyasi majlisida yopiq ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Hukumat ko'pchiligi hukumatning bosh «qamchi»si, uning muovnlari va kichik «qamchilar»ga ega. Hukumat «qamchilar»i vazirlar bo'lib, davlat g'aznasidan maosh oladilar. Muxolifat ham bosh «qamchi», uning muovnlari va yordamchilariga ega.

Hukumatning bosh «qamchi»si, shuningdek, hukumat tomonidan ko'rib chiqish uchun belgilangan barcha qonun loyihalari sessiya oxirigacha palata orqali o'tishini kuzatib turishi kerak. Hukumat va muxolifat «qamchilari» birbirlari bilan yaqin aloqada bo'lib, hukumat va muxolifat o'rtasidagi munozarali masalalarni kelishuv orqali hal etish yo'llarini topadilar. Hukumat va muxolifat «qamchilari» o'rtasidagi maslahatlashuvlar, garchi hech qaerda qayd etilmagan bo'lsada, odatiy holga aylanib qolgan.

«Qamchilar» o'z partiyalari tarafdorlarining palata majlislaridagi ishtiroklarini ta'minlagan holda, shu bilan birga hukumat yoki muxolifat siyosatini qo'llabquvvatlaydilar. Shu maqsadda ularga deputatlarga munosabatda bir qator vakolatlar berilgan. «Qamchilar» partiya intizomiga rioya qilishni tekshirib turadilar. Bironbir deputat «qamchi» bilan maslahatlashmay turib, palata majlisini tark etishga haqli emas. Agar biror deputat qandaydir sabablarga ko'ra palata majlisida ishtirok etolmasa, bu haqsa o'z partiyasi «qamchisini» xabardor Qilib qo'yishi kerak. U esa, o'z navbatida, boshqa partiya «qamchisi» bilan shunday kelishadiki, natijada Jamoalar palatasida partiyalar o'rtasidagi muvozanat buzilmaydi va hukumat partiyasidan ishtirok etmayotganlar soni rasmiy muxolifatning hozir bo'lmagan deputatlari soni bilan teng bo'ladi.

Hukumatning bosh «qamchisi» moliyaviy ishlar bilan hech qanday aloqasi bo'lmasada, moliya vazirligining parlament kotibi lavozimini egallaydi. Hukmron konservativ partiya palatada 14 nafar, leyboristlar esa 11 ta «qamchiga» ega. Qolgan muxolifat partiyalarining bittadan shunday odami bo'ladi (maoshni faqat hukumat partiyasi «qamchilari» va rasmiy muxolifatning uchta «qamchisi» oladi, muxolif partiyalarning qolgan «qamchilari»ga pul to'lanmaydi).

Partiya tarafdorlari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun bir hujjat yuritilib, u ham «qamchi» deb ataladi. Bu hujjat tegishli fraksiya a'zolariga har hafta jo'natiladi. Unda palata majlisining keyingi haftadagi kun tartibiga qo'yilgan ishlar ro'yxati bo'ladi. «Qamchidagi» har bir masala, unga partiya rahbariyati tomonidan berilayotgan e'tibordan kelib chiqqan holda, tagiga chiziladi. Agar kun tartibi masalasi tagiga bitta chiziq tortilgan bo'lsa, bu uning munozarali emasligini biddiradi va u bo'yicha ovozga qo'yish kutilmaydi; ikki chiziq tortilgan bo'lsa, ovozga qo'yish ehtimoli bo'ladi; tagida uchta chiziq bo'lsa, masala o'ta muhim bo'lib, u so'zsis ovozga qo'yiladi va unda fraksiya a'zosining ishtiroki majburiy bo'ladi. Hujjatni olgan fraksiya a'zosi o'z rejasini undagi topshiriqlar bilan muvofiqlashtirishi kerak. Uchta chiziq mavjud bo'lgan taqdirda fraksiya a'zosining ishtiroki zarur bo'ladi va qatnasha olmasa esa, uzrli sababini ko'rsatishi lozim (kasallik, «qamchi» bilan kelishilganlik va b.).

«Qamchi» — hujjatni deputatga topshirish shuni anglatadiki, fraksiyadagi partiya rahbariyati uni olgan shaxsni fraksiya a'zosi deb tan oladi. Agar partiya rahbariyati fraksiya a'zosining faoliyati «qamchi» talablariga to'g'ri kelmaydi, deb topsa, u holda hujjat mazkur deputatga boshqa yuborilmaydi. Deyarli 90% hollarda ovozga qo'yish palataning partiyaviy bo'linishiga muvofiq o'tkaziladi. Rahbariyat avvaddan ma'lum qiladigan kamdankam hollarda

palatada erkin ovozga qo'yish e'lon qilinadi va deputatlar, qaysi partiyadan ekanidan qat'i nazar (o'lim jazosini yo'q qilish, abortlarga ruxsat berish yo man etish kabi masalalar bo'yicha) o'z ixtiyorlariga ko'ra ovoz beradilar. Deputatning o'z partiyasi ko'rsatmalariga qarshi ovoz berishi hollari ham uchrab turadi. Umuman olganda, fraksiya a'zosidan, partiya fraksiyasini hukumat ko'pchiligi vakili yoki muxolifat partiya vakili sifatida qo'llashini kutadilar. Partiya yo'lidan og'ishadigan deputat keyingi saylovda ilgari surilmasligi mumkin, bu esa parlamentda o'rin yo'qotish bilan teng hisoblanadi.

2. Buyuk Britaniya palatalarning tashkiliy tuzilmasi

Jamoalar palatasining mansabdor shaxslariga spiker, uning muovini (u yo'llar va vositalar qo'mitasi raisi deb ham nomlanadi) va raisning yana ikki muovini kiradi. Ularni deputatlar brasidan palata saylaydi.

Spikerni Jamoalar palatasi o'zining a'zolari orasidan, parlamentning yangi chaqirig'i vakolat muddati boshlanganida saylaydi. U palatada raislik qiladi, parlament tartiboti qoidalariga rioya qilinishini kuzatadi, palataning qirolicha, Lordlar palatasi va boshqa davlat organlari bilan tashqi aloqalarida vakil sifatida chiqadi. Palataga yuboriladigan barcha xat, arznoma va iltimosnomalar uning nomiga yuboriladi. Spikerning huquq va majburiyatlari ko'proq amaliyotda yuzaga kelgan yozilmagan me'yorlar bilan, jumladan Jamoalar palatasining doimiy qoidalarini bilan va kamroq — qonunchilik aktlari bilan tartibga keltiriladi. U lavozimini iste'foga qadar yoki vafotigacha egallaydi (iste'fodan so'ng Lordlar palatasidan o'rin egallaydi). Qonunga binoan, uni taqsirlash kabinet a'zoeini taqdirlash bilan teng bo'lishi kerak.

Spiker Jamoalar palatasi «xizmatkori» hisoblanadi va bironbir partiyaga mansub bo'lmasligi kerak. Uning o'rni bo'shagan taqdirda yangi spiker nomzodi hukumat tomonidan (muxolifat bilan maslahat qilgan hodsa) taklif etiladi. Spiker lavozimiga parlament ishida katta tajribaga ega bo'lgan parlament a'zolari ilgari suriladi (ularning ba'zilar hukumat lavozimini egallaganlar). Nomzodi spiker lavozimiga taklif etilgan siyosiy arbob o'z partiyasidagi a'ziligini to'xtatadi. Spiker o'z mavqeiga ko'ra deputat bo'lgani uchun navbatdagi har bir parlament saylovida qayta saylanishi kerak. Ammo saylov okrugida boshqa nomzodlar ilgari surilmaydi. Spiker siyosatdan nariroq va partiya bahslaridan chetlashtirilgan bo'lishi kerak. Basharti, u xolislik prinsipini buzsa, (garchi spikerni tanqid qilishga yo'l qo'yilmasada) xoxdagan deputat Spikerni tanqid qilib, palataga murojaat etishi mumkin.

Spiker munozaralarda ishtirok etmaydi, savollar bilan vazirga murojaat qilolmaydi. U faqat deputatlar ovozlari teng bo'lib qolganda ovoz berishi mumkin.

Spikerning asosiy vazifasi — Jamoalar palatasidagi tartibga rioya qilishni kuzatib turish. U keng ko'lamda ixtiyoriy (erkin) vakolatlarga ega, tartibot masalalarida sudya hisoblanadi va parlament tartibotining manbai bo'lgan qoidalar e'lon qilishga haqli. U tartibotga aloqador bahs chiqqan taqdirda, tartibot qoidalarini tushuntirib berishga haqli. U palataga tartibot qoidalarini ishlatish bo'yicha bergan xulosalar majburiy hisoblanadi.

Palataning biror majlisi spikersiz o'tishi mumkin emas. Palataning majlis boshlashi unga bog'liq. Agar spiker palatada yetarli odam to'planmagan, deb hisoblasa, majlisni boshlamaslik to'g'risida qaror chiqarishi mumkin. Spiker palatada tartib buzilayapti, deb hisoblasa, o'z holicha Jamoalar palatasi majlisida o'zi istagan muddatga tanaffus e'lon qilishi mumkin.

Jamoalar palatasidagi barcha chiqishlar spikerga qaratilgan bo'ladi. Deputatga so'z berish ham unga bog'liq. Jamoalar palatasidagi muzokaralar vaqqida so'zga chiqish uchun avvaddan navbat olish bo'lmagani uchun deputat spiker e'tiborini o'ziga qaratishga («spiker ko'ziga tushish») harakat qilishi kerak. U o'z nutqini faqat spiker murojaat qilganidan so'ng boshlashi mumkin.

Spiker deputat so'zini ishga aloqador emas va qaytariqlari bor, deb hisoblasa, to'xtatishga haqli.

Tartib buzilgan taqdirda, u deputatga palatani kun bo'yiga tark etish to'g'risida buyruq berishi mumkin. Deputat bundan jiddiyroq tartibbuzarlik qilsa, majlislarda ishtirok etish huquqidan yanada ko'proq muddatga mahrum bo'lishi mumkin. Palata a'zosi tartibni buzgani uchun spiker tomonidan odatdagi murojaat shakli: «Falon okruglik muhtaram parlament a'zosi» (bu tartibot «deputatni nomi bilan chaqirish» — «Nott§» deb ataladi) o'rniga uni o'z nomi bilan chaqirsa, palata

yetakchisi tartibbuzar vaktincha majlisdan chetlashtirilsin, degan taklifni kiritadi. Deputat dastlabki tartibbuzarlik uchun bir haftaga chetlashtirilsa, ikkinchi bor bir oyga va uchinchi marta noma'lum muddatga chetlashtiriladi.

Spiker partiyalarning mansabdor shaxslari bilan yaqindan aloqada bo'ladi. U munozaralar olib borishda «qamchilar» tuzgan jadvalga asoslanadi, qo'l ostida muzokaralarda so'zga chiquvchilarning «qamchilar» tasdiqlagan ro'yxati bo'ladi.

Yo'llar va vositalar qo'mitasi raisi — Jamoalar palatasidagi ikkinchi katta lavozim. U palataning butun palata qo'mitasiga aylanganida raislik qiladi.

Yo'llar va vositalar qo'mitasi raisi Jamoalar palatasi tomonidan yangi parlament chaqirig'i boshida saylanadi. Uning nomzodi ko'pchilik partiyasi tomonidan o'z a'zolari orasidan ilgari suriladi. Tayinlash to'g'risidagi taklif palata yetakchisi tomonidan kiritiladi. Spiker kabi yo'llar va vositalar qo'mitasi raisi ham o'zi iste'foga ketishni ixtiyor qilmagunga qadar lavozimida qoladi.

Jamoalar palatasi spikersiz majlis qilolmagani sababli, spiker muovini vazifasi yo'llar va vositalar qo'mitasi raisi domonidan bajariladi. Qo'mita raisi palatada rais o'rnini egallab turgan vaqtda tartibot masalalari bo'yicha oxirgi nuqtani 1\$yuvchi hakam (sudya) hisoblanadi. Uning buyruqlari ustidan spikerga shikoyat qilib bo'lmaydi.

Yo'llar va vositalar qo'mitasi raisi ham xolislik qoidasiga amal qilishi kerak. U munozaralarda ishtirok etmaydi. Ovoz berishda esa faqat ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda qatnashadi.

Yo'llar va vositalar qo'mitasi raisi muovinlari qo'mita raisi yo'qligida uning vazifasini bajaradilar, bunga spiker muovini vakolatlari ham kiradi. Ular qo'mita raisi kabi ko'pchilik partiyasidan, tarafdorlari orasidan ilgari suriladilar va palata tomonidan parlamentning yangi chaqirig'i boshida saylanadilar.

Palataning yana bir mansabdor shaxsi to'g'risida eslatish joiz. Bu Jamoalar palatasining yetakchisi bo'lib, u palatada hukumat nomidan so'zga chiqadi. Uni Bosh vazir vazirlar mahkamasidagi o'ziga eng yaqin siyosiy arboblardan orasidan tayinlaydi. U o'z vakolatlarini bajarish bo'yicha faqat Bosh vazir oldida javobgar. Jamoalar palatasi yetakchisi katta vakolatlarga ega. U palata ishini shunday tashkil etadiki, bunda hukumat avvaldan belgilagan qonunchilik dasturlari va boshqa tadbirlarning majlisda ko'rilishi ta'minlanadi. U Jamoalar palatasi ishining tartibi va jadvalini, shuningdek, qonun loyihalarini ko'rib chiqishi tartibini belgalaydi. U kabinet qo'mitasi tarkibiga kiradi va sessiya davomida palataga qanday qonun loyihalari qo'yilishi lozimligi bo'yicha taklif kiritadi. U har hafta oxirida keyingi haftaning kun tartibini e'lon qiladi, palatani davlat ahamiyatiga molik barcha ishlardan xabardor qiladi.

Jamoalar palatasida, shuningdek, palata a'zosi bo'lmagan shaxslardan tayinlanadigan doimiy mansabdor shaxslar bo'lib, bular palata klerki va uning ikki yordamchisidir.

Klerk — Jamoalar palatasining doimiy katta mansabdor shaxsi. U tartibot masalalari bo'yicha ekspert hisoblanadi va spikerga, hukumatga, muxolifatga va oddiy deputatlarga tartibotga tegishli barcha masalalar bo'yicha maslahat berish uning asosiy vazifasi hisoblanadi. Unga ikki yordamchisi ko'maklashib turadi.

Klerk doimiy va saylanuvchi qo'mitalar ishida yordam berish uchun klerklar tayinlaydigan bo'limga boshchilik qiladi. Bo'limDD ishlovchi klerklar deputatlarga parlament tartibotining barcha masalalari, palataning qonunchilik va nazorat ishlarining turli yo'nalishlari bo'yicha maslahat beradilar.

Jamoalar palatasida doimiy, maxsus va sessiya qo'mitalari mavjud. Shuningdek, parlamentdagi har ikki palataning ko'shma qo'mitasi tashkil etiladi.

Doimiy qo'mitalar parlamentning yangi chaqirig'i o'z ishini boshlaganidan uning vakolat muddati tugagunga qadar tashkil etiladi. Ularning asosiy vazifasi — «bill»larni bandmaband ko'rib chiqish. Odatda palatada bunday qo'mitalardan yettisakkiztasi ishlaydi. Qo'mitaning «doimiy» degan nomi odamni yanglishtirishi mumkin, chunki ular har gal aniq bir «bill»ni ko'rib chiqish uchun qaytadan tuziladi va vazifalarni bajarib bo'lgach, tarqatib yuboriladi. Qo'mitalar shartli ravishda — A.V.S.D deb nomlanib, bironbir masala bo'yicha ixtisoslashmaydi.

Soha bo'yicha emas, hududiy jihatdan ixtisoslashadigan qo'mitalarga Katta Shotland qo'mitasi, Katta Uels qo'mitasi, Shimoliy Irlandiya qo'mitasi kiradi. Shuningdek, xususiy a'zolar «bill»larini ko'rish bo'yicha qo'mita ham mavjud.

Spiker doimiy qo'mitalarning tashkil etilishi va faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. U muayyan bir qonun loyihasini qaysi bir doimiy qo'mitaga yuborish masalasini hal etadi. Doimiy qo'mita raislari spiker tomonidan o'z ixtiyoricha tayinlanadi. Qo'mitalar a'zolarini palataning o'zi emas, balki saralash ko'mitasi (Sotgshyee oG 8e1es(yup) tayinlaydi.

Saralash qo'mitasi, Jamoalar palatasi tomonidan har bir sessiya boshlanishida 11 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Qo'mitani shakllantirishda saralash qo'mitasi ikki partiyaning Jamoalar palatasidagi nisbatini shunday kelishtiradiki, ularning qo'mitadagi soni palatadagi o'rinlar soniga mutanosib bo'ladi. Ko'mita a'zolari tarkibiga juda bo'lmaganda bir vazir, shuningdek boshqa partiyalar rahbarlari kiritiladi. Uning tarkibiga hukumat va rasmiy muxolifat «qamchilaridan» biri kiritilishi shart. Saralash qo'mitasi o'zi taklif etadigan nomzodlarning malakasini ham inobatga oladi.

Doimiy qo'mita tarkibida 15 dan 50 nafargacha deputat bo'ladi. Ular majlislar vaktida Jamoalar palatasidagidek joylashadilar — raisdan chapda muxolifat a'zolari, o'ngda hukumat a'zolari o'tiradi. «Qamchilar» qo'mitalar ishini kuzatib turadi va majlislar paytida ovozlar yetarli bo'lishini tekshiradi.

Doimiy qo'mita tartiboti ham butun palataning qo'mitasidagi kabi bo'ladi. Qo'mitalar a'zolari muhokama qilinayotgan har qanday moddaga tuzatish kiritishni taklif etishga haqlidir. Rais qo'mitada muhokama qilish uchun loyiq deb topgan tuzatishlarni o'z ixtiyoricha tanlashi mumkin. Zarur hollarda ovozga qo'yish o'tkaziladi. Tuzatishlar ko'rib chiqilgach, qo'mita a'zolari «bill» uchun yangi moddalar taklif eta oladilar. Doimiy qo'mita kvorumi a'zolarining umumiy sonidan kelib chiqqan holda 12—15 kishi bo'ladi.

Vazifalariga qonun loyihalarini doimiy qo'mitalar orqali o'tkazish kirgan vazirlar qo'mitada hukumat nomidan so'zga chiqadilar, mulohazalar va tuzatishlarga javob beradilar. Qo'mita majlislarida, shuningdek, professional fuqaro xizmatchilari ham qatnashadilar. Ular vazirga yordamlashadilar, lekin ularning qo'mitada so'zga chiqishi ruxsat etilmaydi.

Doimiy qo'mitalar majlislari omma uchun ochiq. Ularning majlislari mazmuni stenografiya xisobotlarida chop etiladi.

Maxsus qo'mitalar — palata qo'mitalarining ikkinchi asosiy turi bo'lib, alohida masalalarni ko'rib chiqish va ma'ruzalarni havola etish uchun tuziladi. Ularning a'zolari ham saralash qo'mitasi tomonidan aniqlanadi. Maxsus qo'mitalar palataning 10—15 a'zosidan iborat bo'lib, ular barcha partiya fraksiyalarini ifoda etadilar. 14 ta maxsus qo'mita mavjud bo'lib, ularning asosiy vazifalari quyidagi asosiy vazirliklar faoliyatini o'rganish va tekshirishdan iborat: mudofaa, ichki ishlar, tashqi ishlar, moliya va fuqaro xizmati, energetika, sanoat va savdo, transport, qishloq xo'jaligi, ish bilan bandlik, atrof muhit, ta'lim, fan va san'at, ijtimoiy ishlar, shotland ishlari.

Bulardan tashqari, Yevropa qonunchiligi, vakil qilingan (delegirovanoe) qonunchilik, omma oldidagi hisobot, parlament muxtor vakili ishlari bo'yicha maxsus qo'mitalar mavjud. Vazirliklar faoliyatini nazorat qilish maqsadida tuziladigan maxsus qo'mitalar tizimi 1979 yildan beri mavjud. Angliyadagi maxsus qo'mitalar tizimini qayta tashkil etilishi Amerika tajribasini xisobga olgan holda amalga oshirilgan.

Doimiy qo'mitalardan farqli o'laroq, vazirliklar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini nazorat qilish topshirilgan maxsus qo'mitalar ma'lum muddat emas, muttasil ishlaydilar.

Ularning tashkil etilishi va faoliyati Jamoalar palatasining doimiy qoidalari bilan belgilanadi. Hozirgi paytda ular maxsus qo'mitalar tizimining o'zagini tashkil etadilar. Uchta Qo'mitaga (tashqi ishlar, ichki ishlar va moliyaga) tag qo'mitalar tayinlash huquqi berilgan.

Vazirliklar faoliyatini tekshirish bo'yicha doimiy harakatdagi maxsus qo'mitalar tegishli vazirliklar va ularga qarashli idoralarning «chiqimlari, boshqaruvi va siyosatini» nazorat qilish huquqiga ega. Yuqoridagi idoralarga ommaviy korporatsiyalar, vazirlik qoshidagi maslahatchi va boshqa organlar kiradi (ular jami 228 ta). Qo'mita tekshirish uchun muayyan bir masalany tanlashda erkin, hukumat tasdig'ini so'rab o'tirmaydi. Qo'mitalar guvohlarni chaqirish va tekshirish

uchun zarur hujjatlarni ko'rsatishni talab qilishga hakli. Ular ekspertlarni tayinlashi, mamlakat ichkarisiga va zarur bo'lsa, xorijga safarga borishlari mumkin.

Qo'mita tomonidan guvoh sifatida har qanday shaxs: vazirlik va idoralar vakillari, davlatning mansabdor shaxslari, vazirlik va idoralar mansabdorlari, jamoa tashkilotlari, bosim guruhlar vakillari, siyosiy arboblarni chaqirilishi mumkin. Agar guvoh kelishdan bosh tortsa, unda qo'mita rasmiy guvohlarni talab etish va majlisiga chaqirish to'g'risidagi buyrug'ini chiqarish huquqidan foydalanadi. Kelishdan bosh tortgan guvoh Jamoalar palatasini hurmat qilmaganlikda aybdor hisoblanadi (rasman, palata bunday shaxsni qamoqqa solish huquqiga ega). Qo'mita tekshiruv uchun zarur barcha hujjatlarni ko'rsatishlarini talab qilishga haqli, vazirlik hujjatlari bundan mustasno. O'n yillar davomida doimiy ishlab turuvchi saylov qo'mitalari tajribasida yozilmagan konstitutsiyaviy qoida vujudga kelgan; unga ko'ra qo'mitalar davlat xavfsizligi masalalarini xavf ostiga qo'yuvchi ishlarni tekshirmasligi kerak. Hukumat o'zi lozim topgan miqsorda qo'mitaga ma'lumot berishga haqli.

Vazirlar qo'mita majlisida ishtirok etishga majbur emaslar, chunki ular o'z mavqelariga ko'ra parlament a'zolari hisoblanadi, qo'mita esa majlisda parlament a'zolari va lordlarning ishtirok etishlarini talab qilolmaydi. Amalda hukumat doimo vazirni qo'mita majlisiga yuboradi, ammo bu masalani qo'mita emas, balki Bosh vazir hal etadi.

Agar palata e'tiriz bildirmasa, qo'mita majlislarida begona kishilar ishtirok eta oladi. Majlislar yopiq eshiklar ortida o'tkazilishi mumkin va bu hodda ularda nafaqat begonalar, hatto shu qo'mita a'zosi bo'lmagan deputatlar ham ishtirok etolmaydilar. Qo'mita majlislarini guvohlarni tinglayotganida omma uchun ochiq. Ammo ish yopiq va maxfiy masalalar bo'yicha bo'lsa, qo'mita yopiq majlis o'tkazadi.

Qo'mita ishi tugagach, ma'ruza tayyorlaydi va uni Jamoalar palatasiga havola etadi.

Vazirliklar faoliyatini o'rganish bo'yicha maxsus qo'mitalarning bo'lishi, so'zsiz, vakolatli organning hukumatga ta'sirini kuchaytiradi, unga vazirliklarning hisobot berishi mexanizmini harakatga keltirish imkonini beradi, hukumat qarorlariga ular qabul qilinishidan avval ta'sir o'tkazadi. Qo'mitalar faoliyati davlat boshqaruvi butun jarayonining ko'proq ochiq bo'lishiga ko'maklashadi, vazirliklar amaddorlarini u yoki bu ishlari uchun javobgarlikka tortish imkoniyatini beradi.

Qo'mitalar faoliyatini tashkil etishda zaif nuqtalar ham bor. Bular, avvalo, qo'mitalar bilan vazirlar o'rtasidagi munosabatlar va boshqaruv organlari faoliyati to'g'risidagi axborotlarga tegishli. Hukumat vazirliklar mansabdorlari uchun maxsus qo'mitada tegishli guvohlik ko'rsatmalari berishga chaqiruvchi qo'llanma chiqargan. Ammo shunday ham bo'ladiki, vazirlar qo'mitaga kerakli ma'lumotni bermaydilar yoki qo'l ostilaridagi idora rahbarlariga ham tegishli ma'lumotlarni bermaslikni buyuradilar. Hukumatning axborot berishdan bo'yin tovlashi jiddiy sohalarni nazorat qilishni murakkablashtirishi mumkin.

Sessiya qo'mitalari. Maxsus qo'mitalarning ma'lum miqsori har yili sessiya boshlanishida ta'sis etiladi. Shu sababli bunday qo'mitalar «sessiya qo'mitasi» nomini olganlar. Ular qatoriga tartibot, imtiyozlar, Jamoalar palatasiga beriladigan arzlarni, munozaralar to'g'risidagi maqola va hisobotlar, deputatlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'mitalar kiradi.

Birlashgan qo'mitalar maxsus qo'mitaning boshqacha turi hisoblanadi. Ular parlamentning ikki palatasi tomonidan, o'zlariga tegishli ishlarni teng ravishda ko'rib chiqish uchun birgalikda tuziladi. Qo'mitada muhokama etishga tegishli masalalar bahsli siyosiy masalalarga aloqador bo'lmasligi kerak. Birlashgan qo'mitalar har bir palataning teng miqdordagi a'zolaridan iborat bo'ladi. Birlashgan qo'mita ma'ruzasi ikkala palataga taqsim etiladi. Bular orasida vakil etilgan (delegirovanoe) qonunchilik aktlarini tekshirish, «bill»larni o'rganish, qonunchilikni birlashtirish kabi birlashgan qo'mitalar mavjud.

3. B. Britaniya parlamentining va hukumat ustidan nazorati

Hukumat ustidan nazorat — Jamoalar palatasining qonun chiqarishdan keyingi ikkinchi asosiy vazifasi. Parlamentar (mas'uliyatli) boshqaruv tizimiga muvofiq, hukumat parlament a'zolaridan tashkil etiladi va parlament oldida javobgar bo'ladi (bu hodda parlament deganda faqat Jamoalar palatasi tushuniladi). Ishonchsizlik bildirilganda u iste'foga ketishi kerak.

Hukumat parlament odida jamoaviy mas'uliyatga ega, bir vazirga bildirilgan ishonchsizlik odatda jamoalardan hukumatga bo'lgan ishonchsizlik deb qaraladi. Ammo hukumat Jamoalar palatasida mag'lubiyatga uchrasa, iste'fo berishi kerak bo'ladi va bunday vaziyatda parlamentni tarqatib yuborib, yangi saylov e'lon qilishga haqli.

Kamdankam hollarda, bironbir partiya Jamoalar palatasida mutlaq ko'pchilikka ega bo'lmasa, davlat boshlig'i hukumat tuzishni yo muxolifat boshlig'iga yoki Jamoalar palatasining roziligini ta'minlay oladigan har qanday siyosiy arbobga topshirishi mumkin (bunday vaziyat 1974 yilda yuzaga kelgan edi). Angliyaning siyosiy amaliyotida ishonchsizlik bildirish — kamdankam uchraydigan hodisa. XX asrda ikki marta shunday bo'lgan, har ikki hodsa hukumat palatada ko'p ovoz ololmagan, natijada kamchilikdan hukumat tuzilgan (1924 yil va 1979 yil aprel). Ishonchsizlik akti palata hukumat siyosatini butkul yoki ayrim masalalarda ma'qullamasligidan iborat bo'lishi mumkin. Hukumat taklif etgan biron choratadbir ovoz berish jarayonidan o'tmasa yoki hukumat rad etgan choratadbirda ko'pchilik ovoz bersa, ishonchsizlik bildirishga asos yuzaga keladi. Hukumat tuzishga kelganda, Jamoalar palatasi nomzod tanlashda bevosita ishtirok etmaydi, kim qanday lavozimga qo'yilishini ham muhokama qilmaydi. Vazirlarni tayinlash va bo'shatish — Bosh vazirning ixtiyoriy hal etish huquqi, zero konstitutsiyaviy bitim mavjud bo'lib, unga ko'ra qirolicha vazirlarni tayinlash yoki bo'shatish borasidagi imtiyozlaridan foydalanganida Bosh vazir maslahati bilan ish tutishi kerak. Bosh vazir ko'pchilik partiyasi rahbarlari orasidan hukumat a'zolarini tayinlaydi. Hukumat a'zolari Jamoalar palatasi deputatlaridan yoki lordlardan bo'lishi kerak. Ularning aksariyati Jamoalar palatasi a'zolari va bir nechtasi — Lordlar palatasi a'zolaridir.

Bosh vazir o'zi tuzgan hukumat a'zolari ro'yxatini Jamoalar palatasi ma'qullashi uchun kiritishga majbur emas. U, shuningdek, hukumat tarkibida qilgan o'zgartirishlarini palataga, uning roziligini olish uchun, kiritishga ham majbur emas.

Muxolifat ishonchsizlik bildirish taklifini tez tez palataga kiritib turadi, ammo taklif hukumatni qo'llovchi partiya ko'pchiligi tomonidan rad etiladi. Palatadagi mag'lubiyat parlamentning iste'foga ketishi va tarqatib yuborilishi uchun yetarli darajada jiddiy masalami, yo'qligini Bosh vazir hal etadi. Parlament nazorati deputatlarning vazirlarga savollari va takliflari shaklida kechadi. Mazkur mexanizm moliyaviy nazorat alohida o'rin tutadi. Parlamentda ma'muriyat bo'yicha parlament vakili (ombudsmen) ishlaydi.

Vazirlarga savollar — eng ko'p uchraydigan tartibot (tadbir). Og'zaki va yozma savollar bo'ladi. Vazirlarning deputatlar og'zaki savollari bergan javoblari har kuni (jumadan tashqari) tinglanadi. Yozma savollarga javoblar parlament munozaralari to'g'risidagi rasmiy hisobotlarda chop etiladi («Xanzard»).

Deputatlarning og'zaki savollariga aniq soat va kunlar ajratilgan. Majlis savollarga javoblar bilan boshlanadi. Javoblarga bir soat ajratiladi (15 daqiqaga uzaytirilishi mumkin). Savollarga javob beruvchi vazirlarni keragida almashtirib turiladi. Haftasiga ikki marta (seshanba va payshanba) savollarga 15 daqiqa davomida Bosh vazir, boshqa kunlarda qolgan vazirlar javob beradilar.

Savol berish tartibi ham qat'iy chegaralangan. Savol bermoqchi bo'lgan deputat palataga avvaldan yozma ravishda bildiripsh kerak. Agar deputat yozma javob olmoqchi bo'lsa, u yetti kun mobaynida beriladi, og'zaki javob esa — ikki kunda. Deputatning ushbu muddatlar chiqmasidan javob talab qilishga haqqi yo'q.

Deputatning vazirga berishi mumkin bo'lgan savollar soni bir majlisda ikkita bilan chegaralangan. Shu bilan birga asosiy savolga aloqador qo'shimcha savol berish ruxsat etiladi. Vazirga «savollar soati» tugagach, bitta ham savol berib bo'lmaydi. Bu qoidadan birgina holatda — agar spiker savolning «kechiktirib bo'lmaydigan, ijtimoiy ahamiyatga ega» ekanini tan olsa, chekinish mumkin.

Savol vazirga avvaddan ma'lum qilinmagan bo'lsa, spiker uni berdirmasligi ham mumkin. Bunday «xususiy» bildiruv bilan bir kunda bittadan ortiq savol berish mumkin emas.

Deputat vazirga har qanday savolni ham berolmaydi. Savollar faqat vazir javob beradigan sohaga aloqador bo'lishi kerak. Ular ko'rib chiqish jarayonida bo'lgan muayyan sud jarayonlariga aloqador bo'lmasligi kerak. Spiker deputatning «to'g'ri kelmaydigan» savolini qabul qilmasligi ham mumkin. U savol «to'g'ri keladigan» va «to'g'ri kelmaydigan» ekanini o'z holicha hal etadi.

«To‘g‘ri kelmaydigan» savol deganda, xususan, ma‘lumot olish maqsadida emas, balki hukumat fikrini bilish maqsadida berilgan, xususiyl tadbirkorlik tashkilotlari faoliyatiga aloqador, o‘ta jiddiy siyosiy masalalarni ko‘taruvchi savollar tushuniladi. Savollar yordamida o‘z tabiatiga ko‘ra maxfiy bo‘lgan ma‘lumotlarni olishga intilish mumkin emas. Deputat javobi bo‘lgan savolni ikkinchi marta berishi mumkin emas. Spiker, shuningdek, o‘ta mujmal tuzilgan yoki «tuturiqsiz» deb hisoblagan savollarni qabul qilmasligi mumkin. Savollar bahonasida qirol oilasi a‘zolarini yoki sudni tanqid qilib bo‘lmaydi.

Vazir savolga javob bermasligi ham mumkin. Javobidan bosh tortilgan har qanday savolga javob olishga harakatni spiker Qaytarishi mumkin. Agar vazir javob berishdan bosh tortgan bo‘lsa, bu savol faqat parlamentning yangi sessiyasida takroran berilishi mumkin.

Takliflar — parlament nazoratining boshqa mamlakatlarda mavjud interpellyatsiya (javobi parlamentda muhokama qilinishi ehtimol bo‘lgan so‘rov) va so‘rovlar amaliyotidan farq qiladigan o‘ziga xos shakl. Amalda bu aniq masala bo‘iicha nuqtai nazar shakllangan kollegial qaror (rezolyusiya) loyihadidir. Deputat shunday taklif kiritish yo‘li bilan palata muhokamasiga bironbir masalani qo‘yadi, palataga uni ko‘rib chiqib, qarorini chiqarishni taklif etadi.

Taklif kirituvchi palata a‘zosi nima uchun palata uning taklifini qabul qilish lozimligini asoslab berishi kerak. Shundan so‘ng muzokaralar boshlanib, ularda taklifni qo‘llagan deputatlar ham, qarshi chiqqanlar ham so‘zga chiqadilar. Spiker so‘z har ikki tomonga berilishini kuzatib turadi. Taklifga qarshi chiqayotgan deputatlar unga tuzatish kiritadilar, taklifga qarshi bo‘lganlar tutgan yo‘l tushuntiriladi va palatadan tuzatishda aks etgan fikrni ma‘qullash so‘raladi. Agar taklif muxolifat tomonidan kiritilgan bo‘lsa, unda tuzatishni hukumat kiritadi (yoki aksincha). Muxolifatning takliflari uning yetakchisi tomonidan kiritiladi. Yetakchi bu haqda so‘zga ham chiqadi. Bu holda javob uchun so‘zni Bosh vazir oladi. Undan so‘ng hukumat va barcha muxolifat partiyalar vakillari so‘zga chiqadilar. So‘ng taklif ovozga qo‘yiladi. Agar taklif muxolifat tomonidan kiritilgan bo‘lsa, u holda, odatda, hukumat taklifni qanday tuzatgan bo‘lsa, palata o‘shandayligicha qabul qiladi. Ovoz berish orqali qabul qilingan taklif Jamoalar palatasi qaroriga aylanadi.

Takliflar hukumat siyosatini keng muhokama etish imkoniyatini ochadi. Odatda ular muxolifat tomonidan kiritiladi (buning uchun sessiyada 20 kun ajratilgan). Bular hukumatga ishonchsizlik bildirish to‘g‘risidagi taklif yoki hukumat siyosatiga achinish bilan qarash (ko‘ngil to‘lmaganlik) bayon etilgan va o‘zgacha yo‘l tutish maslahat berilgan taklif bo‘lishi mumkin. Masalan, parlament a‘zosi hukumatning iqtisodiyotga rahbarligi noxush vaziyatga olib borayotgani tufayli, unga ishonchsizlik bildirish to‘g‘risidagi taklifini yo bo‘lmasa, muayyan ichki yo tashqi siyosiy tadbirga baho beruvchi takliflarni kiritishi mumkin.

Hukumat bu tartibotdan palatada o‘z siyosatining muhim masalalarini muhokama etib, palataning ma‘qullashiga erishish uchun foydalanadi (mudofaa masalalari, iqtisodiy siyosat va boshqalar bo‘yicha). Ba‘zan hukumat palataga shunchaki, u yoki bu hujjatni e‘tiborga olish so‘ralgan taklif bilan chiqadi.

Parlament tartiboti taklif palataning oddiy a‘zosi tomonidan kiritilishi mumkinligini ham nazarda tutadi. Buning uchun haftaning aniq kuni va soatlari ajratiladi. Oddiy a‘zoldan qaysi biri taklif kiritishini hal etish ovozga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, parlament tartiboti deputatning «favqulodda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega va shoshilinch ko‘rib chiqishni talab etuvchi» masalani muhokama etish maqsadida taklif ifitish huquqini nazarda tutadi. Agar spiker, taklif o‘ta muhimligini tan olsa va palataning kamida 40 a‘zosi tomonidan quvvatlanishiga ko‘zi yetsa, bunday taklif o‘sha kunioq muhokama etilishi lozim. Odatda sessiyaga o‘nlab bunday takliflar kiritiladi, ammo ularning birikkitasigina muhokama etiladi.

Hukumat siyosati bo‘yicha munozaralar o‘tkazish imkoniyati qirolichaning taxt nutqini muhokama etish jarayonida ham paydo bo‘ladi. Amadda bu nutq hukumat tomonidan tayyorlangan ma‘ruza bo‘lib, unda (hukumat) palataning joriy yildagi faoliyati dasturini ko‘rib chiqish uchun havola etayotgan bo‘ladi. Ma‘ruza o‘qilgach, olti kunlik munozaralar boshlanadi. Har qanday

deputat taxt ma'ruzasiga Jamoalar palatasining hukumatga tilaklari izhor etilgan tuzatishni taklif etishga haqli. Odatda taxt nutqiga tuzatishlar muxolifat deputatlari tomonidan kiritiladi.

Moliya ustidan nazorat parlament tasdiqlab bo'lgan ggul mablag'larini hukumat tomonidan sarf etishni nazorat qilish demaqsir. Hisobotlarni parlament tekshiruv palataning maxsus mansabdor shaxsi — bosh nazoratchi va taftishchi ma'ruzasiga asoslanadi. Bu shaxs hukumat tomonidan ommaviy hisobot bo'yicha qo'mita raisi ma'qullagach, Bosh vazir taklifi asosida Jamoalar palatasi qarori bilan tayinlanadi.

Bosh nazoratchi tarkibida 900 taftishchi ishlaydigan Milliy taftish idorasini boshqaradi. Idora vazirlar va davlatning boshqa muassasalari hisobotlarini tekshiradi. Idora o'tkazgan tekshiruv asosida bosh nazoratchining ommaviy hisobot qo'mitasiga havola etadigan ma'ruza tayyorlanadi.

Avval aytilganidek, moliyaviy siyosat faqat hukumat tomonidan belgilanadi va nazorat o'tkazilayotganda palata hukumat qabul qilib bo'lgan moliya siyosatidan kelib chiqishi lozim. Jamoalar palatasining, hukumatning pul mablag'larini qanday sarflaganini nazorat qilishi birinchidan, vazirliklarning palataga pul ajratish (assignatsiya) to'g'risidagi qonunni tasdiqlash vaqtida beradigan xarajatlar smetasini tekshirishdan va ikkinchidan, ommaviy hisobot bo'yicha qo'mita tomonidan mablag'larni sarflash to'g'risidagi hisobotni tekshirishdan iborat.

Hisobotlarning parlament tekshiruv palata nomidan o'z vakolatlarini bajaruvchi maxsus mansabdor shaxs — bosh nazoratchi va taftishchi ma'ruzasiga asoslanadi. U 1983 yiddan beri hukumat tomonidan ommaviy hisobot bo'yicha qo'mita raisi ma'qullagach, Bosh vazir taklifi asosida, Jamoalar palatasi qarori bilan tayinlanadi.

Bosh nazoratchi parlamentning mansabdor shaxsi bo'lib, uning oldida mas'uldir. Uning lavozimda bo'lish qoidalari xuddi oliy sudyaga nisbatan belgilangan shartlarning o'zidir. U parlament har ikki palatasi hukumatga yuboradigan xat asosida lavozimidan chetlashtirilishi mumkin.

Bosh nazoratchining vazifalariga vazirliklar va ularga bo'ysunuvchi tashkilotlar tomonidan mablag'larni sarflash to'g'risidagi hisobotlarni tekshirish hamda vazirliklarning barcha daromadlari Birlashgan jamg'armaga kiritilishini nazorat qilish kiradi. Har qanday vazirlik oladigan daromad Angliya Bankiga topshiriladi va moliya vazirligi hisobiga — Birlashgan jamg'armaga o'tkaziladi. Undagi pullar faqat parlament ruxsati bilan sarflanishi mumkin. Bosh nazoratchi agar hujjat Parlament aktida nazarda tutilmagan bo'lsa, Birlashgan jamg'armadan kredit ochishni rad etishi mumkin.

Ommaviy hisobot qo'mitasi 15 a'zodan iborat bo'lib, uning raisi o'z vaqtida vazirlik kursisini (odatda moliya vazirligida) egallagan rasmiy muxolifat rahbarlaridan biri bo'ladi. Vazirliklarning moliya hisobotini tekshirish vaqtida qo'mitaga vazirliklarning eng yuqori mansabdor shaxslari (ba'zi hollarda — vazir) chaqiriladi. Qo'mita o'z faoliyatini taftish idorasining ma'ruzasi asosiga quradi. Unda mablag'larni sarflashda yo'l qo'yilgan xatolar, suiiste'mol va noto'g'ri ishlar ko'rsatiladi. Qo'mita ma'ruzalari har yili palata tomonidan muhokama etiladi, matbuotda e'lon qilinadi.

Parlamentning ma'muriyat ishlari bo'yicha vakilining faoliyati vazirliklarni nazorat qiluvchi parlament mexanizmining bir bo'lagidir. Bu lavozim 1967 yilda parlament vakili to'g'risidagi qonun tomonidan kiritilgan. Angliya ombudsmen tuzilmasini bir qator skandinav va boshqa mamlakatlardan o'zlashtirgan. Ombudsmen mansabdor shaxs bo'lib, uning vazifasiga fuqarolarning vazirliklar ustidan shikoyatlarini ko'rib chiqish kiradi. Skandinaviya mamlakatlarida u parlament tomonidan saylansa, Angliyada — hukumat tomonidan tayinlanadi.

Parlament amaliyotida shunday qoida paydo bo'lganki, unga ko'ra, hukumat birovni lavozimga tayinlashidan oldin parlament vakili ishlari bo'yicha maxsus qo'mita raisi bilan maslahatlashadi. Parlament vakili — parlamentning mansabdor shaxsi, shunga ko'ra, arznoma avval deputatga berilishi kerak, u esa parlament vakiliga yuborishni hal etadi. Parlament vakili bu lavozimni «o'zini yaxshi tutib yurgunicha» egallab turishi mumkin va faqat derpamentning har ikki palatasi talabi bilan, o'z iltimosiga ko'ra yoki 65 yoshga to'lishi munosabati bilan undan chetlashtirilishi mumkin. U parlament a'zosi bo'lolmaydi (odatda bu lavozimga fuqaro xizmatchilari yoki hukuqshunoslar tayinlanadilar). Parlament vakili ish doirasiga fuqarolarning

vazirliklar idoralar ustidan, ular o'z ma'muriy vakolatlarini bajarish jarayonida yo'l qo'ygan ba'zi xattiharakatlari yoki ularni tegishli darajada bajarmaganlari uchun qilgan arzlari tekshirish kiradi. Parlament vakilining faoliyati qonunga ilova qilingan vazirliklar va idoralargagina taalluqlidir. Agar arznomaga tushgan vazirlik va idoralar xattiharakatlari ustidan, sudga yoki ma'muriy tribunalga murojaat etish imkoni bo'lsa, parlament vakili tekshiruv o'tkaza olmaydi.

Parlament vakiliga tekshiruvlar o'tkazish jarayonida katta huquqlar berilgan. U vazirlar va mansabdor shaxslardan hujjatlar talab qilish, guvohlar chaqirtirish va boshqa huquqlarga ega. Ammo u o'z tekshiruvlari natijalari bo'yicha chora ko'ra olmaydi, shu jumladan ma'muriy qarorni o'z qarori bilan almashtirishni yoki uni o'zgartirishni talab qilolmaydi. U tekshiruvlar V natijasida ma'ruza tayyorlaydi va shikoyatni bergan deputatga yuboradi. Agar parlament vakili, vazirlik o'z vakolatini yetarli darajada bajarmayotgani bartaraf etilmagan, deb hisoblasa, bu haqqa parlamentga maxsus ma'ruza kiritishi mumkin. Parlament vakilining parlamentga kiritadigan ma'ruzalari parlament vakili ishlari bo'yicha maxsus qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi. Qo'mita tegishli vazirliklar mansabdor shaxslarining guvohlik ko'rsatmalari va parlament vakili ma'ruzalarini tinglaydi.

Ko'pchilik G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan farkdi o'laroq Angliya Jamoalar palatasining ichki shakllanishi asosiy prinsiplari qayd etilgan yagona hujjat (reglament) yo'q. Tartibot qoidalari tartibga keltirilmagan va bir hujjatda jamlanmagan, turli manbalarda (parlament «amaliyoti», doimiy va sessiya qoidalari, spiker qarorlari, qonunlar) joylashgan.

Hozirgi paytda parlament tartibotining asosiy manbai doimiy qoidalardir. Ular palata tomonidan odatdagi tartibda qabul qilinadi, o'zgartiriladi va qoldiriladi. Ular, o'zlari qabul qilingan sessiya tugagandan keyin ham amal qilib turadi. Doimiy qoidaning amali palata tomonidan istalgan paytda oddiy ovoz berish yo'li bilan ko'pchilik ovoz asosida to'xtatilishi mumkin.

Doimiy qoidalardan tashqari palata sessiya qoidalarini qabul qiladi, ularning amal qilish muddati, o'zlari qabul qilingan sessiya vaqti bilan chegaralanadi. Sessiya qoidalaridan maqsad, odatda, shu sessiyada muhokama qilinishi va hal etilishi lozim bironbir ishga ustunlik berishdir. Shu bilan birga palata alohida bir ishni ko'rayotganda «ay os» qoidasini qabul qilishi mumkin.

Spiker qarorlari parlament tartiboti qoidalari o'rnatilishining zamonaviy o'rnak bo'larli shaklini yuzaga keltiradi. Odatda, bu qarorlar spiker tomonidan shu paytgacha mavjud qoidalarni tushuntirish uchun chiqariladi. Tartibot me'yorlarining birbiriga ziddligi tufayli bu huquq katta ahamiyatga ega. Spikerning parlament tartibotini yangi qoidalar bilan boyitish huquqi ixtiyoriy hisoblanadi.

«Erskin Meyning parlament huquqi, ishlab chiqarishi va odatlari to'g'risidagi risolasi» parlament tartiboti qoidalari bag'ishlangan e'tiborli to'plam hisoblanadi (uni qisqartirib «Erskin Mey» deb ataydilar). Qoidalarining muntazam nashrlari o'tgan asrda boshlangan va o'shandan buyon 20 marta nashr etilgan. To'plam muharrirlari — Jamoalar palatasi klerklari.

Parlament sessiyalarini va Jamoalar palatasi majlislarini tashkil etish. Parlamentni chaqirish va tarqatib yuborish davlat boshlig'ining alohida huquqi hisoblanadi va qirollik amrini chop etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu vakolatlarni qirolicha Bosh vazir maslahati bilan ijro etadi.

Parlamentning bir chaqiriq vakolat muddati besh yilga teng. Parlament muddatidan avval tarqatib yuborilishi mumkin. Parlament sessiyalari har yili chaqiriladi.

Parlament sessiyasi kuzda boshlanadi (odatda oktyabr oxirida yoki noyabr boshida) va yil bo'yi davom etadi. Sessiya vaktida parlament, yozgi ta'tillarga qadar majlislarini rojdestvo, pasxa va troisa tufayli to'xtatadi. Avgustda sessiya yozgi ta'tillar munosabati bilan to'xtatiladi. Palata bitta sessiya davomida majlis qiladigan kunlar soni turlicha (o'rtacha 160—190 kun). Palata majlislari shanba va yakshanbadan tashqari har kuni bo'ladi.

Jamoalar palatasi majlislari, odatda, ochiq bo'ladi. Ammo spiker begonalarni chiqarib yuborish to'g'risida buyruq berishga haqli, bu holda majlis yopiq eshiklar ortida o'tadi.

Ba'zan Jamoalar palatasi majlisi «butun palata qo'mitasi majlisi» shaklini oladi. Palata muayyan bir «bill»ni ko'rib chiqish uchun o'zini qo'mitaga aylantirish to'g'risida qaror chiqaradi. Odatda, butun palata qo'mitasi yo konstitutsiyaviy ahamiyatga ega eng muhim qonun loyihalarini yoki munozarali bo'lmagan va palata doimiy qo'mitalarga yuborish shart deb bilmagan loyihalarni

ko‘rib chiqadi. Qo‘mitadagi tartibot qoidalari palatadagidek juda qattiq emas. Bu yerda, masalan, palata a‘zosi bir martadan ortiq so‘zga chiqmasligi to‘g‘risidagi qoida amal qil^ maydi. Majlis oxirida qo‘mita palataga kiritiladigan hisobotni tasdiklaydi va qaytadan palataga aylanadi.

Parlamentda ish yuritish tili — ingliz tili va boshqa tilda so‘zga chiqish ruxsat etilmaydi.

Palata majlislari to‘g‘risidagi stenografiya hisobotlari 1803 yildan beri «Parlament munozaralari. Rasmiy hisobot (Xanzard)» nomli (birinchi noshir ismi) rasmiy to‘plamlarda chop etiladi. Hozir hisobotlar palata xodimlari tomonidan tuziladi, ammo uning eski nomi «Xanzard» saqlanib qolgan va rasmiy nomga aylangan.

Stenogrammada faqat jiddiy bo‘lmagan tahririy tuzatishlar yo‘l qo‘yiladi. «Xanzard»da nafaqat palatalar majlislari, balki doimiy qo‘mitalar stenogrammalari ham bosiladi. Ba‘zi hisobotlar Jamoalar palatasi va Lordlar palatasi uchun chop etiladi.

Parlament faoliyati matbuotda keng yoritiladi. «Matbuot galereyasi» deb nomlangan guruh mavjud bo‘lib, unga gazetalarning parlamentdagi muxbirlari kiradilar. Jurnalistlar «lobbisi»ning alohida tizimi yuzaga kelgan. Unga 100 ga yaqin jurnalist kirgan (ularning ro‘yxati palata klerklaridan biri tomonidan, spiker topshirig‘iga ko‘ra tuziladi).

«Lobbi»ga kiruvchi jurnalistlar palata majlislar zali yonida joylashgan palata a‘zolari xonasiga (uni «palata a‘zolari lobbisi» deydilar) kirish huquqiga ega, lekin u yerga oddiy kishilar qo‘yilmaydi. Bu yerda palata a‘zolari va vazirlar bilan norasmiy uchrashuvlar bo‘lib o‘tadi. Jurnalistlar «lobbisi» a‘zolari Bosh vazir yordamchilaridan ketmaket yangiliklar olib turadilar. Ular Jamoalar palatasi yetakchisi, muxolifat yetakchisi brifinglarida ishtirok etadilar, hukumat tayyorlaydigan hujjatlardan ular chop etilmay turib nusxalar oladilar.

Matbuotda nafaqat parlament palatasi, balki alohida masalalarni ko‘rib chiqish uchun tuzilgan maxsus qo‘mitalar hisobotlari ham bosiladi.

1978 yildan buyon palata va qo‘mitalar majlislaridan doimiy radioeshittirishlar berib kelinadi. Bevosita televizion ko‘rsatuvlari namoyish etiladi (Lordlar palatasi ularni 1968 yilda, Jamoalar palatasi 1989 yilda boshlagan).

Ishlarning asosiy turlari va ularni kurib chiqish tartibi. Hukumat Jamoalar palatasi ish tartibini nazorat qiladi. Bo‘lajak har bir sessiya rejasi Bosh vazir tomonidan kabinet bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Uni hukumat bosh «qamchisi» va Jamoalar palatasi yetakchisi batafsil ko‘rib, maromiga yetkazadilar.

Palata ko‘rib chiqadigan barcha ishlar tartibotga ko‘ra, bir necha toifaga bo‘lingan. Bunday tasnif ishlarni ko‘rib chiqish vaqtini qat‘iy chegaralab qo‘ygan. Har bir ish aniq belgilangan vaqtda kiritilishi va ko‘rib chiqilishi mumkin.

Har bir majlis «savol soati» bilan boshlanadi, unda deggutatlar vazirlarga savollarini beradilar. Asosiy kun tartibi «bill»lar va takliflarni muhokama qilishdan iborat. Hukumat nomidan vazirlar tomonidan kiritiladigan «bill» va takliflar hukumat ishlari toifasiga kiradi. Alohida deputatlar tomonidan o‘z nomidan kiritiladigan bill va takliflar esa «xususiy a‘zolar» ishlari deb ataladi (xususiy a‘zo deganda parlamentning oddiy a‘zosi tushuniladi). Bu qatori muxolifat ishlari ham mavjud.

Palata vaqti hukumat, xususiy a‘zolar va muxolifat vaqqiga bo‘linadi. Odatda, sessiyaning 12 kuni xususiy a‘zolarining qonun loyihalarini ko‘rib chiqishga va 8 quni ularning takliflarini muhokama qilishga ajratiladi. Muxolifatga 20 kun ajratiladi (bular unga munozaralar uchun mavzu tanlash huquqi taklif etiladigan kunlar). Parlamentning qolgan vaqtdan to‘rt dan uch qismi hukumatga tegishli. Hukumat o‘z ishlariga qulay sharoit yaratish uchun palataning doimiy qoidalari amal qilishini vaqtincha to‘xtatish huquqi bilan ta‘minlangan.

Palatadagi vaqt muammosining juda keskinligi nafaqat parlamentning bandligida, balki parlament bir sessiya davomida ko‘rib chiqishga ulgurmagani qonun loyihalari va takliflar o‘z kuchlarini yo‘qotgan, deb hisoblanishidir. Bu degani — yangi sessiyada ular xuddi yangitdan kiritilgandek qabul qilinadi.

Jamoalar palatasida munozaralarni to‘xtatish uchun o‘ziga xos usullar qo‘llanadi: «yopilish», «kenguru», «gilotina». «Yopilish» shunga asoslanganki, muhokamaning har qanday pog‘onasida munozaraning tugashi to‘g‘risidagi taklifni kiritsa bo‘ladi. Odatda bunday taklif

hukumatning bosh «qamchisi» tomonidan kiritiladi, taklif qabul qilish kerakmi yo yo'qmi, bunisi spikerga bog'liq. Agar spiker taklifni quvvatlasa, u ovozga qo'yiladi va kamida 100 deputat qo'llasa, qabul qilingan, deb hisoblanadi. Bu qoida yana parlament qo'mitalarida qo'llanadi (20 deputat roziligi talab etiladi).

«Kenguru» usuli «bill» bo'yicha ma'ruza qilinayotganda, spiker, qonun loyihasiga taklif qilingan tuzatishlardan qaysilarini muhokamaga qo'yish, qaysilarini qo'ymaslik kerak, degan masalani aniqlaydi. Masala spiker xohishiga ko'ra hal etiladi. U o'zi lozim deb topganlarida to'xtaydi, boshqalaridan esa sakrab o'tadi (shundan usul nomi kelib chiqqan).

Munozaralarni vaqt jihatidan ham, mazmun jihatidan ham to'xtatadigan usul — «gilotina» (keskir asbob) hisoblanadi. Hukumat palatada muhokama etish uchun qonun loyihasining alohida moddalarini ajratadi va ularni turli bosqichlarda muhokama etish uchun aniq vaqt belgilaydi. Vaqt tugashi bilan palata mazkur moddani muhokamasini, u maromiga yetganetmaganidan qat'i nazar, to'xtatishga majbur.

Hukumat usullarni almashtirib turishga haqli: «gilotina» to'g'risida taklif kiritiladi, «kenguru» qo'llanadi, «yopilish» taklif etiladi.

Palatada masalalarni ko'rib chiqish tartibi palataning hukumat ko'pchiligi va muxolifatga bo'linishiga muvofiq kechadi. Hukumat ishlari bo'yicha avval vazir, so'ngra muxolifat vakili so'zga chikadi, keyin esa so'z ko'pchilik va ozchilik deputatlariga beriladi. Muxolifat ishlari bo'yicha avval muxolifat vakili, so'ng — hukumat vakili va oxirida — boshqa deputatlar so'z oladilar.

Deputat muhokamalarda faqat bir marta so'zga chiqqa oladi. So'zlash uchun vaqt chegaralangan emas, ammo spiker nutqni 10 daqiqadan oshmasligi kerak, deb e'lon qilishi mumkin. Palataning taklif yoki qonun loyihasi bo'yicha qarorini spiker e'lon qiladi. Agar unga ba'zi deputatlar rozi bo'lmasalar, spiker ovozga qo'yish to'g'risida buyruq beradi.

Jamoalar palatasida ovoz berish ochiq bo'ladi. Taklif yoki qonun loyihasi uchun ovoz berayotgan deputatlar spikerning o'ng tomoniga, qarshilar — chap tarafga yig'iladilar. Ular klerkka, uning yonidan o'tayotganda o'z nomlarini ayadilar. Ovoz berish natijasini spiker e'lon qiladi.

Qarorlar oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Britan parlamentida malakali ko'pchilikni talab etish mavjud emas. Kvorum — ovozlarning yetarli bo'lishini talab qilish ham yo'q. Agar ovoz berishda 40 dan kamroq deputat ishtirok etayotgan bo'lsa, ko'rilayotgan masala keyingi majlisga o'tkaziladi.

O'z chiqishlarida deputatlar ma'lum qoidalarga rioya qilishlari kerak. Nutqni o'qib berish ruxsat etilmaydi (qisqa qaydlardan foydalansa bo'ladi).

Deputatlarning birbirlariga murojaat etishining ma'lum shakli mavjud (ismlari bilan chaqirmay, balki uchinchi shaxsda: «falon okruglik muhtaram parlament a'zosi» deydir). Deputatlar «noperlament iboralar»ni qo'llashga haqli emaslar. Libosga jiddiy talablar qo'yilgan — erkaklar galstuk va pidjakda bo'lishlari kerak. Palatada ichish, chekish, yeyish va o'qish man etiladi.

Jamoalar palatasida deputatlarni ro'yxatga olinmaydi, ularga aniq joylar belgilanmaydi. Spiker so'z berganda ular joylaridan turib so'zlaydilar. Umuman palatada faqat 427 deputatga joy bor. Boshqalar uchun joylar matbuot va omma yo'lagidan ajratiladi. Majlislarda ko'pincha 20 dan ortiq deputat bo'lmaydi. Ammo ba'zi masalalar alohida ahamiyatga molik bo'lib, unda palata binosi to'lib ketadi (Bosh vazirning savollariga javoblar, xazinador kanslerning byudjet to'g'risidaga nutqi, muhim «bill»lar va siyosiy masalalar muhokamasi chog'ida). Deputatlar qaysi xonada bo'lmasinlar, palatada bo'layotgan hamma yangiliklardan ichki televidenie xizmati orqali voqif bo'ladilar. «Lobbi»ga kiruvchi jurnalistlar palata a'zolari uchun mo'ljallangan xonaga kirish huquqiga egalar.

Parlament — mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organi. Qonun chiqarish sohasidagi oliy hokimiyat parlamentga butunlay ishonib topshirilgan. Qonun chiqarish jarayonida qirolicha ham alohida ahamiyat kasb etadi — har ikki palata qabul qilgan qonun loyihalari faqat u ma'qullagandan keyingina qonun kuchini oladi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyaning oliy qonun chiqaruvchi organi

to'g'risida gapirganda Jamoalar palatasi nazarda tutiladi, chunki u qonun chiqaruvchi mexanizmning markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi.

1945 yildan Jamoalar palatasining to'rtta a'zosi safdan chiqarilgan yoki sharmandali xulqlari uchun ayblovdan so'ng haydalihdan cho'chib, iste'foga ketganlar.

Muhokama uchun savollar

1. Siyosatning iqtisodiyot va ma'naviyat bilan bog'liqligi nimalarda kurinadi?
2. Siyosiy jarayon tushunchasini Siz qanday izoxlaysiz?
3. Siyosiy jarayon mavjudligi va tartiblarini gapirib bering.
4. Siyosiy jarayonning kanday turlari bor?
5. Siyosiy qarorlar kabul kilish jarayonini bayon eting.
6. Siyosiy ishtirokchining uziga xos xususiyatlari nimalarda seziladi?
7. B.Britaniyadagi siyosiy jarayonlarning uziga xosligini izoxlab bering.

Mustaqil ish torshiq'lari:

1. B.Britaniyadagi konstitutsion monarxiya tizimni tahlil etish;
2. Zamonaviy taraqqiyotning xususiyatlari: yangi leyborizm va yangi demokratlar haqida o'rganish;
3. B.Britaniyadagi so'nggi saylovlar, Parlament saylovlari va konstitusion islohatlar muammosini tadqiq etish;
4. Davlatlarning siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan tanishtirish;
5. Siyosiy jarayonlar va munosabatlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va diniy omillar haqida tushuncha berish;
6. Siyosiy qiyosiy tadqiqotlarning turlari. Siyosiy tizimlarning tipologiyasi (zamonaviy, an'anaviy va b.) tahlil etish;
7. Talabalarni siyosiy tuzum, siyosiy rejim va uning turlari bilan tanishtirish;
8. Qiyosiy politologiyaning siyosiy fanlar tizimidagi o'rni aniqlash va ko'rsatish;

Adabiyotlar

1. Алисон Ж,Бейлс К. Уроки Иракского кризиса // Мировая экономика и международные отношения. – № 9. – 2004 . – С .72.
2. Арбатов А. Иракский кризис в мировой политике:предыстория и перспективы // Мировая экономика и международные отношения. – №9. – 2004 . – С .78.
3. Ананьева Е. "For who we are ?or for what we are"Внешнeполитическая полемика в США // Международная жизнь. –№2. – С .19.
4. Гушер А. Стратегия США в Каспийском регионе //Азия и Африка сегодня. –№5. – 2003. – С .17
5. Карпенгер Т.Г. Избегая ловушки, или почему США должны покинуть Ирак // Международная жизнь. – №6. – С .37.
6. Лэнгфорд С.Э. Политика США в отношении Израйля в 90- е годы. Мирный процесс и экономическая помощь // Востоковедный сборник, вып.2.М.. – 2001 . – С .218
- 7.Мирский Г. Иран и США :противостояние на фоне «ядорного кризиса»// Мировая экономикаи международные отношения . – №7. – 2006 . – С .5.
8. Мельвиль А.Ю. Идеология американского консерватизма // США - экономика, политика, идеология . 1978. – № 11. – С . 39.
- Медведко Л. Расщепление «оси зла» // Азия и Африка сегодня. - № 2. – 2002.
9. Рахшмир П.Ю. Американские консерваторы и Европа// Международная экономика и международные отношения . – № 7. – 2004 . – С. 31

Mavzu - 5. AQSh siyosiy tizimi.

Dars o'quv maqsadi:

- AQShdagi federativ tizimni tahlil etish;
- Zamonaviy taraqqiyotning xususiyatlari: yangi leyborizm va yangi demokratlar haqida o'rganish;
- AQShdagi so'nggi saylovlar, Prezident saylovlari va konstitusion islohatlar muammosini tadqiq etish;
- Davlatlarning siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan tanishtirish;
- Siyosiy jarayonlar va munosabatlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va diniy omillar haqida tushuncha berish;
- Siyosiy qiyosiy tadqiqotlarning turlari. Siyosiy tizimlarning tipologiyasi (zamonaviy, an'anaviy va b.) tahlil etish;
- Talabalarni siyosiy tuzum, siyosiy rejim va uning turlari bilan tanishtirish;
- qiyosiy politologiyaning siyosiy fanlar tizimidagi o'rnini aniqlash va ko'rsatish;

Tushunchalar va tayanch iboralar: Siyosiy tizim, siyosiy rejim, madaniy sivilizasion determinizm, Qiyosiy politologiyada sivilizatsiyalar to'qnashuvi muammosi, Demokratik tuzum, Liberal tuzum, Avtokratik despotik rejim, mustabidlik rejimi, Tiraniya rejimi, Avtoritar siyosiy rejim, Totalitar siyosiy rejim, harbiy siyosiy rejim, Fashistik siyosiy rejim, Irqiy siyosiy rejim, Diniy siyosiy rejim

Asosiy savollar:

1. AQSh qonun chiqaruvchi hokimiyatining xususiyatlari
2. AQSh Kongressining ikki palatasi — Vakillar palatasi va Senatdan
3. AQSh Kongressining nazorati vakolati va tartiboti

1. AQSh qonun chiqaruvchi hokimiyatining xususiyatlari

Nazoratning eng samarali shakllaridan biri parlament tekshirishi hisoblanadi. Bunday faoliyat AQSh parlamentining ikkala palatasiga xos. Tekshirishni qo'mitalar, shuningdek, Kongressning ikkala palatasi tuzadigan maxsus komissiyalar olib boradi. Ular zarur hujjat va materiallarni talab qilish, biror bir shaxsni, shu jumladan Prezidentni ham, chaqiruv qog'ozi bilan eshitishga jalb qilish, shuningdek, guvoh sifatida so'roq qilish huquqiga egadirlar. Chaqiruv bo'yicha kelmaslik — sud ta'qibiga olib kelishi mumkin. Tekshirish natijasida olingan material va ma'lumotlar palataga yuboriladi. Senat yoki Vakillar palatasi qaroriga asosan muayyan shaxsga tegishli jinoyiy ish sudga oshirilishi mumkin.

AQSh mahkamalari uchun parlamentning eng nozik sanksiyasi byudjet ajratmalarini qisqartirish xavfi hisoblaniladi. Shuningdek, jiddiy asoslar bo'lgan hollarda, Prezidentga qarshi impichment qo'zg'ash ham mumkin.

Chet mamlakatlar ikki palatali parlamentning tarkibiy qurilishvda o'xshashlik bor. Masalan, palatalar — parlamentning mustaqil organi, aniq vakolatlariga, zimmasiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun o'z tuzilmasiga ega.

Vakillar palatasi (yuqori palata) rais tomonidan boshqariladi, uning muovnlari bor. Palataning ishchi organi — prezidiumi bo'lib, asosiy ish qonunlarni muhokama qiluvchi komissiyalarda olib boriladi. Palata faoliyatining tashkiliy texnik ta'minoti bilan palataning Devoni shug'ullanadi.

Quyida — qonun qabul qiluvchi palata ham ayrim o'zgarishlar bilan asosan shunday tuzilmaga ega.

Palata raisi o'z palatasi nomidan gapiradi, uning huquqlarini himoya qiladi, faoliyatiga javob beradi, majlislar chaqiradi, so'zga chiquvchilarga so'z beradi, ovozga qo'yadi, Prezidium va Devon ishlariga rahbarlik qiladi. Rais muovnlari rais aytgan topshiriq va ishlarni bajaradi, rais yo'qligida majlislarda raislik qiladi.

Palata Prezidiumlari palata raislari, ularning muovnlaridan tashkil topgan. Ular bir haftada bir marta yig'ilishib, palata ishining umumiy rejalarini tasdiqlashadi, qonun chiqarish bilan bog'liq faoliyat muammolarini muhokama qilishadi, ma'lum bir qonunlar bo'yicha topshiriqlarni bajarishadi. Palata raisi tomonidan taklif qilingan shaxslar yoki Devon boshlig'i Prezidium palatasining majlislarida ishtirok etishi mumkin.

Palata komissiyalari davlat va jamiyatning quyidagi eng asosiy muammolari bo'yicha shakllanadi:

- iktisodiy va ijtimoiy masalalar;
 - qishloq xo'jaligi;
 - sog'liqni saqlash, fizkultura va sport;
 - mudofaa;
 - fan va ta'lim;
 - madaniyat va ommaviy axborot vositalari (OAV);
 - mahalliy o'zo'zini boshqarish;
 - tashqi ishlar;
 - qonun chiqarish;
- inson huquqlari va qonunchilik;

Konstitutsiya modelining asosida dualistik federalizm prinsipi yotadi. Rasman Konstitutsiya mantig'iga asoslanilsa, federal va shtatlarning organlari mustaqildir. AQSh Prezidenti va Kongressi saylangan vaqtdan boshlab Shtatlar bo'yicha o'tkazilgan saylovlar asosida shakllanadigan institutlar — federal va shtatlar o'rtasidagi aloqalar uziladi. Hokimiyatning har bir pog'onasi Konstitutsiyada belgilangan chegarada suveren huquqqa ega. «Asoschiotalar» federalizmni xuddi shunday fikrlaganlar. Lekin federatsiyaning real mexanizmi uning birinchi asosidan ancha yiroq. Hayot federatsiya va shtatni yagona yaxlitlikka olib kelish uchun minglab rishtalar bilan o'rabchirmab tashlagan.

Ittifoq va shtatlarni boshqarish predmeti rasman yetarlicha qattiq chegaralab qo'yilgan. Konstitutsiyadagi Kongress vakolatlariga tegishli savollar ro'yxati Ittifoq va shtatlarni ajratib turadigan devor bo'lib xizmat qiladi. Ro'yxatga Konstitutsiya mualliflari qo'yidagilarni ham kiritganlar: shtatlararo va tashqi savdoni boshqarish, pul zarb etish va uning qiymatini aniqlash, toshni belgilash, hokimiyatning federal organlarini ta'sis etish, armiya va harbiydengiz flotini yaratish va boqish, xalqaro ishlarni olib borish, pochta xizmatini tashkil etish, mualliflik huquqi va fuqarolik berish masalalarini reglamentlash, AQShning hududiy mulklarini boshqarish.

Ushbu ro'yxat «nazarda tutilgan» vakolatlar prinsipi bilan to'ldirilgan. Imodaning 8bo'lim oxirgi bandida o'rnatilganidek, prinsip Kongressga «hamma qonunlarni chiqarish huquqini beradi, qaysiki, bu yuqoridagi vakolatlar va ushbu Konstitutsiya bilan Qo'shma Shtatlar hukumatiga berilgan hamma boshqa vakolatlarni harakatga keltirish uchun zarurdir».

Federativ munosabatlarni rivojlantirish jarayonida ushbu me'yor Kongress huquqlarini kengaytirishda deyarli hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Uning AQSh Oliy sudi tomonidan erkin talqin etilishi moliya va mualliflik huquqi sohasida maxsus huquqlarni qo'lga kiritishga, federal huquqni buzganlik uchun jazolovchi jinoiy qonunchilik to'plamini tuzishga imkon berdi.

Lekin shtatlararo savdoni boshqarish haqidagi me'yor keng talqin qilindi. 1824 yilda AQSh Oliy sudi o'z qarorida, «Savdo munosabatlari — bu oddiy savdo emas, undan kattaroq narsa. Bu — tovarlar va munosabatlarning harakati», deb ta'kidladi. Keyinroq, 1851 yilda shtatlararo savdoga amaliy keng qamrovli ahamiyat beriddi. Oliy sudning fikriga ko'ra, bu ahamiyat V «yagona huquqiy boshqarishni» talab qiladigan hamma masalalarni qamrab olishi kerak edi. Hozir shtatlararo savdoni boshqarish haqidagi Konstitutsiya formulasi savdo, mehnat huquqi va tabiatni qo'riqlash masalalarini qamrab oluvchi yaxlit qonunchilik to'plami asosida yotadi.

«Nazarda tutilgan» vakolatlar prinsipi federatsiya va federal qonunchilikning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi, ko'pgana sohalarda ustunligani tasdiqlashga imkon berdi. Lekin bularni qo'llash chegarasi cheklanmagan emas. Umuman olganda, u % Konstitutsiyaning «harfiga» suyanishi kerak, hech bo'lmaganda ushbu " Asosiy Qonunda qayd etilgan ayrim vakolatlarga uzoq bo'lsa ham aloqador bo'lishi kerak. Kongress hokimiyatini asoslashda yuzaga keladigan bo'shliq, unga «xos» vakolatlar bilan to'ldiriladi. Ular, AQSh Oliy sudi tasdiqlaganidek, davlat suvereniteti tushunchasidan ayricha emas.

AQSh Konstitutsiyasi Kongressning faoliyat ko'lami bilan yaegaralanib qolmaydi. Birinchidan, federatsiya va shtatlarning «takroriy» huquqlari ko'lami aniqlangan. Uning tarkibiga fuqarolik huquqlari sohasidagi qonun ijodkorlik va huquqlarni qo'llash, soliq to'lovi, korporatsiyalar faoliyatini reglamentlash, «umumiy farovonlikni» ta'minlash kiradi. Ko'rsatilgan masalalar ham ittifoqni, ham shtatlarni boshqarishga taalluqlidir. Biroq ular ushbu masalalarda tenghuquqlilik asosida ishtirok etmaydilar, chunki Kongressning «huquqlar ustunligi» doktrinasiga muvofiq, shtatlarning federal qonunchilikka qarshi bo'dagan qonunchiliklari emas, balki federal qonunchilik haqiqiy, deb hisoblanadi.

Boshqaruv predmetlarini ajratib turuvchi konstitutsiyaviy mexanizm, federatsiya va shtatlar tomonidan reglamentatsiya qilinmaydigan masalalar ro'yxati bilan to'ldiriladi. Eksport Uchun soliqlar olish, dvoryanlik unvonini in'om qilish, quldorlikka yo'l qo'yish, huquqlar to'g'risidagi «Bill» talablarini buzish federatsiyaga ham, shtatlarga ham taqiqlangan. Bundan tashqari, federatsiyaga shtatlar aholisining sonini inobatga olmay turib, bevosita soliqlar solish, huquqlarini poymol qiluvchi bilvosita soliqlar o'rnatish, savdoda kimgadir yengalliklar yaratish, shtatlarning roziligisiz chegaralarini o'zgartirish taqiqlangan.

Shtatlar, o'z navbatida, Kongressning roziligisiz, boshqa shtatlar bilan xalqaro shartnomalar va bitimlar imzolashga, pul zarb qilishga, tinchlik davrida qo'shin asrashga, shartnomalar majburiyatiga, federal Konstitutsiya va uning asosida qabul qilingan qonunlar va imzolangan shartnomalarga qarshi qonunlar qabul qilishga haqqi yo'q.

Konstitutsiya matnida shtatlarning vakolat doirasi mustahkamlanmagan. Shtatlar hokimiyat organlari uchun «qoldiq» vakolatlar saqlanib qolgan, u masalalar Asosiy qonunga va federatsiyani boshqarishdagi amaliy sharhga ham kiritilmagan va maxsus cheklovlar va taqiq (Konstitutsiyaga X tuzatish)larga ham kiritilmagan.

Rasman, shtatlarni boshqarish masalasida Kongressning aralashishga haqqi yo'q. Amalda esa bunaqa emas. Shtatlarda ichki tartibsizliklar bo'lsa va federal qonunchilikni shtatlarning o'zidan himoya qilishga zaruriyat tug'ilgan paytda shtatlar hududiga qo'shin kiritilishi mumkin. Federal qonunlarini buzgan shtatlarning mansabdor shaxslari ustidan federal sudlarda jinoyat ishlari qo'zg'atilishi mumkin. Biroq «hamyon hokimiyati» hamon kuchli bo'lib qolmoqda.

Konstitutsiyaga muvofiq, «Kongress har qanday manbadan ko'rilgan daromaddan soliq o'rnatishga va olishga haqli» (XVI tuzatish). Ushbu huquqdan foydalanib, Kongress 1986 yilda soliq huquqini isloh qilish to'g'risidagi qonun qabul qilinishi munosabati bilan shtatlarni bir qator byudjet manbaalaridan mahrum etdi. Masalan, 1987 yilda shtatlarning savdo aylanmasidan tushgan soliq tushumi atigi 5,2 mlrd. dollar bo'lib, bu 1985 yiddagidan (10,2 mlrd.dollar) qariyb 2 marotoba kam. Shtatlarning Kongress tomonidan qabul qilingan yordam dasturiga qaramligi kengaydi. Federatsiya tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam esa Kongress tomonidan shtatlardagi siyosatga aniq ta'sir eta oladigan bir qator shartlar bilan birga olib boriladi.

Kongress vakolatining hajmini vertikal yo'nalish («federatsiya» — «shtatlar») bo'yicha aniqlab, Kongressning siyosiy hokimiyat tizimidagi rolini gorizontal yo'nalishda («Kongress Prezident AQSh Oliy sudi») ko'rib chiqamiz.

AQSh Kongressi ikki palatadan — Vakillar palatasi va Senatdan iborat.

2. AQSh Kongressining ikki palatasi — Vakillar palatasi va Senatdan

- Vakillar palatasi

Umummilliy vakillik organi bo'lib, ikki yilga saylanadigan 435 deputatdan iborat. Shtatlarga deputatlik o'rinlari ularning aholisi soniga mutanosib (proporsional) tarzda taqsimlanadi. O'rinlarni qayta taqsimlash har o'n yidsa bir marta, ya'ni aholini ro'yxatga olish natijalaridan keyin

amalga oshiriladi. Vakillik palatasiga saylovlar bo'yicha tuziladigan saylov okruglari imkon qadar teng aholi sonini qamrab olishi kerak. Hozirgi paytda vakillikning kvotasi 520 ming kishini tashkil etadi. Eng ko'proq vakillik Kaliforniya (45), NyuYork (34), Texas (27), Pensilvaniya (23) va Illinoys (22) shtatlariga berilgan. Bir qator shtatlar — Alyaska, Vermont, Vayoming, Delaver, Janubiy va Shimoliy Dakota bittadan vakillikka ega. Bu Konstitutsiya bo'yicha eng kam me'yor hisoblanadi. To'lahuquqli a'zoldan tashqari Palataga yana Kolumbiya Federal okrugidan, Guam va Virginiya orollaridan, Sharqiy Samoa va PuertoRikodan bittadan delegat saylanadi. Ular palata va uning qo'mitalari ishida ishtirok etishga haqli bo'lsalarda, lekin ovoz berish huquqiga ega emaslar.

Konstitutsiyaga muvofiq Vakillar palatasining deputatligiga nomzod 25 yoshga to'lgan, kamida yetti yil AKSh fuqarosi va o'zi saylanadigan shtat aholisidan bo'lishi kerak.

Senat shtatlarning vakillik organi bo'lib, aholi sonidan qat'i nazar, 50 shtatning har biridan ikkitadan deputat yuboradi. Senatorlar ham Vakillar palatasi kabi olti yil muddatga saylanadilar, lekin har ikki yilda Senatning uchdan bir tarkibi qayta saylanadi. Bu holat Senatga maxsus, ya'ni doimiy ishlovchi organ maqomini beradi. Senatning yana muhim jihati shundan iboratki, Konstitutsiya bo'yicha unga bir qator muhim mustaqil vakolatlar berilgan. Senatning «maslahati va roziligi bilan» xalqaro shartnomalar imzolanadi. Senat ma'qullagandan keyin Prezident federal ma'muriyatining mansabdor lavozimlari va federal sudyalik mansablariga odam tayinlaydi. Senat tarkibi vakillar Palatasi tarkibidan kichikligi ham ahamiyatli, Senat hokimiyatning elita instituti ekanligini bildirib turadi.

Konstitutsiyaga muvofiq AQSh Senatorligiga nomzod 30 yoshga kirgan, kamida to'qqiz yil AQSh fuqarosi va o'zi saylanadigan shtat aholisidan bo'lishi kerak.

Yangi chaqirilgan Kongressning ishi mazkur Kongressga saylov o'tgan yildan keyingi yilning 3 yanvar kunining yarmida boshlanadi.

Parlament va siyosiy partiyalar

1988 yilgi saylovdan keyin 101 Kongressda siyosiy kuchlar Qo'iidagicha taqsimlandi: vakillar palatasida 262 deputatlik o'rnini demokratlar, 173 o'rinni respublikachilar partiyasi egalladi. Senatdagi kuchlar nisbati 55 demokrat va 45 respublikachidan iborat bo'ldi.

Kapitoliyda partiyalarning roli muhim. Kongressning har bir palatasidagi partiya tashkilotlarining tarkibi qo'yidagicha ifodalangan: ko'pchilik va kamchilikning yetakchilari «qamchilar», partiyalarning siyosiy qo'mitalari va konferensiyalari (kokuslar).

AQShning asosiy siyosiy partiyalari Respublikachilar va Demokratlar bo'lib, ular saylovlarda asosiy rol o'ynaydi va amadda partiyaning parlamentdagi tarkibini shakllantiradi. Vakillar palatasi partiya tashkilotlari tarkibi qo'yidagicha shakllangan: ko'pchilik va kamchilikning yetakchilari «qamchilar», partiyalarning siyosiy qo'mitalari va konferensiyalari (kokuslar).

Vakillar palatasida ko'pchilikning yetakchisi ko'p deputatlik o'rniga ega bo'lgan partiya konferensiyasida yashirin ovoz bilan saylanadi. U palataning mansabdor shaxsi bo'lmasada, spikerdan keyin ikkinchi shaxs hisoblanadi.

Ko'pchilik yetakchisining vazifasi hech qanday aktda belgilanmagan bo'lsada, biroq uning roli zalvorli — u partiya strategiyasini rejalashtirishga, fraksiyaning qonunchilik faoliyatdagi birligiga, jamoatchilik va matbuot bilan aloqaga javob beradi; u orqali asosan ijroiya hokimiyatining palata rahbarlari bilan bo'ladigan muloqoti amalga oshiriladi. Ko'pchilik yetakchi deputatlarga ta'sir o'tkazishda ham imkoniyatlarga ega, chunki obro'li qo'mitalarga saylash, saylov kampaniyalariga ko'maklashish, deputatlar tashabbusini qo'llabquvvatlash uning pozitsiyasi bilan bog'liq. Xuddi shunday vazifa va maqom palatanyng kamchilik yetakchisiga ham taalluqli bo'lib, faqat u o'z partiyasida birinchi shaxs bo'lib hisoblanadi.

Ko'pchilik va ozchilik yetakchilarining oldiga qo'yilgan masalalarni bajarishda muhim rol «qamchilar» — fraksiyaning rahbariyati va oddiy a'zolari o'rtasidagi bo'g'in vazifasini o'taydigan saylangan partiya ijrochilariga yuklatilgan. «Qamchilar», ularning yordamchilari va o'rinbosarlari o'z partiyasi deputatlarini birlashtirishga harakat qiladilar. Ular, yana, o'z deputatlarining palataga kelishlari va ovoz berishlarini kuzatib boradilar, ular uchun qaysi majlislarda ishtirok etish va unda

u yoki bu masala bo‘iicha qanaqa pozitsiyani tutish kerakligi to‘g‘risida «shpargalkalar» tayyorlaydilar.

Vakillar palatasidagi Demokratik partiyaning siyosiy qo‘mitalar tarkibiga: Siyosiy qo‘mita, saylov kampaniyasini o‘tkazish bo‘yicha qo‘mita va kadrlar bo‘yicha qo‘mita kiradi.

Boshqaruvchi va siyosiy qo‘mita 31 a‘zodan iborat. Uni palataning spikeri boshqaradi. Qo‘mitaning 12 a‘zosi Kongressmenlarning hududiy guruhlaridan saylanadi, 11 a‘zo qo‘mita tarkibiga mansab bo‘yicha kiradi, 8 a‘zospiker tomonidan tayinlanadi. Siyosiy qo‘mita vazifasiga fraksiyalarning doimiy qo‘mitalari shaxsiy tarkibini anikdash, qonunchilik faoliyatining yalatformasini shakllantirish, spikerga maslahat berish, va ayaohida holatlarda u yoki bu qonun loyihalarini muhokama qilish kiradi.

Saylov kampaniyalarini o‘tkazish bo‘yicha qo‘mita keyingi muddatga saylanish uchun o‘z nomzodini qo‘yadigan kongressmenlarni qullabquvvatlaydi. Kadrlar bo‘yicha qo‘mita palata qo‘mitalari apparatiga kadrlar tanlaydi.

Respublikachilar partiyasi qo‘mitasiga qo‘yidagilar kiradi: Siyosiy qo‘mita — strategiyani, dasturlarning muqobil loyihasini ishlab chiqadi va partiya tarkibidagi muxolifat birligini ta‘minlaydi; Tadqiqot qo‘mitasi — ilmiy va axborotyo‘qlov ishlarini muvofiqlashtiradi; Qo‘mitalar qo‘mitasi — muxolifatning doimiy qo‘mitalari shaxsiy tarkibini anikdaydi; saylov kampaniyasini o‘tkazish bo‘yicha Qo‘mita va kadrlar bo‘yicha Qo‘mita — Demokratik partiyadagi qo‘mitalar bajaradigan vazifalarni bajaradilar.

Demokratik partiyaning umumiy majlisi (kokus) va Respublikachilar partiyasining konferensiyasi Palataning Oliy partiya organlari hisoblanadi. Ularning vazifasiga fraksiyaning umumiy pozitsiyasini shakllantirish, partiya siyosiy qo‘mitalari va yetaxchilarini saylash, palataning doimiy qo‘mitalari tarkibiga nomzodlarni ma‘qullash kiradi.

Senat.

Yuqori palataning partiya organlarini tashkillashtirish ko‘p holatlarda Vakillar palatasidagiga o‘xshab ketadi. U ham ko‘pchilik va kamchilik yetakchilari, «qamchilar», siyosiy qo‘mitalar va konferensiyalardan iborat. Ularning vazifalari ham ko‘p holatlarda o‘xshash, lekin ko‘pchilik yetakchilarining roli va partiyaning siyosiy qo‘mitalarini tashkillashtirish masalalarida farq bor.

Senat ko‘pchiligining yetakchisi — Vakillar palatasi ko‘pchiligining yetakchisi kabi partiyaning mansabdor shaxsi bo‘lsada, palata ierarxiyasida birinchi shaxs. U na faqat vaqtinchalik rais, balki bir qator muhim partiya lavozimlarini birgalikda olib boradi. Ko‘pchilikning yetakchisi bir paytda ikkita qo‘mitaga — (boshqaruv va siyosiy) hamda demokratik partiya konferensiyasiga raislik qiladi.

Demokratik va Respublika partiyasi Senatda uchtdan qo‘mitaga ega.

Demokratik partiya qo‘mitalari tarkibi: siyosiy qo‘mita (9 a‘zo) — u yoki bu masalalardagi fraksiya pozitsiyasini ishlab chiqadi va Senatdan o‘tadigan aktlar tartibi bo‘yicha tavsiya beradi; boshqarish qo‘mitasi (22 a‘zo) — Senatning doimiy qo‘mitalari shaxsiy tarkibini aniqlaydi; saylov kampaniyasi o‘tkazish bo‘yicha qo‘mita (15 a‘zo) — keyingi muddatga nomzodini qo‘ygan Senatorlarni qo‘llabquvvatlaydi.

Respublikachilar partiyasi qo‘mitalari tarkibi: siyosiy qo‘mita (23 a‘zo) — demokratik partiya loyihalari bo‘yicha muqobil siyosiy platforma ishlab chiqadi, Senatning qonunchilik ishlaridagi u yoki bu masalalar bo‘iicha fraksiya pozitsiyasini belgilaydi;

qo‘mitalar qo‘mitasi (17 a‘zo) — muxolifat doimiy qo‘mitalarining shaxsiy tarkibini aniklaydi;

saylov kampaniyasi o‘tkazish bo‘yicha qo‘mita (15 a‘zo) — Demokratik partiyadagi o‘xshash qo‘mitalar vazifasiniki kabi vazifasini bajaradi.

Kongress partiya organlarining tarkibi va vazifalari obzoriga yakun yasagan holda, bir qator muhim holatlarga e‘tibor qaratish lozim. Birinchidan — partiya organlari partiyadan bo‘lgan deputatlarga ta‘sir etish uchun yuridik jihatdan mustahkamlangan birorbir mexanizmga ega emas. Ikkinchidan — fraksiyalarning o‘zlari birliqdan uzoq. Ular Kongress a‘zolarining hududiy vakillik va siyosiy yo‘nalishi bo‘yicha bo‘linib ketgan. Uchinchidan — palatalarning fraksiyalari ham

o'zaro, ham partiyaning markaziy organlari bilan kuchsiz bog'langan. Ko'rsatilgan omillar ko'p jihatdan Kapitoliydagi partiyalar faoliyatining aniq manzarasini chizib beradi.

Palatalarning tashkiliy tuzilishi

Ko'pchilik partiyasidan Kongressning birinchi sessiyasi boshlanishida saylanadigan spiker Vakillar palatasining raisi lavozimini egallaydi. Spiker Prezident va AQSh Oliy sudi raisidan keyin davlatda uchinchi shaxsdir.

Spikerning vazifasi yetarlicha keng bo'lib, u palataning ishiga rahbarlik qiladi va o'rnatilgan qoidalarining bajarilishini ta'minlaydi, tekshiruv va kelishuv qo'mitalariga deputatlar tayinlash huquqiga ega, tartibotga tegishli bahslarni hal qiladi va palatalar majlislarida tartibni ta'minlaydi. Deputat so'z oladimi yoki yo'qmi, unga qaysidir masalada taklif («e'tirof etish huquqi») kiritish huquqi berilishi kabi masalalarni ham Spiker hal qiladi. Spiker rahbarligida palataning hamma mansabdor shaxslari: vakillar Palatasining klerki, kotiblar, pristav, eshik qorovuli, pochta mudiri va parlament amaliyoti bo'yicha ekspert ishlaydilar. Deputat bo'lmagan ushbu mansabdor shaxslar palata tomonidan birinchi sessiyaning boshlanishida saylanadi va ulardan har biri o'ziga bo'ysunadigan ma'muriyatga ega.

AQSh visePrezidenti Senat raisi hisoblanadi. U palata majlisini o'tkazishi mumkin, biroq, agar Senatorlar ovozi teng taqsimlanmagan bo'lsa, ovoz berishi kerak emas. Amadda visePrezident o'ziga berilgan huquqlardan kam foydalanadi va yo'qligida uning vazifasini Senat tomonidan saylanadigan muvaqqat rais bajaradi. U, spikerga o'xshab, ko'pchilik partiyasiga tegishli shaxs bo'lishi kerak. Senat raisining vazifasi to'lig'icha spiker vazifalari bilan o'xshash bo'lsada, u o'z ixtiyoriga ko'ra «e'tirof etish» huquqini amalga oshira olmaydi.

Kongressda parlament faoliyatiga tegishli dolzarb masalalarni hal qilish uchun tuziladigan qo'mitalar muhim rolni o'ynaydi. Kongress qo'mitalari tarkibiga doimiy, tekshiruvchi, maxsus va birlashgan qo'mitalar kiradi.

Palatalarning doimiy qo'mitalari qonunchilik faoliyatining muvofiq yo'nalishlari bo'yicha tuziladi va Kongressning asosiy ijrochi bo'limlari rolini bajaradi. Palatalar reglamenti har bir qo'mitaning vakolatini aniq belgilab beradi.

Qo'mitalar boshqaradigan masalalarning umumiy ro'yxati har bir palatada 200 dan oshib ketadi. Ushbu masalalar bo'yicha qo'mitalar nafaqat xulosalar beradilar va loyihalar bo'yicha palatalarga dokladlar taqdim etadilar, balki harakatdagi qonunchilikni qo'llash amaliyotining tahlilini ham o'tkazadilar.

Senatdagi va Vakillar palatasidagi qo'mitalarning tarkibi turli xil tarzda aniklanadi. Senatda u Doimiy qoidalar (reglament) bilan o'rnatilgan. Vakillar palatasida u, palataning Har bir yangi tarkibi bilan qaytadan belgilanadi. Lekin har bir qo'mitadan partiya uchun ko'p o'rin saqlanib qolish talabi o'zgarmasdan qoladi.

Tekshirish va maxsus qo'mitalarning tashkil etish tartibi harakatdagi qonunchilik yoki palatalar reglamentlari bilan belgilanmagan. Ularni tuzishdan maqsad, tekshirish yoki qanaqadir maxsus masalalarni, ayniqsa qonunchilikni qo'llash amaliyoti, ijtimoiy muammolarni, hukumat organlari, jamoat tashkilotlari va Kongress a'zolarining faoliyatidagi huquqbuzarlikni o'rganish hisoblanadi.

Qo'mitalarning shaxsiy tarkibi palatalar tomonidan ularning oldiga qo'yilgan vazifaga qarab belgilanadi. Qo'mitalar tarkibiga palatalarning raislari odam tanlaydilar. Tuzilgan maxsus va tekshirish qo'mitalarining vakolat va faoliyat muddati palataning tegishli rezolyusiyasi bilan reglamentlanadi. Maxsus va tekshirish qo'mitalarining dokladlari ularni tashkil etgan palatalar tomonidan tinglanadi. Dokladlar tinglab bo'linganidan keyin, qoidaga ko'ra, maxsus qo'mitalar tarqatib yuboriladi.

Kongressning qo'mita tizimiga yana birlashgan qo'mitalar — ikkala palataning qo'shma rezolyusiyasi yoki tegishli qonun asosida ikki tomonni teppateng ko'rgan hodda tuzilgan doimiy harakatdagi, ixtisoslashtirilgan organlar kiradi. Ular ikkala palata tomonidan qabul qilingan rezolyusiya yoki qonun loyihasi matnlari bo'yicha o'zaro kelishuv zarur bo'lgan holatda tuziladi.

AQSh Kongressi, yana tarmokdanib kettan yordamchi organlar tizimiga ega bo'lib, ular Kongressning nazorat vazifalarini amalga oshiradilar, qonunchilik faoliyatini ilmiytadqiqot va

axborotyo'riqnoma xizmati bilan ta'minlaydilar. Ushbu tizim tarkibi: Bosh hisobot boshqarmasi — ijroiya hokimiyat organlarining moliyaviy faoliyatini va Kongress tomonidan tasdiqlangan dasturlarni amalga oshishini nazorat qiladi; Texnologik baholashni boshqarish — qo'mitalarga davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan qonun loyihalarini ishlash chiqish jarayonida yordam ko'rsatadi, fan va texnikaning turli yo'nalishlari bo'yicha uzoq muddatli ilmiytadqiqot ishlari o'tkazadi; Kongressning Byudjet boshqaruvi — byudjetli qo'mitalar uchun byudjet bo'yicha har yilgi doklidlarni, hamda Kongress tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy «bill»lar va rezolyusiyalar iqtisodiy ta'sirining besh yillik prognozini ishlab chiqadi; Kongressning ilmiytadqiqot xizmatitaxdiliy ma'lumotnomalar tayyorlaydi, qonun loyihalari bo'yicha maslahat va xulosalar beradi, tarjimalar qiladi.

Kongressning yordamchi organlari qatoriga yana qonunchilik Kengashi va qonunchilikni qayta ko'rib chiqish bo'yicha Kengashni kiritish mumkin. Ularning vazifasiga huquqiy masalalar bo'yicha axborotlarni to'plash, tahlil qilish va umumlashtirish, qonunchilik ishlarining perspektiv rejalarini ishlab chiqish, maslahat berish, qonun loyihalarini ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Yordamchi organlar tarkibiga yana Kongress kutubxonasi va Kongressning huquq kutubxonasi ham kiradi; ular hozirgi paytda dunyo bo'yicha eng yirik kutubxonalardan sanaladi.

3. AQSh Kongressining nazorati vakolati va tartiboti

AQSh siyosiy mexanizmida Kongressning roli ikkita konstitutsiyaviy omil: mamlakatning federativ qurilishi va «hokimiyatning bo'linishi» mexanizmi bilan belgilab berilgan. Rasman federatsiya va shtatlarni boshqarish predmeti qat'iy ajratib qo'yilgan, lekin Konstitutsiyada yana federal markazning «faraz qilinadigan» vakolatlar prinsipi mustahkamlangan bo'lib, shunga muvofiq AQSh Kongressi «Konstitutsiya tomonidan AQSh hukumatiga berilgan hamma boshqa vakolatlar va yuqorida qayd ztilgan vakolatlarni harakatga keltirish uchun zarur va kerakli hamma qonunlarni qabul qilish huquqiga ega». «Faraz qilinadigan» vakolatlar prinsipi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi ko'pgina sohalarda federal qonunchilik va federatsiyaning ustunligini mustahkamlab qo'ydi. Shu bilan birga AQSh Konstitutsiyasi federatsiya va shtatlarning «mos tushuvchi» huquq doiralarini aniqlaydi, biroq bahs qo'zg'alganda Kongressning «ustun huquqlar» doktrinasiga muvofiq federal qonunchilik haqqoniy deb topiladi.

Kongress qonunlar chiqarishdek maxsus huquqini yo'qotgani sabab, Prezident va ko'pgina boshka idoralarga qonun tashabbuskorlik huquqi mustahkamlanib, bular Kongressning o'zi tomonidan beriddi. Sud hokimiyati faoliyati ham mazmuni bo'yicha qonun tashabbuskorlik hisoblanadi, konstitutsiyaviy va qonunchilik me'yorlari huquq tizimiga o'mak sud qarorlari (president) shaklida kiradi, ya'ni sudlar keyingi o'xshash ishlarni Hal qilish uchun huquqiy asos qilib olishi kerak bo'ladigan holatda kiradi.

Ijro hokimiyatining faoliyat doirasi ham daxlsiz qolmaydi. Masalan, sudlar ma'muriy organlar uchun u yoki bu ishni «ajarish yoki ayrim harakatlarni bajarishdan o'zini tiyib turishga majburlovchi buyrukdar chiqarishga haqli. O'z navbatida Kongress, rezolyusiya va shaxsiy «bill»lar (qo'yiga qarang) qabul qilib, ayrim holatlarda o'ziga bo'ysunuvchi yoki bo'ysunmaydigan organlar va shaxslarga nisbatan boshqaruv va farmoyish berish vazifasini bajaradi.

Vazifalarning bunday chalkashligi davlat hokimiyati mexanizmini jamiyatning taraqqiyoti ilgari surgan talab va vazifalarga to'liq moslashtirish maqsadiga xizmat qiladi.

Hokimiyatning bo'linishi prinsipi, ko'p holatlarda, hokimiyat tarmoqlaridan qaysidir birining harakatini to'xtatib qolish yoki zararsizlantirish imkonini beruvchi «tiyilish va posangi» tizimining ta'siri bilan to'ldiriladi. Kongressga qonun bo'yicha ichki va tashqi siyosat sohasida bir qator vakolatlar berilgan. Konstitutsiyaga muvofiq Kongress qo'yidagi vazifalarni bajaradi: qonunlar qabul qilish; davlat byudjeti va moliyaviy tushumlarni boshqarish; ijro va sud hokimiyati apparatini shakllantirishda ishtirok etish; hukumat apparati faoliyatini nazorat qilish; sudga o'xshagan vazifalarni bajarish; Hukumatlararo munosabatlarni boshqarish. Bundan tashqari, yana «konstitutsiyaviy bo'lmagan» bir qator vazifalarni bajaradiki, bular ko'p jihatdan Kongressning, partiyalar, ijtimoiy tabaqalar va guruhlar, jamoat va kasaba uyushmalar namoyandasi sifatidagi rolini ko'rsatadi;

Kongressning faoliyati AQSh Konstitutsiyasi, alohida qonunchilik aktlari, Senatning Doimiy qoidalari va Vakillar palatasining Doimiy qoidalari, hamda palatalarning odat va o'rnak (president)lari bilan tartibga solingan.

Kongressning Sessiyali ishlash shakli. Kongressning birinchi sessiyasi saylov o'tgan yiddan keyingi yilning 3 yanvarida boshlanadi. Keyinchalik sessiyalar borishini Kongressning o'zi belgilaydi, lekin jiddiy shart qo'yadiki, unga ko'ra sessiya o'tayotgan paytda palatalarning birortasi ikkinchisining roziligisiz o'z majlisini uch kundan ortiq muddatga qoldirishi yoki uni o'tkazish joyini ikkala palata yig'iladigan joydan boshqa joyga ko'chirishi mumkin emas. Favquloddagi holatlarda ikkala palatani yoki ulardan birini chaqirish vakolati AQSh Prezidentiga berilgan.

Sessiya o'z majlisini aniq muddat yoki noaniq vaqtga o'tkazganligi to'g'risida qaror qabul qilishi bilan to'xtatiladi. Oxirga qaror rasman sessiya tugaganligini bildirib, parlament tanaffusi e'lon qilingan, deb hisoblanadi.

Palatalarning majlislari ochiq o'tkaziladi, lekin yopiq majlis o'tkazishga ham ruxsat beriladi. Masalan, Senatda majlislar palataning ko'pchiligi qarori bo'iicha «yopiq eshiklar ortida» o'gkziladi, bunda taklif Senator tomonidan kiritilgan va yana kamida palataning bitta a'zosi tomonidan ma'qullangan bo'lishi kerak. Palatalarning majlislari kворum bo'lgan holatda haqqoniy, deb hisoblanadi. Kворum bo'lmagan holatlarda palatalar palata nozirlariga (pristavlariga) tegishli farmoyishlar berib, kelmagan a'zolari majburiy tartibda «yelishini ta'minlashi topshiriladi. Palatalar sessiyasi uni o'tkazish qat'iy belgilangan tartibda qonun chiqarish kunlarida o'tkaziladi.

Senatning Doimiy qoidalariga muvofiq, palataning har kungi ish tartibi qo'yidagi bosqichlardan iborat. Majlis Senat ruhoniysining ibodati bilan ochiladi. Shundan keyin raislik qiluvchi o'z o'rnini egallaydi va kворum bo'lgan holatda o'tgan qonunchilik kunidagi jurnal yozuvlarining noaniqliklarini o'qiydi va tuzatadi. Bu rasmrusum tugagandan keyin Senat keyingi bosqichga o'tadi — «ertalabki masalalar», ya'ni Prezidentning xati, (vazirliklar) departamentlar boshlig'ining doklad va xabarlar va Senatga kelib tushgan boshqa xabarlar, hamda kechagi kunda «raisning stolida» ko'rilmadan qolgan qonun loyihalari, rezolyusiyalar va boshqa hujjatlarni ko'rib chiqadi. «Ertalabki masalalar» bosqichi qo'yidagi hujjatlarni kiritish bilan tugaydi: arznomalar va afv, doimiy qo'mitalarning dokladlari, qonun loyihalari, Senatning birgaliqdagi va boshqa rezolyusiyalari. Ularni Senatga taqsim etish huquqi yuqorida ko'rsatilgan navbatda faqat Senatorlarga berilgan. Bundan keyin, kun yarmidan oqqanda Senat oxirgi bosqichga — ya'ni «Qonun loyihalari va rezolyusiyalar taqvimini» bo'yicha yoki «Ijroiya hrkimiyat tomonidan Senatga tasdiqlash uchun taqdim etilgan savollar taqvimini» bo'yicha kun tartibini ko'rib chiqishga o'tadi. Vakillar palatasining kun tartibi umuman kam ahamiyatli farqqa ega. Masalan, Kolumbiyaning Federal okrugi to'g'risidagi masalalar bo'yicha xususiy «bill»lar va qonun loyihalarini muhokama qilish uchun palata tomonidan maxsus majlis kunlar beyagilangan. Vakillar palatasi to'rtta taqvimga ega. «Ittifoq taqvimini» pul bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan ommaviy «bill»lardan iborat. Ular amalda palataning hamma majlislarida muhokamaga qo'yilishi mumkin degan imtiyozga ega. «Paizgsa taqvimini» pul bilan bog'liq bo'lmagan ommaviy «bill»larDan iborat. «Xususiy taqvim»ga xususiy «bill»lar kiritiladi.

«Kelishuv taqvimini» kam ahamiyatli va qandaydir e'tiroz bildirmaydigan qonun loyahasiga kiritiladi. Ularning muhokamasi soddaroq tartibda o'tadi.

Rasman qonun loyihalari, rezolyusiya va boshqa hujjatlar taqvimga kiritilgan navbatda qo'rib chiqiladi. Biroq amalda «Afzallik tartibi» qoidalari bilan taqvimga tuzatish kiritiladi.

Odatlar, o'rnak voqealar (president)lar va ayrim reglamentlar asosida o'rnatilgan bu qoidalar palatalar rahbariga yaroqsiz qonun loyihalarini kun tartibidan olib tashlab, zarurlarini o'tkazishga imkon beradi.

Ish yurgizishning beso'naqay tartibi uni yengillashtirishning alohida shakllarini taqozo etadi. Masalan, Senatda majlisni navbatdagi taqvim kuniga cho'zish mexanizmidan foydalaniladi. Shu munosabat bilan qonunchilik kunlari cho'zilib ketadi, lekin Senat qoidani buzib bo'lsa ham tugallanmagan ishlar muhokamasini davom ettirish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu maqsadda Vakillar palatasi ham, Senatda ham deputatlarning uchdan ikkisining roziligi bilan qoidani harakatdan to'xtatish amaliyoti qo'llaniladi. U kam ahamiyatli masalalar muhokamasi uchun vaqt

yo'qotmasdan ishlarni ko'rib chiqish tartibini yengillashtirishga imkon beradi. Ko'pgina rasmlar qoidalar Senatorlar va Vakillar palatasining a'zolarining oddiygina «bir ovozdan kelishishlari» bilan hal bo'lib ketadi.

Bahslar palataning qo'yidagicha qoidalar bilan reglamentlanadi. Senatda Senator so'zga chiqishni istasa, o'rnidan turishi va raislik qiluvchidan ruxsat so'rab murojaat qilishi kerak. Rais qaysi Senator unga birinchi murojaat qilgan bo'lsa, so'zni o'shanga beradi. Bahs munozarada Senatning roziligisiz hech kim taqvim kuni davomida ikki martadan ortiq so'zga chiqishga haqi yo'q. Senat qoidalarida amalda bahsni davom ettirishni cheklamaydi; so'zga chiqqanlar faqat muhokama masalasi bo'yicha gapirishlari ham talab qilinmaydi.

Bahslarni to'xtatish shu haqdagi qaror asosida bo'lishi mumkin. Lekin uni qabul qilish rasmlar juda murakkab. Bahslarni to'xtatish haqidagi arznoma kamida 16 senator tomonidan imzolanishi kerak. Bir taqvim kundan keyin u ovozga qo'yiladi. Qaror qabul qilinishi uchun ishtirok etayotgan Senatorlarning (100 Senatordan to'liq 60 tasi ishtirok etgan holatda) beshdan uch qismining roziligi zarur. Agar taklif qabul qilinmasa, bahs vaqti cheklanmaydi. Masala taqvimda qolib, muhokamani kutib yotaveradi. Agar bahslarni tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinsa, muhokama etilayotgan masala bo'yicha har bir chiqish bir soat bilan chegaralab qo'yiladi.

Bahslar vaqti palatadagi ko'pchilik va kamchilik partiyalari o'rtasida teng taqsimlanadi. 100 soat o'tishi bilan muhokama etilayotgan masala ovozga qo'yiladi. Senatdan farqli o'laroq Vaqillar palatasida bahsda so'zga chiquvchilar muhokama etilayotgan masaladan chetga chiqishlari mumkin emas. Asosiy masalalar bo'yicha ularning chiqishlari bir soatdan, tuzatishlar muhokamasida 5 minutdan oshmasligi kerak. Bahslarni o'tkazish vaqti palatadagi ko'pchilik va kamchilik partiyalar o'rtasida teng taqsimlanadi. Agar palata ovoz berishga o'tish to'g'risida qarorni qabul qilsa, bahs to'xtatiladi.

Qonun loyihalari va rezolyusiyalar muhokamasi mohiyatan qaror qabul qilinishi bilan tugallanadi. Qaror oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi, lekin alohida holatlarda Konstitutsiyalar yoki palatalar qoidalarida ko'zda tutilgan beshdan uch yoki uchdan ikki qism malakali ko'pchilikning ovozi zarur bo'ladi.

Kongressda ovoz berishning beshta usuli qo'llaniladi. Ovoz yordamida ovoz berish natijalarini rais palata a'zolarining qichqirish darajasiga qarab belgilaydi. Alohida ovoz berishda GDalata a'zolari o'rinlaridan turadilar va Senatning kotiblari yoki vakillar Palatasining klerklari tomonidan hisoblab chiqiladi. Hisobchilar orqali ovoz berishda deputatlar palata a'zolari tarkibidan tayinlangan hisobchilar o'rtasidan o'tib hisoblanadilar. Nommanom chaqirib ovoz olishda alohida talablar o'rnatilgan. U, Konstitutsiya yoki reglamentda ko'rsatilgan holatlarda, hamda ishtirok etayotgan palata a'zolarining beshdan birining talabi bo'yicha o'tkaziladi. «Ha» yoki «yo'q» deb berilgan ovoz palata jurnaliga yoziladi. Ko'pincha nommanom SRz berish elektron tizimi yordamida hisoblanadi. Yashirin ovoz berish (byulletenlar bilan) faqat g'ayrioddiy tartibot bilan Prezidentni saylash holatlarida, partiya fraksiyalari «akchilarini va palatalarning doimiy qo'mitalari raislarini RZylashda o'tkaziladi.

Kongress shshshing qo'mita shakli. Palatalar doimiy qo'mitalarining faoliyat tartibi Senat va Vakillar palatasi qoidalyuri, hamda qo'mitalarning o'zlarining qoidalarida bilan reglamentlanadi.

Palatalarning doimiy qo'mitalari har oyda kamida bir marta Chfkli o'tkazadilar. Navbatdan tashqari majlis, qo'mita raisi vKL U e'tiroz bildirsa, maxsus tartibot bilan chaqirilishi mumkin. Masalan, Senatda majlis o'tkazish to'g'risidagi talab, qo'mitaning uchta a'zosi tomonidan qo'yilishi mumkin. Agar rais uch kun ichida majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilmasa, ariza berilgan kundan boshlab hisoblaganda yetti kun ichida Senatorlar majlis o'tkazish kuni, soati va maqsadi ko'rsatilgan xabarnoma tuzadilar. Bu xabarnomani qo'mita a'zolarining ko'pchiligi imzolasa, majlis xabarnomada ko'rsatilgan muddatda o'tkaziladi.

Qo'mita majlisi qo'mita a'zolarining uchdan biriga teng kvorum to'plangan holatda qonuniy bo'ladi.

Qo'mitaga kelib tushadigan masalalar uch boskichdan o'tadi. Birinchisida, qo'mita ularning muhimlik darajasini aniqlaydi va shunga muvofiq ko'rib chiqish tartibini belgilaydi. Keyin qo'mita bo'g'inlarining dokladidan keyin ish mohiyatan ko'rilib muhokama qilinadi. Chaqiruv qogoz

bo'yicha kelgan guvohlar va shaxslar o'zining ekspert bahosini va ko'rsatmalarini beradilar. Qo'mita muhokama etilayotgan masalaga taalluqli hujjatlar, audio va videotasmalarni ko'rib chiqadi. Qoidaga ko'ra ish ochiq tarzda ko'riladi, televideniya ham tez-tez chiqarib turiladi. Palatalar reglamentida maxsus ko'rsatilgan holatlarda, ishni ko'rish «yopiq eshiklar ortida» o'tkaziladi. Masalan, Senatda qo'mitalarning yopiq majlislari davlat xavfsizligiga taalluqli axborotni, shaxsning sha'ni va qadrqimmatini kamsitishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar, tijorat sirlari kabi ma'lumotlarni sir saqlash zaruriyatidan kelib chiqib o'tkaziladi. Oxirgi bosqich — muhokama, mohiyatan qaror qabul qilish va muhokama qilinayotgan masala bo'yicha qo'mita dokladini tasdiqlashdan iborat.

Qo'mita dokladi matniga kamchilikning fikri hamda qo'mita a'zolarining alohida fikrlari kiritiladi. Loyihani qabul qilish yoki qoldirish to'g'risidagi tavsiya bilan birga dokladda, yana ehtimol tutilayotgan byudjet xarajatlariga baho, byudjetga qarashli korxon va shaxslarning umumiy soni, uning shaxsiy hayot daxlsizligiga ta'siri kabilar bo'lishi kerak.

Kongress ishining shakllaridan biri palatalarning qo'mitasida masalalarni qo'rib chiqishdan iborat. Vakillar palatasida bu shakl moliyaviy «bill»lar va o'ta muhim qonun loyihalarining muhokamasida qo'llaniladi. Senatda palatalar qo'mitasi faqat shartnomalarni ko'rib chiqayotganda yig'iladilar.

Palatalar qo'mitasining ish tartibida palata reglamentlaridan muhim farqlari bor. Masalan, palatalar qo'mitasining Vakillar palatasidagi ishida kvorum 100 kishidan iborat, odatdagi majlisda esa 218 kongressmen kerak. Unda nommanom ovoz berish o'tkazilmaydi. Qonun loyihalari faqat o'rganiladi. Palatalar qo'mitasida masalalarni muhokama qilish bosqichlari quyidagicha: umumiy bahslar, qonun loyahasini o'qish va tuzatishlarni muhokama qilish, Vakillar palatasiga qonun loyahasini ma'qullash yoki bekor qilish to'g'risidagi tavsiya bilan qabul qilingan qarorni uzatish. Palatalar qo'mitasida raislikni spiker emas, balki o'zlari tomondan tayinlangan palata a'zosi bajaradi.

Qonunchilik faoliyati

Kongressning qonun tashabbuskorlik faoliyati me'yoriy aktlar, «bill»lar (qonunlar), rezolyusiyalar va buyruqlar ko'rinishida gavdalanadi.

«Bill»lar, Prezident ma'qullagandan yoki uning vetosi olib tashlangandan keyin qonun (akt, statut) maqomiga kiradi. Ular ikki xil, ya'ni ommaviy va xususiy bo'ladi. Birinchisi umumxarakterdagi akt bo'lsa, ikkinchisi individual qo'llanadigan yoki lokal harakatdagi akt hisoblanadi.

Kongress uch turdagi rezolyusiya — qo'shma, o'xshash va oddiy rezolyusiya qabul qiladi. Qo'shma rezolyusiyalar amalda «bill»lardan, u na qabul qilinishi tartibi va na ularning reglamenti bo'yicha farq qiladi.

Ko'pincha harakatdagi qonunlarga o'zgarishlar qo'shma rezolyusiyalar bilan, aksincha, qo'shma rezolyusiyaga o'zgarishlar qonunlar bilan kiritiladi. «Bill»lardagi kabi qo'shma rezolyusiyalar ham Prezidentga imzolash uchun beriladi. Konstitutsiyaviy tuzatishlar loyihalari qo'shma rezolyusiyalar shaklida qabul qilinadi. Ular ikkala palataning uchdan ikki qismdan iborat ko'pchilik ovoz bilan ma'qullansa, Prezident sanksiyasi olinmasdan shtatlarning qonunchilik majlislariga ratifikatsiya uchun yuboriladi. O'xshash rezolyusiyalar ikkala palata faoliyatiga taallukdi bo'lib, me'yoriy xarakterga ega emas va Prezident sanksiyasi ham kerak emas. Amadda o'xshash rezolyusiyalarning kuchi faqat Kongressga tegishli. Oddiy rezolyusiyalar har bir palata tomonidan alohida qabul qilinadi va asosan palatalarning ikki tashkiliy masalalarini reglamentlaydi.

Buyruqlar ham har bir palata tomonidan alohida qabul qilinib, individual qo'llaniladigan farmoyishlarni o'z ichiga oladi.

Qonun loyihalarini kiritish jarayoni juda oddiy. Vakillar palatasida qonun loyahasining matni palata klerkining stolida turadigan «xopper» degan maxsus qutichalarga tashlanadi. Senatda bu rasmrusum palata raisining roziligi bilan «ertalabki majlis» vaqqida Senatning qisqacha nutqi bilan bajariladi. Senatorlar va Kongressmenlar qonun loyahasini mohiyatan taklif etmasdan, ko'rib chiqish haqidagi arznomalarni palataga kiritish bilan chegaralanadilar. Bu holatda qonun loyahasini

ishlab chiqish doimiy qo‘mitaga yoki masalani u yoki bu tarzda hal bo‘lishiga manfaatdor bo‘lgan, o‘z xizmatini taklif etgan lobbichi tashkilotlarga topshiriladi.

Loyiha rasman kiritilgandan keyin u maxsus tipografik blankaga, qonun loyihasining qisqacha nomi tartib raqami, hamda loyihani taqdim etgan va palatadan uni qo‘llabquvvatlagan a‘zolar (Vakillar palatasida ular 25 kishidan ko‘p bo‘lmasligi kerak) ko‘rsatilgan holatda yoziladi. Matn har bir satrga tartib raqami berilgan varaqlarda yoziladi. Bu, loyihaga tuzatish kiritish va muhokama jarayonlari yengil kechishi uchun qilinadi.

Hamma qonun loyihalari uch o‘qishda o‘qiladi. Agar palata bir ovozdan boshqacha tartib belgilamagan bo‘lsa, ular har xil kunda o‘tkaziladi. Birinchi o‘qishda, qoidaga ko‘ra, faqat loyihaning nomi o‘qiladi va uni qo‘mitaga yuborish masalasi hal qilinadi. Doimiy qo‘mita zaruriyat bo‘yicha loyihani keyingi ko‘rib chiqish tartibini aniqlagan holda, uni qo‘mita bo‘limiga yuboradi. Bu bosqichda loyihaning taqdiri butunlay qo‘mitaning qo‘lida bo‘lib, palata qonun loyihasini palataga qaytarish huquqidan kam foydalanadi.

Qonun loyihasini palatada rais yoki uning topshirig‘i bilan, ko‘pchilikdan bo‘lgan qo‘mita a‘zolaridan biri doklad qiladi. Palata qonun loyihasini tegishli taqvimga kiritadi, zarur holatlarda uni kechiktirmasdan ko‘rib chiqishi mumkin.

Palatada muhokama qilinishdan oldin loyiha to‘liq (ikkinchi o‘qish) o‘qib chiqiladi. Muhokama (bahslar) vaqtda deputatlar qonun loyihasiga tuzatish taklif etish huquqiga ega.

Palatalarning qoidalarida alohida talablar bo‘lib, ular qonun loyihasiga «hujumchilar»ning tuzatishlarini ham, muhokama vaqtini asossiz cho‘zib yuboradiganlarni ham cheklaydi. Masalan, Senat reglamentida qonun loyihasini butkul rad etadigan tuzatish kiritish taqiqlangan. Ikkala palatada qonun loyihasi predmeti bo‘yicha qo‘mita a‘zolari tuzatish kiritish huquqiga ega.

Tuzatish, rais yoki palata a‘zosining talabiga ko‘ra yozma tarzda taqsim etilishi kerak. Agar u bir qancha savollarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, uning muhokamasi ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha alohida o‘tkazilishi mumkin.

Tuzatishlar, ishtirok etayotgan palata a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan ma‘qullangan holatda, loyiha matniga kiritiladi. Ovoz berishga qadar deputat o‘zi taklif etgan tuzatishni qaytarib olishi mumkin. Qonun loyihasi uchinchi o‘qishga tayinlanganda, uning matniga tuzatish kiritishga ruxsat berilmaydi, agar palata bir ovozdan boshqacha tartib o‘rnatmasa. Qonun loyihasi bo‘yicha to‘liq ovoz berilgungacha, u yana doimiy qo‘mitaga yuborilishi mumkin, u yerda ham birinchi marta ko‘rib chiqilgandagidek, matniga tuzatish kiritish mumkin emas (faqat taklif etishi mumkin). Qonun loyihasi qayta bosib chiqarilgandan va uchinchi o‘qishdan keyin ovozga qo‘yiladi.

Qonun loyihalarini palatada ko‘rib chiqish tartibiga har doim ham amal qilinavermaydi. Uni tezlatish maqsadida palatalar ko‘pincha umumiy qoidani buzib, faqat loyihalar nomini o‘qish bilan cheklanadilar, muhokama, tuzatish kiritish va ovozga qo‘yish rasmlarini soddalashtiradilar. Bunday holat odatda, Kongress sessiyalarining oxirida sodir bo‘ladi, chunki qo‘mitalardan kelib tushishiga qarab, Kongress bir, ikki kunda o‘nlab qonun loyihalarini kun tartibiga ham qaramasdan ovozga qo‘yadi va qabul qiladi.

Bitta palata tomonidan ma‘qullangan qonun loyihasi boshqa palataga yuboriladi. U yerda ham yuqoridagi tartibda muhokama qilinadi. Agar uning matniga tuzatish kiritilmagan bo‘lsa, unda palatalar raislari (birinchi bo‘lib spiker imzolaydi) imzolagandan keyin Prezidentga yuboriladi. Agar unga tuzatish kiritilgan bo‘lsa, qonun loyihasini taqdim etgan palata yo rozi bo‘ladi yoki uni inkor etib, kelishuv qo‘mitasi chaqirish taklifi bilan o‘sha palataga murojaat qiladi. Kelishuv qo‘mitasining qarori birinchi navbatda, loyihaga tuzatish kiritgan palataga doklad qilinadi. Bir xil shaklda qabul qilingan qonun loyihasi, imzolagandan keyin Prezidentga yuboriladi.

Prezident qonun loyihasini imzolashdan bosh tartib o‘z e‘tirozlari bilan birga uni taklif qilgan palataga qaytarishi mumkin (veto huquqi). Vetoni yengib o‘tish uchun har bir palata (dastlab, qonun loyihasi qaytarilgan palata) uni uchdan ikki qism ko‘pchilik ovoz bilan qaytadan qabul qilishi kerak. Ushbu holatda ovoz berish nommanom bo‘lib, qonunlarga qanday ovoz berilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar palata jurnaliga yoziladi. Ovoz berish natijalari ijobiy bo‘lsa, qonun loyihasi Prezidentning imzosisiz kuchga kiradi. Shuningdek, agar Prezident 10 kun ichida, (yakshanbadan tashqari) o‘z xulosasini bermasa (agar bu paytda Kongress o‘z sessiyasini

to'xtatmagan bo'lsa) ham kuchga kiradi. Kongress sessiyasi to'xtagan bo'lsa, qonun loyihasi aniq qaytariladi va yuqorida qo'rsatilgan tartibda qaytadan ko'rib chiqilmaydi.

Qonunlar Prezident tomonidan imzolangan paytdan yoki uning vetosi yengib o'tilgandan keyin kuchga kiradi, faqat, qonun matnida kuchga kirish muddati ko'rsatilgan holat bundan mustasno.

Qonunlar bevosita kuchga kirgandan keyin «Pabliklov» seriyasida nashr etiladi va unga tegishli raqam beriladi. Uning birinchi qismi Kongressning tartib raqamini, ikkinchisi statut maqom)yoki rezolyusiyaning tartib raqamini bildiradi.

Yilning oxirida Kongressning hamma aktlari jamlanadi va ular xronologik tartibda «Qo'shma Shtatlar statutlarining to'liq to'plami»da e'lon qilinadi. Ko'rsatilgan ikkita rasmiy nashrdan tashqari Kongress qonunchiligi «Qo'shma shtatlar qonunlar to'plamida» e'lon qilinadi, bunda qonun me'yorlari (qonunlarning o'zi emas) ularning boshqarish predmetiga qarab to'planadi.

AQSh Konstitutsiyasi va undan oldingi bir qator aktlari 1776 yilgi mustaqillik Deklaratsiyasi, 1781 yilgi Konfederatsiya moddalari va 1787 yilgi Shimoliy g'arbiy hududlar haqidagi Aktlar bir tizimga keltirilgan. Lekin ular To'plamning «AQShning organik qonunlari» bo'limida e'lon qilinadi.

Qonunlar to'plamining ushbu tizimi zamonaviy rivojlangan amerikacha huquqqa muvofiq emasligini amerikaliklarning o'zlari ham tan oladilar. Biroq, shunga qaramay, ushbu sistemalashtirish o'z afzalliklariga ega. Avvalo, bu — qonunchilik hujjatlari bilan tanishish qulayligi va osonligida, yana muhim tomoni shundan iboratki, u qonunchilik boshqaruvidagi qaramaqarshilik va kamchiliklarni topib, tezda bartaraf etishga imkon beradi.

Qonunlar To'plami har olti yilda qayta nashr etiladi. Oxirgi nashr 1989 yilda qilingan. Har yili «To'plamga qo'shimchalar» e'lon qilinib, u bir yilda amaddagi qonunchilik bilan kiritilgan o'zgarishlardan iborat bo'ladi.

Moliyaviy qonun loyihalarini qabul qilish rasmlari

Moliyaviy qonun loyihalarini qabul qilish rasmlari boshqa qonun loyihalarini ko'rib chiqish tartibidan ko'p ham farq qilmaydi, lekin quyidagi qoidalar bilan tuzatish kiritiladi. Davlat daromadlari (soliqlar va boshqalar) to'g'risidagi qonun loyihalarini faqat Vakillar palatasi tomonidan taklif etilishi mumkin. Senat faqat ularni to'xtatish yoki matniga tuzatishlar kiritishga hakli. Boshqa qonun loyihalaridan farqli o'laroq, moliyaviy qonun loyihalarini faqat «bill» shaklida taqdim etilishi mumkin. Shunda loyihalar Vakillar palatasida o'tkazilayotgan istalgan majlisda muhokamaga qo'yilish huquqiga ega bo'ladi. Moliyaviy «bill»larning o'tishida palatalarning moliyaviy qo'mitalari muhim rol o'ynaydi. Masalan, Senatda boshqa hamma qo'mitalar pul ajratishni ko'paytirish to'g'risida taklif kiritishga haqli emas; bu takliflar harakatdagi qonunlar yoki shartnomalar, hamda Kongressning o'sha sessiyasida avval qabul qilingan aktlar va rezolyusiyalar talablarini bajarishni maqsad qilishi bundan mustasno.

Byudjetni tasdiqlash tartibini alohida ta'kidlash lozim. 1985 yilgi «Mutanosib byudjet va defisitning favqulodsagi nazorati» to'g'risidagi qonun bilan o'rnatilganidek, byudjetni tasdiqlash quyidagi bosqichlardan iborat. 3 yanvardan keyin birinchi dushanbada Prezident Kongressga keyingi moliyaviy yil byudjetining loyihasini yuboradi. Kongress uni Byudjet boshqarmasiga yuboradi, u 15 fevralda loyiha bo'yicha palatalarning byudjet qo'mitalariga hisobot taqsim etadi. Shu paytdan e'tiboran byudjetni ishlab chiqishga palatalarning doimiy qo'mitalari jalb qilinadi. Ular 26 fevralgacha o'zi xulosa va takliflarini taqsim etishi kerak. Byudjet qo'mitalari 1 aprelga byudjet bo'yicha muvofiq keluvchi rezolyusiya loyihasi tayyorlaydilar va 16 aprelgacha Kongress uni qabul qiladi. Shundan boshlab, keyingi moliyaviy yilda (o'sha taqvim yilining 1 oktyabrida boshlanadi) pul ajratish to'g'risida qonun loyihalarini ishlanadi.

Shartnomalarni tasdiqlash

Shartnoma Senatda ovozga qo'yilishidan oddin turli kunda, uch o'qishdan o'tishi kerak. Birinchi o'qish Senatni shartnoma bilan tanishtirish uchun xizmat qiladi. Bu bosqichda shartnomalarni doimiy qo'mitalarga yuborish, uning matnini bosib chiqarish va uni Senatning yopiq majlisida ko'rib chiqish to'g'risidagi avval qabul qilingan farmoyishni bekor qilish to'g'risidagi takliflarga ruxsat beriladi. Hamma shartnomalar tashqi munosabatlar bo'yicha doimiy qo'mitaga

(Senat bir ovozdan boshQacha hal qilmasa) yuboradi. Qo‘mita shartnomani muhokama qilgandan keyin qaror qabul qiladi va bu haqda palataga doklad qiladi. Qo‘mita shartnomani ko‘rib chiqishni noma’lum muddatga qoddirib, qaror qabul qilishdan bosh tortishi teztez bo‘lib turadi.

Qo‘mita tomonidan palataga berilgan shartnomalar, ijroiya hokimiyati Senatga tasdiqlash uchun yuborgan masalalar taqvimiga kiritiladi. Shu vaqtdan e‘tiboran qo‘mitaning shartnoma ustidan rasman yurisdiksiyasi yo‘qoladi. Amadda qo‘mitaning rahbariyati shartnoma palata orqali o‘tishini muvofiqlashtirishda davom etadi, bunda u bahslarda ustun huquqlarga ega bo‘ladi.

Shartnoma palatada kamida bir kun turganidan keyin Senat muhokama qilishga kirishadi. Shartnoma ikkinchi marta o‘qiladi va, agar bahslar bo‘lmasa, ovozga qo‘yiladi.

Agar tuzatishlar va sharhlar taklif etilgan bo‘lsa, birinchi navbatda tashqi munosabatlar bo‘yicha doimiy qo‘mitaning taklifi doklad qilinadi.

Shartnomaga tuzatishlar Senat tomonidan yo alohida, yo umum holda qabul qilinadi. Keyin ma’qullash to‘g‘risidagi rezolyusiyaga ilova qilib kiritilgan sharhlar qabul qilinadi. Tuzatishlar va sharhlar oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Keyin shartnoma Senatga ma’qullash uchun kiritiladi, ishtirok etuvchi Senatorlarning uchdan ikki qismi ovoz bersa, tasdiqlangan hisoblanadi. Shartnomalar muhokamasi ochiq, zarur hollarda yashirin o‘tkaziladi. Yopiq majlis bo‘lganda palataning senatorlari va mansabdor shaxslar axborotni sir saqlash majburiyatini oladilar. Uni buzish Senatorni palata tarkibidan chetlatishga olib kelishi mumkin.

Shartnomani ko‘rib chiqishni yangi Kongress sessiyasiga o‘tkazish mumkin emas, biroq o‘sha Kongressning muddati davrida shartnomalarni bitta sessiyada ko‘rib chiqish tugallanmagan bo‘lsa, keyingi sessiyada muhokamasi to‘xtatilgan joyidan davom ettiriladi.

Mansabga tayinlashni ma’qullash rasm rusumi

Prezidentning tayinlash bo‘yicha takliflari Senat tomonidan tegishli qo‘mitaga beriladi. Senatning reglamenti ushbu masala bo‘yicha qo‘mitalarning predmetli vakolatini belgilamaydi. Biroq o‘rnak voqealar (presedent) bilan o‘rnatilganidek, masalan, sudyani tayinlashda hujjatlar yuridik qo‘mitaga, diplomatlarni tayinlashda — tashqi munosabatlar qo‘mitasiga yuboriladi va sh.k. Doimiy qo‘mitalarga ish yuborishda bahslar o‘tkazilmaydi, palata raisi yakka tartibda hal qiladi. Biroq, predmetli vakolat buzilgan holatda Senat ko‘pchilik ovoz bilan raisning qarorini o‘zgartirishi va masalani boshqa qo‘mitaga yuborishi mumkin. Doimiy Qo‘mita palatadan hujjatlarni olgandan keyin, uni ko‘pincha, o‘zining bo‘limi (yordamchi qo‘mita)ga beradi. Yardamchi qo‘mita masalani ochiq majlisida ko‘rib chiqadi, qaror qabul qiladi va hujjatlarni o‘z tavsiyalari bilan Qo‘mitaga qaytaradi. Qo‘mita o‘z navbatida yordamchi qo‘mitaning dokladini muhokama qiladi va ushbu borada qabul qilingan qarorini Senatga doklad qiladi.

Senat tayinlash masalasini taqvimga kiritilgan tartibda ko‘rib chiqadi. Taqvim Senatga ijroiya hokimiyat tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Ahamiyatsizroq mansablarga tayinlash masalalari butun ro‘yxat bilan ko‘rib chiqiladi.

Sessiya ketayotgan paytda muhokama etilayotgan masalalar bo‘yicha Senat qaror qabul qilmasa (va agar Prezident qayta taqdim qilmasa), keyingi sessiyada ko‘rilmaydi. Xuddi shunday tartib Senat majlisini 30 kundan ko‘p muddatga ko‘chirishda ham qo‘llaniladi.

Prezidentni saylashning favqulodda tartiboti

Konstitutsiyaga kiritilgan XII tuzatishga muvofiq, agar da’vogarlardan birontasi saylovchilar kollegiyasining mutlaq ko‘pchiligining ovozini to‘plamasa, Vakillar palatasi ko‘proq ovoz to‘plagan uchta da’vogar orasidan Prezidentni saylaydi. Bunday holatda ovoz berish shtatlar bo‘yicha o‘tkaziladi, har bitta shtatning vakili deputatlar sonidan qat’iy nazar, faqat bitta ovozga ega bo‘ladi. Kvorumni kamida uchdan ikki shtatlar bo‘yicha vakillar Palatasining a’zolari tashkil etadi. Ovoz berish byulleten bo‘yicha o‘tkaziladi. Hamma shtatlarning ko‘pchilik ovozini to‘plagan nomzod Prezidentlikka saylangan hisoblanadi.

Impichment tartiboti

Impichment tashabbusi bilan vakillar Palatasi chiqadi. Impichment bo‘yicha ta’qib arznomalar, Prezidentning yo‘llanmasi va boshqa sabablar bilan o‘tkaziladi. Lekin, faqat palata a’zolarigina ishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi rezolyusiyani kiritishi mumkin. Vakillar palatasiga kelib tushgan hujjatlar yuridik yoki maxsus qo‘mitaga yuboriladi. U yerda aybning asoslanganlik darajasi

aniqlanadi va tekshirish o'tkazish uchun asos bor yoki yo'qligi to'g'risida Palataga doklad qilinadi. Agar qo'mita ishni tekshirish mumkin deb hisoblamasa, palataning roziliga bilan u to'xtatiladi.

Agar palata ishni qo'zg'atish to'g'risida rezolyusiya kiritisa, hujjatlar, qoidaga ko'ra, impichment moddasini tuzish uchun yuridik qo'mitaga yuboriladi. Impichment moddalari palata tomonidan (oddiy ko'pchilik ovozda) tasdiqlangan holatda ishni mohiyatan ko'rib chiqish uchun Senatga beriladi.

Senat impichment moddalarini rad qilishi mumkin emas va ishni ko'rib chiqish uchun qabul qilishi kerak. Sudya vakolatini bajarish uchun Senatorlar qasam ichadilar yoki so'z beradilar. Prezidentni ayblash bo'yicha ishni ko'rib chiqishda majlisni AQSh Oliy sudining raisi olib boradi. «Impichment tartibida ishni ko'rib chiqish qoidasi» dalillar taqdim etish, guvohlarning so'rog'i va tomonlar fikrlarini eshitishni nazarda tutadi. Impichment sudi Vakillar palatasi tomonidan e'lon qilingan ayblov bndlari bo'iicha ovoz berish bilan tugatiladi. Aybdor deb tan olish uchun senatorlarning kamida uchdan ikki qismining roziligi zarur.

Mavzu bo'yicha savollari.

1. Jahon xaritasida xorijiy sharq mamlakatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. AQSh tashqi siyosat konsepsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Prezident Barak Obama saylovoldi dasturida tashqi siyosat masalalarini aytib bering ?
4. Barak Obama prezidentligi davrida AQSh – O'zbekiston munosabatlari istiqbollari nimadan iborat deb o'ylaysiz ?
5. Bugungi kunda AQSh-Rossiya munosabatlaridagi holatni aytib bering ?
6. Nima sababdan AQSh mamlakati ko'plab Sharq mamlakatlarga iqtisodiy yordam ko'rsatgan?

Mustaqil ish torshiqlari:

1. AQSh dagi siyosiy tizimni tahlil etish;
2. Zamonaviy taraqqiyotning xususiyatlari: yangi leyborizm va yangi demokratlar haqida o'rganish;
3. AQShdagi so'nggi saylovlar, Prezidentlik saylovlari va konstitusion islohatlar muammosini tadqiq etish;
4. Davlatlarning siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan tanishtirish;
5. Siyosiy jarayonlar va munosabatlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va diniy omillar haqida tushuncha berish;
6. Siyosiy qiyosiy tadqiqotlarning turlari. Siyosiy tizimlarning tipologiyasi (zamonaviy, an'anaviy va b.) tahlil etish;

Qo`shimcha adabiyotlar.

1. Алисон Ж,Бейлс К. Уроки Иракского кризиса // Мировая экономика и международные отношения. – № 9. – 2004 . – С .72.
2. Арбатов А. Иракский кризис в мировой политике:предыстория и перспективы // Мировая экономика и международные отношения. – №9. – 2004 . – С .78.
3. Ананыва Е. “For who we are ?or for what we are”Внешнеполитическая полемика в США // Международная жизнь. –№2. – С .19.
4. Гушер А. Стратегия США в Каспийском регионе //Азия и Африка сегодня. –№5. – 2003. – С .17
5. Карпенгер Т.Г. Избегая ловушки, или почему США должны покинуть Ирак // Международная жизнь. – №6. – С .37.
6. Лэнгфорд С.Э. Политика США в отношении Израиля в 90- е годы. Мирный процесс и экономическая помощь // Востоковедный сборник, вып.2.М.. – 2001 . – С .218

7. Мирский Г. Иран и США :противостояние на фоне «ядорного кризиса»// Мировая экономика и международные отношения . – №7. – 2006 . – С .5.
8. Мельвиль А.Ю. Идеология американского консерватизма // США - экономика, политика, идеология . 1978. – № 11. – С . 39.
- Медведко Л. Расщепление «оси зла» // Азия и Африка сегодня. - № 2. – 2002.
9. Рахшмир П.Ю. Американские консерваторы и Европа// Международная экономика и международные отношения . – № 7. – 2004 . – С. 31

Mavzu - 6. Fransiya siyosiy tizimi

Dars o‘quv maqsadi:

- Fransiya siyosiy tizimini tahlil etish;
- Zamonaviy taraqqiyotning xususiyatlari: yangi leyborizm va yangi demokratlar haqida o‘rganish;
- Fransiya siyosiy tizimining so‘nggi saylovlar, Prezident saylovlari va konstitutsion islohatlar muammosini tadqiq etish;
- Davlatlarning siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan tanishtirish;
- Siyosiy jarayonlar va munosabatlarga ta‘sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va diniy omillar haqida tushuncha berish;
- Siyosiy qiyosiy tadqiqotlarning turlari. Siyosiy tizimlarning tipologiyasi (zamonaviy, an‘anaviy va b.) tahlil etish;
- Talabalarni siyosiy tuzum, siyosiy rejim va uning turlari bilan tanishtirish;
- qiyosiy politologiya siyosiy fanlar tizimidagi o‘rnini aniqlash va ko‘rsatish;

Tushunchalar va tayanch iboralar: siyosiy rejim, madaniy-sivilizatsion determinizm, Demokratik, Liberal, despotik, mustabidlik, Tiraniya, Avtoritar, Totalitar, harbiy, Fashistik, Irqiy, Diniy siyosiy rejim.

Asosiy savollar:

1. Fransiya Milliy Assambleyasining shakllanish tartibi
2. Fransiya siyosiy partiyalarining mamlakat parlamentini shakllantirishdagi roli
3. Parlament rasm ruzumlari va qonunchilik jarayoni

1. Fransiya Milliy Assambleyasining shakllanish tartibi

Fransiya hozirgi zamon parlamentarizmining shakllanishiga qirolik hokimiyatini bekor qilgan Buyuk Fransuz Inqilobi tufayli 1792 yili asos solingan. Davlat boshqaruvining parlamentar shakli Fransiyaning Uchinchi (1875—1940 yillar) va To‘rtinchi (1944—1958 yillar) Respublikalarining siyosiy mohiyatini tashkil etgan. Rasman bu an‘ana Beshinchi Respublika (1958 yil may oyidan beri mavjud) davrida ham saqlanib kelmoqda.

Kuchli Prezidentlik tizimini joriy etgan 1958 yilgi Konstitutsiyaning dastlabki matnida mamlakatning markaziy vakillik organi vakolatlari birmuncha cheklab qo‘yildi. Davlat rahbarini saylashda yangicha — to‘g‘ridan to‘g‘ri va umummilliy saylov tartibini joriy etgan 1962 yilgi konstitutsiyaviy islohotlardan so‘ng parlamentning ahamiyati kamaydi. Bu islohotlar natijasida parlamentning quyi palatasi — Milliy Assambleya (Milliy majlis) ham, Respublika Prezidenti ham o‘z vakolatlarini yagona bir manba — saylovchilar korpusidan oladigan bo‘ldi. Ammo, tizimga kiritilgan bu yangi o‘zgarishlarga qaramay, Parlament o‘zida anchagina muhim vakolatlarni saqlab qoldi.

Parlamentning ahamiyati na faqat huquqiyuridik jihatdan, balki mamlakatdagi siyosiy kuchlarning o'zaro real munosabatlari bilan ham belgilanadi. Beshinchi Respublikada parlamentning ahamiyati izchillik bilan oshib bordi, va bugungi kunga kelib, mamlakatda vakillik organi muhim siyosiy kuchga aylandi.

Fransiya oliy qonunchilik organi Milliy Assambleya va Senatdan iborat. Milliy Assambleya tarkibida 577 nafar deputat bo'lib, ulardan 555 nafari metropoliyadagi 555 saylov okrugini, va qolgan 5 nafari dengiz orti hududlaridan, 15 nafari dengiz orti Departamentlaridan hududiy jamoalar besh yillik vakolatga, ikki turda o'tuvchi umummilliy saylovlarda ko'pchilik ovoz bilan saylanadilar.

Birinchi turda saylanishi uchun, nomzod ro'yxatga kiritilgan saylovchilar sonining chorak qismidan kam bo'lmagan miqdorda va berilgan ovozlarining yarmidan ko'p ijobiy ovoz olishi kerak bo'ladi. Birinchi turdan bir hafta keyin ikkinchi tur saylovlari bo'lib o'tadi. Unda birinchi turda eng yaxshi natijaga erishgan ikki nomzod qatnashadi. Bu turda nisbatan ko'pchilik ovoz olish qifoya, lekin olingan ovozlar soni ro'yxatga kiritilgan saylovchilar ovozining 12,5% idan kam bo'lmashligi lozim. Bu shart unchalik katta bo'lmagan partiyalarning faoliyatini qiyinlashtirib qo'yadi. Fransiyadagi ko'ppartiyaviylik sharoitida saylovlarda asosiy kurash ikkinchi turda bo'lib o'tadi.

Saylov okruglarining kattakichikligi har xil bo'lishi mumkin (o'rtacha, taxminan 100 ming fuqaroga bir nafar deputat to'g'ri keladi). Har bir saylovchi kerakli hujjatlarni ko'rsatib, shaxsan o'zi ro'yxatdan o'tishi lozim. Ammo bu majburiyat bajarilmagani uchun jazo chorasi ko'rilmaydi. Saylov ro'yxatlari doimiydir; ular har bir depara (kommuna)da va har bir ovoz berish byurosida tuziladi hamda har yili 1 sentyabrdan keyingi yil fevralining oxirgi kunigacha qayta ko'rib chiqiladi. Har bir saylovchiga maxsus yorliqcha (kartochka) beriladi, saylovchilar ovoz berishga kelganlarida uni ko'rsatishadi va muhr bostirib oladilar. Umumiy qoida bo'yicha har bir saylovchi bir ovozga ega bo'lib, ovoz berishga shaxsan o'zi keladi. SHaxsan o'zi kela olmagan saylovchi ishonch yorlig'i bilan o'z ovoz berish huquqini boshqa saylovchiga topshirishi mumkin.

Milliy assambleyaga nomzod bo'lish uchun Fransiya fuqarosi bo'lish bilan birga, 23 yoshdan kichik bo'lmashlik talab etiladi. Milliy assambleyaga nomzodi qo'yilayotgan kishidan 1000 frank miqorida garov olinadi. Agar nomzod saylov okrugini berilgan ovozlarining 5%idan kam bo'lmagan miqdorda ovoz olsa, bu garov qaytarib beriladi. Har bir okrugdan bir deputat saylanadi.

Nomzod bilan bir vaqtning o'zida uning o'rinbosari ham o'z nomzodini saylovga qo'yadi. Bu o'rinbosar haqiqiy nomzod deputatlikka saylanganidan keyin vafot etsa, iste'foga chiqsa, huqumatga va yoki Konstitutsiyaviy kengashga a'zo qilib tayinlansa, deputatlik vakolatini qabul qilib oladi.

Deputatlikka nomzod saylovlarda faqat bir okrugdan ishtirok etishi mumkin. Biroq bir palata a'zosi boshqa palataga saylovlarda ishtirok etishi taqiqlanmaydi, agar u saylovlarda g'olib chiqsa, o'zining birinchi palatadagi a'ziligini to'xtatadi. SHuningdek, parlament a'zolari boshqa vakillik organlariga, masalan, mahalliy — kommuna va departament kengashlariga bo'lgan saylovlarda ham o'z nomzodlarini qo'yishlari mumkin.

Parlamentga saylovlar bo'lib o'tgach, Hukumat iste'foga chiqada va agar Prezident Milliy assambleyani tarqatib yuborib, saylovlarni qaytadan o'tkazishga qaror qilmasa, saylangan partiya ko'pchilik yangi Mahkama tuzish ikonini qo'lga kiritadi.

Parlamentning yuqori palatasi bo'lmish Senat ikkilamchi ovoz berish bilan saylangan 321 senatordan tashkil topadi, shu jumladan: ularning 309 nafari mahalliy hukumat organlaridan, 12 nafari esa, fransuz xalqining xorijdagi qismidan vakil bo'ladi. Senatdagi 309 nafar mahalliy huqumat organlari vakillarining 304 nafari metropoliya va dengizorti departamentlaridan, shu jumladan, 296 nafari metropoliya departamentlaridan; 8 nafari dengizorti departamentlaridan; 2 nafari dengizorti hududiy kengliklar Mayott va SenPereMikelondan; 3 nafari dengizorti hududlar — Fransuz Polineziyasi, ValliseFutuna hamda Yangi Kaledoniyadan vakil bo'ladi.

Senat 9 yillik muddatga departamentlardagi saylovchilar kollegiyalari — deputatlari, Viloyat kengashlari, Tuman kengashlari, munisipal kengashlar tomonidan bilvosita ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Beshinchi Respublika asoschilarining fikri bo'yicha, Senatning o'ziga xos yo'l bilan tashkil topishi shartsharoitlari unga Milliy assambleyadan farkdi siyosiy qiyofa beradi. Senatning tarkibi bir vaqtda yangilanmasdan, uch bosqichda, har gal uchdan bir qismning yangilanishi bilan davom etishi yuqori palataga saylovchilar korpusining ta'sirini kamaytiradi va Senatning belgilangan siyosiy yo'lini qo'qqisdan o'zgartirib yuborishga imkon qoldirmaydi.

Senat asosan uch bosqichli saylovlarda shakllanadi. Senatorlar har bir departamentda kollegiyalar tomonidan saylanadilar. Saylovchilar kollegiyasining umumiy miqsori taxminan 108 ming nafar a'zodan iborat bo'lib, shulardan taxminan 600 nafari deputat, 3 ming nafardan ziyodi viloyat va tuman kengashlari vakillari, hamda 104 ming nafarga yaqini munisipal kengash vakillaridan tashkil topadi.

Senatorlar saylovlari departamentlarning bosh shaharlarida ikki tizim bo'yicha o'tadi. Birinchi tizim — mutanosiblik (proporsional) tizimi — palataga besh yoki undan ortiq a'zo saylaydigan departamentlarda qo'llaniladi. Fransiyada bunday departamentlar soni — 13 ta, ulardan saylanadigan senatorlar soni esa, — 69 ta. Qolgan departamentlarda ikki turda o'tuvchi ko'pchilik ovoz (majoritar) tizimi qo'llaniladi.

Yuridik jihatdan, har bir fransuz fuqarosi faol saylovchilik huquqidan foydalanish uchun saylov o'tkazish paytida o'n sakkiz yoshga to'lgan va fuqarolik huquqi hamda siyosiy huquqlarga ega bo'lishi lozim. SHuningdek, o'zlari qatnashayotgan saylov okrugida olti oydan kam bo'lmagan muddatdan beri yashab kelayotgan bo'lishlar shart.

Ruhiy xastalar, jinoyatchilik hamda huquqbuzarlik tufayli sudlangan shaxslarning ko'pchilik qismi ovoz berish huquqidan shyaril etiladi. SHuningdek, qonunda ta'kidlangan jinoyatlar va tartibbuzarliklar uchun ozodliqdan mahrum etish muassasalaydda bo'lib qaytgan shaxslar ma'lum muddat davomida saylovchiisf ro'yxatiga kiritilmaydi. Saylovchilar ro'yxatini tuzish, uni quzatib borish, ovoz berishda ishtirok etish tartiblari Milliy Kengashga saylash bilan bir xil bajariladi. ; Palatalar bir xil vakolatlarga ega, aniqrog'i, ularda ko'rildigan masalalar bir xil va ularning vakolatlari ham deyarli teng. Ular o'rtasida farq faqat qonunchilik jarayonida hamda parlamentar nazorat sohasidagina mavjud. Faoliyatida parlament a'zolari ishtirok etadigan organlar soni 70 dan oshadi, vdu jumladan ular orasida quyidagilarni sanash mumkin: Qamoqhonalarni boshqarish bo'yicha oliy kengash, Milliy kutubhona Ma'muriy kengashi, Kinematografiya bo'yicha Maslahat komissiyasi, Kodifikatsiya bo'yicha Oliy komissiya, Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Milliy komissiya, Qurol ishlab chiqarishda tannarx bo'yicha Qo'mita, Informatika va erkinlik bo'yicha Milliy komissiya, Harbiy xizmat ishlari bo'yicha Doimiy kengash, Statistika bo'yicha Milliy kengash, Yadroviy havfsizlik bo'yicha Oliy kengash, Fransiya vinolar bo'yicha Milliy qo'mitasi va boshqalar. Parlamentdan tashqari bo'lgan organlarga tayinlangan palata a'zolari tegishli doimiy komissiyalar bilan aloqada bo'ladilar. Fransuz parlamentariylari xalqaro hayot jabhalarida ishtirok etadilar. Ular ko'pincha turli xil delegatsiyalar tarkibiga kiritiladilar. Palatalarning komissiyalari boshqa mamlakatlarga, xalqaro tashkilotlar huzuriga o'z missiyalarini Yao'llaydilar. Parlament turli xil xalqaro tashkilotlarga o'z vakillarini jo'natadi. Masalan, Milliy assambleyaning 12 a'zosi va ularning 12 o'rinbosari hamda Senatning 6 a'zosi va ularning 6 nafar o'rinbosari Yevropa Kengashining Maslahat yig'ini majlislarida ishtirok etadilar.

2.Fransiya siyosiy partiyalarining mamlakat parlamentini shakllantishdagi roli

Milliy assambleyadagi deputatlar qaysi partiyaga qarashli ekanliklariga qarab, u yoki bu siyosiy guruhlardan biriga kiraDilar. Parlamentdagi ko'pchilikda yoki muxolifatda o'z obro'siga ega bo'lgan, rasmiy vakil, o'z siyosiy partiyasi yoki siyosiy harakatining ko'zga ko'ringan arbobi siyosiy guruhga raislik qiladi.

Har bir palatada parlament fraksiyalari tashkil etiladi, ularni siyosiy guruhlar deb ham atashadi. Parlament fraksiyalarida bir partiya a'zolari uyushadi. Fraksiya tuzilishi uchun unga a'zo bo'lganlar soni Milliy assambleyada 20 nafardan, Senatda esa, 15 nafardan kam bo'lmasligi lozim.

Siyosiy guruh o'z maqsadlari haqida siyosiy deklaratsiya chop etadi. Palatalarning doimiy komissiyalari va byurolari siyosiy guruhlarining vakillaridan proporsional tarzda shakllantiriladi. Amadda, palatalarning reglamentlari taqiklashiga qaramay, siyosiy guruh raislari parlament

yig'inda bevosita ishtirok etmayotgan parlamentariylarning elektron tablodagi kalitidan foydalanib, ularning o'rniga ham ovoz berib yuboradilar.

U yoki bu siyosiy guruhning siyosatiga to'liq qo'shilmaydigan parlamentariy ma'muriy jihatdan o'z guruhining tartibintizomini o'zi uchun qabul qilishi mumkin, bunday holda ular guruhga birlashtirilgan, deb hisoblanadilar. Guruhlardan tashqarida qolgan, yoki guruhlarga birlashtirilmagan hamda a'zo ham bo'lmagan parlamentariylar ro'yxatga olinmaganlar, deb ataladi.

Bir parlamentariy faqat birgina fraksiyaning a'zosi bo'la oladi. Fraksiyalar palata byurosiga ro'yxatdagi a'zolari, va fraksiyaga birlashtirilganlarning barchasi tomonidan imzolangan deklaratsiya topshirish orqali tuziladi. U yoki bu fraksiya tarkibida bo'lmagan parlamentariy istalgan fraksiyaga qo'shilishi mumkin. SHunda u, palataning' doimiy va boshqa komissiyalaridan fraksiyalarga joy ajratilishida, fraksiya tarkibida, deb hisoblaniladi.

Fraksiya a'zolari ma'lum bir tartibda ovoz berishga majbur qiluvchi partiyaviy tartibintizomga rioya qiladilar, bunday intizom turli fraksiyalarda turlicha bo'ladi. Sotsialistlarda va kommunistlarda juda qat'iy bo'lsa, boshqa fraksiyalarda nisbatan bo'shroq.

Fraksiya a'zolari majlislar zalining ma'lum sektorida, bir joyda jips o'tiradilar. Sektorlar joylashuvi palata raislari tomonidan, fraksiyalar raislari bilan kelishilgan holda belgilanadi. Har bir fraksiyaning o'z byurosi bo'lib, u raisdan (fraksiya raisi) va rais o'rinbosaridan iborat bo'ladi. Byuro raisi va rais o'rinbosari texnik xodimlardan tashkil topgan o'z kotibiyatiga ega bo'ladi.

Fraksiyalar parlament komissiyalariga a'zolar tayinlashadi, ularning raislari lavozimlari bo'yicha raislar anjumanining a'zolari bo'ladi va palata ish kun tartibini aniqlaydilar, bahsmunozaralar tashkil etishda qatnashadilar; fraksiya raisi maxsus komissiya tuzilishini talab qilishi mumkin.

Palatalarning tashkiliy tuzilmasi

1958 yilgi Konstitutsiyada parlament faoliyati mexanizmlari va tashkiliy tuzilmasiga yetarli e'tibor qilinmagan. Bu borada zaruriy ma'lumotlar organik qonunlarda (parlamentlarning faoliyati to'g'risidagi 58—1100 raqamli Ordonans, 1958 yil 17 noyabrdagi keyingi o'zgarishlar bilan birga), oddiy qonunlar va Milliy assambleya hamda Senatning reglamentlarida keltirilgan.

Har bir palata o'z reglamentini o'zi qabul qiladi. Uni, reglamentlar tomonidan palatalar byurolariga berilgan vakolatlar asosida chiqarilgan Bosh yo'riqnoma to'ldiradi (Milliy assambleya reglamentining 15 va Senat reglamentining 102 moddasi).

Milliy assambleya Burbonlar saroyida, Senat esa, Lyuksemburg saroyida yig'iladi. Ikkala palata ham birgalashib Kongress (Kongress yagona bir hol — Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishni ratifikatsiya qilish masalasi ko'rilayotgandagina yig'iladi) o'tkazilayotganida yig'in Versal saroyida bo'ladi.

Palatalar moliyaviy muxtoriyatga egadir. Har bir palata kollegial organ bo'lmish o'z byurosiga ega bo'lib, bu organ vazifasi doirasiga palata ishi, eng avvalo uning yig'ilishlari ustidan rahbarlik qilish va shuningdek palata xizmatlarini boshqarish kiradi. Byuro tarkibiga palata raisi, rais o'rinbosarlari (Milliy assambleyada — 6, Senatda — 8), kotiblar (Milliy assambleyada — 12, Senatda — 8) va kvestorlar (har ikkala palatada 3 tadan) kiradi. Milliy assambleya byurosi ikkala palata birgalikda Kongressga yig'iladigan holda o'z vazifalaridan tashqari, kongress byurosi vazifalarini ham bajaradi.

Milliy assambleya raisi palata binosining xonalaridan birida yashaydi, Senat raisi esa, Lyuksemburg saroyi binolaridan birida o'z qarorgohiga ega. Palatalarning raislari katta vakolatlarga ega. Respublika Prezidenti ish o'rnini bo'shab qolganda, Senat raisi, davlatning yangi rahbari saylanguniga qadar, Muvaqqat Prezidentga aylanadi. Davlatning rasmiy lavozimlar pog'onasida Senat raisi uchinchi (Prezident va Bosh vazirdan so'ng), Milliy assambleya raisi esa, to'rtinchi o'rinda turadi.

Beshinchi Respublika Konstitutsiyasining 32moddasi binoan, Milliy assambleya raisi legislatura muddatiga saylanadi, Senat raisi esa, mazkur palata har gal qisman o'zgarganida yangitdan saylanadi. 58—1100 raqamli Ordonansga muvofiq palatalarning raislari palatalarning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlaydilar, bu ishda yordam uchun ular Kurolli kuchlarni va boshqa kuch ishlatuvchi tuzilmalarni, istalgan zobit yoki xizmatchini jalb qilishlari mumkin va ularning

talablariga binoan jalb etiluvchilar ularga bo'ysunishga majbur. Bu vakolatni palata raislari kvestorlarga yoki ulardan biriga topshirishlari mumkin.

Palata raisi o'rinbosarlari yig'ilish paytlari raisning o'rini egallaydi.

Kotiblar qo'l ko'tarish va o'randan turish bilan ovoz berilishini nazorat qiladilar, palata a'zolarining ovoz berish uchun familiya bo'yicha chaqirilishini, ishonch qog'ozi bilan boshqa a'zo uchun ovoz berilishini, majlis yig'ilishlari protokollarining tahririni kuzatib boradilar.

Kvestorlar palataning moliyaviy va ma'muriy xizmatlarini olib boradilar.

Milliy assambleya xizmatlari ikki xil — Bosh kotibga bo'ysunuvchi, va kvestaturaning bosh kotibiyatiga bo'ysunuvchi guruhlarga bo'linadi. Bosh kotibga bo'ysunuvchi xizmatlar guruhi tarkibiga palataning qonunchilik faoliyatini ta'minlovchi quyidagi xizmatlar kiradi: majlislar xizmati, doimiy komissiyalar xizmati, parlament axboroti xizmati, nashriyot va ovozga qo'yish xizmati, tahliliy hisobotlar xizmati, stenografik hisobotlar xizmati. Milliy assambleyaning Bosh kotibiga shuningdek kutubxona, xorijiy hujjatlar xizmati, arxiv xizmati, tadqiqotlar va hujjatlar xizmati kabilari ham bo'ysunadi.

Kvestatura bosh kotibiyati Bosh kotib rahbarligi ostida kvestorlarning qarorlarini ijro etadi, ma'muriy xujjatlar xizmati, palata shaxsiy tarkibi xizmati, protokol va xalqaro parlamentlararo munosabatlar xizmati, transport xizmati, moliyaviy ta'minot xizmati, ijtimoiy ta'minot xizmati (jumladan, xodimlarning pensiya nafaqalarini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi), tibbiy xizmat kabilarni boshqaradi. Kvestatura bosh kotibiyati, shuningdek, pochta va televizion aloqa ishlarini ham boshqarib boradi. Palatalarda palata raisi, rais o'rinbosari, doimiy komissiyalar raislari, siyosiy guruhlar raislari va vazirlardan biri ishtirokida majlis shakllantiriladi. Milliy assambleyada bu majlis tarkibiga moliyaviy komissiyaning bosh ma'ruzachisi ham kiradi. Majlislarda kun tartibiga qo'yiladigan masalalar muhokamasi tashkillashtiriladi.

Hukumat talabi bilan yoki taalluqli palata qaroriga asosan ma'lum bir xil qonun loyihalari yoxud qonun takliflarini ko'rib chiqish uchun maxsus komissiyalar tuzilishi mumkin (Konstitutsiyaning 1-qismi 43-moddasi).

Fransiyada parlamentariylarni chaqirib olish huquqi hech kimga berilmagan. Oddiy saylovchi o'z deputatining yoki senatorining faoliyatni matbuotda berib boriladigan hisobotlar yoxud audiovizual OAV orqali kuzatib borishi mumkin. Parlament yig'inlarining omma uchun ochikligi, bu borada OAV vakillariga berilgan kafolatlar, parlament muhokamalari va har bir yarlamentariyning qanday ovoz bergani bo'yicha materiallarning chop etilishi (albatta, ovoz berish yashirin usulda o'tmagan holda) kabi hollar har bir deputatning haqiqiy siyosiy qiyofasini ochib berish bilan uning faoliyatini muhokama etishga imkon yaratadi.

Qonunchilik Parlament va uning a'zolarini ijroiya hokiyiyatining ortiqcha ta'siridan saqlashga intiladi. Jumladan, mana shu maqsadda parlamentariylik vakolatlarini o'tash bilan bir vaqtda belgilangan boshqa davlat lavozimlarida yoki davlat tizimining vakolatli o'rinlarida faoliyat olib borish taqiqlab qo'yilgan. Masalan, Saylov kodeksiga binoan, Milliy assambleyada deputatlik vakolat muddatini o'tayotgan shaxs bir vaqtning o'zida senator ham bo'lishi, deputat yoki senator o'rinbosari vazifasini bajarishi, iqqisodiy va ijtimoiy kengash a'zosi sifatida, Hukumatning dengizorti hududlar bo'yicha kengashi a'zosi sifatida, saylov orqali olinadigan bittadan oshiq mandat yoxud lavozimda va hokazolarda faoliyat yuritishi mumkin emas. Bu qoidalarning yo'lga qo'yilishidan na faqat parlamentariylarning mustaqilligini ta'minlash, balki ularning o'zlarini parlament ishiga to'la baxsh eta bilishlari uchun imkon yaratib berish ham ko'zda tutilgan.

58—1100 raqamli Ordonansga muvofiq, tinchlik davrida parlamentariylar harbiy xizmat o'tashga majbur emaslar, ular harbiy xizmatni ko'ngilli tarzda o'tash istagini biddirgan hodda, xizmat o'tash jarayonida parlament muhokamalarida ishtirok etmaydilar. Ovoz berishda esa, faqat yuqorvda tilga olingan tarzda — ishonchli vakil orqali ishtirok etishlari mumkin. Urush davri yoki urush havfi tahdid solib turgan davrda esa, safarbar qilingan, yoxud harbiy xizmat o'tash yuzasidan shartnoma tuzgan yarlamentariylar o'z mandatlarini saqlab qoladilar. Jangovor qahramonlik yoki shunga tenglashtiriladigan ish ko'rsatgandan tashqari hollarda parlamentariylar davlat nishonlari va mukofotlari bilan taqdirlanmaydilar.

Fransuz parlamentariylari o'z vazifalarini bajarish jaryonida ovozga qo'yilgan masala yuzasidan bergan ovozi yoki bilDyrgan fikri tufayli taqibga olinishi, qidiruvda bo'lishi mumkin emas. Parlamentariylar tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan jinoiy ish yoki ma'muriy tartibbuzarlik haqida shuni aytish mumkinki, ular uchun Konstitutsiyaning 26-moddasi, oxirga uch bandida daxlsizlik kafolatlangan. 1995 yil avgustida Konstitutsiyani qayta ko'rib chiqish natijasida daxlsizlik kafolati sezilarli darajada kamaytirilgan. Huquqni himoya qilish organlari istalgan paytda parlamentariylarni ma'lum bir ma'noda «o'rganib chiqishi» mumkin. Ammo parlamentariyni hibsga olish va uning ozodligini cheklash bo'yicha choralar faqat parlamentariyning vakolat muddati tugab, oradan kamida bir oy o'tgachgina, amalga oshirilishi mumkin.

Deputat yangi deklaratsiyani taqsim etadi va shu deklaratsiya asosida palata byurosi yuz bergan o'zgarishni baholaydi. Deputatlik vakolati muddatidan oldin tugagan hodda (deputat vafot etganhol bunga kirmaydi) yangi deklaratsiya vakolat muddati tugagandan so'ng 15 kun ichida taqsim etiladi. Bu deklaratsiyalar siyosiy hayotning moliyaviy oshkoraligibo'yicha Komissiyaga jo'natiladi va bu Komissiya parlamentariy vakolat muddatining boshi va oxirida deklaratsiyalarni qiyoslaydi.

Sudlov sohasida Parlament afv etish huquqiga ega. Parlament Oliy adolat sudi va Respublika Adolat Sudida oliy lavozimlarni egallab turgan shaxslarga qo'yilgan ayblovlarni o'rganib chiqish maqsadida sud organlarini tuzadi va, aytib o'tilganidek, davlatga hiyonat ayblov bilan Prezidentni Oliy adolat sudiga topshirishi mumkin.

Palatalarning vakolati muddati va miqdoriy tarkibi masalalari yuzasidan Konstitutsiyaning 25-moddasi organik qonunlarga ishora qiladi. Organik qonunlarning tegishli qoidalari Saylov kodeksiga kiritilgan. Unda belgilangan tartibga ko'ra, Milliy assambleya besh yil muddatga saylanib, har galgi saylovlarda to'liq yangilanadi. Mazkur kodeksga ko'ra, senatorlar to'qqiz yillik muddat bilan saylanadilar va Senat tarkibi har uch yilda umumiy tarkibning uchdan bir qismi miqdorida yangilanib boradi. Metropoliya departamentlarida va dengizorti departamentlarda 577 nafar deputat va 305 nafar senator saylanadi.

Fransiya parlamentida komissiyalarning ikki xil turi mavjud — doimiy va maxsus komissiyalar. SHuningdek, yana boshqa ikki xil turdagi — nazorat va tergov komissiyalari ham tuzilishi mumkin.

Konstitutsiyaga muvofiq, Fransiya parlamentining har ikkala palatasi 6 tagacha doimiy qo'mita tuzishi mumkin. Hozirda, Milliy assambleyada quyidagicha qo'mitalar tuzilgan: madaniy ishlar bo'yicha, oila va ijtimoiy munosabatlar bo'yicha, xalqaro munosabatlar bo'yicha, milliy mudofaa va qurolli kuchlar bo'yicha, moliyaviy ishlar, iqtisod va rejalashtirish bo'yicha, konstitusion aktlar, qonunchilik va umumiy boshqaruv bo'yicha, ishlab chiqarish va savdo bo'yicha.

Har bir qo'mita rais, o'rinbosarlar va kotiblardan iborat tarkibdagi o'z byurosini tuzadi. Qo'mitanig faoliyat jarayoni faqat uning a'zolari vakolatlari bilan boshqariladi. Biroq palata yig'ini paytida qo'mitalar o'z uchrashuvlarini faqat Milliy assambleya tomonidan ularga, kechiktirmasdan ko'rib chikish yoki kun tartibiga kiritish uchun topshirilgan masalalar bo'yichagina o'tkazadilar.

Senat ham o'z navbatida bir necha doimiy qo'mitaga ega: madaniy munosabatlar bo'yicha, iqtisodiy munosabatlar va rejalashtirish bo'yicha, xalqaro munosabatlar, milliy mudofaa va qurolli kuchlar bo'yicha, ijtimoiy munosabatlar bo'yicha, moliyaviy ishlar, byudjet nazorati va milliy hisobkitoblar bo'yicha, konstitutsiyaviy aktlar, qonunchilik, protsessual qonunqoidalar va umumiy boshqaruv bo'yicha.

SHuningdek, Senatda, muvaqqat tarzda, bironbir masala yuzasidan tergov olib borish maqsadida tergov qo'mitalari, bironbir matnni ekspertizadan o'tkazish maqsadida maxsus qo'mitalar tuzilishi mumkin.

Senat raisi mazkur palata tarkibining har galgi qisman o'zgarishida, ya'ni har uch yidda yangidan saylanadi. Hukumat qonun loyihalarini, odatda, Milliy assambleyaga taqdim etishni afzal biladi, biroq qonun bo'yicha, (moliyaviy masalalar bo'yicha qonun loyihalari bundan mustasno) avval Senatga taqsim etish ham mumkin. Qonun loyihalari va qonunchilik bo'yicha takliflarni muhokama qilish jarayoni Senatda ham xuddi Milliy assambleyadagi kabidir. Qonun loyihasi

qonun sifatida qabul qilinishi uchun har ikkala palata tomonidan ma'qullanishi lozim. Milliy assambleyadan farqli o'laroq, Senat Hukumat dasturini ma'qullashdan bosh tortish yoki Hukumatga ishonchsizlik biddirish orqali Hukumatni ag'darib tashlash imkoniyatiga ega emas. Bosh vazir Senatdan Hukumatning umumiy siyosati to'g'risidagi deklaratsiyani ma'qullashni so'rash huquqiga ega. Senatni Respublika Prezidenti tarqatib yubora olmaydi.

Bironbir qonun loyihasi yuzasidan palatalar orasida kelishmovchilik sodir bo'lgan hollarda, Bosh vazir tashabussi bilan Parlamentda har ikki palata — Milliy assambleyadan va Senatdan — 7 tadan vakil ishtirokida qo'shma paritar qo'mita tuzilishi mumkin.

Qo'shma paritar qo'mita ko'rib chiqqan qonun loyihasi masalasi hal etilgan paytdan boshlab, o'z ishini to'xtatadi. Qo'shma paritar qo'mitalarning soni har yili har xil bo'lishi mumkin.

Qo'mita yig'ilishlarida vazirlar ishtirok etishlari mumkin. Vazirlarning so'zi tinglanishi zarur, lekin masalani ovozga Qo'yish jarayonida vazirlar hozir bo'lmasligi kerak. Milliy assambleya alohida o'zi, yoki Senat bilan birgalikda ofislar va delegatsiyalar ham tuzishi mumkin, ularning vazifasiga Parlamentni muayyan aniq masalalar bo'yicha axborot bilan ta'minlab borish kiradi.

3. Parlament rasm rusumlari va qonunchilik jarayoni

O'zining 34-moddasida qonunlar Parlamentda qabul qilinishini belgilar ekan, Konstitutsiya qonunchilik borasida Parlamentning faoliyat doirasini Prezident va Hukumatga tegishli bo'lgan reglamentar hokimiyat faoliyati doirasidan ajratib ham bergan.

Fransiya parlamenti uch xil qonun qabul qiladi, bular oddiy qonunlar, organik qonunlar va Konstitutsiyani o'zgartiruvchi qonunlardir. Parlament qaysi masalalar bo'yicha qonunchilik yshi olib borishini Konstitutsiya bilan belgilab berilishi Beshinchi Respublika tizimining o'ziga xos tomonlaridan biridir.

Parlament tomonidan qabul qilinadigan qonunlar vositasida quyidagi masalalar tamoyillarining asoslari belgilanadi: umumiy milliy mudofaani tashkil etish; mahalliy ma'muriy birliklarni, ularning vakolatlarini va daromadlarini erkin boshqarish; ta'lim, xususiy mulk tizimi, moddiy huquq va fuqarolik burchlari va savdosotiqsagi majburiyatlar; mehnat huquqi, kasaba uyushmalari huquqi va ijtimoiy ta'minot. SHuningdek, moliyaviy qonunlar maxsus organik qonunda mujassam etilgan shartsharoitlarni e'tiborga olgan holda, davlatning daromad va xarajatlarini, dasturiy qonunlar esa, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati maqsadini belgilab berishi ko'zda tutiladi. SHu bilan birga, organik qonun vositasida Konstitutsiyada ko'zda tutilgan yuqoridagi masalalarga Qo'shimchalar va aniqliklar kiritilishi mumkin. Bunday organik qonunlar shu kungacha hali qabul qilinmagan.

Parlamentning qonunchilik vakolatlarining cheklanishi xuddi qonunchilik me'yorlari va tamoyillari o'rtasidagi farqlar kabi, amaliy ahamiyat kasb etmaydi, negaki Hukumat parlamentdagi ko'pchilik ovozga tayanib ish ko'radi. Yuqorida aytib o'tilgan cheklash Parlamentning ahamiyatini kamaytirish uchun izchillik bilan intilish natijasida emas, balki Hukumatning samarali faoliyat yuritishiga imkon qadar kengroq maydon yaratish maqsadidan kelib chiqqan.

Biroq shu narsani ta'kidlamaslik mumkin emaski, bu katta samaradorlik aynan Parlamentning vakolati hisobiga erishilayapdiki, parlamentning hukumatni qo'llabquvvatlashi mustahkam bo'lmagan holatlarda ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiya matnidani «qoidani o'rnatish» va «asosiy prinsiplarni belgilash» formulalari o'rtasidagi farq juda ravshan emas. Fransuz parlamenti amaliyotdagi Konstitutsiyani o'zgartirish huquqiga ega. Aynan ana shunday protsedura uchun mavjud 89modda quyidagi tartibni nazarda tutadi. Amaliyotdagi Konstitutsiyaga o'zgartirishlar parlament a'zolari va Bosh vazir taklifiga binoan Prezident tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunchilik tashabbuskorligi Bosh vazir va parlament a'zolariga tegishli. Respublika Prezidenti rasman bunday tashabbuskorlik huquqiga ega emas. Hukumat qonun loyihalari bir yoki bir necha vazirliklarning tegishli xizmatlari tomonidan tayyorlanadi. Qonunchilik takliflari bir yoki bir necha parlament a'zolari tomonidan, fraksiyalar yoki deputatlar a'zo bo'lgan palata byurosi fraksiyasi orqali olib chiqiladi. Deputatlar o'zlarining o'zgartirishlar kiritish huquqidan juda faol foydalanadilar.

Bosh vazir qonun loyihalarini, deputatlar qonun taklifini taqdim qiladi. Qonun loyihasi birinchi bo‘lib hukumatning maslahat organi sifatida Dalat kengashida ko‘riladi, so‘ngra Vazirlar mahkamasida muhokama qilinadi va undan keyingina palatalardan birining byurosiga yuboriladi, shu bilan birga moliyaviy qonun loyihalari avvalambor Milliy assambleyaga yuboriladi (2bo‘lim, 29modda). Deputatlarning qonun takliflari, hamda o‘zgartirishlar ushbu qonunlarni qabul qilish natijasida ommaviy resurslar qisqarib yoki oshib ketadigan bo‘lsa, bu qonunlar qabul qilinmaydi (4modda). Bu vaziyat deputatlarni mas‘uliyatsiz, populistik tashabbuslar bilan chiqishiga qarshilik qiladi. Palatalar reglamentiga muvofiq hukumat o‘zining qonun loyihasini Parlament tomonida mutlaq qabul qilingunga qadar xohlagan paytda qaytarib olishi mumkin, qonun taklifi esa deputatlar tomonidan (agar u bir guruh deputatlar tomonidan taklif qilingan bo‘lsa, unda birinchi bo‘lib yo‘l qo‘yganlar tomonidan) faqatgina birinchi o‘qishga qadar qaytarib olinishi mumkin. Palata tomonidan qaytarilgan qonun taklifi qaytadan bir yiddan keyingina qo‘yilishi mumkin.

Qonun loyihasi yoki qonun taklifi haqida palataning ommaviy yig‘inida ma‘lum qilinadi. U maxsus yoki doimiy komissiyaga takdim qilinadi.

Milliy assambleyada qonun loyihasi yoki qonun taklifining muhokamasi boshlangunga qadar kiritilgan hujjat muhokamasining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida dastlabki masala ko‘tarilishi mumkin. Bunday holatda Konstitutsiyada mavjud ziddiyatlarni dalil sifatida keltirish yoki umuman muhokamaning dolzarbligini shubha ostiga qo‘yish mumkin. Dastlabki masalaga nisbatan kiritilgan takliflarni qabul qilish hujjatni bekor qiladi. Qo‘yilgan masala muhokamasi jarayonida faqat uning muallifi, qaramaqarshi fikrga ega bitta notiq, hukumat yoki masalani jiddiy o‘rgangan komissiya dokladchisi so‘zga chiqishi mumkin.

Odatda, dastlabki masalalar muhokamada bekor qilinadi, biroq, shunday ham bo‘lib turadiki, ular ma‘qullanadi ham. Bu ko‘pincha palata tomonidan vaqtini cho‘zish yoki (pozitiv dastlabki masala deb nomlanadigan) qonun loyihasini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladi. SHunday bo‘lsada, dastlabki masala — xorij qonunchiligida tan olingan oddiy qonunchilik jarayoni hisoblanadi.

Birinchi o‘kishda komissiya dokladi bo‘yicha umumiy bahsmunozara o‘tkaziladi, bandlar muhokamasi va umumiy ovoz berish jarayonlari kechadi, birinchi o‘qishdan so‘ng tasdiqlangach, hujjat boshqa palataga uzatiladi. Undan qaytganidan so‘ng ikkinchi o‘qish amalga oshiriladi, zarurat bo‘lsa uchinchi, to‘rtinchi va h.k. o‘qishlar ham bo‘ladi.

Matnga tegishli bandlar o‘zgartirishlari matndan keyin muhokama qilinadi, bandlarga ovoz berilgandan keyin matn bo‘yicha oyuz beriladi. Faqatgina palata byurosi tomonidan kiritilgan o‘zgartirishlar muhokama qilinadi. Uzgartirishlar kiritish jarayonida birinchi bo‘lib matnni bekor qilar chiqaruvchi o‘zgartirishlar, so‘ngra u yoki bu darajada matn mantig‘iga qaramaqarshi yoki to‘ddirish nuqtai nazaridan kelib chiqib farqlanuvchi o‘zgartirishlar muhokama qilinadi. Hukumat yoki komissiya o‘zgartirishlari birinchi navbatda muhokama qilinadi.

Kiritilayotgan o‘zgartirishlar soni juda sezilarli. Masalan, yettinchi legislatura davrida (1981—1986 yillar) Milliy assambleyada 524 ta qabul qilingan qonunga 15711 o‘zgartirish, yoki o‘rtacha bitta qonunga 30 o‘zgartirish taklif qilingan edi. Xuddi ana shunday nisbat sakkizinchi (1986—1988 yillar — 174 qonunga 4334 o‘zgartirish) va to‘qqizinchi (1988—1993 yillar — 456 qonunga 12273 o‘zgartirish) legislaturalarda ham kuzatilgan edi. Qizig‘i shundaki, 60% o‘zgartirishlar doimiy komissiyalarning o‘zlari tomonidan kiritilgan, 20% esa — hukumat tomonidan. Ba‘zi oddiy deputatlar tomonidan kiritilgan o‘zgartirishlar, aslida, hukumat tashabbusi bilan amalga oshirilgan edi.

Hukumati talabiga binoan, palata muhokama qilinayotgan hujjat uchun yoki hukumat tomonidan taklif qilingan yoki qabul qilingan o‘zgartirishlarni ham hisobga olgan hodda, uning ba‘zi qismlari bo‘yicha ovozga qo‘yish kerak (Konstitutsiyaning 3bo‘limi, 44modda). Bu protsedura qurshov ovozi deyiladi va hukumatga har qanday vaqtda bahsmunozarani to‘xtatish imkonini beradi.

Agar bir palata ikkinchi palatada birinchi o‘qishda qabul qilingan matnni ma‘qullasa, u holda matn Prezidentga yuboriladi. Agar bir palata tomonidan matnga o‘zgartirishlar kiritilsa,

yuqorida ta'kidlanganidek, ikkinchi o'qish uchun narigi palataga yuboriladi, shuning bilan, boshqa palata tomonidan ma'qullangan matn boshqa o'zgartirilishi mumkin emas.

Modomiki, bo'lajak qonunchilik hujjatining matni juda uzoq vaqt palatalar orasida yurishi mumkin ekan («chelnok» — boribkelaveradigan), Konstitutsiyaning 45bandida bu jarayon Hukumatning tashabbusiga binoan to'xtatilishi nazarda tutilgan. Agar hujjat har qaysi palatada ikki o'qishda yoki har bir palatada bir o'qishda qabul qilinmasa Hukumat masalani kechiktirib bo'lmasligini ma'lum qilishi va Bosh vazir bahsli masalalar yuzasidan yangi matnni ishlab chiqish maqsadida teng aralash komissiya chaqirishi mumkin. Bu matn palatalarga taqsim etiladi va unga o'zgartirishlar Hukumatning roziligisiz kiritilishi mumkin emas. Baribir bu narsa amalga oshmasa, har ikki palatada yangidan o'qilgach (ommaviy e'lon) Hukumat Milliy assambleyadan oxirgi qarorni qabul qilishni talab qilishi mumkin. Milliy assambleya aralash komissiya ishlab chiqqan matnga qaytishi yoki Senat o'zgartirishlari hisobga olingan o'zining oxirgi matniga qaytishi mumkin.

Parlament palatalari tomonidan qabul qilingach, qonun loyihasi promulgatsiya (ommaviy e'lon) uchun Respublika Prezidentiga uzatiladi. Biroq, davlat rahbari parlamentdan qonunni butunlay yoki uning ba'zi bandlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. Bunday qayta ko'rib chiqishdan bosh tortish mumkin emas. Bunday holatda Assambleya raisi assambleya a'zolariga davlat rahbari o'z huquqidan foydalanilganligini tushuntiradi. Palata ushbu qonunni qaytadan ko'rish uchun shu qonun bilan shug'ullangan komissiyaga yuborishni yoki bironbir boshqa komissiyaga yuborishni qaror qiladi. Komissiya palata tomonidan o'rnatilgan, 15 kundan uzoq bo'lmagan muddat ichida qaror kiritishi lozim. Bu qonun loyihasi haqida senat raisiga ma'lumot beriladi.

Loyihalarni va uzviy bog'liq qonunlarni o'tkazish xususiyatlari Konstitutsiyaning 46bandida belgilangan. Palatada muhokama qilish va ovoz berish qonun kelgach, 15 kun ichida o'tkaziladi, agar palatalar o'rtasida kelishuv yo'q bo'lsa, biz yuqorida tilga olgandek, Milliy assambleya oxirgi o'qishda aksariyat ovoz bilan qonunni qabul qiladi, bu protsedura konstitutsiyaning 45bandida nazarda tutilgan. Agar uzviy qonun senatga ham taalluqli bo'lsa, uning roziligisiz bu qonun qabul qilinishi mumkin emas. Nima bo'lganda ham, 1958 yilda tuzilgan Konstitutsiyaviy kengash uzviy qonunlarning konstitutsiyaga muvofiqligi nuqtai nazaridan ommaviy e'longa qadar nazorat qiladi va parlament tomonidan palatalar reglamentini nazarda tutadi. Oddiy qonunlarni ommaviy e'longa qadar ko'rish jarayoni ixtiyoriy ravishda Respublika Prezidenti, Bosh vazir, palata raislari, 60 deputat va 60 senat talabiga binoan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy kengash bir oy muddat mobaynida qarorini ma'lum qiladi. Qonun tezkorligani ma'lum qilgan hukumatning talabiga binoan bu muddat sakkiz kungacha qisqarishi mumkin. Kengash so'rovi 15 kunga teng ommaviy e'lon muddatida to'xtatiladi. Konstitutsiyaning xalqaro bitimlarga muvofiqligini talab qilish huquqiga Respublika Prezidenti, Bosh vazir va parlament palatalari raislari ega. Hozirgi paytda oddiy qonunlarning konstitutsiyaga muvofiqligi juda keng qo'llaniladigan protsedura hisoblanadi.

Agar Konstitutsiyaviy kengash qonunning bironbir vaziyatini konstitutsiyaga xilof, deb e'lon qilsa, qonun ommaviy e'lon qilinishi mumkin emas; Kengash qarorining nashr etilishi ommaviy e'lon muddatini to'xtatishni bekor qiladi. Agar Kengash butun qonunni konstitutsiyaviy emas, deb e'lon qilsa, ommaviy e'lon qilinmaydi. Agar Kengash qonun tarkibining ba'zi bir qismlarini konstitutsiyaga zid deb e'lon qilsa, butun qonundan ajralmasligini aniqlamasdan Respublika Prezidenti ko'rsatilgan me'yorlarni istisno qilgan holda qonunni ommaviy e'lon qilishi yoki qayta ko'rib chiqilishini talab qilishi mumkin. Parlament tomonidan hukumatga vakillar yuborish Konstitutsiyaning 38-moddasida nazarda tutilgan. Delegatsiya muddati ma'lum vaqt bilan chegaralanadi. Hukumat tomonidan delegatsiyaga qonun loyihasining taqdimotiga qadar u (qonun ye delegatsiya) bo'yicha Davlat kengashining xulosasi so'raladi. Bu ordonanslar (hukumat qarori) o'z haqiqiylikini yo'qotadi, agar qonun loyihasi muakkal qonunda ko'rsatilganidek o'z muddati mobaynida parlamentga tasdiqlash uchun olib kiritilmasa. Muddatning o'tishi bilan parlament tomonidan hukumatga ordonanslar nashr qilish uchun taqdim qilinganda ordonanslar faqat qonun chiqarish yo'li bilangina o'zgartirilishi mumkin. Bironbir sohani boshqaruvini hukumatga berib, parlament unda muakkal qonunda ko'rsatilgan muddatga qadar qonunchilik bilan shug'ullanishi

mumkin emas. Amaliyotda delegirovaniya juda kam amalga oshiriladi. 1990 yil sentyabr oyigacha bunday delegatsiya faqatgina 23 marta, asosan olti oy muddatga uyushtiriddi.

Konstitutsiyaning 47moddasiga binoan moliyaviy qonun loyihalari ham o'ziga xos o'tish tartibiga ega. Loyiha Milliy yig'inga oktyabr oyining uchinchi seshanbasiga qadar kelib tushishi kerak va u birinchi o'qishdan 40 kun muddat ichida o'tishi kerak. Senat uchun birinchi o'qishga 20 kun beriladi. Agar Milliy assambleya loyihani ko'rsatilgan muddatda qabul qilmasa, Hukumat Milliy assambleyaning tuzatishlarini hisobga olish ehtimoli bilan uni 15 kunlik muddat ichida o'z fikrini aytish sharti bilan Senatga uzatadi. SHundan so'ng Konstitutsiyaning 45 moddasida nazarda tutilgan protsedura qo'llaniladi. Agar parlament qonunni 70 kun mobaynida qabul qilmas ekan, unda loyiha holati Prezident ordonansi faoliyatiga kiritilishi mumkin.

Agar Hukumat Parlamentga byudjet loyihasini o'z vaqgida olib kirmasa, u parlamentdan soliqlar yig'ishga ruxsat so'raydi va qabul qilingan byudjet qismlariga muvofiq dekret bilan kreditlar ochadi.

Qonunlarning ommaviy e'lon qilinganidan so'ng «Rasmiy xabarnoma»da nashr qilinadi. Parlament va hukumat moliyaviy qonunlarning ijrosini Hisob palatasi bilan hamkorlikda nazorat qilib boradi.

Umumiy protsedura. 1955 yilga qadar Konstitutsiyaning 28 bandi Parlamentning umumiy davomiyligi 170 kundan ziyod bo'lmagan ikkita navbatdagi sessiyasini nazarda tutardi. Bu moddaning amaliyotdagi tahririga muvofiq Parlament o'z huquqi doirasida navbatdagi sessiyaga oktyabrning birinchi ish kuni yig'iladi va iyun oyining oxirgi ish kuni tamomlaydi. SHu bilan birga, har bir palata navbatdagi sessiya davomida 120 kundan ortiq yig'inni davom ettira olmaydi. Uning o'zi qaysi haftalar yig'ilishni belgilaydi. Bosh vazir joriy palataning raisi yoki aksariyat a'zolari bilan maslahatlashgach qo'shimcha yig'ilish kunlari to'g'risida qaror kiritishi mumkin.

Konstitutsiyaning 29moddasiga binoan navbatdan tashqari sessiya Bosh vazirning yoki Milliy assambleyaning aksariyat deputatlari talabiga binoan kun tartibidagi ma'lum masalalarni ko'rib chiqish maqsadida o'tkazilishi mumkin. Agar u deputatlarning talabiga binoan chaqirilgan bo'lsa, kun tartibining hal qilinishi bilanoq, 12 kundan uzoq bo'lmagan muddatda yopiladi. Sessiya yopilishiga bir oy qolgan muddatda yangi sessiya chaqirish huquqiga faqatgina Bosh vazir ega. Agar Parlament o'z huquqidan kelib chiqib yig'ina olmasa, u holda navbatdan tashqari sessiya Prezidentning dekreti bilan ochilib, yopiladi (Konstitutsiya, 3modda).

58—1100 raqamli ordonans ikki palata ham Parijda yig'ilishini nazarda tutadi, agar vaziyat taqozo qilib, boshqa shaharda yig'ilishga majbur bo'lsa, Hukumat palatalar raislari bilan kelishilgan holda Prezident va Hukumat joylashgan yaqinroq joyda joylashtirishga harakat qiladi.

Palata yig'ilishini, yopishni Bosh vazir yoki o'zining 1/10 a'zolari (Reglamentga muvofiq ulush mavjud aralash mandatlar raqamidan aniqlanadi) talabiga binoan o'tkazilishi mumkin. Yuqorida zikr qilingan ordonansga muvofiq palata qidiruv yoki nazorat komissiyasining dokladini tinglash jarayonida maxfiy qo'mita tuzishi va dokladning bir qismini yoki butunlay nashr qilishni man qilishi mumkin. Hukumat a'zolari ikkala palata majlislariga kirish huquqiga ega va o'zlarining talablariga binoan so'z olishlari mumkin, ularga Hukumat komissarlari yordam beradi (Konstitutsiya, 31modda).

Fransuz parlamentida ikki xil sessiya mavjud — oddiy va favqulodda. Oddiy sessiyalar o'tkazish vaqgi qattiq reglament ostiga olingan. 1958 yildan buyon parlament bir yilda ikki marta yig'iladi. Birinchi sessiya 2 oktyabrda boshlanadi va 80 kun davom etadi, ikkinchi sessiya 2 aprel kuni ochiladi va 90 kun davom etadi. Davlat Konstitutsiyasi ikkinchi sessiyani 90 kundan «oshmasligini» ta'kidlar ekan, sessiya undan qisqaroq bo'lishi ham mumkin.

Favqulodda sessiya Bosh vazir yoki Milliy assambleya a'zolari tashabbusiga binoan, odsiy sessiyalar vaqtidan boshqa vaqtda va faqat ma'lum kun tartibi bilan o'tkazilishi mumkin. Ular Prezident dekreti bilan ochiladi va yopiladi. Deputatlar talabi bilan chaqirilgan favqulodda sessiya 12 kun muddat doirasida chegaralanadi, biroq Bosh vazir talabi bilan o'tkazilayotgan sessiya cheksiz — kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqqunga qadar davom etishi mumkin. Bosh vazir o'tgan favqulodda sessiya tugashi bilanoq, darhol yangi sessiya chaqirishi mumkin, Deputatlar esa — faqat bir oydan so'ng.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari.

1. Jahon xaritasida Yevropa mamlakatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosat konsepsiyasi asosiy o'Ichamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Yagona Yevropa xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
4. Barak Obama prezidentligi davrida AQSH – Yevropa munosabatlari nimadan iborat deb o'ylaysiz ?
5. Bugungi kunda AQSHning raketalariga qarshi mudofaa tizimining Yevropada o'rnatilishi Rossiya -Evropa munosabatlari ?

Adabiyotlar.

1. Абазов Р. Глобальные перемены и геополитика на пороге XXI века // МЭ и МО. №2 февраль 1999. Стр.116-120.
2. Андреева Т. Безопасность западной Европы и независимые ядерные силы Великобритании и Франции // МЭ и МО, №1 январь 2004 стр. 51-61.
3. Арбатов А.Г. Национальная безопасность России в многополярном мире // МО и МЭ. №10 октябрь 2002. стр. 21-28.
4. Гаджиев К. Мифы и реальности «Нового великого шелкового пути» // МЭ и МО 2008 №11 С.6 (3-14)
5. Зверева Т. Внешняя политика Франции после прихода к власти 5.71. Николя Саркози // МЭ и МО, №6 2008. – стр.34-38
6. Злакозова Н. Расширение ЕС: за и против с позиций его членов // МЭ и МО №1, январь 2004. Стр. 62-69.
7. Нарочницкая Н. Европа старая и Европа новая // Международная жизнь , №4 2003. стр 47-49.
8. Пашковская И. Внешняя энергетическая политика Европейского союза // МЭ и МО, 2009 №1, Стр. 67
9. Терентьев А. мироустройства начала XXI века: существует ли альтернатива «Американской империи?» // МЭ и МО 2007 №10 октябрь стр.35-46.

Mavzu - 7 . Germaniyaning siyosiy tizimi

Dars maqsadi:

- Germaniyadagi federativ tizimni tahlil etish;
- Zamonaviy taraqqiyotning xususiyatlari: yangi leyborizm va yangi demokratlar haqida o'rganish;
- Germaniyadagi so'nggi saylovlar, Prezident saylovlari va konstitusion islohatlar muammosini tadqiq etish;
- Davlatlarning siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan tanishtirish;
- Siyosiy jarayonlar va munosabatlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va diniy omillar haqida tushuncha berish;
- Siyosiy qiyosiy tadqiqotlarning turlari. Siyosiy tizimlarning tipologiyasi (zamonaviy, an'anaviy va b.) tahlil etish;
- Talabalarni siyosiy tuzum, siyosiy rejim va uning turlari bilan tanishtirish;
- qiyosiy politologiyaning siyosiy fanlar tizimidagi o'rnini aniqlash va ko'rsatish;

Tushunchalar va tayanch iboralar: siyosiy rejim, madaniy-sivilizasion determinizm, Demokratik, Liberal, despotik, mustabidlik, Tiraniya, Avtoritar, Totalitar, harbiy, Fashistik, Irqiy, Diniy siyosiy rejim.

Asosiy savollar:

1. Germaniya parlamentining shakllanish masalalari
2. Germaniya Bundestagining tuzilmasi

1. Germaniya parlamentining shakllanish masalalari

Germaniya Federativ Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi organi Federal parlamentdir. U quyi palata — Federal majlis (Bundestag) va yuqori palata — Federal kengash (Bundesrat)dan tashkil topgan.

Bundestag 669 deputatdan iborat. Bundestagga saylov to'g'rida to'g'ri va proporsional tizimda o'tkaziladi — saylovda 5% dan kam bo'lmagan ovoz to'plagan partiyalar parlamentda o'z vakilligiga ega bo'ladi. Bundestag 4 yilga saylanadi. Deputatlarning yarmi butun mamlakat hududini qamragan bir mandatli okruglarda majoritar tizim bo'yicha saylanadi (ovoz berishda qatnashgan fuqarolar ovozlarning ko'pchiligini olgandagina saylangan hisoblanadi). Deputatlarning qolgan qismi ko'p mandatli okruglarda partiyalarning viloyat ro'yxati bo'yicha saylanadi. SHunday qilib, har bir saylovchi ikki ovozga ega bo'lib — alohida nomzodga va partiyaviy ro'yxatga ovoz beradi.

Bundestag a'zolari saylanmaydi, balki viloyatlar (GFR federatsiya a'zolari bo'lgan hududlar — viloyatlardan tashkil topgan) hukumatlari tomonidan aholining proporsional miqdorida vakil qilib yuboriladi. Bundesrat tarkibi viloyatlardan birida hukumat yoki ayrim vazirliklar o'zgaranda almashadi.

Germaniya parlamentining yuqori palatasi — Bundesrat GFRning 16 viloyati manfaatlarini ifodalaydi. Har bir viloyat kamida uch ovozga ega. Aholisi ikki milliondan ortiq viloyat to'rt ovozga, besh milliondan ortiq aholiga ega viloyat — besh ovozga, aholisi olti milliondan ortiq viloyat — olti ovozga ega bo'ladi. Bunday viloyatlarning vazir — Prezidentlari (Bosh vazirlari) albatta, Bundesrat a'zosi bo'lishi lozim. Bundesrat a'zolari imperativ mandatga ega, ya'ni o'zlarining viloyat hukumatlari dasturiy ko'rsatmalariga bog'liq. Viloyat vakillari bir xil ovoz berishlari lozim bo'lganidan ovoz berishda viloyat Hukumati yoki viloyatdan vakil qilingan bitta a'zo ishtirok etishi yetarlidir.

Bundesratda hammasi bo'lib 68 a'zo bor. Uning tarkibi federal viloyatlarning birida yoki ayrim vazirlar almashganda o'zgaradi. Qarorlar Bundesrat a'zolarining mutlaq ko'pchiligi (35 kishi) tomonidan qabul qilinadi. Bundesrat a'zolari Bundestag a'zolaridan farqli o'laroq, daxsizlik huquqiga ega emas.

Germaniyada o'n sakkiz yoshga yetgan fuqarolar saylash va saylanish huquqiga ega.

Parlament va siyosiy partiyalar

Germaniyadagi asosiy partiya va koalitsiyalar hukmron Sotsialdemokratiya partiyasi (GSDP), Xristiandemokratik ittifoq (XDI) koalitsiyasi va Xristianijtimoiy ittifoqi (XII), Erkin demokratik partiya, «Yashillar» partiyasi, Demokratik sotsializm partiyasi (DSP)dir.

GSDP — soniga ko'ra Germaniyaning eng katta partiyasi bo'lib, o'z saflarida 750 ming a'zo va 12,5 ming tashkilotlarni birlashtirgan. 1869 yilda Eyzenada umumgerman ishchilar s'ezdida tuzilgan. 1990 yil sentyabrda sharqiy german tuzilmasi bilan birlashdi. Gerxard SHreder partiya raisidir.

Ta'siri va soniga qo'ra Xristian demokratik ittifoqi (XDI) va Xristian ijtimoiy ittifoq (XII) koalitsiyasi ikkinchi o'rindadir. 1982—1999 yillarda hukmron koalitsiya edi. XDS 1950 yilda, XII 1945 yilda mustaqil partiya sifatida shakllangan. Konservativ — demokratik yo'nalishdaga mafkuraga ega.

Soni va ahamiyatiga ko'ra uchinchi o'rinda turgan Erkin demokratik partiya 1948 yilda partiya sifatida shakllangan, 1990 yil avgustda sharqiy german tuzilmasi bilan birlashgan. Liberal partiya hisoblanadi. Hukmron koalitsiyaga kiradi.

Hukmron kaolisiyaga kiradigan «Yashillar» partiyasi 1980 yilda atrof muhitni ifloslantirishga qarshi kurashadigan harakatdan mustaqil partiya sifatida tashkil topgan. 1990 yilda shu turdagi sharqiy german tuzilmasi bilan birlashgan.

Demokratik sotsializm partiyasi (DSP) sobih GDRda hukmron bo'lgan Germaniya birlashgan sotsialistik partiyasi (SBSB)ning vorisidir. Partiya 1990 yilda SBSB tarqatib yuborilgandan so'ng tashkil topgan. Bu partiya Maklenburg — Pomeraniya viloyati hukumati tarkibiga kirgan, 1998 yil noyabrdan Bundesratda vakilligiga ega. 200 burgomistr DSPning a'zosi. DSP SHarqiy viloyatlardagi ta'siriga ko'ra XDI XII kaolisiyasidan keyingi ikkinchi partiyadir. Mamlakat sharqida uch partiyali — HDI XII, DSP, GSDP — sistema yuzaga kelgan.

GFR Asosiy qonuni ovoz berish masalasida partiyalarning o'z a'zolariga muayyan qarorni majburan qabul qiddirishda qat'iy mandatni rad etadi. Konstitutsiyaga ko'ra deputatlar ovoz berishda «o'z vijdoni amriga bo'ysunadi». Asosiy qonun to'g'ridanto'g'ri majbur etishlikka ham yo'l qo'ymaydi. Albatta, deputat qoidaga ko'ra o'z partiyasi (yoki tegishli fraksiyasi) fikrini hisobga oladi. Ammo u partiya intizomini buzganligi uchun partiya yoki fraksiya safidan chiqarilsa ham deputat mandatiga egaligicha qolaveradi. Bundestagdagi o'rinlarning yarmi partiyalar o'rtasida olingan ovozlarning proporsional soniga muvofiq taqsimlanadi. Proporsional saylov tizimi sof holda hatto mayda partiyalar uchun vakillik kafolatlaganidan bu ko'pincha hukumatni tuzishda murakkab muammolar yaratadi. Germaniyada siyosiy beqaror bo'lgan Veymar Respublikasida hukm surgan vaziyatlar qaytarilmasligi uchun 5 % li to'siq kiritilgan. Bundestagdagi o'ringa yo'rtiyaviy ro'yxat buyicha 5% dan kam bo'lmagan ovozlarni olgan, yoki uchtadan kam bo'lmagan saylov okrugida g'alaba qilgan partiyalar ega bo'ladilar. Natijada GFRda qariyb barcha kichik partiyalar siyosiy sahnada tushib ketdilar. Fraksiyalar o'z partiyalari olgan saylovchilar ovozining foiziga proporsional tarzda qo'mitalarga vakillar yuboradilar.

2. Germaniya Bundestagining tuzilmasi

Bundestag o'z tashkiliy tuzilmasini va ish jadvalini mustaqil belgilash huquqiga ega. Bular ustav tarzida bo'lib, reglament bilan mustahkamlanadi; Bundestagga bo'lgan saylovning to'g'riligini tekshirish huquqiga ham ega. Yopiq majlis o'tkazish haqidagi qaror parlamentning o'ndan biridan kam bo'lmagan qismi arizasiga ko'ra uchdan ikki qism ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Bundestag tomonidan qaror qabul qilinishi uchun uning a'zolarining ko'pchiligi ishtirok etishi zarur. Qoida tariqasida qaror oddiy ko'pchilik tomonidan qabul qilinadi, biroq Federal Kansler saylovi va konstitutsiya o'zgarishi hollarida yoki Bundestag deputatlari ko'pchiligining ovozini yoki ovozlarning uchdan ikki qismini olish zarurligi nazarda tutilgan.

Bundestag Prezidenti nemis Konstitutsiyasi an'alariga ko'ra parlamentning eng kuchli fraksiyasi a'zolaridan saylanadi. Veymar respublikasi bilan qiyos qilganda uning vakolatlari Federal Hukumat va uni boshqaradigan Federal Kansler foydasiga ongli ravishda cheklangan. Federal Prezident o'zida davlatni gavdalantirib (barcha Prezidentlar bu lavozimda bo'lgan vaqtlarida o'zlarining partiya a'zoliklarini to'xtatib turadilar) va zarur bo'lgan hollarda xolis vositachi va ixtilofli vaziyatlarda hakam sifatida, vakillik vazifalarni bajaradi. Prezidentning haqiqiy roli ko'pincha uning shaxsiy obro'siga bog'liq. Federal Prezidentni Federal majlis va Bundestag a'zolaridan va viloyatlarning landtaglar (viloyatlar parlamentlari) tomonidan saylanadigan teng sonli vakillaridan iborat maxsus tuziladigan organ saylaydi. Federal majlisga ko'pincha landtag a'zolari bo'lmagan obro'li jamoat arboblari, olimlar, san'at arboblari vakil etiladi. Federal majlis barcha a'zolari ko'pchiliganing ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Nomzodi qo'yilganlardan biriga birinchi tur ham, ikkinchi tur ham g'oliblik keltirmasa, saylanayotganlardan biri uchinchi turda ovoz berishga qatnashgan a'zolarining ko'pchiligi ovozini olsa, saylangan hisoblanadi. Federal Prezident besh yil muddatga saylanadi. Bu Bundestag vakolatidan bir yilga ortiq. Bu, agar Prezidentni saylash tartibi cho'zilib ketsa, hukumat tuzish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida qilingan. (Germaniyada hukumat Prezident taklifiga ko'ra Bundestag tomonidan saylanadi). Prezidentlikka saylanish hukuqidan GFRning 40 yoshga to'lgan va Bundestagga saylanish huquqiga ega bo'lgan fuqarolari foydalanadilar.

Prezident bo'lib faqat ikki muddatga saylanish mumkin. Prezident boshqa haq to'lanadigan vazifani egallashi, tijorat yoki kasbiy faoliyatni amalga oshirishi, korxonalarining foyda oladigan

rahbar organlari tarkibiga kirishi mumkin emas. Prezident davlat boshlig'i sifatida o'z harakatlari uchun javobgar emas: uning qariyb barcha aktlari Federal Kansler yoki tegishli vazir tomonidan imzolanadi, bu bilan siyosiy va huquqiy mas'uliyat vazirga yoki hukumatga o'tadi. Federal Kanslerni tayinlanish yoki bo'shatish, Bundestagni tarqatib yuborish va iste'foga chiqayotgan Federal Kanslerdan, o'rniga yangi kansler tayinlanguncha ishlarini davom ettirib turishni iltimos qilish bundan mustasno. Agar Bundestagda ko'pchilik o'ringa ega bo'lgan partiya yoki koalitsiya bo'lmasa, Prezidentning roli oshadi. Bunday sharoitda u mamlakat siyosiy rivojlanishini bir necha yil oldinga belgilab, kansler nomzodini shaxsan tavsiya etadi. Federal Prezident Bundestag Prezidentidan Bundestag majlisini chaqirishni hamda (Asosiy qonun bilan belgilangan hollarda) uni tarqatib yuborishni talab qila oladi. U xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq Federatsiyaning vakili hisoblanadi va uning nomidan boshqa davlatlar bilan shartnomalar tuzadi. SHartnomalarni kuchga kiritish ham Prezidentning alohida huquqi hisoblanadi, Bundestag qabul qilgan qonunlar konstitutsiyaga muvofiq Federal Prezident tomonidan rasmiylashtiriladi va «Federal qonunlar xabarnomasi»da e'lon qilinadi. Agar Prezident qabul qilingan qonunni Konstitutsiyaga xilof deb topsa, Bundestag esa bunga rozi bo'lmasa, u Federal Konstitutsiyaviy sudga murojaat qila oladi. O'z navbatida, Bundestag yoki Bundesrat Federal Konstitutsiyaviy sud oldida Federal Prezidentga qarshi (Bundestag yoki Bundesrat a'zolarining choragidan kam bo'lmagan kismi tashabbusiga ko'ra), Asosiy qonun yoki boshqa federal qonunni qasddan buzgan, deb ayblov qo'zg'ashi mumkin. Ayblov qo'zg'atish haqidagi qaror Bundestag a'zolarining ko'pchiligining uchdan ikki qismi yoki Bundesrat ovozining uchdan ikki qismini talab etadi. Agar Federal Konstitutsiyaviy sud ayblovni tasdiqlasa, Prezidentni lavozimidan mahrum eta oladi (sud ayblov ko'rsatilgandan so'ng uni vazifasidan vaqtincha bo'shatishga ham haqli). Federal Prezident vakolatlari bu holatlarda Bundesrat Prezidenti tomonidan bajarib turiladi.

Federal Prezident to'rtta visePrezident bilan birgalikda Prezidiumni tashkil etadi. Deputatlardan Prezidium kotibiyati saylanadi. Bundestag majlislarida Prezidium a'zolaridan biri raislik qiladi. Bundestag binosida rais ko'rsatmalar beradi va polisiya vakolatlarini bajaradi.

Mamlakat Konstitutsiyasi majburiy tartibda Bundestag huzurida to'rtta - Yevropa ittifoqi ishlari, tashqi ishlar, mudofaa ishlari va iltimosnomalar bo'yicha komitetlar tuzishni shart etib qo'yadi. Bundestag qonunlarni tayyorlash va qonun loyihalarini muhokama qilish jarayonida muhim rol o'ynaydigan boshqa qo'mitalarni ham tuzish huquqiga ega.

Hozir 22 qo'mita ishlamoqda. Bundestag qonunchilik sohasida hal qiluvchi rol o'ynaydi va qonun loyihalarini kiritadi, qonunlar qabul qiladi, Federal Kanslerni saylaydi, Federal Prezident va Federal sudyalari saylovida ishtirok etadi, Hukumatni tuzishda qatnashadi, Hukumat faoliyati ustidan joriy nazoratni amalga oshiradi, Federal Kanslarga uning o'zini va hukumatning iste'foga chiqishga majbur qilish maqsadida konstruktiv ishonchsizlik bildirish huquqiga ega.

Bundestag Kanslarga ishonchsizlik bildirib, ko'pchilik ovoz bilan uning vorisini saylab va uni vazifasidan bo'shatishni so'rab, Prezidentga murojaat qilishi mumkin. Prezident bu iltimosni bajarishi va saylangan shaxsni tayinlashi lozim. Biroq agar Kanslerning unga ishonch bildirish to'g'risidagi iltimosi Bundestag a'zolari ko'pchiligining ma'qullashiga sazovor bo'lmasa, Prezident Kansler taklifiga ko'ra 21 kun mobaynida Bundestagni tarqatib yuborishi mumkin. Tarqatib yuborishga oid huquq Bundestag ko'pchilik ovoz bilan yangi Kanslerni saylaganidan so'ng o'z kuchini yo'qotadi.

Federal Hukumat chiqarayotgan me'yoriy va ma'muriy aktlar (agar ular to'g'ridanto'g'ri yoki bevosita viloyatlar manfaatini qamrab olsa) Bundesrat tomonidan ma'qullanishni taqozo etadi.

Bundestag o'zo'zini tarqatib yuborishi mumkin emas. Federal Kansler tomonidan hukumatga ishonch biddirish masalasi kiritilishi bilan muddatidan oddin tarqatib yuborish yuz berishi mumkin. Agar Federal Kanslerning taklifi mutlaq ko'pchilik ovozini ololmasa, unda Federal Prezident Kansler arizasiga ko'ra Bundestagni tarqatib yuborishi mumkin. Agar Bundestag juda qisqa muddatlarda boshqa Kanslerni saylasa (konstruktiv ishonchsizlik biddirish), bu huquq o'z kuchini yo'qotadi.

Bundestag ochiq majlislar davomida zarur dalillar yig'adigan tergov qo'mitasi ta'sis etish huquqiga ega, a'zolarining choragi taklifiga ko'ra esa — majburdir. Majlislar yopiq bo'lishi ham

mumkin. Dalillar to'plashda, tegishli tarzda jinoiyprotsessual me'yorlar qo'llaniladi. Yozishmalar, pochta, telegraf va telefon aloqalar sirligi daxlsiz qoladi. Tergov qo'mitalari qarorlari sudda ko'rilmaydi.

Bundestag deputatlari parlamentda so'z erkinligidan foydalanadilar. Ular o'z fikrlarini bildirganlari va bergan ovozlari uchun jazolanmaydilar (tuhmat bundan mustasno), ular deputatlikdan kettanlaridan keyin ham, ya'ni umr bo'yi bu qonun amal qiladi. Qonun Bundestag ruxsatisiz deputatlarga qarshi jinoiy ish boshlashni yoki ularni qamoqqa olishni taqiqlaydi. Agar deputat qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan paytida yoki navbatdagi kun davomida qamoqqa olinsa, ruxsat talab qilinmaydi. Deputat huquqiy tartibotni buzganligi uchun ham jazolanishi mumkin. Amadda Bundestag, siyosiy tUSDagi haqoratlar to'g'risida gap bormasa, jinoiy tergovga rozilik beradi.

Deputatning shaxsiy erkinligini har qanday chetlash yoki unga qarshi 18modda asosida ish qo'zg'atish uchun ham Bundestagning roziligi talab etiladi. Deputatga qaratilgan har handay jinoiy ish va 18moddada ko'rsatilgan har qanday rasmrusum, hibS yoki shaxsiy erkinlikni boshqacha cheklashlar Bundestag talabiga ko'ra to'xtatilishi lozim. Deputat o'ziga qandaydir faktlardan xabar bergan kishilar va shu faktlar haqida guvohlik berishdan bosh tortishga hakdi. SHu huquq doirasida uning yozma materiallariga hibS e'lon qilish mumkin emas.

Bundestagdagi o'ringa o'z nomzodini qo'ygan shaxS saylovga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur ta'tilga chiqish huquqidan foydalanadi.

Deputatlik vakolatlarini qabul qilish va amalga oshirishda hech kimga to'siqlar qo'yilmaydi. SHu munosabat bilan ishdan bo'shatish to'g'risida ogohlantirish yoki bo'shatishga yo'l qo'yilmaydi. Deputatlar o'zining mustaqilligini ta'minlashga yetarli mukofot bilan taqdirlanish huquqiga ega. Ular davlatning barcha transport vositalaridan bepul foydalana oladilar. Bundestag tarkibida 8 yildan kam ishlamaganlar nafaqa yoshiga yetishi bilan nafaqa olish huquqiga ega bo'ladilar.

Bundestag saylanganidan so'ng 30 kundan kam bo'lmagan muddatda yig'iladi. Bundestag o'z sessiyalarini boshlanishi va tugashini belgilaydi. Agar Bundestag a'zolarining uchdan biri, Federal Prezident yoki Federal Kansler talab qilsa, Bundestag raisi sessiyani muddatidan oddin chaqirishga majbur.

Bundestag o'zining Raisi, uning o'rinbosarlari va kotiblarini saylaydi. U o'zining reglamentini qabul qiladi. Rais Bundestag binosida farmoyish beradi va polisiya vakolatlarini amalga oshiradi. Uning rozilgisiz Bundestag binosida tintuv yoki hibSga olish o'tkazilishi mumkin emas. Saylov natijalarining to'g'riligini tekshirish Bundestag vakolatiga kiradi. U deputatning Bundestagdagi a'zolidan mahrum bo'lish masalasini ham hal etadi. Bundestag qaroridan norozilik Federal Konstitutsiyaviy sudda ko'riladi. Tafsilotlari federal qonun bilan boshqariladi.

Bundestag majlislari ochiq hisoblanadi. Uning o'ndan bir qismi yoki Federal Hukumat iltimosiga binoan ovozlarning ko'pchilik uchdan ikki qismi bilan majlislar yopiq deb e'lon qilinishi mumkin. Bu iltimosnoma bo'yicha qarorlar yopiq majlisda qabul qilinadi.

Bundestag tomonidan qarorlar qabul qilinishi uchun Asosiy qonun bilan boshqacha belgilangan bo'lmasa, berilgan ovozlarning ko'pchiligi talab etiladi. Bundestagda o'tkaziladigan saylov uchun bu qoidadan reglament bilan istisno belgilanishi mumkin.

Bundestag va uning qo'mitalarining ochiq majlislarida bo'lgan gaplarni haqqoniy tarqatgani uchun hech kim hech qanday javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Bundestag va uning qo'mitalari majlislarda Federal Hukumatdan istalgan a'zoning hozir bo'lishini talab qila oladi. Bundesrat va Federal Hukumat a'zolari hamda ularning vakillari Bundestag va uning qo'mitalari barcha majlislariga kirish huquqiga egadir. Ular istalgan vaqtda mumkin.

Sudlar va ma'muriy organlar o'zaro huquqiy va idoralararo yordam ko'rsatishga majburdir. Tergov qo'mitalarining qarorlari sudda qarab chiqilmaydi. Sudlar qo'mitalar o'tkazgan tergov holatlarning malakasi va bahosida ular bilan bog'lanmagan.

Bundestag Yevropa Ittifoqi bo'iicha qo'mita tuzadi. Bundestag Federal Hukumatga nisbatan o'zining 23moddada ko'rsatilgan huquqlarini qo'llash uchun Qo'mitaga vakolat berishi mumkin.

Bundestag tashqi ishlar bo'yicha Qo'mita, mudofaa masalalari bo'yicha Qo'mita, tergov qo'mitasi kabi huquqlar beradi. O'z a'zolarining to'rtidan bir qismi iltimosnomasi bo'yicha muayyan masalaga doir tergov o'tkazishga majburdir.

Bundestag Asosiy Qonunning 17 moddasiga ko'ra o'ziga beriladigan shikoyatlar va iltimoslarni ko'rib chiqadigan maxsus qo'mita tuzadi. SHikoyatlarni tekshirish bo'yicha qo'mitaning vakolatlari federal qonun bilan belgilanadi.

Yuqori palata ishlariga viloyatlar Bosh vazirlaridan bir yil muddatga saylanadigan Bundesrat Prezidenti rahbarlik qiladi. Avval yirik viloyatdan, so'ng kichikrog'idan eng kichigiga qadar Bosh vazir shu lavozimni egallaydi.

Bundestag singari Bundesrat ham Yevropa Ittifoqi tasarrufiga taalluqli masalalar bo'yicha turli qo'mitalar tuzadi. Bundesrat Yevropa palatasi tuzish mumkinki, uning qarori Bundesrat qaroriga tenglashtiriladi. Bundesrat Federatsiyaning qonunchilik organi sifatida quyidagi huquqlarga ega: qonunchilik tashabbusi bilan chiqish, Federal Hukumatning qonun loyihalariga o'z munosabatini bildirish, qabul qilinishiga uning roziliga talab etiladigan qonunlarni (birinchi navbatda viloyatlar manfaatini qamraydigan hamda Asosiy qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidaga qonunlar) ma'qullash yoki ma'qullamaslik, Yevropa masalalari bo'yicha Federatsiya siyosatini shakllantirish, Federal Konstitutsiyaviy sudni saylashda ishtirok etish. Viloyatlar manfaatini bevosita yoki bivosita qamrab Federal Hukumat chiqaradigan me'yoriy va ma'muriy aktlar ham Bundesrat tomonidan ma'qullanishni taqozo etadi. Bundesrat mudofaa urushlarini e'lon qilishni ma'qullashi (yoki rad etishi) kerak.

Viloyatlar Bundesrat orqali Federatsiya qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatni amalga oshirishda hamda Yevropa Ittifoqi ishlarida qatnashadilar. Bundesrat viloyatlar hukumatlarining tayinlanadigan va chaqirib olinadigan a'zolaridan iborat. Ularning o'rmini bu hukumatlarning boshqa a'zolari egallashi mumkin. Viloyatlar faqat kelishilgan hodda va faqat Bundesratda hozir bo'lgan a'zolar yoki ularning vakillari tomonidan ovoz berishi mumkin.

Bundesrat o'z qarorlarini ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi. U reglamentni belgilaydi. Uning majlislari ochiq o'tkaziladi, ammo ular yopiq ham bo'lishi mumkin. Yevropa Ittifoqi ishlariga doir Masalalar bo'yicha Bundesrat Yevropa Palatasini tuzishi mumkin, uning qarorlari Bundesrat qarorlariga tenglashtiriladi. Bundesrat qo'mitalariga viloyat hukumatlarining boshqa a'zolari yoki vakil qilinganlari kirishi mumkin. Federal Hukumat a'zolari Bundesrat va uning qo'mitalari majlislari qatnashish huquqiga ega, talab etilganda esa majburan qatnashishi zarur. Ular istalgan vaqtda so'zga chiqishi lozim. Federal Hukumat Bundesratni kundalik ishlar haqida xabardor qilib turishi kerak.

Parlamentdagi ikkala palataning o'zaro ta'siri samaradorligini oshirish maqsadida 1968 yidda GFR Konstitutsiyasiga Bundestag deputatlarining uchdan ikki qismi va Bundesrat a'zolarining uchdan bir qismidan tashkil topgan birlashgan qo'mita tuzish haqida modda kiritilgan edi. Birlashgan qo'mitaga deggutatlar Bundestag tomonidan fraksiyalar vakilliga asosida, Bundesrat tomonidan esa viloyatlar vakilligi (har viloyatdan bittadan vakil) asosida tayinlanadi. Birlashgan qo'mitaning tashkil etilishi va uning ish tartibi Bundestag tomonidan qabul qilinadigan va Bundesrat tomonidan ma'qullanadigan reglament bilan boshqariladi.

Parlament nazoratining amalga oshirilishi

Bundestag o'z nazorat vazifalarini Hukumat tomonidan tavsiya etilgan byudjet to'g'risidaga qonunni tasdiqlash hamda o'z majlislariga vazirlarni chaqirish yo'li bilan amalga oshiradi. Byudjetning bajarilishini va amalga oshirilishini tekshirish maqsadida Bundestag moliya vaziri hisobotini eshitadi. Hisobotni Federal hisob palatasi tekshiradi; u suddan mustaqil bo'lgan organ hisoblanadi.

Bundestagning qo'shimcha organi sifatida va asosiy huquqlarni himoya qilish uchun Bundestagning mudofaa bo'yicha vakili tayinlanadi. Tafsilotlari federal qonun bilan belgilanadi.

Federal Prezident konstitutsiyaviy yoki boshqa federal qonunni qasddan buzsa, Bundestag yoki Bundesrat Federal Konstitutsiyaviy sud oldida unga qarshi ayblovni ilgari surishi mumkin. Ayblov ko'rsatish taklifi Bundestag a'zolarining to'rtidan biridan kam bo'lmagan qismi yoki Bundesrat ovozlarning to'rtidan bir qismi tomonidan kiritilishi mumkin. Ayblov ko'rsatish haqidagi

qaror uchun Bundestag a'zolarining uchdan ikki kismidan ko'prog'i yoki Bundesrat ovozlarining uchdan ikki qismi talab etiladi. Ayblovni, uni ilgari surgan organ vakili taqsim etadi.

Agar Prezidentning Asosiy qonun yoki boshqa federal qonunni qasddan buzganligi Federal Konstitutsiyaviy sud tomonidan aniqlansa, Prezident lavozimidan bo'shatiladi. Federal Konstitutsiyaviy sud vaqtinchalik farmoyish bilan, ilgari surilgan ayblov Prezident keyingi vazifalarini bajarishiga halaqit beradi degan aniqlov kiritishga haqli.

Faoliyat yuritish tartibi

Germaniya parlamenti faoliyatining asosiy shakli ustuvor darajada munozaralardan iborat bo'lgan yalpi majlislardir. Palatalar yalpi majlislarda parlament guruhleri va qo'mitalarida tayyorlangan hujjatlar loyihalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Majlisni palata Prezidenti ochib, parlament guruhleri va oqsoqollar Kengashi doiralarida oldindan kelishilgan kun tartibini e'lon qiladi. Palata Prezidenti kun tartibiga qarab qo'mita vakili, hukumat a'zosi va boshqalarga so'z beradi.

Bundestagda har bir muayyan masala bo'yicha bahslar davomiyligi, odatda, oqsoqollar Kengashi doiralarida parlament guruhleri o'rtasida aniqlanadi va butun palata qarori bilan tasdiqlanadi. Bunda so'zga chiquvchilar vaqti asosan, ularning salmog'iga muvofiq holda guruhlar o'rtasida taqsimlanadi. O'z navbatida, har bir parlament guruhi uning a'zolaridan kim va kancha vaqtga so'zga chiqishini o'zi hal qiladi. Qaror qabul qilingandan so'ng parlament guruhleri kotiblari tegishli axborotni palata Prezidentiga yetkazadi, u majlis jarayonida qabul kilingan ish tartibiga deputatlar qanday rioya etayotganini nazorat qiladi. Ajratilgan vaqt tugashi bilan palata Prezidenti munozarani to'xtatib, masalani ovozga qo'yadi. Rasman, palaga umumiy qaror bilan munozarani davom ettirishi mumkin, biroq bu amaliyotda juda kam uchraydi.

Germaniya parlamentidagi munozaralar shakli va davomiyligiga ko'ra har xil. Asosiy munozaralar, qisqa munozaralar, chorshanba munozaralari, alohida muhim masalalar bo'yicha munozaralar mavjud.

Asosiy munozaralar, ko'pincha, hukumatning siyosiy bayonotlaridan so'ng boshlanadi va odatda hukumatning birinchi bayonoti singari muhim hujjatlarning ikkinchi o'qishi davomida olib boriladi. Bunday munozaralarning vaqti an'anaviy cheklanmaydi.

Qisqa munozaralar deganda so'zga chiquvchi 5—10 minut bilan cheklangan nutqlar tushuniladi. Bunda har bir parlament guruhidan faqat bir yoki ikki deputat hamda hukumatning bitta vakili so'zga chiqadi. SHunday qilib, palata bir kun davomida soat 9.00 dan 21.00 gacha (tushlik bilan birga) munozara qilishni uddalaydi. Munozaralarning bunday shakli asosan parlament guruhlariga u yoki bu masala bo'yicha o'z pozitsiyalarini ochiqcha bayon qilish imkoniyatini berishga qaratilgan.

«Payshanba munozaralari» davomida muhim masalalar muhokama qilinadi. Munozaralar odatda 4—6 soat davom etib, televidenie orqali olib ko'rsatiladi. Ayni vaqtda parlamentning boshqa organlarida majlislar o'tkazilmaydi. Payshanba munozaralari davomida so'zlash vaqti 10 minut bilan cheklangan, ammo so'zga chiquvchilar miqdori chegaralanmaydi.

O'ta muhim masalalar bo'yicha munozaralar, deputatlar Hukumat vakillariga savollar berishi hamda dolzarb masalalar bo'yicha munozaralar o'tkazishi qo'shimcha imkoniyat tarzida kiritilgan. Munozaraning umumiy vaqti 60 minut, bitta deputatning so'zlash vaqti esa 5 minut bilan cheklangan. Munozaraning bunday shakli to'g'risidagi qaror oqsoqollar Kengashi tomonidan hamda Bundestagning kamida 34 a'zosi yoki parlament guruhlaridan birining tegishli so'rovi bo'lgan hollarda qabul qilinadi.

Munozaralar tugagandan so'ng, palata a'zolari nega ular muhokama etilayotgan masala bo'yicha u yoki bu tarzda ovoz berishlarini so'rab, «ovoz berish bo'yicha bayonot» qilishlari mumkin. Bu tartib faqat muhokama etilayotgan qonun loyihalari bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinishidan oldin amalga oshiriladi.

Qonunchilik tashabbusi har ikki palata va Federal Hukumatga tegishlidir, biroq qonunchilik jarayonida Bundestag yetakchi rol o'ynaydi. Hukumat Bundesratga qonun loyihasini kiritadi, u o'z fikrini olti haftadan kechiktirmay Bundestagta yuboradi. Alohida shoshilinch hollarda hukumat uch hafta o'tgandan so'ng qonun loyihasini bevosita Bundestagga jo'natishi mumkin.

Bunda u yoki bu qonun qabul qilinishi zarurligi aks etgan tegishli hujjatni palata deputatlarining kamida 5 foizi yoki parlament guruhlaridan biri imzolashi kerak.

SHu bilan birga, qabul qilinadigan qonunlarning 2/3 qismidan ortig'i Federal Hukumat tomonidan taklif qilinadiki, buni mamlakatdagi mavjud parlament boshqaruv tizimi o'zi bilan taqozo etadi: parlament Federal Kanslerni saylaydi va, shuning uchun, parlamentdagi ko'pchilik bilan Hukumat manfaatlari amalda birbiriga mos tushadi. Ammo bu, Bundestag hukumatning barcha qonunchilik tashabbuslarini avtomatik sur'atda qabul qiladi, degan ma'noni biddirmaydi. Federal vakolatlari doirasidagi (to'liq yoki kisman) masalalar bo'yicha Bundestag qonun qabul qiladi. Byudjet xarajatlari ko'payishiga olib keladigan va yangi xarajatlarni yoki bular kelajakda bo'lishini nazarda tutadigan qonunlar faqat Federal Hukumat roziligi bilan qabul qilinadi. Qonun tugallangan darajada qabul qilinishi uchun uch o'qishdan o'tadi va tegishli qo'mitada qarab chiqiladi. Viloyatlar manfaatlarini qamrab oladigan qonunlar Bundesrat tomonidan ma'qullanishi lozim.

Qonun loyihalari asosan, mamlakatning tegishli vazirliklari va muassasalarida ishlab chiqiladi. Qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish va qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayonida davlat dasturlari muhim rol o'ynaydi. Bu dastur hukumat faoliyatining boshida qabul qilinadi va yaqin to'rt yilga mo'ljallangan asosiy vazifalarini aks ettiradi.

Asosiy qonunning respublikaviy, demokratiyaviy va ijtimoiy huquqiy davlat hamda inson huquqlari, Federatsiyaning viloyatlarga bo'linishi va qonunchilikda viloyatlarning ishtirokiga tegishli belgilovchi tamoyillari Asosiy qonunga tuzatishlar kirishida o'zgarishi mumkin emas. Buning uchun parlament har ikki palatasi a'zolarining uchdan ikki qismi ovozlari bilan maxsus qonun qabul qilinishi talab etiladi.

Federatsiyaning alohida vakolatlari viloyatlarning manfaatlarini qamrab olganda yoki Federatsiya qonunchilikni boshqarish huquqiga ega bo'lgan hollarda Federal hukumat Bundesrat xulosasini hisobga oladi. Agar masala viloyatlar qonunchilik vakolatini, ularning muassasalarini yoki ma'muriy tartiblarini kamrasa, u hodda, Federatsiya irodasini shakllantirishda Bundesrat pozitsiyasi tegishli tarzda hisobga olinadi; bunda Federatsiyaning umumdavlat mas'uliyati ta'minlanishi kerak. Federatsiya xarajatlarining ko'payishiga yoki daromadlarining pasayishiga daxddor masalalarda Federal Hukumatning roziligi talab etiladi. Agar masala viloyatlarning alohida qonunchilik vakolatiga tegishli bo'lsa, Yevropa Itgifoqi a'zosi sifatida Germaniya Federativ Respublikasiga tegishli huquqni, Federatsiya Bundesrat tayinlagan viloyat vakiliga beradi. Huquqlarning amalga oshishi Federal Hukumat ishtirokida va u bilan muvofiklashgan holda yuz beradi, bunda Federatsiyaning umumdavlat mas'uliyati ta'minlanishi lozim.

Agar davlat qarorlari yoki qandaydir dasturlarni amalga oshirish jarayonida moliyaviy yoki boshqa murakkabliklar kelib chiqsa ham qonunchilik tashabbusi bilan chiqish mumkin. Bu holda viloyatlar ma'muriyati Hukumat yoki Bundesratta, aynan bir xil qonuniy aktlarini ishlab chiqish va qabul qilish yo'li bilan mavjud muammolarni hal etish uchun murojaat qiladilar. Qonun qabul qilish zaruriyati Federal Oliy va Federal Konstitutsiyaviy sudlarning sud amaliyotida u yoki bu masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish munosabati bilan kelib chiqadi.

Qonun loyihalarini tayyorlash davomida vazirliklar nodavlat tashkilotlari va jamoatchilik guruhlari vakillari («manfaatlar bo'yicha guruhleri») bilan faol maslahatlashuv o'tkazadilar, chunki bu loyihalar ularning manfaatlarini qamrab olishi mumkin. SHu yo'l bilan qonunlar ishlab chiqilishi va qabul qilinishining ilk davridayoq jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoni tug'iladi. Ushbu guruhlar ko'pincha turli ijtimoiy guruhlarning yetarli asoslangan manfaatlarini ifodalagani uchun bu yo'l qonun ijodkorligi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qonun loyihasi ishlab chiqilishining yakunida ishlab chiquvchi vazirlik uni davlatning boshqa mahkamalariga, rozilik olish uchun hamda Adliya vazirligiga qonunchilik talablariga mosligini ekspertiza hilish uchun yuboradi.

So'ngra qonun loyihasi yuqori palata — Bundesratga yuboriladi, u esa tanishib chiqqandan so'ng, o'z sharhlari bilan Bundestagga beradi. Bu, avval boshdan Bundesratning ushbu masalaga oid qat'iy pozitsiyasini aniqlashga va oqibatda muhim bahs va ixtiloflarni ancha darajada chetlab

o'tishga imkoniyat beradi, chunki Germaniya parlamenti yuqori palatasi amalda istagan qonun loyihasini rad qilishi uning kuchga kiritilishini to'xtatishi mumkin.

Qonun loyihalari Bundestagga kelib tushgach, uning nusxalari parlament guruhlarida o'rtasida tarqatiladi. Ekspert ishchi guruhlar loyihani har tomonlama o'rganadilar — amalda Bundestagning har bir deputati u yoki bu sohada mutaxassis. Parlamentning har bir guruhi bu qonun loyihasi bo'yicha uning tezkorligi, birinchi o'qish sanasi, yangi majlislar davomida o'z a'zolarining so'zga chiqishi va hokazolar bo'yicha o'z pozitsiyasini belgilaydi. Qonun loyihasini parlament guruhlarida dastlabki qarab chiqqandan so'ng Bundestag oqsoqollar kengashi birinchi o'kish muddatini aniqlaydi.

Bundestagda odatda qonun loyihalari uch o'qishdan o'tadi. Birinchi o'qish davomida qonun loyihasiga oid munozaralar faqat oqsoqollar kengashining tegishli tavsiyasi yoki parlament guruhlaridan birining so'rovi bo'lganda o'tkaziladi. Bu munozaralar loyiha bo'yicha mavjud nuqtainazarlardan keng jamoatchilikni xabardor qilishga hamda qonun loyihasini yanada chuqurroq ishlash uchun qo'mitalarga berishdan oldin parlament guruhlarida fikrlari xilmaxilligini namoyish qilishga qaratilgan.

Belgilangan tartibga muvofiq qo'mitalar o'z ishlarini o'z xohishlariga ko'ra tashkil etishga haklidir. Ayni vaqtda, qo'mitalar palata yalpi majlisi uchun ma'ruza tayyorlash va loyihalar muhokamasini o'tkazishga mas'ul bo'lgan ma'ruzachilarni tayinlashga majburiyatlidir. Ma'ruzachilar o'z parlament guruhlarida va qo'mita o'rtasidagi bo'g'in hisoblanadi.

Qo'mita o'z ishini tugatgandan so'ng ishlangan qonun loyihasini parlament guruhlariga tanishish uchun beradi. Parlament guruhlarida yangi tahrirga nisbatan o'z pozitsiyasini ishlab chiqadi hamda ikkinchi o'qish davomida munozaralarda so'zga chiqish uchun o'z a'zolaridan birini tayinlaydi.

Ikkinchi o'qish davomida asosiy ma'ruzachi yoki ma'ruzachilar chiqishlaridan so'ng asosiy munozaralar boshlanadi. Munozaralar paytida deputatlar qonun loyihasi har bir moddasini alohida muhokama qiladilar. So'ngra bu loyiha ovoz berishga qo'yiladi. Zaruriyatga ko'ra qonun loyihasi uchinchi o'qishini ham o'tkazish mumkin.

Bundestag ma'qullagandan so'ng qonun loyihasi Bundesratga yuboriladi. Bundesrat loyihaga mutlaq veto qo'yishi mumkinki, bu veto quyi palata tomonidan uni qabul qilish uchun qancha deputat ovoz berganiga qaramay, Bundestag tomonidan bartaraf etila olmaydi. Faqat yuqori palata ma'qullagandan so'ng loyiha qonun bo'la oladi. Bundesratda ma'qullagandan so'ng qonun Federal Kansler va tegashli vazir imzolari uchun hukumatga yuboriladi. So'ngra, imzo qo'yish uchun Federal Prezidentga yuboriladi va belgilangan tartibda kuchga kiradi.

Federal qonun bilan belgilanishicha, Federal qonunchiligi boshqaruvi, agar u zarur hisoblanmasa, viloyatlarning huquqiy boshqaruvi bilan almashtirilishi mumkin.

Federatsiya alohida qonunchilik vakolatiga quyidagilar kiradi: tashqi aloqalar hamda aholi himoyasini qo'shgan holda mudofaa sohasi; Federatsiya fuqaroligi; erkin harakatlanish, pasport ishi, emigratsiya va immigratsiya, shaxslarni boshqa davlatlarga berish; valyuta, pul aylanishi, pul chiqarish, o'lchovlar va tarozilar etaloni, vaqtni hisoblash; bojxona va savdo hududining yaxlitligi, savdo va kema qatnovi to'g'risidagi shartnomalar, tovar ayirboshlash erkinligi, chet el bilan bojxona va chegara himoyasini qo'shgan holda, hisobkitob va tovar ayirboshlash; havo yo'li; Federatsiyaning to'la yoki qisman mulki bo'lgan temir yo'l, federal temir yo'llarni qurish, yaroqli holda tutish va ishlatish hamda bu relsli yo'llardan foydalanganlik uchun to'lovlar yig'ish; pochta va telekommunikatsiya, Federatsiyada va bevosita federal bo'isunuvdagi jamoat huquqiy korporatsiyalarida turgan shaxslarning huquqiy holati; sanoat mulkining huquqiy muhofazasi, mualliflik va nashr huquqi; federal statistika; Federatsiya va viloyatlarning quyidagi masalalar bo'iicha o'zaro aloqasi: a) jinoyatlar bo'yicha polisiya faoliyati, v) Federatsiya va viloyatlar hayoti va xavfsizligi, erkin demokratik tuzum asoslarini himoyalash (Konstitutsiya himoyasi), ye) Federatsiya hududida Germaniya Federativ Respublikasi tashqi manfaatlarini xavf ostida qoddiradigan, kuch ishlatish yo'li bilan yoki uni qo'llashga qaratilgan tayyorgarlik harakatlari urinishlarini oddini olish hamda polisiyaning jinoyatlar bo'iicha federal mahkamasini yaratish va xalqaro jinoyatchilik bilan qurash.

Agar Federatsiya chegaralangan farmoyish chiqarsa, unda viloyatlar qonun bilan belgilangan muddatda o'zining zarur qonunlarini chiqaradi.

Bundestagga qonun loyihalari Federal Hukumat, Bundestag a'zolari yoxud Bundesrat tomonidan kiritiladi. Federal Hukumatning qonun loyihalari avval Bundesratga taqdim etiladi. Bundesrat ular bo'yicha olti hafta davomida o'z xulosasini berishgahaqli.

Asosiy qonunni o'zgartirish va suveren huquqlarni berish bo'yicha qonun loyihalari uchun xulosani taqdim etish muddati to'qqiz haftani tashkil qiladi. Bundesrat qonun loyihalari Federal hukumat tomonidan Bundestagga olti hafta ichida jo'natilishi kerak. Hukumat bunda o'z pozitsiyasini bayon qilishi lozim. Agar hukumat, muhim asoslar bo'lganda, xususan, loyiha hajmini hisobga olib muddatni uzaytirishni talab etsa, u holda muddat to'qqiz haftagacha uzaytiriladi. Agar Bundesrat, mustasno tartibda loyihani alohida shoshilinch deb belgilasa, bu muddat uch haftani yoki agar Federal Hukumat talab etsa — olti haftani tashkil etadi. Asosiy qonunni o'zgartirish va suveren huquqlarni berish bo'yicha qonun loyihalari uchun muddat to'qqiz haftani tashkil etadi. Bundestag lozim bo'lgan muddatda loyihalarni muhokama qilishi va ular bo'yicha qaror qabul qilishi kerak.

Federal qonunlar Bundestag tomonidan qabul qilinadi. Ular qabul qilinishi bilan kechiktirmasdan Bundestag raisi tomonidan Bundesratga jo'natiladi. Qonun kelib tushishi bilan Bundesrat uch hafta muddatda loyihalarni muhokama qilish uchun Bundestag va Bundesrat a'zolaridan tuzilgan qo'mita yig'ilishini talab qilishi zarur. Bu qo'mitaning tarkibi va ish tartibi Bundestag qabul qilgan va Bundesrat ma'qullagan tartib bilan belgilanadi. Bu qo'mitaga vakil qilingan Bundesrat a'zolari hech qanday ko'rsatma bilan bog'lanmagan. Qo'mita chaqirishini Bundestag va Federal Hukumat talab qilishi mumkin. Agar qo'mita qonunni o'zgartirishni taklif etsa, unda Bundestag yangi qaror qabul qilishi kerak. Agar qonunni qabul qilish uchun Bundesratning ma'qullashi talab etilmasa u, rasmrusum tugagandan ikki hafta o'tgach Bundestag qabul qilgan qonunga norozilik e'lon qilishi mumkin. Norozilik kiritish muddati Bundestagning yangi qarori kelib tushishi paytidan, boshqa hollarda esa — qo'mita raisining qo'mitada qarab chiqish tugagani to'g'risidagi axborotidan boshlab hisoblanadi. Bundesrat ovozlarining ko'pchiligi bilan e'tiroz qabul qilinsa ham, u Bundestag a'zolari ko'pchiligi qarori bilan rad qilinishi mumkin. Agar Bundesrat o'z a'zolari ovozlarining ko'pchiligi — uchdan ikki qismidan kam bo'lmagan darajada e'tirozni qabul qilsa, u holda, uni Bundestag tomonidan rad qilish uchun majlisda qatnashganlar ovozlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'i, ammo Bundestag a'zolari ovozlaridan ko'pchiligidan kam bo'lmasligi talab etiladi. Bundestag qabul qilgan qonunni Bundesrat ma'qullasa, e'tiroz biddirmasa yoki bunday e'tirozni qaytarib olinsa, hamda agar e'tiroz Bundestagda ovoz berish bilan rad qilinsa bunday qonun qabul qilingan hisoblanadi.

Asosiy qonun faqat matn to'ldirilishi yoki maxsus o'zgartiradigan qonun bilan o'zgartirilishi mumkin. Xalqaro mojarolarni tinch yo'l bilan hal etishga, bunga tayyorlanish yoki okkupasionhuquqiy rejimni asta bekor qilishga qaratilgan xalqarohuquqiy shartnomalar, shunindek, Germaniya Federativ Respublikasi mudofaasiga xizmat qilishga mo'ljallangan shartnomalar xususida shuni aytish mumkinki, Asosiy qonunning qoidalari bunday shartnomalar tuzilishiga va kuchga kirishiga qarshilik qilmasligini tasdiqlash uchun Asosiy qonun matnini aytilgan ta'kidlar bilan to'ldirish yetarlidir.

Bunday qonun Bundestag a'zolari uchdan ikki qismidan ko'prog'ini va Bundesrat ovozlari uchdan ikki qismining ma'qullanishini talab etadi. Federal hukumat, federal vazir yoki viloyat hukumati qarorlar chiqarishi uchun qonuniy vakolat berilishi mumkin. Bunda qonun bilan ularga berilgan vakolatlarning mazmuni, maqsadi va ko'lami belgilanishi kerak. Qarorda uning huquqiy asoslari ko'rsatiladi. Agar qonun bilan kengroq vakolatlar berilishi ko'rsatilsa, u holda, alohida qaror talab etiladi. Federal Hukumat yoki Federal vazir quyidagi mavzularda qaror qabul qilishi uchun Bundesratning roziligi zarur (Federal Qonun bilan boshqacha belgilangan bo'lmasa): pochta va telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish tariflari va tamoyillari, Federal temir yo'l

inshootlaridan foydalanganda haq olish tamoyillari, temir yo‘l qurilishi va undan foydalanish hamda Federal qonunlar asosida chiqariladigan qarorlar. Keyingilari Federatsiya topshirig‘iga ko‘ra, viloyatlar tomonidan bajariladi yoki ularning bajarilishi viloyatlar tassarufiga tegishli bo‘lgani tufayli, Bundesratning ma‘qullashini talab etadi. Bundesrat Federal Hukumatga ma‘qullanishi talab etiladigan qonunlarni nashr etish uchun loyihalar taklif qilishga haqlidir. Viloyatlar hukumatlari Federal qonunlar asosida qaror chiqarish uchun qanday darajada vakolatli bo‘lsa, viloyatlar ham qonunlar chiqarishga shu darajada haqlidir. Agar Asosiy qonunda yoki aholi himoyasini o‘z ichiga oladigan mudofaa haqidagi Federal qonunda huquqiy me‘yorlar faqat ushbu moddaga muvofiq qo‘llanishi belgilangan bo‘lsa, u holda ularning mudofaa holatidan tashqarida qo‘llanilishiga Bundestag keskinlik holatini belgilaganda yoki ularning qo‘llanilishini maxsus ma‘qullaganda yo‘l qo‘yiladi. Keskinlik holatini belgilash beriladigan ovozlarning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ini talab etadi. Agar Bundestag tarqatib yuborilmasa, u holda Federal Prezident Federal Hukumat taqdimiga va Bundesrat roziligiga ko‘ra, Federal Hukumat kechiktirib bo‘lmaydi deb hisoblashiga qaramay, Bundestag rad qilgan qaysidir qonun loyihasiga nisbatan qonunchilik zaruriyati holatini e‘lon qiladi. Ayni shunday hol qonun loyihasi, Federal Kansler dalolat qilganiga qaramay, rad etilganda ham bo‘ladi. Agar Bundestag qonunchilik zaruriyati holati e‘lon qilingandan keyin ushbu qonun loyihasini yana rad qilsa yoki Federal hukumat uchun ma‘qul bo‘lmaydigan tahrirda qabul qilsa, qonun Bundesrat ma‘qullashi bilan qabul qilingan hisoblanadi. Xuddi shunday holga qonun loyihasi qayta kiritilganidan so‘ng to‘rt hafta davomida Bundestag tomonidan qabul qilinmasligi ham kiradi. Bir Federal Kansler vakolati davomida qonunchilik zaruriyati holati birinchi e‘lon qilingandan keyingi olti oy davomida Bundestag rad qilgan boshqa har qanday qonun loyihasi ham belgilangan tartibda qabul qilinadi. Bu muddat tugagach, qonunchilik zaruriyati holati keyinroq e‘lon qilinishiga ayni shu Federal Kansler vakolati davrida yo‘l qo‘yilmaydi.

Asosiy qonun negizida qabul qilingan qonunlar ularning kontrasignatsiyasidan (vazir davlat boshlig‘idan tushgan akti imzolab, barcha mas‘uliyatni o‘z bo‘yniga olishi) so‘ng, Federal Prezident tomonidan rasmiylashtiriladi va «Federal qonunlar xabarnomasi»da e‘lon qilinadi. Qarorlar ularni chiqargan organlar tomonidan rasmiylashtiriladi va qonunda boshqa hol belgilanmagan bo‘lsa, «Federal qonunlar xabarnomasi»da e‘lon qilinadi. Har bir qonunda va har bir qarorda kuchga kiradigan kun ko‘rsatilishi kerak. Bunday ko‘rsatma yo‘qligida ular «Federal qonunlar xabarnomasi» chiqqandan so‘ng 14kuni kuchga kiradi.

Byudjet haqidagi qonun loyihasi hamda byudjet qonunini va byudjetni o‘zgartirish va byudjet to‘g‘risidagi loyihalar Bundesratga yo‘llanishi bilan bir vaqtda Bundestagga ham kiritiladi. Bundesrat 6 hafta ichida, taklif qilinayotgan o‘zgarishlar bo‘yicha 3 haftada loyihalar bo‘yicha xulosa berishga haqlidir. Byudjet to‘g‘risidagi qonun daromadlarga va Federatsiya xarajatlariga va byudjet qaysi muddatga qabul qilinishiga taalluqli me‘yorlarnigina o‘zida aks ettiradi. Byudjet to‘g‘risidagi qonun belgilaydiki, bu me‘yorlar navbatdagi byudjet qonuni e‘lon qilgandan so‘ng yoki vakolatli hollarda keyinroq o‘z kuchini yo‘qotadi.

Agar moliyaviy yil tugashiga qadar kelgusi yil uchun byudjet qonun bilan tasdiqlanmasa, uning kuchga kirishiga qadar Federal hukumat zarur bo‘lgan barcha xarajatlarni qilishga haqli. Bular:

a) qonun bilan belgilangan muassasalarni ta‘minlash va qonunda ko‘rsatilgan tadbirlarni o‘tkazish uchun;

v) Federatsiyaning huquqiy asoslangan majburiyatlarini bajarish uchun;

s) agar avvalgi yil byudjetiga tegishli mablag‘lar ajratilgan bo‘lsa, qurilishni davom ettirish, xarid va boshqa harakatlar yoki bu maqsadlarga kelajaqda mablag‘lar ajratish uchun;

Agar «a» bandeda ko‘rsatilgan xarajatlar alohida qonunda belgilangan soliqdan, yig‘imlardan va boshqa manbalardan keladigan tushumlar yoki zaxiradagi aylanma mablag‘lardan qoplanmasa, unda Federal hukumat kredit yordamida zarur mablag‘larni jalb qilib, xo‘jaliklarni qo‘llabquvvatlash uchun o‘tgan yilgi byudjet yakuniy summasining to‘rtandan bir qismini ajratishi mumkin.

Rejadan ortiq va rejadan tashqari xarajatlarni Federal moliya vaziri tasdiqlashi talab etiladi. Ma'qullash faqat muqarrar zaruriyat va oldindan qo'rilmagan holda ifodalanadi. Tafsilotlar Federal qonun bilan boshqariladi.

Federal huquqmat taklif etgan byudjet xarajatlarini qo'paytiruvchi yoki yangi xarajatlarini o'z ichiga olgan yoxud kelajakda ularni jalb qiladigan qonunlar Federal Huquqmatning ma'qullashini talab etadi. SHunday hol daromadlar kamayishini nazarda tutadigan yoki kelajakda ularning kamayishiga sabab bo'ladigan qonunlarga ham tegishli. Bundestag bunday qonunlar bo'yicha qaror qabul qilishni qoldirib turishini Federal Huquqmat talab qilishi mumkin. Bunday holda Federal Hukumat olti hafta ichida Bundestagga o'z xulosasini yo'llashga majburdir. Federativ Hukumat, Bundestag qonunni qabul qilgandan so'ng to'rt haftalik muddatda yangi qaror qabul qilishni talab etishi mumkin. Kelgusi moliya yilida Federal Moliya vaziri Bundestag va Bundesratga barcha daromadlar va xarajatlar hamda mulk to'g'risida, qarzlar to'g'risida Federal Hukumatning hisobotini tasdiqlash uchun hisob berishi kerak.

Agar mudofaa holatining ta'kidi e'lon qilinsa va Federatsiya hududi qurolli bosqinga uchrasa, Federal Prezident Bundestag ma'qullashi bilan mudofaa holati to'g'risida xalqaro bayonot berish mumkin.

Yuz bergan sharoitlarda Birlashgan qo'mita Bundestagni almashtiradi.

Mudofaa holati e'lon qilinishi bilan qurolli kuchlarga qo'mondonlik qilish Federal Kanslarga o'tadi.

Mudofaa holati sharoitlarida Federatsiya raqobatlashadigan qonunchilik vakolati hamda viloyatlarning qonunchilik vakolati sohalariga egalik qiladi. Bu hollarda Bundesratning ma'qullashi talab etiladi.

Agar real hujumni yoki bevosita hujum xavfini qaytarish uchun zarur bo'lsa, mudofaa holatida Federatsiya va viloyatlarning ma'muriy va moliya organlari faoliyati Bundestagning ma'qullashini talab etadigan Federal qonunlar bilan boshqariladi.

Federal Hukumat qonunlari, agar u shoshilinch deb topilsa, Bundestagga kiritilishi bilan bir vaktida Bundesratga yuborilishi zarur. Bundestag va Bundesrat ularni kechiktirmasdan va birgalikda qarab chiqadi. Qonun Bundesrat tomonidan ma'qullanishi hollarida, qabul qilinishi uchun Bundesrat a'zolarining ko'pchiligi ovoz berishi zarur. Tafsilotlar Bundestag qabul qiladigan va Bundesrat ma'qullashi talab etiladigan reglament bilan boshqariladi.

Agar mudofaa holatida Birlashgan qo'mita berilgan ovozlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'i va o'z a'zolarining ko'pchiligi bilan Bundestag majlislarini o'z vaqgida o'tkazishga hal etib bo'lmaydigan qiyinchiliklar to'siq bo'ladi, deb belgilasa, u holda Birlashgan qo'mita Bundestag va Bundesrat o'rnini egallab, ular huquqlarini to'liq amalga oshiradi.

Birlashgan qo'mita qonun chiqarish yo'li bilan Asosiy qonunni o'zgartira olmaydi, bekor qilolmaydi yoki uning harakatini to'la yoxud qisman to'xtata olmaydi.

Mudofaa holatida, agar buni vaziyat talab etsa, Federal Hukumat quyidagilarni amalga oshiradi:

Federatsiyaning butun hududida Federal chegara soqchilaridan foydalanish; na faqat Federal ma'muriyatga, balki viloyatlar hukumatlariga ham, agar ishni shoshilinch deb topsa, unda viloyatlar hokimiyati organlariga ham ko'rsatmalar berish va bu vakolatlarni uning tomonidan tayinlangan viloyatlar hukumatlari a'zolariga berish.

Federal Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy maqomiga va sudyalar konstitutsiyaviy vazifalarini bajarishiga tajovuz qilib bo'lmaydi. Federal konstitutsiyaviy sud hakidagi qonunni Birlashgan qo'mita qonuni tomonidan o'zgartirish hamda Federal Konstitutsiyaviy sud fikriga ko'ra, uning o'z vazifalarini bajarish qobiliyatini ta'minlash uchun qanday darajada zarur bo'lsa, faqat shuncha o'zgartirish mumkin. Bunday qonun chiqarishga qadar Federal Konstitutsiyaviy sud o'zining ish qobiliyatini ta'minlash uchun zarur tadbirlarni ko'rishi lozim. Bundestag va viloyatlar vakillik organlarining mudofaa holatidagi vakolatlari mudofaa holati tugagandan olti oy o'tib to'xtaydi. Agar mudofaa holati vaqtida Federal Prezident yoki muddatidan oddin vakolati tugagan Prezident vazifasini bajaruvchi Bundesrat raisining ham vazifasida bo'lish muddati tugasa, u hodda, bu muddat mudofaa holati tugagandan so'ng to'qqiz oydan keyin tamom bo'ladi. Federal

Konstitutsiyaviy sud a'zosining mudofaa holati sharoitlarida tugaydigan vakolati bu holat barham topgandan so'ng olti oydan keyin tamom bo'ladi.

Agar Birlashgan qo'mita tomonidan yangi Federal Kansler saylanishi zarur bo'lsa, u qo'mita a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Federal Prezident Birlashgan qo'mitaga tegashli taklif kiritadi. Birlashgan qo'mita uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan Federal Kanslerga, uning izdoshini saylash yo'li orqali ishonchsizlik bildirishi mumkin.

Mudofaa holati davrida Bundestag tarqatib yuborilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Federal qonunlarning bajarilishi, Asosiy qonun bilan boshqa holatlar belgilangan yoki ko'zda tutgan bo'lmasa, viloyatlarning o'z ishi hisoblanadi. Viloyatlar Federal qonunlarni o'z ishi sifatida bajargani holda, agar Federal qonunlar Bundestag ma'qullashi bilan boshqa holni belgilagan bo'lmasa, hokimiyat organlari va ma'muriy tartibni mustakil ravishda tuzadi. Federal Hukumat Bundesrat roziligi bilan umumiy yo'riqnomaga chiqaradi.

Federal Hukumatga, Bundesrat ma'qullashini talab etadigan Federal qonun bilan alohida hollarda, Federal qonunlar bajarilishi bo'yicha aniq ko'rsatmalar va vakolatlar berilishi mumkin. Ular, Federal Hukumat shoshilinch deb hisoblamaydigan holatlarda, viloyatlar hokimiyatning oliy organlariga yo'llanishi zarur.

Qonunchilik vakolati Federatsiyaga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha, Federal qonun bilan, Federatsiyaning mustaqil oliy mahkamalari va yangi korporatsiyalar, bevosita Federal tasarrufdagi ommaviy muassasalar ta'sis etilishi mumkin. Agar Federatsiya oldida unga tegishli qonunchilik vakolati sohalarida yangi vazifalar kelib chiqsa, o'ta zarur hollarda Bundesrat va Bundestag ko'pchilik a'zolari ma'qullashi bilan Federal organlarning quyi va o'rta bo'g'inlari tuzilishi mumkin.

Muhokama uchun savollar

1. Jahon xaritasida Yevropa mamlakatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosat konsepsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Yagona Yevropa xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
4. Angelo Merkel davrida Germaniya siyosiy tizimi, va siyosiy partiyalar faoliyati nimadan iborat deb o'ylaysiz ?
5. Bugungi kunda Germaniya parlamenri "Bundestag" ning tuzilishi va etakchi partiyalar qaysilardan iborat ?

Mustaqil ish torshiqalari:

1. Germaniyadagi federativ respublika tizimni tahlil etish;
2. Zamonaviy taraqqiyotning xususiyatlari: yangi leyborizm va yangi demokratlar haqida o'rganish;
3. Germaniyadagi so'nggi saylovlar, Parlament saylovlari va konstitusion islohatlar muammosini tadqiq etish;
4. Davlatlarning siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan tanishtirish;
5. Siyosiy jarayonlar va munosabatlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va diniy omillar haqida tushuncha berish;
6. Siyosiy qiyosiy tadqiqotlarning turlari. Siyosiy tizimlarning tipologiyasi (zamonaviy, an'anaviy va b.) tahlil etish;

Adabiyotlar.

1. Абазов Р. Глобальные перемены и геополитика на пороге XXI века // МЭ и МО. №2 февраль 1999. Стр.116-120.

2. Андреева Т. Безопасность западной Европы и независимые ядерные силы Великобритании и Франции // МЭ и МО, №1 январь 2004 стр. 51-61.
3. Арбатов А.Г. Национальная безопасность России в многополярном мире // МО и МЭ. №10 октябрь 2002. стр. 21-28.
4. Гаджиев К. Мифы и реальности «Нового великого шелкового пути» // МЭ и МО 2008 №11 С.6 (3-14)
5. Зверева Т. Внешняя политика Франции после прихода к власти 5.71. Николя Саркози // МЭ и МО, №6 2008. – стр.34-38
6. Злакозова Н. Расширение ЕС: за и против с позиций его членов // МЭ и МО №1, январь 2004. Стр. 62-69.
7. Нарочницкая Н. Европа старая и Европа новая // Международная жизнь , №4 2003. стр 47-49.
8. Пашковская И. Внешняя энергетическая политика Европейского союза // МЭ и МО, 2009 №1, Стр. 67
9. Терентьев А. мироустройства начала XXI века: существует ли альтернатива «Американской империи?» // МЭ и МО 2007 №10 октябрь стр.35-46.

Mavzu - 8. Janubiy Yevropa davlatlari siyosiy tizimlari.

Dars maqsadi:

Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Gresiya mamlakatlari tarixiy rivojlanishining xususiyatlari. Janubiy Yevropa davlatlaridagi fashistik va avtoritar tartibotlarining tavsifi. Demokratik tranzit spesifikasi. Institutional dizayn. Partiyaviy va saylov tizimlar. Janubiy Yevropa mamlakatlarining hozirgi rivojlanishini tahlil etish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Siyosiy tizim, siyosiy rejim, madaniy-sivilizatsion determinizm, Qiyosiy politologiyada «sivilizatsiyalar to‘qnashuvi» muammosi, Demokratik tuzum, Liberal tuzum, Avtokratik despotik rejim, mustabidlik rejimi, Tiraniya rejimi, Avtoritar siyosiy rejim, Totalitar siyosiy rejim, harbiy siyosiy rejim, Fashistik siyosiy rejim, Irqiy siyosiy rejim, Diniy siyosiy rejim

Asosiy savollar:

1. Siyosiy tuzum tushunchasi va uning asosiy ko‘rinishlari
2. Davlat tuzumi

Italiyada parlamentarizmning shakllanish jarayoni XIX asrning o‘rtalaridan boshlanadi. 1848 yilda qabul qilingan Albertini nizomiga qo‘ra qonun chiqaruvchi hokimiyat nafaqat qirol tomonidan, balki u tayinlaydigan Senat va saylanadigan Deputatlar Palatasi tomonidan ham amalga oshirilgan.

Italiyaning 1947 yilgi Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakatning oliy qonun chiqaruvchi organi — tarkibi Deputatlar Palatasi va Senatdan iborat bo‘lgan parlamentdir.

Italiya uchun an’anaviy bo‘lgan parlamentning ikki palatali strukturasi saqlanib qolgan bo‘lib, albatta, yangi respublikaviy bikameralizm parlamentning avvalgi ierarxik tuzilishidan prinsipial tarzda farq qiladi.

Deputatlar Palatasi a’zolari 630 kishidan iborat bo‘lib, umummilliy asosda saylanadilar. 315 senator viloyatlar bo‘yicha (jami 20 viloyat bor) saylanadilar. Deputatlar Palatasiga saylovlarda saylash va saylanish huquqiga, tegishli tarzda 18 va 25 yoshga yetgan fuqarolar egadirlar.

Senatga 25 yoshga yetgan fuqarolar saylanadilar. 40 dan yosh bo‘lmagan fuqarolar senator bo‘lishlari mumkin. Deputatlar Palatasidan farqli ularoq, Senatda saylovlarsiz umrbod a’zolik mavjud: respublikaning barcha sobiq Prezidentlari senator bo‘lish huquqiga egadirlar. Bundan

tashqari, amaldagi Prezident ijtimoiy faoliyatdagi, ilmfan va madaniyat borasidagi buyuk xizmatlari uchun besh kishini umrbod senator etib tayinlashi mumkin (amaldagi konstitusion amaliyotga muvofiq, mazkur holat bo'sh o'rinlarning umumiy soni beshtadan oshmagan holatda qo'llaniladi).

Hozirgacha amal qiluvchi, Deputatlar Palatasiga saylovlar haqidagi (1957 y.) va Senat saylovlar haqidagi (1948 va 1958 yy.) qonunlar xar ikki palatani shakllantirishdagi mavjud farqlarni qayd etgan. Deputatlar Palatasiga saylashda proporsional tizim, Senatni saylashda — majoritar tizim qo'llaniladi.

Deputatlar Palatasiga saylovlar ko'pmandatli okruglar bo'yicha o'tkaziladi. Ovoz berish ro'yxat bo'yicha (odatda partiyaviy ro'yxat bo'yicha) amalga oshiriladi. O'rinlar ro'yxat uchun berilgan ovozlarga qarab proporsional taqsimlanadi. Hisobga olinmagan ovozlar uchun yagona umummilliy saylov okrugi tashkil etiladi va u hisobga olinmagan ovozlarni ro'yxat bo'yicha endi mamlakat miqyosida jamlaydi.

Senat uchun saylovlar bir viloyat doirasidagi birmandatli saylov okruglari bo'yicha o'tkaziladi. Saylovchilar muayyan nomzod uchun ovoz beradilar. Mazkur nomzod, odatda, o'sha viloyatning boshqa okruglari bo'yicha saylanayotgan nomzodlar bilan olingan ovozlarni baham ko'rish uchun majburiyatlar olgan bo'ladi (odatda, bir partiyaning nomzodlari). Nomzodlarning birortasi 65 foiz ovozni olgan takdirda bu majburiyatning ahamiyati yo'q — u bevosita senator bo'lib saylanadi. Nomzodlarning birortasi malakali ko'pchilikning ovozi ololmasa, viloyat saylov komissiyasi majburiyat olgan nomzodlarni ro'yxat sifatida ko'rib, senatorlik joylarini olingan ovozlarga proporsional tarzda taqsimlaydi.

Italiya Konstitutsiyasining 88moddasiga binoan davlat boshlig'i — Prezident butun parlamentni yoki uning biror palatasini tarqatib yuborish huquqiga ega. Modda nimaga asoslanib tarqatib yuborish mumkinligi haqida aniqlik kiritmaydi. SHu bilan birga, parlament amaliyoti va konstitutsiyaviy doktrina mazkur asoslarning uch mezonini ishlab chiqqan: stabil ko'pchilikni yaratish imkoniyatining mavjud emasligi; tarqatilmoqchi bo'lingan sub'ektlarning, Palatalar shu vaqtgacha mamlakatdagi kuchlarning haqiqiy ahvolini eks ettira olmaydi, ya'ni amalda vakillik xarakterini yo'qotgan, degan fikrga kelib qolganligi; Palata va Senat pozitsiyalarida yengib bo'lmas ziddiyatlarning mavjudligi. Har ikki palata vakolatlari 5 yil, urush bo'lib qolgan taqdirda yana davom ettirilishi mumkin.

Hozirgi zamon italyan bikameralizmi ikki konstitutsiyaviy prinsip: palatalarning tengligi va funksional jihatdan avtonomligi prinsiplarining mavjudligidan kelib chiqadi. Palatalar tengligi prinsipi 70modda («Qonun chiqaruvchilik vazifasi har ikki palata tomonidan bajariladi») va 94modda («Hukumat har ikki palata ishonchini qozonishi kerak») da qayd etilgan qoidalardan kelib chiqadi: «Eng muhim qonun chiqarish va nazorat qilish vazifalarini bajarishda palatalar tengdir». Umuman olganda, Konstitutsiya palatalar vakolatini cheklash degan narsani bilmaydi, lekin ular o'z a'zolari vakolatini tekshirishini cheklash mumkin (66modda). Funksional avtonomiya prinsipi haqida gapiriladigan bo'lsa, mazkur prinsip birinchi galda 55moddadan kelib chiqadi. Ushbu moddada parlamentning palatalarga bo'linishi haqida gap boradi, hamda ularning qo'shma majlisga yig'ilish huquqi cheklanadi. Qo'shma majlis Konstitutsiyada belgilangan favqulodda holatlardagina mumkin, chunonchi: respublika Prezidenti saylanganda (83 modda); respublika Prezidenti qasamyod qabul qilganda (91modda); Respublika Prezidenti sudga berilganda (90modda); magistratura Oliy kengashi a'zolarining uchinchi qismini va Konstitutsiyaviy sudni saylaganda (104modda), respublika Prezidenti ustidan bo'ladigan sud a'zolarining ehtimol ro'yxati tuzilayotganda (135 modda). Palatalarning funksional avtonomiyasi nafaqat ularning turlicha shakllantirilishi va har xil soni bilan bog'liq, asosiysi, qabul qilinayotgan qarorlarning ikki yoqlama nazorat qilinishidir.

Italiya Konstitutsiyasining 64 moddasida shunday yozilgan: «Har bir palata o'z Reglamentini a'zolarining mutlaq ko'pchilik ovozi bilan qabul qiladi». Konstitutsiyaviy havolaning o'zi, shuningdek, palatalarning ushbu ichki hujjatlari katta harflar bilan yozib qo'yilganligi ularning alohida konstitusion ahamiyatini ta'kidlaydi. Parlament reglamentlarining maqomi (statusi) italyan qonunchilik tizimida bir xil ma'noga ega emas. Bir tarafdin, bular davlat hokimiyati organlarining ichki hujjati va shu ko'rinishida qonunosti (reglamentar) xarakterga ega. Boshqa tarafdin, ularni

palatalar tomonidan, ya'ni qonun chiqaruvchi hokimiyat egalari tomonidan qabul qilish usuliga qaraganda, qonunga yaqinlashib keladi. Nihoyat, parlament ob'ektlarini tartibga solish, demakki, qonun chiqarish faoliyatini ham tartibga solish bo'yicha ular go'yo qonundan yuqori o'rinni egallaydi, chunki ular reglamentda ko'rsatib o'tilgan rasmlardan tashqari qabul qilinishi mumkin emas. Reglamentga o'zgartirishlar kiritish, umuman olganda, murakkab emas, lekin baribir uning tasodifiy qarorlar qabul qilishdan tiyib turuvchi jihatlari bor.

Ichki parlament faoliyati bilan bog'liq qator masalalarni Konstitutsiya «o'z bo'yniga» oladi. Konstitutsiyada parlamentning qonun chiqaruv faoliyatining prinsiplaridan tashqari, palatalarni navbatdagi sessiyaga chaqirishning sanalari bilan bog'liq masalalar (62 modda), rahbar organlarni shakllantirishga (63modda), kvorumga (64 modda) va shu kabilarga oid masalalar ko'tarilgan. Albatta, palatalar reglamenti konstitutsiyaviy qonun va qoidalar chetlab o'tilgan yoki, ayniqsa, buzilgan bo'lmasligi kerak.

Italiya parlamenti palatalarining amaldagi reglamentlari 1971 yidda qabul qilingan. Qayd etmoq kerakki, palatalarning avtonomiyaligiga qaramay, ulardagi hujjatlar birbiriga o'xshash, ko'plarining mazmuni birbiriga yaqin, reglamentlarning matni muvofiqlashtirilgan. Bu tushunarli: palatalardan birortasining mavqei imtiyozli bo'lmasligi kerak, aks holda boshqa palatalar o'z vazifasini bajarishiga to'sqinlik yuzaga kelishi yoki umumparlament jarayoni qiyinlashishi mumkin.

Deputatlar Palatasi reglamenti uch qismdan iborat bo'lib, 35 bobga ajratilgan. «Palata faoliyatini tashkil etish» deb nomlangan 1qism o'z ichiga Deputatlar Palatasi organlari, kvorum, ovoz berish, ishlarning oshkora hal etish va sh.k. masalalarni muhokama qilish qoidalari haqidagi boblarni oladi. «Qonun chiqarish tartiboti» deb nomlangan 2qism o'z ichiga palatada va uning komissiyalarida turli qonunlar loyihalarini ko'rib chiqish bilan bog'liq rasmlar haqidagi boblarni oladi. «Palata siyosiy yo'nalishni ishlab chiqish, nazoratni amalga oshirish va axborot olishda ishtirok etishi bilan bog'liq tartibotlar» deb nomlangan 3qism palataning nazorat vazifalari va boshqa organlar bilan o'zaro munosabatiga bag'ishlangan boblardan iborat. Moddalarning umumiy soni — 150. Senat reglamenti biroq ko'proq — 24 bobga kiritilgan 168 moddadan iborat. Senat reglamenti boblari qismlardan iborat emas, undagi moddalarga nom berilgan.

Parlament va siyosiy partiyalar

Italiya parlamentidagi barcha deputatlar va senatorlar parlament guruhlariga kirishi shart. Parlament guruhlariga, odatda, bir partiya vakillari birlashadilar, biroq «parlament guruhi» tushunchasi kengroq, chunki aralash guruhlar ham bo'ladi, bir partiyaviy guruhga partiyasizlar ham, parlamentda alohida guruh tuzishga vakilligi yetarli bo'lmagan partiyalarning deputatlari ham kirishi mumkin.

Parlament guruhi tuzish uchun Palatada kamida 20 deputat, Senatda esa kami bilan 10 deputat kerak. SHu bilan birga palatalar reglamenti soni 20 dan kam bo'lgan deputatlar guruhlarini ham tuzishga ruxsat beradi, qachonki, mazkur guruh saylovda 20 dan kam bo'lmagan okrugda ro'yxati olg'a surilgan va mamlakatda 300 mingdan kam bo'lmagan ovoz olgan uyushgan, jips partiya vakillaridan iborat bo'lsa. Ammo parlament a'zosi u yoki bu partiya ro'yxati bo'yicha saylanishining o'zi uni mazkur partiya guruhiga avtomatik tarzda kiritib qo'yishni anglatmaydi. Palataning birinchi majlisidan keyingi ikki kun davomida deputatlar qanday guruhga kirgalar haqida byuroga xabar qiladilar. Xabar bermaganlar yoki partiyaviy guruhlariga kirishni istamaganlar aralash guruxdarni tashkil etadilar. Guruhlar o'zlarining birinchi majlislarida guruhning rais, uning o'rinbosari va kotibidan iborat organini tashkil etadilar. Guruh organlarining tashkil etilishi va keyinchalik, guruh tarkibidagi hamda uning organidagi barcha o'zgarishlar Palata raisiga xabar qilib turiladi.

Guruhlar o'z vazifalarini bajarishlari uchun xona va kerakli jihozlar beriladi. Palatalar byudjetidan, har bir guruhning umumiy ehtiyojlarini va uning sonini hisobga olgan holda, dotatsiya beriladi. Reglamentlarda guruhlar barcha masalalarni muhokama qilishi jarayoni uchun alohida huquqdar berilgan. Guruh nomidan so'zga chiqadigan parlamentariy shaxs sifatida (o'z nomidan) so'zga chiquvchi parlamentariyga nisbatan rasmlar imtiyozlariga ega. Guruh raislari kun tartibini aniqlashda, ma'ruzachi va hamma'ruzachini tayinlashda alohida vakolatga ega.

Reglamentda «ay pos» deb nomlangan, palatalar va komissiyalar vazifalari masalasida cheksiz vakolatlarga ega bo'lgan palatalar raislari rahbarligi ostida ishlaydigan maxsus organ (guruhlar raislari konferensiyasi)ni chaqirish ko'zda tutilgan. Mazkur organ raisning shaxsiy tashabbusi bilan, hukumatning yoki biror guruhning tashabbusi bilan chaqiriladi. Albatta, guruh va ularning raislarida deputatlarga ta'sir o'tkazishning norasmiy imkoniyatlari ham bisyor.

Parlament guruhlarining o'zaro munosabatlari yordami bilan parlament o'zining eng muhim siyosiy vazifasini — mamlakatning siyosiy kursini ishlab chiqish maqsadida turli siyosiy kuchlar o'rtasida vositachilikni bajaradi. Guruhlar yana boshqa vazifalarni bajarishda ham ishtirok etadi: avvalo qonunchilik tashabbusining sub'ekti sifatida, qolaversa, parlament qarorlarini dastlabki ko'rib chiqish va tayyorlashda, bundan tashqari, o'zining a'zolarini komissiyalarga kiritish yo'li bilan ishtirok etadi.

Konstitutsiyaning o'zida (72 modda) parlament komissiyalarni, jumladan, doimiy komissiyalarni tashkil etish ko'zda tutilgan. Parlament faoliyatining asosiy qismi aynan doimiy komissiyalarda o'tadi. Komissiyalar palatalardagi siyosiy kuchlar nisbatini aks ettirishi kerak, shuning uchun parlament guruhlarini mazkur komissiyalarga o'z a'zolarini tayinlaydilar. Deputatlar Palatasida guruh komissiyalardan har biri o'z deputatlarini teng taqsimlashi kerak; Senatda esa, guruh o'z a'zolarini, komissiyaning har biriga 12 guruh a'zosiga bir senator nisbatida tayinlaydi. Komissiyalar soniga nisbatan senatori kam guruhlariga, Kengash reglamenti, bir senatorni ikki komissiyaga tayinlash uchun ruxsat beradi, shu maqsaddakim, guruhning har bir komissiyada vakili bo'lsin. Palatada shunday qoida bor: birorta deputat birdan ortiq komissiyaga a'zo bo'lmasin. Agar deputat yoki senator hukumat a'ziligiga tayinlansa o'sha guruhning o'rniga boshqasini, jumladan, boshqa komissiya a'zosini almashtirishi mumkin. Bunday almashtirish palata raisining oldindan ruxsati bilan, komissiyada muayyan qonun loyihasi ko'rilayotgan vaqtda ham bo'lishi mumkin. Deputatlar Palatasida, bundan tashqari, guruh rahbariyati roziligi bilan o'sha guruh deputatlarini komissiyalar a'ziligiga ham almashtirish mumkin. Bunday almashtirish bir yidda bir martadan oshmasligi kerak. Senatda guruhlar xohishiga qarab legislatura (vakolat muddati)ning dastlabki ikki yilidan so'ng komissiyalar yangilanadi. Umumiy qoidalarga ko'ra, komissiyalarga taqsimlanmagan deputatlar va senatorlar bevosita palataning raisi tomonidan komissiyalarga yuboriladi. Bunda rais guruhning tegishli taklifini tinglab, imkon doirasida guruhlarining palatadagi proporsional nisbatini hisobga olishi shart.

Komissiyalarda komissiya raisi, uning 2 o'rinbosari va 2 kotibidan iborat byuro tuziladi. Byuro a'zolari komissiya a'zolarining yashirin ovoz berishlari bilan saylanadilar, rais esa mutlaq ko'pchilik ovoz bilan saylanishi kerak.

Komissiya raisi komissiya nomidan gapiradi, majlis chaqiradi, kun tartibini belgilaydi, raislik qiladi. Komissiya byurosining boshqa a'zolari vazifalari, umuman olganda, palatalar byuro a'zolarining vazifalariga o'xshash.

Deputatlar Palatasida 14 ta, Senatda 12 ta doimiy komissiya tuziladi. Ularning ro'yxati tegishli reglamentlarda ko'rsatilgan.

Deputatlar Palatasi komissiyalari: 1. Konstitutsiyaviy masalalar. Davlat qurilishi. Viloyatlar. Davlat xizmatining umumiy masalalari. 2. Vazirlar Kengashi byurosining faoliyati. Ichki ishlar va diniy marosimlar bilan bog'liq masalalar. Davlat korxonalari. 3. Tashqi ishlar. Emigratsiya. 4. Adliya. 5. Byudjet va programmalashtirish. Davlatning xususiy sektordagi ishtiroki. 6. Moliya va moliya muassasalari. 7. Mudofaa. 8. Maorif va nafis san'at. 9. Jamoat ishlari. 10. Transport va grajdan aviatsiyasi. Savdo floti. Pochta, aloqa, radio va televidenie. 11. Qishloq va o'rmon xo'jaligi. 12. Sanoat va savdo. Hunarmandchilik. Tashqi savdo. 13. Mehnat, ijtimoiy ta'minot va sug'urta. Matlubot. 14. Gigiena va sog'liqni saqlash. Senat komissiyalari: 1. Konstitutsiyaviy masalalar, Vazirlar Kengashi byurosi va ichki ishlar vazirligi faoliyati, davlat va davlat ma'muriyatining umumiy tuzilishi. 2. Adliya. 3. Tashqi ishlar. 4. Mudofaa. 5. Iqtisodiy programmalashtirish, byudjet, davlatning xususiy sektordagi ishtiroki. 6. Moliya va moliya muassasalari. 7. Maorif va nafis san'at, ilmiy tadqiqotlar, tomoshalar va sport. 8. Jamoat ishlari; aloqa. 9. Qishloq xo'jaligi. 10. Sanoat, savdo; turizm. 11. Mehnat, emigratsiya, ijtimoiy ta'minot. 12. Gigiena va sog'liqni saqlash.

Doimiy komissiyalarning vakolatiga kiruvchi muayyan masalalarni o'rganish uchun ularda doimiy qo'mitalar tuzilishi mumkin. Palataning o'ziga xos masalalar bo'yicha maxsus komissiyalar tashkil etiladi.

Komissiyalar vazifasi xilmaxil. Komissiyalar palataga taqdim etiladigan doklad mavzusidagi masalalarni o'rganib chikish uchun «referent majlislar» deb ataladigan majlislarini; fikr almashish uchun maslahat majlislarini; Konstitutsiyaning 72moddasiga binoan qonun loyihalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun qonunchilik majlislarini; qonun loyihasini yoki uning alohida moddalarini kerakli ko'rinishga olib kelish va tahrir qilish uchun taxririyl majlislarini o'tkazadilar. Komissiyalar nazorat vazifalarini bajaradilar, hukumat xabarlarini tinglaydilar va muhokama qiladilar. Ikki yoki undan ortiq komissiyaning vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha mazkur komissiyalar birgalikda majlis o'tkazishlari mumkin.

«Ayoos» tomonidan tuzilgan parlament tergov komissiyalari uchun voqea, hodisa va shaxslarga aloqador muayyan ma'lumotlarni tekshirib ko'rish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish uchun alohida maqom ko'zda tutilgan. Bu komissiyalar oliy tergov hokimiyatiga ega bo'lib, palatalar tomonidan qo'yilgan masalalarni o'rganishda qandaydir cheklashlar bo'lishi mumkin emas. Har ikki palataning raisi qaroriga muvofiq umumparlament tergov komissiyasi tuzilishi mumkin. Parlamentlararo komissiyalar boshqa masalalar bo'yicha ham tuziladi. Masalan, xalqaro shartnomaning qonunchilik oqibatlarini o'rganish uchun, yoki aniq bir davlat muassasasi faoliyatini nazorat qilish uchun ham tuziladi. Umumparlament asosida maxsus qonunlar tomonidan ko'zda tutilgan davlat sirini nazorat qilish qo'mitasi, radio va televideniening siyosiy mustaqillyigini va ular tomonidan tarqatilyotgan axborotlarning ob'ektivligini nazorat qilish bo'yicha umumparlament komissiyasi, shuningdek, davlat qarzini tartibga solish bo'yicha komissiyalar ham faoliyat ko'rsatadi.

Palatalarning tashkiliyl tuzilmasi

Palatalar Raislari va tegishli Byuro (prezidiumlar, hay'atlar) palatalar ishini tashkil etadilar va faoliyatini ta'min etadilar.

Palatalar raislarining vazifasiga ikki eng muhim, favqulodda konstitutsiyaviyl huquq kiradi: palatalarning favqulodda sessiyasini chaqirish va respublika Prezidentining palatani tarqatib yuborish fikri bo'yicha konsultatsiya olib borish. Italiya siyosiy amaliyotida hozirgacha Prezident palatani uning raislari roziligisiz tarqatib yuborgan emas.

Palatalar reglamenti raislarga majlislarini olib borish, palatalardagi, ularning organ va xizmatlaridagi ish tartibini lozim darajada ta'minlash bo'yicha keng vakolatlar beradi. Raisning majlis kun tartibidaga masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha ham roli katta — u, mustaqil tarzda, palataning ish grafigini belgilaydi. Muzokaralar paytida Rais deputatlarga so'z beradi va bu huquqdan ularni mahrum etadi, reglament bajarilishini quzatib boradi, savollar beradi, ovoz berish tartibini o'rnatadi, ahamiyatini tushuntiradi va natijalarni e'lon qiladi.

Rais palata Byurosi ishiga rahbarlik qiladi, jumladan, shaxsiyl tashabbus bilan Byuro ni chaqiradi va mustaqil ravishda uning majlisi kun tartibini belgilaydi. Palata Byurosining barcha qarorlari uning raisi dekreti shaklida o'tkaziladi.

Byuro byudjet loyihasini va uning ijrosi haqidaga hisobotni tasdiqlaydi, guruh va komissiyalarni shakllantirish bilan bog'liq masalalarni hal qiladi, majlis o'tkazish tartibini qo'pol ravishda buzgan deputatlar (senatorlar)ga nisbatan intizomiy sanksiyalar qo'llaydi, Palataning bosh kotibini tayinlaydi, ichki boshqaruv qoidalarini o'rnatadi, yordamchi xizmatlarni shakllantiradi, Palata xizmatchilariga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy choralarni qo'llaydi, majlislariga qatnashish tartibini belgilaydi.

Xar bir palatada, palata raisining to'rt o'rinbosari, uch kvestor, sakkiz kotib Byuro a'zolari hisoblanadi.

Palatalar o'rinbosarlari mustaqil vazifalarga ega emas. Biroq, rais yo'qligida ularning roli keskin oshadi, chunki ular navbatmanavbat uning vazifalarini bajaradilar.

Kvestorlarning alohida huquqlari turlicha: majlislar zalidagi tartibintizomga va marosimga rioya qilishni kuzatib borish; Palataning yordamchi xizmatlari faoliyatini nazorat qilish; Palata xarajatlarini nazorat qilish; Palata byudjeti loyihasini va uning ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash.

Kotiblar Palata majlisining bayonnomasini tuzadilar, ularni o'qib eshittiradilar, ariza tushishiga qarab, so'zga chiquvchilarning ro'yxatini tuzadilar, rais iltimosiga binoan, kelib tushgan taklif va hujjatlarni o'qib eshittiradilar, so'rovlarni olib boradilar, o'ziga xos fikrlarni qayd etadilar, Palata hujjatlari va stenografik hisobotni aniq bayon etadilar hamda ular o'z muddatida chop etilishini ta'minlaydilar.

Rais shuningdek, parlament djuntalari, ya'ni o'ziga xos deputat (senator) lar komissiyasi a'zolarini tayinlaydi. Djuntalar deputatlar (senatorlar) orasidan bevosita tegishli palata Raisi tomonidan shakllantiriladi. Bunda Rais «imkon doirasida» turli parlament guruhlarining proporsional (mutanosib) vakilligini ta'minlashi shart.

Reglament, saylovlar va parlament daxlsizligi masalalari bo'yicha djuntalar mavjud. Senatda saylovlar va parlament daxlsizligi masalalari bilan bitta djunta shug'ullanadi. Senatda djunta huquqiga teng asosda kutubxona komissiyasi tuziladi (Deputatlar palatasi kutubxonasi masalasi bilan Byuro nazorati ostidagi tegishli yordamchi xizmat shug'ullanadi).

Reglament masalasi bilan shug'ullanuvchi djunta Deputatlar palatasida ham, Senatda ham 10 kishidan iboratdir, ammo guruhlar vakilligining teng bo'lishi uchun tarkib kengaytirilishi ham mumkin. Mazkur djuntani tegishli palataning raisi bevosita boshqaradi. Djunta tegishli reglamentlar nizomini sharhlaydi, parlament amaliyoti va reglamentga tuzatishlar kiritish haqidagi takliflarni o'rganadi, parlament komissiyalari o'rtasidagi vakolatlar haqidagi bahsmunozaralarni hal qiladi. Reglamentga o'zgarishlar va to'ldirishlar kiritish haqidagi takliflarni bevosita palatada ko'rib chiqish masalasi djunta tomonidan ilgari suriladi.

Deputatlar palatasiga saylovlar masalasi bo'yicha djunta 30 deputatdan iborat. U o'z tarkibidan raisni, uning ikki o'rinbosarini va uch kotibini saylaydi. Djunta o'z reglamenti asosida harakat qiladi. Mazkur reglamentni reglament masalalari bo'yicha djunta ma'qullagandan so'ng, palata qabul qiladi.

Deputatlar daxlsizligi masalasi bo'yicha djunta 21 a'zodan iborat. Uning organlari va reglamentning shakllanish qoidalari saylovlar masalasi bo'yicha djunta uchun ko'zda tutilgan qoidalar kabidir. Ushbu djuntaning vakolati Konstitutsiyaning 68-moddasida ko'rsatib berilib, jumladan, jinoiy ish bo'yicha ta'qib, hisobga olish, tintuv, hukmni ijro etish va boshqalardan xalos etuvchi parlament immunitetlarini ko'zda tutadi. Immunitetni olib tashlash uchun tegishli palataning sanksiyasi kerak. Deputatlar daxlsizligi masalasi bo'yicha djunta palatada ko'rib chiqish uchun kerakli materiallarni, jumladan, doklad va qaror loyihasini tayyorlaydi.

Senatning 21 kishidan iborat saylovlar va parlament immunitetlari masalasi bo'yicha djuntasining vakolati Deputatlar Palatasining yuqorida aytib o'tilgan ikki djuntasining vakolatiga o'xshashdir. Senatda, shuningdek, 22 senatordan iborat, Yevropa Hamjamiyati masalalari bo'yicha djunta ham bor. Mazkur djunta Senatga va komissiyalarga Hamjamiyat faoliyati bilan yoki hamjamiyat doirasida tuzilgan shartnomalarning amalda bo'lishi bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda maslahatlar beradi.

Palatalarda, ularning faoliyatini ta'minlashda, parlamentariylarga kerakli axborot va yordamni berish uchun ko'p sonli yordamchi xizmatlar (xizmatchi bo'limlar) faoliyat ko'rsatadi. Deputatlar palatasida 50 tacha bo'limni birlashtirgan 10 dan ortiq xizmatlar mavjud bo'lib, ularda 1,5 ming mutaxassis ishlaydi. Senatda 10 ta xizmat mavjud (ularda bo'limlar yo'q) bo'lib, 600 dan ortiq kishi ishlaydi.

Deputatlar palatasining xizmatchi bo'limlari parlament maqolalarini nashr ettirish, xalqaro aloqalarni tashkil etish, deputatlik huquqi, imtiyozlari va immunitetlarini ta'minlash, italyan va xalqaro qonunchilikni, sud qarorlarini, parlament amaliyotini, arxivni, parlament hujjatlari va statistikasini o'rganish va sistemalashtirish bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanadilar. Bularga quyidagi xizmatchi bo'limlarni ham qo'shish mumkin: parlament hisobotlari xizmati, stenografiya, buxgalteriya, kutubxona, kadrlar boshqarmasi, marosimlar xizmati, saroyni boshqarish xizmati.

Palatalarning xizmatchi bo'limlari palata Byurosi tayinlaydigan Bosh kotib tomonidan boshqariladi. Odatda, bu lavozimni bir necha legislatura (vakolatlar muddati) davomida bir kishi egallaydi. Parlamentning xizmatchi xodimlari davlat xizmatining umumiy tizimiga kirmaydilar. Bu, bir tomondan, ularni bevosita boshliqlar oldida mutlaqo huquqsiz holatga solib qo'yadi, ammo

boshqa tarafdin, avtonom hamda umumiy manfaatlar bilan qorishib ketgan, tashqi o'zgarishlardan holi tizimni yaratadi. Bunday mustaqillik davlat xizmatidagi tegishli amaldorlar maoshiga qiyoslaganda ikki baravar oklad bilan mustahkamlanadi.

Muhokama uchun savollar

1. Jahon xaritasida Yevropa mamlakatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosat konsepsiyasi asosiy o'Ichamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Yagona Yevropa xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?
4. Barak Obama prezidentligi davrida AQSH – Yevropa munosabatlari nimadan iborat deb o'ylaysiz ?
5. Bugungi kunda AQSHning raketalariga qarshi mudofaa tizimining Yevropada o'rnatilishi Rossiya -Evropa munosabatlari ?

Adabiyotlar.

1. Абазов Р. Глобальные перемены и геополитика на пороге XXI века // МЭ и МО. №2 февраль 1999. Стр.116-120.
2. Андреева Т. Безопасность западной Европы и независимые ядерные силы Великобритании и Франции // МЭ и МО, №1 январь 2004 стр. 51-61.
3. Арбатов А.Г. Национальная безопасность России в многополярном мире // МО и МЭ. №10 октябрь 2002. стр. 21-28.
4. Гаджиев К. Мифы и реальности «Нового великого шелкового пути» // МЭ и МО 2008 №11 С.6 (3-14)
5. Зверева Т. Внешняя политика Франции после прихода к власти 5.71. Николя Саркози // МЭ и МО, №6 2008. – стр.34-38
6. Злакозова Н. Расширение ЕС: за и против с позиций его членов // МЭ и МО №1, январь 2004. Стр. 62-69.
7. Нарочницкая Н. Европа старая и Европа новая // Международная жизнь , №4 2003. стр 47-49.
8. Пашковская И. Внешняя энергетическая политика Европейского союза // МЭ и МО, 2009 №1, Стр. 67
9. Терентьев А. Мироустройство начала XXI века: существует ли альтернатива «Американской империи?» // МЭ и МО 2007 №10 октябрь стр.35-46.

Mavzu – 9. SHimoliy Yevropa davlatlarining siyosiy tizimi (Rossiya Federatsiyasi siyosiy tizimi misolida)

Dars maqsadi:

- Rossiya Federatsiyasidagi federativ tizimni tahlil etish;
- Rossiya Davlat Dumasi va uning faoliyatini talabalarga o'rgatish;
- Rossiya Federatsiyasidagi Prezident saylovlari va konstitusion islohatlar muammosini tadqiq etish;
- Davlat, xukumat, siyosiy tartibot haqida o'rganish;
- Qiyoslash o'Ichovlari: mustaqil, oraliq va bog'langan o'zgaruvchilar tahlil etish;
- Tadqiqot yo'nalishi: umumiylikda o'ziga xos va o'ziga xoslikda umumiylikni izlashdan iborat.
- Davlatlarning siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan tanishtirish;
- Siyosiy jarayonlar va munosabatlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va diniy omillar haqida tushuncha berish;

- Siyosiy qiyosiy tadqiqotlarning turlari. Siyosiy tizimlarning tipologiyasi (zamonaviy, an'anaviy va b.) tahlil etish;
- Talabalarni siyosiy tuzum, siyosiy rejim va uning turlari bilan tanishtirish;
- qiyosiy politologiyaning siyosiy fanlar tizimidagi o'rnini aniqlash va ko'rsatish;
- Bundan tashqari ushbu darsning maqsadi siyosiy tuzumlarning klassifikatsiyasini tahlil etish;
- mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishda ko'maklashish;
- Yoshlar o'rtasida sog'lom ma'naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: despotik rejim, mustabidlik rejimi, Tiraniya rejimi, Avtoritar siyosiy rejim, Totalitar siyosiy rejim, harbiy siyosiy rejim, Fashistik siyosiy rejim, Irqiy siyosiy rejim, Diniy siyosiy rejim

Asosiy savollar:

1. Rossiya parlamentining shakllanish bosqichlar
2. Rossiya Federatsiyasi Federal Kengash palatasi
3. Rossiya siyosiy partiyalarining Davlat Dumasini shakllantirishdagi roli

1. Rossiya parlamentining shakllanish bosqichlari

Parlament an'analari asrlar mobaynida shakllanib kelgan Yevropa parlamentlaridan farqli o'laroq Rossiyada birinchi parlament tipidagi vakillik organi 1906 yildagina chaqirilgan va u Davlat Dumasi deb nom olgan. Duma ikki marotaba hukumat tarafidan tarqatib yuborilgan bo'lishiga qaramasdan, u 12 yil, chor hukumati ag'darilgunga qadar faoliyat ko'rsatib kelib, to'rtta chaqiriqqa ega edi. To'rttala chaqiriqda mulqdor dvoryanlar, savdosanoat burjuaziyasi, shahar ziyolilari va dehqon vakillari deputatlar orasida aksariyat qismni tashkil etar edi. Ular bu tashkilotga Rossiya taraqqiyoti borasida o'z qarashlarini va ijtimoiy muhohasa ko'nikmalarini olib keldilar.

Ayni paytda qonun chiqaruvchilik hokimiyatini Rossiyada Federal Majlis amalga oshiradi.

Rossiya Federatsiyasining parlamenti — Federal Majlis Rossiyaning vakillik va qonun chiqaruvchilik organi hisoblanadi. Federal Majlis ikki palata — Davlat Dumasi va Federatsiya Kengashidan iborat. Rasman Federatsiya Kengashi parlamentning yuqori palatasi, Davlat Dumasi esa quyi palatasi hisoblanmaydi (bu Konstitutsiya tarafidan belgilab berilmagan). Davlat Dumasi va Federatsiya Kengashi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, Davlat Dumasi Reglamenti, Federatsiya Kengashi Reglamentida, shuningdek, amaldagi federal qonunlarda belgilab qo'yilgan turli maqomga egalar. Davlat Dumasi faoliyati siyosiy xilmaxillik va ko'ppartiyaviylik, erkin va jamoaviy asosda masalalarni muhokama etish va yechish tamoyillariga asoslanadi.

Rossiya Federatsiyasining 1993 yildagi konstitutsiyasiga binoan (94-modda) Federal Majlis Rossiya parlamenti hisoblanadi. Federal Majlis ikki palata — Davlat Dumasi va Federatsiya Kengashidan iborat. Bu tizim federativ davlat tizimidan, ya'ni birinchi palata — umumxalq vakillik palatasi, ikkinchisi esa — federatsiya sub'ektlari vakillari amaliyotidan kelib chiqadi. Jahondagi deyarli barcha federal davlatlar parlamentning ikki palatali tizimiga ega. Federal Majlisning ikki palatali tizimi palatalarning sezilarli darajada mustaqilligi ham kafolatlanadi. Bu holat ularning ham vakolatida, ham alohida majlis o'tkazishlarida namoyon bo'ladi. Konstitutsiyada faqat uch holatdagina (u ham majburiy emas) Davlat Dumasi va federatsiya Kengashining qo'shma majlisi o'tkazilishi ko'zda tutilgan: birinchidan, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti nomasini, ikkinchidan, Konstitutsiyaviy Sud nomasini, uchinchidan, xorijiy davlat rahbarlari ma'ruzalarini tinglash uchun.

Federal Majlis — Rossiyaning vakillik va qonun chiqaruvchi organidir. Davlat organlariga nisbatan, saylovchilarning manfaatlari va xoxish irodasini ifoda etishi bilan birga, bunday vakolatni saylovlar davrida ovoz beruvchilar tomonidan oladilar. Federatsiya Kengashi a'zolari (1993—1995 yillardagi birinchi chaqiriq bundan istisno) Federal Majlisning mazkur palatasiga vakil sifatida xalq tomonidan saylanmaydilar. Ularning ko'pchiligi yo RF sub'ekti qonun chiqaruvchi organi nomzodi

sifatida, yoki Federatsiya sub'ekti ma'muriyati (Prezident, gubernator, mer va h.k.) rahbari sifatida saylanganliklaridan so'ng o'z lavozimlariga binoan Federatsiya Kengashi a'zosi hisoblanadilar.

Federal Majlisning qonun yaratuvchi organ sifatidagi mohiyati mamlakat hududida bajarilishi shart bo'lgan me'yoriyhuquqiy hujjatlar, federal qonunlar va federal konstitutsiyaviy qonunlar yaratish bilan belgilanadi. SHu bilan birga, Federal Majlis qonun yaratuvchi organ bo'lishi bilan birga ayrim hollarda ijro etuvchi hokimiyat ustidan cheklangan nazorat olib borish huquqiga ega. Bu nazorat Davlat Dumasidan federal byudjet tasdig'i, shuningdek, RF Prezidenti tomonidan iste'foga chiqarilishiga olib keluvchi hukumatga nisbatan ishonchsizlik bildirishi huquqida ko'rish mumkin.

Federatsiya Kengashida RFning barcha sub'ektlaridan ikki nomzod — qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organ vakillari ishtirok etadi. Federatsiya Kengashining shakllanishi vazifaga binoan RF sub'ektlarining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyati rahbarlarining Federatsiya Kengashi o'rinlarini egallashi hisobiga bo'ladi. Federatsiya Kengashi a'zoligiga tayinlash faqat RF sub'ektining qonun chiqaruvchi organi ikki palatali bo'lgan holda amalga oshiriladi. Bu chog'da ikkala palata O'zaro qaror qilgan holda o'zlarining Federatsiya Kengashidagi Eakilini tayinlaydilar. Rossiya parlamentining bu tarzda shakllanishi federal qonun — 1995 yil dekabr oyida kuchga kirgan «Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashining shakllanish tartibi to'g'risida»gi qonunda belgilab qo'yilgan.

1996 yil yanvar oyida Federatsiya Kengashi qayta shakllandi VD 1993 yil saylangan birinchi chaqiriq vakillari o'rniga RF sub'ektlarining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organ rahbarlari o'z o'rinlarini egalladilar. SHundan e'tiboran Federatsiya Kengashining navbatdagi chaqiriqlari bo'lmaydi. Uning tarkibi RF sub'ektlari davlat hokimiyati organlariga bo'lib o'tadigan saylovlar va RF sub'ektlari davlat hokimiyati organlari — qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlardagi o'zgarishlar, masalan, RF sub'ektlaridagi ikki palatali parlamentlarga qayta saylovlar o'tkazish natijasida o'zgaradi.

Lavozim yuzasidan RF sub'ektlari qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organ rahbarlari Federal Majlisning mazkur palatasida doimiylik asosida ishlashlari mumkin emas. Ular turli va o'ta mas'uliyatli lavozimlarda ishlashlariga to'g'ri keladi. SHu bilan birga ular saylangan RF sub'ektidagi vazifalariga ko'proq e'tiborni qaratadilar. Bu sharoitda Federatsiya Kengashi unumli ishlashi va tayyorlanadigan qaror loyihalari sifati borasida mazkur palata apparatining roli va mas'uliyati Federatsiya Kengashi nomzodlarining bir qismi doimiylik asosida ishlayotgan davrga nisbatan o'sib boradi.

Konstitutsiya Federatsiya Kengashi a'zolarini qayd etishni belgilab bermaydi. Biroq unda har bir RF sub'ekti Federatsiya Kengashida ikki a'zoga ega ekanliklari qayd etilgan. RF sub'ektidagi har qanday o'zgarish (ko'payish yoki kamayish) Federatsiya Kengashi tarkibidagi miqSORiy o'zgarishlarga turtki bo'ladi. Bugungi kunda RF konstitutsiyasi (65modda) RF sub'ektlari 89 tadan iborat ekanligini qayd etadi va shu bois Federatsiya Kengashi 178 a'zodan iborat.

Federatsiya Kengashidan farqli o'laroq, Davlat Dumasida RF konstitutsiyasining 3qismi 95moddasiga binoan — 450 kishi etib belgilangan. Nomzodlarning saylanishi qator federal qonunlar bilan tartibga solingan (1993 yildagi saylovlar RF Prezidenti farmonlari asosida joriy qilingan). Ular orasidagi eng muhimlari: «Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining saylash huquqlari asosiy kafolatlari to'g'risida» federal qonuni (1994 yil oktyabr oyida kuchga kirgan), «Rossiya Federatsiyasi Federal Majlis Davlat Dumasiga deputatlarni saylash haqida» federal qonuni (1995 yil iyun oyida kuchga kirgan), «Rossiya Federatsiyasi Federal Majlis Davlat Dumasiga ikkinchi chaqiriq deputatlar saylovini o'tkazish uchun birmandatlik saylov okruglari tizimini tasdiqlash haqida» federal qonuni (1995 yil avgust oyida kuchga kirgan).

«Federal Majlis Davlat Dumasiga deputatlarni saylash haqida» federal qonuniga binoan 225 nomzod birmandatlik saylov okruglardagi saylovchilarning yagona me'yorlari asosida saylanadi. RF sub'ektlarida tuziladigan va saylovchilar soni belgilab qo'yilgan me'yordan kam bo'lgan saylov okruglari bundan istisno. Mazkur istisno federativ davlat boshqaruvi masalasi bilan bog'liq.

Birmandatlik saylov okrugidagi saylovchi vakolatining yagona normasi RF saylovchilari umumiy sonini 225 birmandatlik okruglarga bo'lish orqali joriy etiladi. Nomzodlarning federal

ro'yxatini berish ma'nosi shundaki, saylovchilarga ma'lum uyushma, ro'yxatga kiritilgan barcha nomzodlar bajarishi lozim bo'lgan uning dasturi uchun ovoz berishlariga imkoniyat beradi.

Davlat Dumasiga deputatlarni saylash, ularga tayyorgarlik ko'rish va amalga oshirish ishlarini saylov komissiyalari bajaradi. Ularning majburiyatiga, shuningdek, RF fuqarolari saylov huquqlari ta'minlanishini nazorat etish ham kiradi. Saylov komissiyalari o'z vakolatlari doirasida davlat va mahalliy boshqaruv idoralariga tobe emaslar. Qonun tarafidan saylov komissiyalarining besh bosqichli tizimi — RF Markaziy saylov komissiyasi, RF sub'ektlari saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyalari, hududiy saylov komissiyalari, uchastka saylov komissiyalari. RF konstitutsiyasida quyidagi uch talab Davlat Dumasi deputatlariga, shuningdek, deputatlikka nomzodlarga nisbatan qo'yilgan: Davlat Dumasi deputati, birinchi navbatda, Rossiya fuqarosi bo'lishi, ikkinchidan, 21 yoshga to'lgan bo'lishi, va, uchinchidan, saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega fuqaro bo'lishi. Nomzodlar ro'yxati saylov uyushmalari va saylov bloklari tomonidan ilgari suriladi. Ijtimoiy uyushma saylov uyushmasiga aylanishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan qator me'yorlar mavjud: birinchidan, ular albatta umumrossiyaviy bo'lishi (ya'ni, «Ijtimoiy uyushmalar haqida» Federal qonunga (1995 yil 14 aprel) binoan mazkur uyushmalar o'z nizomiy maqsadlari asosida RF sub'ektlarining yarmidan ortig'ida faoliyat ko'rsatishi va joylarda boshang'ich tashkilotlarga ega bo'lishi; ikkinchidan, ular federal qonunlar asosida tashkil etilgan bo'lishi (muassislarning erkin tashabbusi nazarda tutilmoqda). Agar ular jismoniy shaxslar bo'lsa, ularning soni uchtdan kam bo'lmasligi kerak. Uchinchidan, ijtimoiy tashkilot nizomida mazkur tashkilotning davlat hokimiyati organlariga saylovlarda ishtirok etishi qayd etilgan bo'lishi shart (vosita asosida — saylovlarning moliyaviy jihatlariga homiylik Qilish, nomzodlarga ijobiy yoki salbiy ovoz berishga undash, bevosita — nomzodlarni ilgari surish va ularning parlamentga saylanishlari uchun kurash olib borish). To'rtinchidan, nizom RF adliya vazirligi tomonidan saylovlar e'lon qilingan kundan olti oy oldin ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim.

Saylov bloki ikki va undan ortiq saylov uyushmalaridan tashkil topadi va Markaziy saylov komissiyasi tomonidan qayd etiladi, biroq saylov uyushmasidan farqli o'laroq, yuridik shaxs maqomiga ega emas. Saylov blokiga kirgan saylov uyushmasi mustaqil tarzda ushbu saylov chog'ida o'zga bloklar tarkibiga kirishi va mustaqil ravishda nomzodlar ro'yxatini ilgari surishi mumkin emas. Mazkur talab saylov ishtirokchilari huquqining tengligini ta'minlashga qaratilgan. Bu bilan saylov blokining ikkilamchi xususiyati namoyon bo'ladi.

Birmandatlik okruglarga nomzodlarni ko'rsatish muddati mazkur okruglarning tuzilishi muddati bilan bog'liq. Saylov uyushmalarining tengliga saylov uyushmalari, saylov bloklari faqat bir nomzodni ilgari surishlari orqali ta'minlanadi. Nomzodlar saylov uyushmalari a'zolari sonini oshirish va jalb etish maqsadida s'ezdlar, konferensiyalarda, ya'ni mazkur tashkilotlar forumlarida ilgari surilishlari shart. Nomzodlarni ilgari surish yashirin ovoz berish yo'li orqali amalga oshiriladi. Natijada nomzodlar ro'yxati yuzaga keladi va uni nomzodlarning federal ro'yxatidan farqlash lozim. Ro'yxat federal darajada emas, chunki unda qayd etilgan nomzodlar mustaqil ravishda, alohida, muayyan saylov okruglarida o'z nomzodlarini ilgari suradilar. Saylov belgilangan kundan boshlab federal ro'yxat ilgari suriladi, chunki ro'yxat Rossiya Federatsiyasining barcha hududlari uchun yagonadir. Saylov uyushmalari saylovchilar ovozlari nisbatan mutanosib tarzda mandatlar oladilar.

Ro'yxat nafaqat tartibi, balki unda nomzodlarning joylashishi bilan ham ahamiyatlidir. Ular ro'yxatda qaysi tartibda kelgan bo'lsalar, deputatlik mandatlarini olishda ham xuddi shu tartibda oladilar. Odatda, ro'yxat boshida obro'li va mashhur shaxslar keladi. Birmandatlik saylov okruglaridan Davlat Dumasiga saylangan nomzodlar federal ro'yxatiga kiritilmaydilar.

Har bir ro'yxatga 270 dan ortiq nomzodni kiritish mumkin emas (amalda ularning soni nisbatan kam bo'ladi). SHu bilan birgalikda 1995 yilda saylov uyushmasi yoki bloki tomonidan tuzilgan yagona ro'yxat ichida nomzodlarning markaziy ro'yxati (ya'ni hech bir mintaqaga bog'lanmagan) — 12 dan ortiq kishi bo'lmagan ro'yxatni tuzish, qolgan nomzodlarni esa mintaqaviy yagona ro'yxatga kiritish talabi qo'yiladi. Mintaqaviy ro'yxatni joriy etishda umumfederal okruglar orqali saylanuvchilarni muayyan mintaqqa aholisi bilan yaqinlashtirish nazarda tutilgan. «Davlat Dumasiga saylovlar to'g'risida» Federal qonunining 62-moddasiga

muvofig, agar saylov uyushmasi yoki bloki nomzodlari ro'yxati mintaqaviy guruxlarga bo'lingan bo'lsalar, olingan nomzodlik mandatlarini hech bir mintaqaviy guruhlarga kiritilmagan nomzodlarga o'tishi belgilangan. Qolgan nomzodlik mandatlarini mintaqaviy guruhlarga a'zo nomzodlarga o'tishi, va shu bilan birgalikda qolgan deputatlik mandatlarini har bir guruh saylovchi ovozlari proporsional ravishda oladilar.

Federal ro'yxatga, shuningdek, o'sha saylov uyushmasi yoki bloki tomonidan bir mandatlik saylov okruglarida ilgari surilgan nomzodlar ham kirishi mumkin. Buning natijasida o'z kadrlarini manipulyatsiya kdlash imkoniyatini beruvchi «qo'shaloq ovoz berish» hosil bo'ladi. Qonunning mazkur bandi Davlat Dumasi va Federatsiya Kengashi majlislarida bahslarga olib keldi. Zero, u birmandatlik saylov okruglaridagi mustaqil nomzodlar oldida saylov uyushmalari tomonidan ilgari surilgan nomzodlarga imkoniyat yaratib beradi. Biroq, partiyalar hali to'liq shakllanmagan va ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tish davrida mazkur qoidaning bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Majoritar tizimning nisbatan ko'plik holati bo'yicha bir mandatlik saylov okruglarida nomzodlar 225 mandat oladilar. Bunday okrugda aholi soni 478 — 480 ming saylovchini tashkil etishi kerak bo'ladi. Rossiyaning uzoq va borish qiyin bo'lgan mintaqalar uchun saylov okruglarini joriy etishda saylovchilar soni belgilangan raqamdan chetga chiqishi mumkin, biroq mazkur og'ish 15%dan oshmasligi lozim. Bunday mintaqalardagi nomzodlar saylov uyushmalari, saylovchilar guruhlari (shu jumladan, yashash va ishlash joylaridan ham), yoki o'z nomzodini ilgari surish orqali berilishi mumkin. Saylov okruglari bo'yicha ilgari surilgan nomzodlar mazkur hududda istiqomat etuvchi saylovchilarning 1% imzolarini to'plashlari shart. Umumfederal saylov okruglari tomonidan saylovlarga ilgari surilgan nomzodlar imzo to'plashdan ozod etiladilar. Birmandatlik saylov okruglarida ikki va undan ortiq nomzodlar ishtirok etsalargina, saylovlar o'tkaziladi. Saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega va ro'yxatdan o'tgan saylovchilarning kamida 25% ishtirok etgan hoddagina saylovlar bo'lib o'tgan hisoblanadi. Birmandatlik saylov okruglarda ovoz berganlar ichidan ko'p ovoz olgan nomzodgina saylangan hisoblanadi.

2.Rossiya Federatsiyasi Federal Kengash palatasi

Yangi Rossiya Konstitutsiyasida Federal Kengash palatalari ko'rib chiquvchi savollar nisbatan cheklangan. Parlament faoliyati doirasidan boshqaruv va nazorat funksiyalari olib tashlangan. Parlament nazorati nisbatan cheklangan. Yuqorida aytib o'tilganidek, parlament palatalarining federal byudjetni nazorat etishi, Davlat Dumasi ortidan esa Rossiya Federatsiyasi hukumatiga nisbatan ishonch masalasini hal etish vakolati huquqlari qoldirilgan.

Federatsiya Kengashi palatalarining konstitutsiyaviy vakolati Konstitutsiya tomonidan belgilab berilgan. Federatsiya Kengashining Konstitutsiya tomonidan belgilab berilgan uch guruh muhim vakolatlari mavjud: birinchidan, palata faoliyatiga daxddor masalalar; ikkinchidan, palata faoliyatining tashkiliy masalalari bilan bog'liq; uchinchidan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining yuqori organlari tuzilishi va amaliyot yuritishlaridagi holatning yuridik tizimini aks ettiruvchi federal qonunlarni qabul qilish masalalari. Mazkur masalalar borasida yakuniy qarorni tegishli palata qabul qiladi, degan ma'noni anglatadi. SHunga qaramay, mazkur masalalarni hal etishda davlat hokimiyati o'zga organlarining konstitutsiyaviy vakolatlari bilan kelinadi, ularning pozitsiyalari e'tiborga olinadi, ayrim masalalar yechimi esa yangi qonuniy holatlarga olib kelishi mumkin (masalan, Davlat Dumasining hukumatga nisbatan ishonch masalasi hukumatning emas, balki Davlat Dumasining o'z taqsiriga borib taqaladi). Mazkur masalalarning deyarli barchasi, shu jumladan palata vakolatlari konstitutsiyaning boshqa bandlarida ham qayd etiladi. Federal Kengashning vakolatiga kiruvchi savollar ro'yxati muhim masaladir. Zero, unda palatalarning umummajburiy qonunlari — qaror tomonidan belgilab berilgan savollar doirasi belgilab berilgan.

Federatsiya Kengashi Federatsiya sub'ektlari o'rtalaridagi chegaralarning o'zgarishini tasdiqlaydi. Federatsiya Kengashi, birinchidan, ikki tomonning o'zaro rozi ekanligani anikdash, ikkinchidan, Rossiya Federatsiyasining boshqa sub'ektlari manfaatlari buzilmagan taqdirda, Federatsiyaning boshqa sub'ektlari shartnomalarini tasdikdaydi. Agar Federatsiya Kengashi Federatsiya sub'ektlarining chegaralarni o'zgartirish haqidagi qarorlarini tasdiqlamasa, u holda vakolat borasida bahs yuzaga kelib, mazkur masala RF Konstitutsiyaviy Sudida ko'rilishi mumkin.

Konstitutsiyada faqat ikki holdagina Rossiya Prezidenti qarorlari Federatsiya Kengashi tomonidan tasdiklanishi nazarda tutilgan. Konstitutsiyaning 88bandiga muvofiq Rossiya Prezidenti federal konstitutsiyaviy qonunda belgilangan tartibda, ma'lum vaqt va holatdagina Rossiyaning hududlarida yoki uning ayrim o'lkalarida favqulodda holat, mamlakatga tajovuz paytida yoki bevosita xavf tug'ilgan holda esa harbiy holat e'lon qilishi nazarda tutilgan. Har ikkala holda ham Prezident darhol Federatsiya Kengashi va Davlat Dumasiga xabar berishi shart. Undan so'ng Federatsiya Kengashi Prezidentning harbiy yoki favqulodda holat e'lon qilishini tasdiqlash masalasini ko'rib chiqadi. Biroq, Federatsiya Kengashi Prezidentning harbiy holat e'lon qilishini rad etsa, bu avtomatik holda ijro etilishi konstitutsiyada belgilanmagan. Harbiy holatni faqat Rossiya Federatsiyasi Qurolli kuchlar oliy bosh qo'mondoni bo'lmish Prezidentgina joriy etishi yoki bekor etishi mumkin. SHu bilan birga, Federatsiya Kengashi Prezidentning harbiy holat e'lon qilishini rad etishi konstitutsiyaga zid hisoblanib, Prezident uni bekor etish huquqiga ega.

Rossiya Federatsiyasi Qurolli kuchlarini mamlakat hududidan tashqarida qo'llash masalasi nafaqat Rossiya xalqlarining umumiy manfaatlari, balki Federatsiya sub'ektlari xalklari manfaatlariga taalluqli bo'lganligi sababli (ularning bu masala borasida turli yondoshuvlarini e'tiborga olish kerak) Federatsiya Kengashida har safar muhokama etiladi. Va shunga mos ravishda Qurolli kuchlarni Rossiyadan tashqarida qo'llash masalasini yechish ham Oliy qo'mondon vakolati doirasida yotadi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti saylovlarini tayinlash va uning iste'foga chiqish masalalari ham Federatsiya Kengashi doirasiga kiradi. Federatsiya Kengashi tomonidan kadrlarni tayinlash — Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy Sudi, Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi va Rossiya Federatsiyasi Oliy Arbitraj Sudi sudyalarni tayinlash, Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurorini tayinlash va vazifasidan ozod etish — hokimiyatlararo va federativ munosabatlarni o'zaro mutanosib ravishda ushlab turish mexanizmi sirasiga kiradi. Biroq, Prezident tomonidan nomzodlarni tavsiya etish muddatlari, rad etilgan nomzodning qayta, ikkinchi marotaba ilgari surish imkoniyatlari kabi masalalar ayrim davlat organlarining yoki ayrim mansabdor shaxslarning o'z vakolatlari doirasida unumli faoliyat yuritishlarida sezilarli muammolarni yuzaga keltiradi.

Konstitutsiyaning 103 moddasi, 1 qismining «a» va «b» bandlarida hukumatning parlament quyi palatasi oldidagi javobgarligi tamoyillari ochib berilgan. 102moddasi 1qismining «i» va 103moddasi, 1qismining «g» bandlari Federatsiya Kengashi va Davlat Dumasiga o'zaro tenglik asosida Hisob palatasini tuzish vakolatlarini beradi. 103band, 1qismining «j» bandi Davlat Dumasiga Rossiya Federatsiyasi Prezidentiga qarshi aybnomalarni ilgari surishga imkoniyat beradi.

Rossiya, Markaziy banki raisini tayinlash va vazifasidan ozod etish ham Davlat Dumasi zimmasiga yuklatilgan. CHunki, mazkur mas'ul shaxs pulmoliya siyosatini yuritishda umumfederal manfaatlaridan kelib chiqishi va shu bilan birgalikda Rossiya sub'ektlaridan mustaqil bo'lishi nazarda tutiladi. Konstitutsiya, Federatsiya kengashi Rossiya Bosh prokurorini vazifasidan ozod etishiga nisbatan, Davlat Dumasiga Rossiya Markaziy banki raisini vazifasidan ozod etish uchun nisbatan katta mustaqillik beradi. Birinchi hodda RF Prezidenti vazifadan ozod etish haqida «Federatsiya kengashiga taklif kiritisa», keyingi holda Markaziy bank raisini vazifasidan ozod etish haqida «masalani qo'yadi». Boz ustiga RF Prezidenti tavsiyasiga binoan Bosh prokuror Federatsiya Kengashi tomonidan ozod etilish Konstitutsiyada ta'kidlanadi. Markaziy bank raisi haqidagi aynan shunday holat konstitutsiyada mavjud emas. SHunday qilib, konstitutsiya holatiga binoan Markaziy bank raisi Davlat Dumasida nafaqat Prezident tashabbusi bilan ozod etilishi mumkinligi xulosasiga kelish mumkin. Amnistiya e'lon qilish, Inson huquqlari bo'yicha vakilni tayinlash va vazifasidan ozod etishda o'zga davlat organlari tashabbusi aks etmaydigan, Federal kengash (birinchi navbatda Davlat Dumasi) vakolati doirasida yotuvchi yagona masalalardir.

Davlat Dumasining amnistiya e'lon qilishida boshqa birorbir kimsaning qo'shimcha tasdig'ini talab etmaydi.

Federal kengashning boshqa guruh vakolatlari palatalar faoliyatining tashkiliy masalalariga bag'ishlangan. RF Konstitutsiyasining 101bandiga binoan Davlat Dumasi va Federal kengash o'z tarkiblaridan Rais va uning muovinlarini saylaydilar.

Davlat Dumasi va Federal kengash qo‘mita va komissiyalar tuzadilar, o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar yuzasidan parlament surishtiruvlari o‘tkazadilar.

Parlamentlar ko‘rib chiqadigan deyarli barcha muhim masalalar o‘zlarining qo‘mita va komissiyalarida ko‘rib chiqiladi. Qo‘mita va komissiyalar faoliyati palata reglamentlari va boshqa ichki hujjatlar orqali boshqariladi. Bugungi kunda Federal kengash tarkibida 3 doimiy komissiya tuzilgan — Reglament va parlament jarayonlari; Mandat va Hisobot, shuningdek, 11 qo‘mita — Federatsiya, Federativ shartnomalar va mintaqaviy siyosat; konstitutsiyaviy qonunchilik va sudhuquq masalalari bo‘yicha; byudjet, moliya, valyuta va kreditni boshqarish, pul emissiyasi, soliq siyosati va bojxona masalalari bo‘yicha; iqtisodiy siyosat bo‘yicha; Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi ishlari bo‘yicha; xalqaro ishlar bo‘yicha; xavfsizlik va mudofaa masalalari bo‘yicha; ijtimoiy siyosat bo‘yicha; agrar siyosati bo‘yicha; fan, madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni sakdash va ekologiya, SHimol va kam sonlik xalqlar ishlari bo‘yicha.

Davlat Dumasining ikkinchi chaqirig‘ida Mandat komissiyasigina qoladi va 28 qo‘mita shakllanadi. Birinchi chaqiriqqa nisbatan yangi qo‘mitalar tuzildi — veteranlar ishlari bo‘yicha; konversiya va fantalab texnologiyalar bo‘yicha; turizm va sport bo‘yicha; SHimol muammolari bo‘yicha. Bir qo‘mita (fan, madaniyat va ta‘lim) ikkiga ajratildi (ta‘lim va ilmfan bo‘yicha va madaniyat bo‘yicha). Davlat Dumasining ikki qo‘mitasi ikkinchi chaqiriqda o‘z nomlarini o‘zgartirdilar: mehnat va ijtimoiy qo‘llabquvvatlash siyosati bo‘yicha qo‘mita mehnat va ijtimoiy siyosat bo‘yicha qo‘mita, Davlat Dumasi faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha qo‘mita Reglament va Davlat Dumasi faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha qo‘mita deb nomlandi. Bundan tashqari, birorbir masalani o‘rganish va birorbir masalani ko‘rib chiqish uchun palatalarda komissiyalar tuzildi. Masalan, Federatsiya Kengashida Reglament bo‘yicha vaqtinchalik komissiya, Doimiy nazorat komissiyasi va boshqalar. Davlat Dumasida esa quyidagilar tuzildi: 1992—1996 yillardagi xususiyashtirish yaqunlarini tahlil etish va salbiy natijalar uchun mas‘ul shaxslarni javobgarlikka tortish, Qochokdar va majburiy ko‘chkindilar ishlari bo‘yicha va boshqalar. Har bir palata o‘z reglamentini qabul qiladi va o‘z faoliyatining ichki tartibi masalalarini o‘zi hal etadi (101modda, 4band).

Konstitutsiyaning 101modda, 4bandida nazorat organ — Hisob palatasi me‘yorlari yoritib o‘tilgan. 1995 yil fevralida uning faoliyati to‘la aks etgan «Rossiya Federatsiyasining Hisob palatasi haqida» federal qonuni kuchga kirdi. «Rossiya Federatsiyasining Hisob palatasi haqida» federal qonunning 1moddasiga binoan Hisob palatasi Federal Kengash tomonidan tuziluvchi va faqat unga bo‘ysinuvchi davlat moliya nazoratining doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi organi hisoblanadi. Hisob palatasi federal byudjetning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatadi va shu bois federal byudjet tomonidan ta‘minlanadigan har bir davlat organi ustidan tekshirish olib borish huquqiga ega. Hisob palatasi federal byudjetning bajarilishi borasida umumiy hisobot beradi. Mazkur federal qonunning 2moddasiga binoan Hisob palatasi quyidagi masalalarni hal etadi:

a) federal byudjetning kirim va chiqim bandlarining o‘z vaqtida bajarilishini, shuningdek, byudjetdan tashqari bo‘lgan federal fondlarning hajmi, tizimi va maqsadli sarflanishini kuzatishni tashkil etish va amalga oshirish;

b) davlat mablag‘i va federal mulkdan foydalanishda unumlilik va maqsadga muvofiqlikni aniqlash;

v) federal byudjet va federal fondlar byudjetlarining kirim va chiqim bandlari asosli ekaniga baho berish;

g) federal byudjet, federal nobyudjet fondlari, yoki federal byudjetning shakllanishi va bajarilishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi federal qonunlar loyihalarini, shuningdek, davlat hokimiyati federal organlarining huquqiy aktlarini moliyaviy ekspertizadan o‘tkazish;

d) federal byudjet, federal nobyudjet fondlari ko‘rsatkichlaridan og‘ish holatlarini tahlil etish va ularni bartaraf etishga, shuningdek, byudjet jarayonini umuman takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash;

ye) federal byudjet, federal nobyudjet fondlari sarmoyalarining RF Markaziy bankida, vakolatlangan banklar va Rossiya Federatsiyasining boshqa moliyakredit tashkilotlarida o‘z vaqgida harakat etishi va qonuniyligini nazorat etish;

j) muntazam ravishda Federatsiya Kengashi va Davlat Dumasiga federal byudjetning bajarilishi va o'tkazilgan nazorat tadbir natijalarini muntazam tarzda taqsim etish.

Masalalar bo'yicha palata qo'mitalari o'z vakolatlari doirasida qonun loyihalarini tayyorlab, dastlabki muhokamalarni uyushtiradilar, palatalar tomonidan o'tkaziladigan parlament muhokamalarini tashkillashtiradilar, o'z faoliyatlariga doir masalalarni hal etadilar. Komissiya faoliyatlari belgilangan muddat yoki aniq, belgilangan vazifalar bilan cheklanadi. RF Federal kengashining uchinchi guruh vakolatlari qonun qabul qilish masalalari bilan bog'liq. Konstitutsiyada qonun yaratish tashabbusi (104band) RF Prezidenti, Federatsiya kengashi, Davlat Dumasi deputatlariga, RF hukumatiga, RF sub'ektlarining qonun chiqaruvchi (vakolatli) organlariga, shuningdek, RF Konstitutsiyaviy Sudi, Oliy sud va Oliy Arbitraj sudiga o'z vakolatlari doirasida berilgan. Rossiya Federatsiyasida qonun yaratish tashabbusi bilan chiquvchi sub'ektlarning doirasi katta. Rossiya Konstitutsiyasining o'zga davlat Konstitutsiyalaridan farqi ham ana shunda. 1978 yil Konstitutsiyasiga nisbatan qonun yaratish tashabbusi bilan chiquvchi sub'ektlarning soni kamaytirilgan. Masalan, bundan barcha Rossiya ijtimoiy tashkilotlar, Bosh prokuror va boshqalar mahrum bo'ldilar. Bu holda qonun yaratish tashabbusi huquqiga ega shaxslar va davlat organlari faoliyatlarini muvofiqlashtirishga zarurat seziladi. Hatto Davlat Dumasi deputatlari ayrim hollarda muayyan masalalarni belgilab beruvchi qonun loyihalarini ko'tarib chiqadilar. Aynan shu qonun loyihalarini Davlat Dumasidan tashqaridagi qonun yaratish tashabbusi huquqiga ega bo'lgan boshqa sub'ektlar ham olib chiqishlari mumkin.

Davlat Dumasi deputatlari quyidagi qonun loyihalarini ko'tarib chiqishlari mumkin: qonun loyihalari va ularga o'zgarishlar; yangi federal konstitutsiyaviy va federal qonunlarni ishlab chiqish va ularni qabul qilish taklifi bilan chiqish; Rossiya Federatsiyasi va RSFSRning amaldagi qonunlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ularning ayrimlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash. Qonun loyihalarini qonun chiqaruvchi organga taqdim etishdan avval uni tayyorlash jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun loyihalarini tayyorlashda, odatda, turli mutaxassislar va tegishli tashkilotlar qonun chiqaruvchi organ tomonidan jalb etiladi. Barcha qonun loyihalari Davlat Dumasiga qo'rib chiqish uchun taqsim etiladi (2-qism, 104-moddasi).

Konstitutsiyaning 3qism, 104motsasi Rossiya Federatsiyasi hukumatiga qonun chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi sezilarli vakolat berish bilan birga, faqat soliqlarni tayinlash yoki bekor qilish, ularni to'lashdan ozod etish, davlat zaymlarini chiqarish, davlatning moliyaviy majburiyatlarini o'zgartirish, federal byudjet tomonidan qoplanadigan boshqa sarfxarajatlar haqidagi qonun loyihalari Davlat Dumasiga faqat Rossiya Federatsiyasi hukumatining xulosasi bo'lgan taqsirdagina qo'rib chiqishi mumkin. Mazkur holat Konstitutsiya tomonidan belgilangan ijroiya va qonun chiqaruvchi federal organlar o'zaro munosabatlarining tarkibiy elementi hisoblanadi. Konstitutsiyada faqat ikki hodda federal darajada qonun qabul qilishi mumkinligi aytib o'tiladi — federal konstitutsiyaviy qonunlar va federal qonunlar. Biroq Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy Sudi bu darajadagi yana bir holatni — Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish haqidagi qonunlarni belgilab berdi. Normativhuquqiy aktlar borasida oliy huquqiy kuch — Konstitutsiyadan keyin federal konstitutsiyaviy qonunlar turadi. Davlat huquqiy rivojlanish tarixida «federal konstitutsiyaviy qonun» tushunchasi Rossiya Federatsiyasining 1993 yildagi konstitutsiyada birinchi marotaba birkiritib qo'yilgan. Federal konstitutsiyaviy qonunlarning o'ziga xos huquqiy kuchining asosiy mohiyati — o'zga oddiy federal qonunlar unga qarshi bo'lmasligi kerak. Federal konstitutsiyaviy qonunlarning yuqorilik tamoyili, shuningdek, konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish borasida Federal Kengash palatalari tomonidan qabul qilinadigan qonunlar va konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgartirishlar Federal qonunlardan farqli o'laroq, Prezident tomonidan rad etilishi va parlamentga qayta qo'rib chiqish uchun qaytarilishi mumkin emas. Konstitutsiyada Rossiya Prezidentining konstitutsiyaviy qonunga e'tirozi mavjud yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar, Federal Kengash tomonidan qay tartibda qabul qilingan bo'lsa, xuddi shu holda imzo chekishi va xalq ommasiga taqdim etishi lozimligi belgilab berilgan (Konstitutsiyaning 2qism, 108moddasi).

Rossiya Konstitutsiyasi Federal konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilish huquqini beradigan turkum masalalar ro'yxatini beradi. Bu qonunlar quyidagilardir: Rossiya hududida yoki uning ayrim

mintaqalarida favqulodda holatni joriy etish tartibi va shartlari to'g'risida (56 va 88moddalar); Rossiya Federatsiyasi tarkibiga yangi sub'ektni qabul qilish va tuzish, shuningdek, Federatsiyaning konstitutsiyaviy huquqiy maqomini o'zgartirish haqida (65, 66 va 137moddalar); davlat bayrog'i, gerbi va gimni, ularning tuzilishi va rasmiy foydalanish holatlari haqida (7modda); referendum haqida (84modda); harbiy holat rejimi to'g'risida (87modda); inson huquqlari vakili haqida (103modda); Rossiya Federatsiyasi hukumati faoliyatini tartibga solish to'g'risida (114modda); Rossiya Federatsiyasi sud tizimi to'g'risida (118modda); Konstitutsiyaviy Sud, Oliy sud, Oliy Arbitraj Sudi va boshqa federal sudlarning tashkil topishi va faoliyati, shuningdek, ularning vakolatlari to'g'risida (128modda); Konstitutsiyaviy Majlis haqida (135modda). Federal konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish mazkur 14 masala doirasidan chiqmasligi kerak.

Rossiya Federatsiyasining amaddagi Konstitutsiyasi avvalgi konstitutsiyaviy qonun loyihalaridan tubdan farq qiladi. U o'zida yangi qadriyatlar va yo'nalishlarni aks ettiradi, jumladan, bular — ikki tizimli Rossiya Federatsiyasi vakillik hokimiyati organi — RF xalq deputatlari S'ezdi va u tomonidan shakllantiriladigan Oliy Kengash o'rniga Rossiya parlamenti Federal kengashining yuzaga kelishi masalalariga taalluqli. Demak, Federal kengash Davlat Dumasini va Federatsiya Kengashidan tashkil topib, Rossiya Federatsiyasining vakillik va qonun yaratuvchi organi hisoblanadi. Davlat organining vakillik xususiyati Konstitutsiyada va boshqa qonun aktlarida ochib berilmaydi, «qonun chiqaruvchi organ» tushunchasi esa Konstitutsiyada aniq ko'rsatib berilgan. Davlat Dumasining shakllanish tartibi haqida gapiradigan bo'lsak, ta'kidlash joizki, rossiyalik qonunshunoslar proporsional va majoritar tizimlarni o'zida aks ettirgan saylovlarning optimal modelini yaratganlar. Partiya ro'yxatlari bo'yicha ovoz berish ham Rossiya Konstitutsiyasiga to'la mos keladi. Unda Rossiya Federatsiyasida siyosiy ko'pxillik, ko'ppartiyaviylik tan olinadi, deb qayd etilgan. Saylovlarning mavjud tizimi, fikrimizcha, Rossiyada ko'ppartiyaviylikning shakllanishiga qo'l keladi. Saylovchiga, partiyalarga mo'ljal olish, birmandatlik okruglardagi ro'yxatga kiritilgan qator familiyalarga qaraganda osonroq kechadi.

RF sub'ektlarining ijroiya va qonun yaratuvchi organlari rahbarlari Federatsiya Kengashi a'zolari o'rinlarini egallash vositalari amadda mavjud.

Federal Kengash palatalarining konstitutsiyaviy vakolatlarini quyidagicha tizimlarga ajratish mumkin: birinchidan, faqat palata faoliyatiga daxldor vakolatlar; ikkinchidan, palata faoliyatini shakllantirish bilan bog'liq masalalar; uchinchidan, federal qonunlarni qabul qilish vakolatlari. Har qaysi palata uchun Konstitutsiyada belgilab berilgan turli xildagi vakolat Federal kengash faoliyatida «sarflilik va qaramaqarshilik tizimi»ni ta'minlab beradi, ya'ni Federatsiya Kengashi Davlat Dumasiga nisbatan o'ziga xos tormoz hisoblanadi.

Qonun yaratuvchilik faoliyati asosan Davlat Dumasini faoliyatida mujassam: qonun loyihalari Davlat Dumasiga kiritiladi; Duma tomonidan qabul qilingan qonun bilan Federatsiya kengashining qo'shilmasligini yengib o'tish imkoniyatlari mavjudligi; Federatsiya kengashining Davlat Dumasini tarafidan berilgan qonunlarni ko'rib chiqishda vaqtning belgilab berilganligi. Federatsiya Kengashi Davlat Dumasini tomonidan qabul qilingan qonunlarni ko'rib chiqadi va ularni yo ma'qullaydi yoki ma'qullamaydi. Umuman olganda Federal kengashdagi qonun yaratuvchilik jarayonini unumli deb atasa xato qilinmagan bo'ladi. 1994 yil boshidan 5 federal konstitutsiyaviy va 600 dan ortiq federal qonunlar qabul qilindi, Prezident tarafidan imzolandi va amalga joriy etildi.

3. Rossiya siyosiy partiyalarining Davlat Dumasini shakllantirishdagi roli

Davlat Dumasida deputat uyushmalari — fraksiyalar va guruhlar tuziladi. Deputat fraksiyalari deganda federal saylov okruglaridan Davlat Dumasiga saylov uyushmalari tomonidan saylanganlik, shuningdek, birmandatlik saylov uchastkalaridan saylangan muayyan deputat fraksiyalar faoliyatida ishtirok etish istagini bildirganlik asosida uyushgan guruh nazarda tutiladi. Deputat fraksiyalari ro'yxatdan o'tadilar.

Fraksiyalarga kirmagan deputatlar o'zlarining deputatlik guruhlarini tuzish huquqiga egalilar. Davlat Dumasini deputatlarining 35 dan kam bo'lmagan deputatlik guruhlari ro'yxatdan o'tishlari shart. Davlat Dumasini deputati faqat bir deputat guruhlarida bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasida ko'ppartiyaviylik tizimi 90yillarning boshlaridan mavjud. Biroq, partiyaviylik tizimi hanuzgacha shakllanish bosqichida turibdi. Yetakchi partiyaning mavjud

emasligi natijasida uning o'rnini «hukumat partiyasi» — tabaqalanish tizimidan va hokimiyat vertikalida har bir shaxsning egallab turgan mavqeidan kelib chiquvchi mansabdorlar uyushmasi egallab turibdi.

«Hukumat partiyasi» tashkil topgan paytidan boshlab (90yillarning birinchi yarmi) parlamentda hech qanday kuchga ega bo'lmagan holda ham mamlakatni boshqarib turdi. Ular tomonidan nazorat etib turilgan deputat uyushmalari hatto chorak mandatlarga emas edi. Bunday mandatlar asosan o'zini oppozitsiyada hisoblagan fraksiya va guruhlar bo'lib, ular 1993 yil Konstitutsiyasi parlamentni ijroiya hokimiyat, shu jumladan, hukumatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlaridan mahrum qildi, deb hisoblashar edi.

Deputatlarning aksariyat qismini tashkil etuvchi byurokatiyaning u yoki bu vakillariga taalluqli shaxslar ijroiya hokimiyatga nisbatan o'zlarini xuddi quyi turuvchi vakillar sifatida tutadilar.

Davlat Dumasida ko'pchilikka ega bo'lmagan holda ijroiya hokimiyat asosiy parlament guruhlarini o'rtasida manevr qilish taktikasini ishlab chiqadi. Rossiya tarixida birinchi marotaba ijroiya hokimiyat o'z siyosatini parlament ustidan emas, balki uning ko'magi yordamida o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. Parlament va ijroiya hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati o'zgarishini aksariyat deputat korpusining ijtimoiy tabiati o'zgartirishga qadar o'zgarishi haqiqatdan yiroqdir.

Sentrist kuchlarning Muvofikdashtiruvchi kengashi nazdidagi yangi parlament ko'pchilikning yuzaga kelishi ham ijroiya hokimiyatining o'ziga kerakli qarorlarni qabul qilish vositalariga aytarliq yangilik kiritgani yo'q. Avvalgi Davlat Dumalari kabi ijroiya hokimiyat parlament o'ynining har qaysisiga xos «individual yondoshuv» qo'llab turishiga zarurat sezadi. SHunday bo'lsa ham, 2000 yilda Kreml parlamentning asosiy kuchlari orasida yengil «chapga» og'ish qilgan bo'lsa, 2001 yilda Dumadagi liberallar bilan asosan to'sish taktikasiga (birinchi va ikkinchi o'qishda Yer kodeksining qabul qilinishi, birinchi o'qishda Mehnat haqidagi kodeks, sud islohotlarining boshlanishi, foydaga solinadigan soliqni kamaytirish, iqqisodiyotni byurokatiyadan chiqarishga qaratilgan qonun loyihalarining qabul qilinishi va boshqalar) o'tildi.

Palatalarning tashkiliy tizimi

Federal Majlis faoliyatini tashkil etuvchi huquqiy bazani mamlakat Konstitutsiyasi va Federal Majlis palatalarining reglamenti tashkil etadi.

Davlat Dumasini deputatlar orasidan yashirin ovoz berish orqali saylanadigan Rais (Spiker) boshqaradi. Deputatlar umumiy soni yarmisidan ko'pining ovozini olgan shaxs Davlat Dumasi Raisi etib saylanadi. Rais bilan bir vaqtda uning birinchi muovini va boshqa bir necha muovinlari saylanadi. Ularning saylanish tartibi Davlat Dumasi Reglamenti bilan belgilab qo'yilgan.

Davlat Dumasi Reglamenti bo'yicha Rais, uning birinchi muovini va boshqa muovinlari yagona fraksiya, bir deputat guruhi vakillari bo'lmashliklari shart.

Davlat Dumasi Kengashi — kollegial, palataning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organi bo'lib, palata faoliyatining tashkiliy masalalarini dastlabki tayyorlab va ko'rib chiqish maqsadida tuzilgan. Davlat Dumasi Kengashi tarkibiga Davlat Dumasi Raisi, hal qiluvchi ovozga ega deputat uyushmalari rahbarlari kiradi. Davlat Dumasi Raisi muovinlari, shuningdek, qo'mita raislari Davlat Dumasi Kengashi faoliyatida maslahat ovoziga ega hodda ishtirok etadilar. Davlat Dumasi Kengashi vakolatlariga quyidagilar kiradi: joriy sessiya davomida Davlat Dumasining qonun yaratuvchilik faoliyati dasturining taxminiy loyihasini ishlab chiqish; navbatdagi oyda Davlat Dumasi ko'rib chiquvchi savollarning kalendar loyihasini shakllantirish; Davlat Dumasining navbatdagi majlis faoliyati loyihasini shakllantirish. Bir qator Davlat Dumasi Kengashi vakolatlari qonun yaratuvchilik faoliyatini texnik jihatdan ta'minlash bilan bog'liq.

Davlat Dumasining asosiy tizimiy bo'limlari komitetlardir. Davlat Dumasi komitetlari ko'rib chiquvchi savollar quyidagilardan iborat: qonun loyihalarini dastlabki ko'rib chiqishni amalga oshirish va ularni Davlat Dumasida ko'rib chiqishga tayyorlash; Davlat Dumasiga ko'rib chiqish uchun tushgan qonun loyihalari va qonun qarorlari bo'yicha xulosalar tayyorlash; palatalar qarori bilan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudiga so'rovnomalar tayyorlash; Davlat Dumasi tomonidan o'gkaziladigan parlament eshitishlarni tashkillashtirish; federal byudjet

loyihalarining bandlari bo'yicha taklif va xulosalar berish; o'z faoliyatlariga doir savollarni hal qilish.

Davlat Dumasi quyidagi qo'mitalarni tashkil etadi: qonun yaratuvchilik va sudhuquq islohotlari; mehnat va ijtimoiy siyosat bo'yicha; faxriylar ishlari bo'yicha; turizm va sport bo'yicha va boshqalar. Davlat Dumasi Komitetlari mazkur chaqiriq vakolatlari muddatidagina tuziladi.

Davlat Dumasi ishchi organlariga, shuningdek, komissiyalar ham kiradi. Palatalarning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi qo'mitalardan farqi, komissiya faoliyatlari muayyan masala yoki belgilangan vaqg bilan cheklangan va masala hal etib bo'linganidan so'ng ular o'z faoliyatlarini tugatadilar. Davlat Dumasi quyidagi komissiyalarni tashkil etadi: mandat, etika bo'yicha, RF konstitutsiyasida nazarda tutilgan xulosalar berish uchun va boshqalar. Davlat Dumasining mandat komissiyasi har bir chaqiriq muddatiga tashkil etilib, qo'mita maqomiga ega.

Federatsiya Kengashini Federatsiya Kengashi Raisi boshqaradi. U Federatsiya Kengashi umumiy a'zolari ichidan yashirin ovoz berish orqali saylanadi.

Rais bilan birgalikda Federatsiya Kengashi uning muovinlarini ham saylaydi. Muovinlarni saylash jarayoni Federatsiya Kengashi reglamentida belgilab qo'yilgan. Federatsiya Kengashi reglamentida Rais va uning muovinlari Rossiya Federatsiyasining bir sub'ektidan bo'lmasligi lozimligiga belgalangan.

Federatsiya Kengashi Raisi qator tashkiliy va vakillik vakolatlariga ega. Federatsiya Kengashi Raisi palata majlislarini boshqaradi, palata faoliyatining ichki tartibini boshqaradi, Federatsiya Kengashi qarorlariga imzo chekadi, muovinlariga vakolatlarni taqsimlab beradi, Federatsiya Kengashi Apparati faoliyati ustidan nazorat olib boradi, Federatsiya Kengashi qo'mitalariga Davlat Dumasi tomonidan qabul qilingan federal qonunlarni ko'rib chiqish uchun yuboradi, Davlat Dumasiga yuborilishi nazarda tutilgan qonun loyihalarini qonun yaratuvchilik tashabbusi asosida ko'rib chiqadi.

Federatsiya Kengashi Raisi muovinlari Federatsiya Kengashi Raisi yo'qligida vaqtincha uning vazifasini bajaradilar, Federatsiya Kengashi Raisi topshirig'iga binoan palata qarorlarini imzolaydi, qo'mitalarning o'zaro faoliyatini ta'minlaydi, palataning ichki faoliyatiga daxddor masalalar vakolati doirasidagi ishlarni qiladi.

Federatsiya Kengashining asosiy tizimiy qismini Davlat Dumasi kabi qo'mitalar tashkil etadi. Ular Federatsiya Kengashi oddiga qo'yilgan vazifa va vakolatlarni bajarish maqsadida tashkil etiladilar.

Federatsiya Kengashi qo'mitalari o'z vakolatlari doirasida quyidagi vazifalarni bajaradilar: Davlat Dumasi tomonidan qabul qilingan va Federatsiya Kengashiga ko'rib chiqish uchun berilgan federal qonunlar bo'yicha xulosalar tayyorlaydilar; parlament eshitishlarini tashkillashtiradilar; qonun yaratuvchilik tashabbusi asosida Davlat Dumasiga taqdim etiluvchi qonun loyihalarini ishlaydilar va ko'rib chiqadilar; o'z faoliyatlarini tashkillashtirish masalalarini hal etadilar; palata vakolati doirasidagi o'zga masalalarni hal etadilar.

Federatsiya Kengashi quyidagi qo'mitalarni tuzadi: konstixutsiyaviy qonun yaratuvchilik va sudhuquq masalalari bo'yicha; xavfsizlik va mudofaa masalalari bo'yicha; byudjet, soliq siyosati, moliya, valyuta va bojxona ishlarini tartibga solish, bank faoliyati masalalari bo'yicha; ijtimoiy masalalar bo'yicha; iqtisodiy islohot, molmuluk munosabatlari masalalari bo'yicha; xalqaro masalalar bo'yicha; MDH masalalari bo'yicha; agrar siyosat bo'yicha; fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologiya masalalari bo'yicha; Federatsiya, Federativ shartnoma va mintaqaviy siyosat bo'yicha; SHimol va kam sonlik xalqlar masalalari bo'yicha.

Federatsiya Kengashining barcha a'zolari (Rais va uning muovinlari bundan istisno), qo'mitalar tarkibiga kiradilar. SHu bilan birgalikda Federatsiya Kengashi a'zosi faqat palataning bir qo'mita a'zosi bo'ladi. Har bir qo'mitaning tarkibiy soni Federatsiya Kengashi tomonidan belgilanadi, biroq qo'mita tarkibi 10 dan kam bo'lmasligi lozim. Ko'mita tarkibi Federatsiya Kengashi umumiy sonidan ko'p ovoz olish yo'li bilan tasdiqlanadi.

Federatsiya Kengashi doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzish huquqiga ega. Federatsiya Kengashida bitta doimiy komissiya — Federatsiya Kengashining reglament va parlament

jarayonlari bo'yicha komissiyasi tuzilgan. Uning asosiy vazifasiga Federatsiya Kengashi reglamentiga amal qilishni kuzatib borish kiradi.

Komissiya va qo'mitalarning asosiy ish shakllari majlislardir. Majlislar zarurat bo'lgan hollarda o'tkaziladi, biroq bir oyda bir marotabadan kam bo'lmasligi kerak.

Qo'mitalar ish shaklining boshqa ko'rinishi — parlament tinglovlari. Ular komissiya va qo'mitalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha o'tkaziladi. Parlament eshitishlariga Federatsiya Kengashi a'zolari, Davlat Dumasi deputatlari, davlat organlari, ijtimoiy uyushmalar vakillari va boshqalar taklif etiladi.

Muhokama uchun savollar

1. Rossiya Federatsiyasidagi federativ tizimni tahlil etish masalalari ?
2. Rossiya Davlat Dumasi va uning faoliyati nimalardan iborat ?
3. Rossiya Federatsiyasidagi Prezident saylovlari va konstitusion islohatlar muammosini tadqiq etish nimalardan iborat ?
4. Davlat, xukumat, siyosiy tartibot haqida nimalarni bilasiz ?
5. Qiyoslash o'lchovlari: mustaqil, oraliq va bog'langan o'zgaruvchilar tahlil etish;
6. Rozziya siyosiy tizimi va tashqi muhit bilan aloqalari ?
7. Siyosiy jarayonlar va munosabatlarga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va diniy omillar haqida tushuncha bering ?
8. Siyosiy qiyosiy tadqiqotlarning turlari. Siyosiy tizimlarning tipologiyasi (zamonaviy, an'anaviy va b.) tahlil etish;

Mustaqil ish torshiqlari:

1. Rossiya parlamentining shakllanish bosqichlarini sanab o'ting ?
2. Rossiya Federatsiyasi Federal Kengash palatasi faoliyati haqida nimalarni bilasiz ?
3. Rossiya siyosiy partiyalarining Davlat Dumasini shakllantirishdagi roli qanday ?

Mavzu - 10. O'zbekiston va MDH: siyosiy taraqqiyotning qiyosiy tahlili

Dars o'quv maqsadi:

Demokratik tranzit muammosi. Konstitutsiyaviy tuzilish. Institusional dizayn. Hokimiyatning tashkil qilinishining va faoliyat ko'rsatishi tamoyillari. Siyosatda davomiylik va o'zgarishlarni tadqiq etish.

- Talabalarni siyosiy tuzum, siyosiy rejim va uning turlari bilan tanishtirish;
- qiyosiy politologiyaning siyosiy fanlar tizimidagi o'rnini aniqlash va ko'rsatish;
- Bundan tashqari ushbu darsning maqsadi siyosiy tuzumlarning klassifikatsiyasini tahlil etish;
- mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishda ko'maklashish;
- Yoshlar o'rtasida sog'lom ma'naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: despotik rejim, mustabidlik rejimi, Tiraniya rejimi, Avtoritar siyosiy rejim, Totalitar siyosiy rejim, harbiy siyosiy rejim, Fashistik siyosiy rejim, Irqiy siyosiy rejim, Diniy siyosiy rejim

Asosiy savollar:

1. O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning parlamentni shakllantirishdagi roli
2. O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning taqsimlanishi

1. O‘zbekistondagi siyosiy partiyalarning parlamentni shakllantirishdagi roli

O‘zbekistonda siyosiy partiyalar ijtimoiy birlashma hisoblanadi. Ayni shu holat Konstitutsiyaning “Jamoat birlashmalari” deb nomlangan XII-bobida o‘z ifodasini topgan: “Siyosiy partiyalar ... jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi”.³

O‘zbekistonda siyosiy partiyalar tuzish istagi tashabbus guruhlarini tomonidan ilgari suriladi. Mazkur g‘oyani qo‘llab-quvvatlovchi mehnat jamoalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, alohida shaxslar partiya tuzishga homiylik qilishlari mumkin. Ular partiyaning ta’ sis qurultoy (konferensiyasi) ida o‘z mablag‘lari bilan ishtirok etadilar.

Partiya tuzilgach, to uning hududiy tashkilotlari tashkil etilguncha va a’zolaridan badallar to‘planib, partiyaning o‘z joriy hisob raqami ochilguncha ular shu mablag‘, ya’ni homiylik taqdim etgan mablag‘lar hisobidan faoliyat ko‘rsatadilar, keyinchalik o‘z mablag‘lari-badallar va boshqa moliyaviy tushumlar evaziga faoliyat ko‘rsatishadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 4 ta partiya mavjud, ular:

1. O‘zbekiston Xalq Demokratik partiyasi (XDP).
2. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (Adolat SDP).
3. O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP).
4. “Tadbirkorlar va ishbilarmonlar” harakati O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘z LiDeP).

Siyosiy partiyalarning jamiyat siyosiy tizimidagi o‘rni Konstitutsiyada, uning 60-moddasida quyidagicha belgilab qo‘yilgan: “Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarini moliyaviy ta’minlash manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

Konstitutsiyaning 34-moddasida partiyalar tuzish, ularga a’zo bo‘lishning mutlaqo erkinligi mustahkamlab qo‘yilgan: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ... siyosiy partiyalarga uyushish ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalar o‘z moliyaviy ta’minotining manbalari haqida Adliya organlariga oshkora yozma hisobot berib turadilar, zero ana shu organlar tomonidan ro‘yxatga olinadilar.

Mamlakatimizda siyosiy hayotni demokratlashtirish borasida konstitutsiyaviy huquqiy asoslar yaratildi. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Jamoat birlashmalari to‘g‘risida», «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida», «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida», «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi qonunlarni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, Fidokorlar milliy demokratik partiyasi hamda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati–O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyalari faoliyat yuritib kelmoqdalar. Barcha siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarini Konstitutsiya va qonunlar asosida amalga oshiradilar.

Konstitutsiyamizning 60-moddasida belgilanganidek, «Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tashkil etishda ishtirok etadilar»².

Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, «Hozirgi vaqtda biz huquqiy demokratik, bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat, hech kimnikidan kam bo‘lmagan hayot qurish uchun intilmoqdamiz. Bu hayotning siyosiy ijtimoiy asoslari bo‘lgan demokratiya tamoyillarini,

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2003, 56 - modda, bet.

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2003. 12-bet.

ko'ppartiyaviylik muhitini mustahkamlash, partiyalar faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish bugungi hayotimizning eng muhim vazifasi, ertangi taraqqiyotimizning garovi bo'lib qolmoqda»³.

1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga ko'ra, siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir¹.

Mamlakatimizda siyosiy partiyaning tuzilish uchun kamida sakkizta hududiy sub'ektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiya birlashish istagi bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroningimzosi bo'lishi talab etiladi. Siyosiy partiya tuzilish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash, a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'sis s'ezdi yoki konferensiyasini chiqarish bo'yicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim.

Tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab yetti kunlik muddatdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta'sis s'ezdi yoki konferensiyasi chiqariladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim. Tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'i bilan uch oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir. Siyosiy partiya ta'sis s'ezdida yoki konferensiyasida tuziladi. Ta'sis s'ezdi yoki konferensiyasi partiya ustavi va dasturini qabul qiladi, uning saylab qo'yiladigan organlarini tuzadi.

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Siyosiy partiyaning ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza tushgan kundan boshlab, bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqish natijalariga binoan, siyosiy partiyaning ro'yxatga olish yoki ro'yxatga olishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qaror qabul qilingach, uzog'i bilan uch kun muddat ichida u siyosiy partiya rahbar o'rniga beriladi yoki pochta orqali jo'natiladi. Siyosiy partiya ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va u o'zi faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Siyosiy partiyalar nizomlariga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar ularning nizomlarini ro'yxatga olish uchun ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarga ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Siyosiy partiya ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, agar siyosiy partiyaning nizomi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunga hamda boshqa qonun hujjatlariga zid bo'lsa, yoki oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yxatga olingan bo'lsa, bu partiya ro'yxatga olinmaydi. Siyosiy partiyaning ro'yxatga olishni rad etish ustidan O'zbekiston Respublikasiga Oliy sudiga belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunida partiyalarning tashkil topishi, faoliyatining kafolatlari, ular faoliyatini to'xtatib turish va faoliyatini tugatish bilan bog'liq qoidalar o'z aksini topgan. Mamlakatimizda siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, hoxish-irodani erkin bildirish, partiya ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini-o'zi boshqarish va oshkorlik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzilish va ularning faoliyatini ko'rsatishi taqiqlanadi:

- ✦ Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishini maqsad qilib qo'yuvchi;
- ✦ O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;
- ✦ urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi;
- ✦ xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi;
- ✦ milliy va diniy ruhidagi partiyalar.

³ I.A.Karimov. Tadbirkorlar va ishbilarmenlar ijtimoiy qatlami O'zbekiston siyosiy maydonida o'z o'rnini egallashi lozim. – T.: O'zbekiston. 2003 yil. 7-bet.

¹ O'zbekistonning yangi qonunlari. 14-son. – T.: Adolat 1997.

O‘zbekiston fuqarolari bir partiyaning o‘zida o‘zlari hojlagan faqat bitta siyosiy partiya a‘zo bo‘lishlari mumkin.

Fuqarolarning partiya mansubligiga ko‘ra, huquqlarini har qanday cheklash, huddi shuningdek, unga imtiyozlar yoki ustunliklar berish ta‘qiqlanadi.

Siyosiy partiyalarga a‘zolik yakka tartibda qayd etilib, quyidagi shaxslar siyosiy partiya a‘zo bo‘la olmaydilar: sudyalari, prokuror va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, xarbiy xizmatchilari, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

«Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasiga ko‘ra, davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, nizomda belgilangan o‘z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslarining siyosiy partiyalar ichki ishlariga aralishishlari, agar faoliyat qonunga hamda o‘z nomzodlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo‘lsa, ularning faoliyatiga u yoki bu tarzda to‘sqinlik qilishlari man etiladi.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

✦ o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni erkin tarqatish, o‘z g‘oyalari va qarorlarini targ‘ib qilish;

✦ saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

✦ qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

✦ partiya faoliyati bilan bog‘liq yig‘ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;

✦ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta‘sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

✦ O‘zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o‘rnatish.

Har bir partiyaning o‘z dasturi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra ular siyosat maydonida ushbu dasturlarida nazarda tutilgan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun faoliyat olib boradilar. Masalan, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat qurish, mamlakatning har bir fuqarosiga munosib turmush sharoitlari va uning farovonligini ta‘minlay oladigan siyosatni olib borishni o‘z faoliyatining bosh vazifalari deb hisoblaydi. «Adolat» partiyasida barqarorlikning va O‘zbekiston bozor islohotlari modelini ro‘yobga chiqarishning kafolati sifatida fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, «Milliy tiklanish» partiyasida xalq ma‘naviyatini, tarixiy xotirasi va madaniyatini tiklash, Liberal-demokratik partiyasida tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat olib borishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning ertangi kunini ta‘minlashdek maqsad partiyaviy dastur sifatida ilgari suriladi.

Siyosiy partiya o‘z oldidagi maqsadga erishish uchun ma‘lum vazifalarni bajaradi. Bularning orasida davlatni boshqarishda ishtirok etish, milliy integratsiya, mafkuraviy faollik kabi vazifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Harqanday siyosiy partiya o‘z faoliyatini jamiyatda mavjud bo‘lgan muammolarni hal etishga qaratilgan siyosiy yo‘nalishni ishlab chiqishdan boshlaydi. Ushbu maqsadda partiya faollari tarkibidan tashabbuskor guruhlar, komissiyalar, jamoatchilik kengashlari tuziladi.

Siyosiy partiya o‘zining dasturiy hujjatlarida o‘ziga xos strategiya va usul tanlab, u orqali saylovchilarga ta‘sir ko‘rsatishga intiladi. Bu tashkiliy bosqichda partiya a‘zolari qabul qilish, faollarni tarbiyalash, saylovchilarni partiya nomzodlarini qo‘llab-quvvatlashga safarbar qilish, yo‘lboshchilarni tanlab olish va ularni davlat va ommaviy jamoat tashkilotlari organlarida yuqori lavozimlarga ilgari surish vazifalari yuzaga chiqadi.

Hozirgi kunda siyosiy maydonda XDP¹, «Adolat» sotsial-demokratik, «Milliy tiklanish» kabi partiyalarning tashkil topganiga to‘qqiz yil to‘lishiga qaramasdan, kundan-kunga siyosiy kuch sifatida faoliyatlari zaiflashib bormoqda.

Ayniqsa, «Milliy tiklanish» partiyasi hayotda o‘zini to‘laqonli namoyon eta olmayapti. Vaholanki, ish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ushbu partiyalarning har ikkisi ham o‘z tarafdorlarini topishi mumkin. Zero, «Milliy tiklanish» partiyasining g‘oyaviy asosi bo‘lmish millatparvarlik, vatanga sadoqat, «Adolat» partiyasi ilgari surayotgan adolat tamoyillari ayni xalqimiz dilidagi gaplardir¹.

Eng yosh siyosiy partiya Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati–O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, avvalo mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar tayanadigan yangi siyosiy kuch sifatida mamlakat siyosiy sahnasiga kirib keldi. Partiya tashkil topgan kundan boshlab siyosiy sahnada o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun harakat qilib kelmoqda. SHu sababdan uning a‘zolari soni kundan kunga ortib bormoqda. A‘zolarining oltmish foizidan ko‘prog‘i mulkdorlar, tadbirkorlar, fermerlardan iborat. Partiyaning viloyatlar, shahar va tumanlarda tuzilmalari shakllandi. Boshlang‘ich tashkilotlarni izchil shakllantirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Partiyaning eng muhim vazifasi hokimiyat organlarini shakllantirish va ular faoliyati ustidan nazorat olib borishda ishtirok etishdir.

Siyosiy partiyalarning bo‘lishi, ularning davlat organlariga saylovlarda ishtirok etishlari ijtimoiy ixtiloflarning tinch yo‘l bilan hal etilishiga yo‘l ochib beradi. Bu zarur hollarda hukumatlarning almashtirilishi, siyosiy arboblarning professional qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun ijobiy shart-sharoitlar yaratadi va bu bilan jamiyatning davlat tomonidan boshqarilishining samaradorligi ta‘minlanadi.

Demokratik rejimdagi ikki partiyaviy yoki ko‘ppartiyaviy tizimga ega bo‘lgan davlatlarda hukmron partiyalar va muxolif partiyalar o‘rtasida sog‘lom raqobat mavjud bo‘ladi. Muxolif partiyalar milliy taraqqiyot uchun muqobil dasturlar ishlab chiqadi va jamoatchilik muhokamasiga o‘z takliflarini beradi, amaldagi hukumat faoliyatida mavjud bo‘lgan xato, nuqsonlar, suiiste‘molliklarni tanqid qiladi, bu bilan esa hukumatni jamiyatdagi mavjud muammolarni muvaffaqiyatli hal etish usullarini izlab topishga majbur qiladi.

Masalan, Buyuk Britaniya, Hindiston va boshqa bir qator mamlakatlarda muxolif partiyalar tomonidan «yashirin kabinetlar» tuziladi, kabinet a‘zolaridan davlat xazinasidan mablag‘ to‘lanadi va ular ba‘zi imtiyozlardan ham foydalanadilar, shu tariqa davlat va jamiyat hayotidagi turli muammolarni hal etishda faol ishtirok etadilar.

2. O‘zbekistonda hokimiyatning taqsimlanishi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2-moddasida o‘rnatilganidek, O‘zbekistonda davlat hokimiyatining tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi tamoyiliga (prinsipiga) asoslanadi.

Bu yerda ham hokimiyat organlarining tamoyiliga (funktsiyalari) o‘rtasida qat‘iy chegara o‘rnatish mumkin emas.

Masalan Prezident Konstitutsiyaga ko‘ra (89-modda) davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi, u qonunlarni imzolaydi.

Hokimlar xalq deputatlari kengashlariga boshchilik qilishadi, shu bois ular deputat bo‘lishlari kerak va haqiqatda ham shunday va hakozi.

«Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati-davlatning uchta asosiy tayanchidir»⁴-deb yurtboshimiz o‘zlarining qator chiqishlarida takidlab o‘tganlar.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, hokimiyatlar bo‘linishi huquqiy demokratik davlatning muhim belgisi hisoblanadi. SHuning uchun ham hech qaysi davlatda hokimiyatlar aniq, teng taqsimlanmagan ekan, huquqiy davlat haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Eng muhimi, bunday prinsipning real hayotda amal qilishi natijasida fuqarolar manfaatdor bo‘ladilar. Prezidentimiz I.A.

¹ O‘zbekiston XDP Markaziy Kengashi VIIplenumi partiya tashkilotlari faoliyatini erkinlashtirish maqsadida XDP ustavining yangi tashiri loyihasini ko‘rib chiqib, uni umumpartiyaviy muvokamaga qo‘ydi. «O‘zbekiston ovozi». 2004. 5 iyun.

¹ Yoqubov B. Ishonchsizlik va ishonch. «XXI asr». 2004. 3 iyun.

⁴ Karimova I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.2. –T.: «O‘zbekiston», 1996, 97-bet.

Karimov ham istiqbolimizning dastlabki kunlaridanoq buni yaxshi tushungan holda davlatimiz oldidagi muhim vazifalar haqida gapirar ekan, siyosiy sohada jumladan quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatining vakolatlari hamda vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi»⁵.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Oliy Majlis ikki palatadan-120 deputatdan iborat Qonunchilik palatasi (quyi palata) va 100 senatordan-senat (yuqori palata) dan iborat.

Qonunga ko'ra ayni bir shaxs bir vaqtning o'zida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Prezident lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan respublika fuqarosi saylanishi mumkin.

Prezidentni saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sud tizimi 5 yil muddatga saylanadigan Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, mahalliy sudlar va xo'jalik sudlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan ma'ruzasidata'kidlashicha, «davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish»¹ hayotimizni isloh qilish va yangilash borasida oldimizga qo'ygan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada Prezident vakolatlarining bir qismini Parlamentning yuqori palatasi-Senatga va hukumatga o'tkazish, professional, doimiy asosda ishlaydigan quyi-Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish; Bosh Vazir va umuman mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga, mas'uliyatini kuchaytirish; sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi uqtirib o'tdilar. «Har qanday hokimiyat, u qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo'ladimi, bularning barchasi o'z vazifasini anglashi, o'z mas'uliyatini his qilishi o'z yukini ko'tarishi va ta'bir joiz bo'lsa, o'z aravasini mustaqil ravishda tortishi darkor»².

Muhokama uchun savollar

1. Siyosiy tizim tushunchasi.
2. Siyosiy tizim elementlari.
3. Davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro munosabatlari.
4. O'zbekistonda davlat hokimiyatini idora etishning shakli.
5. Demokratiya va siyosiy-ijtimoiy jarayonlar.
6. O'zbekiston Respublikasi saylov tizimining shakllanishi va takomillashishi.
7. O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tish davrining bosqichlari.
8. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos yo'li.

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: «O'zbekiston», 1998, 16-bet.

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.// Xalq so'zi.2005 yil 29 yanvar.

² O'sha joyda.

9. Siyosiy partiyalarning siyosiy jarayonlarga ta'siri.
10. Jamiyat siyosiy hayotida axborotning o'rni.
11. Ommaviy axborot vositalari «To'rtinchi hokimiyat» sifatida.
12. Siyosiy yetakchi (lider) ning siyosiy institutlar va jarayonlarda tutgan o'rni.
13. Siyosiy yetakchiga xos sifatlar.
14. Mustaqillik va kadrlarga yangicha talablar.
15. Siyosat va millatlararo munosabatlar.
16. Siyosatda milliy xususiyatlarni inkor etishning salbiy oqibatlar.

Mustaqil ish torshiqalari:

1. Siyosiy institutlar va ularning xilma-xilligi.
2. Siyosatshunoslik fanida milliylik va umuminsoniy qadriyatlar munosabati.
3. Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarining tarixiy ahamiyati.
4. «Temur tuzuklari» va uning tarixiy ahamiyati.
5. Mustabid tuzum davridagi siyosiy qarashlar.
6. Mustaqillik va O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tish jarayonlari.
7. Siyosiy hayotda insonning o'rni.
8. Siyosiy hayot va manfaatlar tizimi.
9. Demokratiya va uning modellari.
10. Demokratiyani eksport qilish masalasi bo'yicha qarashlar.
11. O'zbekistonda demokratik davlat qurilishining o'ziga xos jihatlari.
12. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari (tamoyillari).
13. Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar masalalari.
14. BMT va uning jahonda tinchlik, barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rni.

Adabiyotlar

1. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, сиёсий мафкуралар, сиёсий маданиятлар.-Т.:Шарқ, 1998. 160 б.
2. Азизхыжаев А.А. Демократия–халқ ҳокимияти демакдир.-Т.:Шарқ, 1996.
3. Ахмадшоева М., Расулев Ш. Сайлов қонунчилиги: 100 саволга 100 жавоб.-Т.:ТДЮИ, 2004.
4. Бакаева Ф. Организация выборов в органы государственной власти на местах.-Т.:ТГЮИ,2004.
5. Беков И., Аббосхыжаев Ш. Сайлов ва сиёсий партиялар.-Т.:ТДЮИ, 2004.
6. Ёқубов А. Ўзбекистонда янги сайловлар қандай ытади.-Т.:Маънавият, 1999.- 16 б.
7. Жалолов А. Сиёсий партия: юксалиш муаммолари.–Т.: Узбекистон, 1992.
8. Жаҳон конституциялари.1 жилд.-Т.:Адолат, 2001.
9. Жумаев О. Сиёсий партияларнинг сайлов жараёнидаги этикаси.-Т.:ТДЮИ, 2004.
10. Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие.-Т.:Фан, 1996. 207 с.
11. Касымов А. Внешнеполитические ориентиры Республики Узбекистан.-Т.,2000.
12. Конституционное развитие Узбекской ССР.–Т.:Фан, 1986.
13. Лебедева С.В. Формирование Сената.-Т.:ТГЮИ,2004.
14. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида–Т.:Узбекистон, 2001.-368 б.
15. Левитин Л., Карлайл Д. Ислам Каримов–Президент нового Узбекистана.-Т.:Узбекистон, 1996.

16. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.:Ўзбекистон, 2000.- 77 б.
17. Мирзо /. Сайловлар ва оммавий ахборот воситалари.-Т.:ТДЮИ, 2004.
18. Мустафоев Б. , Ахмедов Д. Избирательное право и избирательный процесс в Узбекистане: словарь.-Т.:ТГЮИ, 2004.
19. Мустафоев Б. Ўзбекистон Республикаси сайлов тизими ва сайлов қонунчилиги.-Т.:ТДЮИ, 2004.
20. Мустафоев Б., Назаров Қ. Ким депутат бўлиши мумкин? -Т.:ТДЮИ, 2004.
21. Муҳиддинова Ф. Выборы: вопросы и ответы.- Т.:ТГЮИ,2004.
22. Муҳамедов Ҳ. Сайлов ҳуқуқи ва сайлов тизими.-Т.:ТДЮИ, 2004.
23. Нуриддинов Э. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы.-Т.:Чулпон, 2002.
24. Одилқориев Ҳ.Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.-Т.:Ўзбекистон, 1995.
25. Рустамбаев М. «Ответственность за нарушение законодательства о выборах» на трех языках.-Т.:ТГЮИ, 2004.
26. Саидов А. Международное право и избирательное законодательство Республики Узбекистан.- Т.:ТГЮИ,2004.
27. Саидов А. Х. Ҳозирги замон асосий ҳуқуқий тизимлари.-Т.,2004. 428 б.
28. Саидов А.Х. Қиёсий конституцияшунослик.-Т.:Академия МВД, 1993.
29. Фармонов Р., Жўраев Қ. Қиёсий сиёсий тизимлар ва кыппартиявийлик. –Т.:ЖИДУ,2000.
30. Халилов Э.Х. Сайлов тўғрисидаги Ўзбекистон қонунларининг қарор топиши ва ривожланиши.-Т.:Ўзбекистон, 1999.
31. Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикаси қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар.-Т.: Ўзбекистон, 2001. 384 б.
32. Халилов Э.Ҳ. Ўзбекистон Республикаси парламенти: биринчи чақириқ Олий Мажлисининг фаолияти.-Т.:Ўзбекистон, 1999.
33. Хидоятлов ГА История дипломатии. Т.1. С древнейших времен до XX в. Учебное пособие.-Т.:УМЭД, 2004. 481 с.
34. Хусанов О.Т. Ўзбекистон Республикасининг давлат органлари.-Т.:Шарқ, 1996. 80 б.
35. Ҳамидова К. Сайловлар ва сиёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш.-Т.:ТДЮИ, 2004.
36. Ҳусанова М. Ўзбекистон Республикасида фуқаролик жамиятини шакллантиришда сайлов тизими ва сайлов ҳуқуқининг аҳамияти.-Т.:ТДЮИ, 2004.
37. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳ.-Т.:Ўзбекистон, 1995.

Мавзу - 11. О‘zbekiston siyosiy taraqqiyotining qiyosiy tahlili

Dars maqsadi:

Demokratik tranzit muammosi. Konstitutsiyaviy tuzilish. Institutsonal dizayn. Hokimiyatning tashkil qilinishining va faoliyat ko‘rsatishi tamoyillari. Siyosatda davomiylik va o‘zgarishlarni tadqiq etish.

- Talabalarni siyosiy tuzum, siyosiy rejim va uning turlari bilan tanishtirish;
- qiyosiy politologiyaning siyosiy fanlar tizimidagi o‘rnini aniqlash va ko‘rsatish;
- Bundan tashqari ushbu darsning maqsadi siyosiy tuzumlarning klassifikatsiyasini tahlil etish;
- mazkur bilimlarni mustaqil tahlil qilishda ko‘maklashish;
- Yoshlar o‘rtasida sog‘lom ma’naviy va tarbiyaviy muhitni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: despotik rejim, mustabidlik rejimi, Tiraniya rejimi, Avtoritar siyosiy rejim, Totalitar siyosiy rejim, harbiy siyosiy rejim, Fashistik siyosiy rejim, Irqiy siyosiy rejim, Diniy siyosiy rejim

Asosiy savollar:

1. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari quyidagilardan iborat:
2. Prezidentlik instituti va uning shakllanishi.
3. Oliy Majlis Qjnunchilik palatasi
4. Ijro etuvchi hokimiyat (Vazirlar Mahkamasi).

2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida Prezidentimiz Islom Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusida ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzada o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz sud-huquq tizimini, saylov qonunchiligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, shuningdek, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslari ilgari surildi.

Ma'ruzada ta'kidlab o'tilganidek, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohatlar juda muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi⁶.

<p>O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.</p> <p><i>O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 11-madda</i></p>
--

Prezidentimiz "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda"(1999 y.) asari mamlakatimizning yangi asrdagi taraqqiyoti uchun 6 ta ustuvor yo'nalishni belgilab berar ekan, avvalo siyosiy, iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishni birinchi ustuvor vazifa qilib qo'ygan edi. Bunda siyosiy sohani erkinlashtirish bilan birga davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda asosiy e'tibor quyidagi masalalarga qaratilgan edi:

- 1) hokimiyat barcha tarmoqlarining mustaqil faoliyatini ta'minlash;
- 2) nodavlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish.

Bunda "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasi belgilab berildi.

Bu masalalarni bevosita amaliyotga tatbiq qilish uchun "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz"(2000 y.) risolasida ham 7 ta ustuvor vazifadan birinchi va ikkinchi vazifa qilib siyosiy sohada quyidagi masalalar belgilab berildi:

1. Siyosiy sohada:

- 1) siyosiy hayotning barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;
- 2) ko'ppartiyaviylik muhitini ta'minlash;
- 3) nodavlat tuzilmalarni, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish;
- 4) fikrlar xilma-xilligiga erishish. Ommaviy axborot vositalarini tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarish;

⁶ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi // Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr, № 220 (5135).

5) inson huquq va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni qaror toptirish;

2. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida:

1) hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy asosda bo‘linishini ta’minlash;

2) ma’muriy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish;

3) kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, yangilash tizimini takomillashtirish;

Markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma’muriy organlarning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko‘zda tutilgan edi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan keyingi o‘tgan o‘n yil davomida, ya’ni 2000 yildan keyingi davrda boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o‘tkazish, O‘zbekistonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning noyob shakli bo‘lgan mahalla tizimini shakllantirish masalasiga katta ahamiyat qaratildi.

“Mahalla” arabcha so‘zdan olingan

bo‘lib, “joy” degan ma’noni anglatadi. Tarixchi olim Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruvi ekanini yozgan edi. “Mahalla” atamasiga Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit- turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida ham izoh berilgan. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki, ma’muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e’tirof etilgan. Alisher Navoiyning “Hayratul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) asarida quyidagi band uchraydi: Shaharlar otini mahalot etib, Bo‘ldi chu yuz shahar Hiri ot etib. Mahallaning “joy” degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko‘rinib turibdiki, o‘rta asrlarda Hiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik “shaharcha” - mahallalardan tashkil topgan ekan.

Mahalla deganimizda, avvalambor, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan va rivojlantiradigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i, hayot maktabini tasavvur etamiz.

Mamlakatimizda o‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko‘lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o‘z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvining markazlashuvini cheklash natijasida o‘zini o‘zi boshqarish organlari jamiyatning asosiy institutlaridan biriga aylandi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish (g‘arbda “munisipial” deyiladi) deganda, muayyan ma’muriy-hududiy birlikdagi aholi vakolatlarini ifoda etadigan, shuningdek, saylangan organlar va ularning ma’muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan, mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarni boshqarish tushuniladi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish demokratik tamoyillar asosidagi boshqaruvdir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1) mazkur organlarning fuqarolar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylanishi;

2) mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqaruvning nisbatan mustaqilligi; 1985 yil 15 oktyabrda Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risidagi Yevropa xartiyasi”ning 3-moddasida bu tushuncha quyidagicha ifodalangan: “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish deganda, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘z mas’ulligida, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida uning davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarishi va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumiy saylovlarda saylangan a’zoldan iborat kengashlar yoki majlislar o‘zlariga hisobot berib boruvchi ijroiya organlariga ega bo‘lishi mumkin. Bu qoidalar

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma’muriy organlarining vazifalarini o‘zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo‘jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e’tibor berildi... Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko‘zda tutilgan edi.

fuqarolar majlislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishining qonun yo'l qo'ygan boshqa shakllariga murojaat etishni istisno etmaydi".

G'arb jamiyatshunos olimlari mahalliy o'zini o'zi boshqarishga doir tushunchalarning nazariy jihatlarini ham ishlab chiqqanlar. **Birinchi nazariyaga binoan**, "mahalliy boshqaruv" deganda, davlat boshqaruvidan quyidagi barcha bo'g'inlarni, "mahalliy hokimiyat" deganda esa, "saylangan kengash va uning ijroiya organlari vositasida o'z saylovchilari manfaatlarini ifoda etuvchi va harakat qiluvchi tashkilotlar" tushuniladi. Shuningdek, "mahalliy o'zini o'zi boshqarish" – "milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlari asosida jamoatchilik muammolarining aksariyat qismini muvofiqlashtirishi va boshqarishi"dir.

Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: **"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir"**.

Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

*O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi, 105-modda*

Qo'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomi rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mashhur olim Aleksis de Tokvilning talqinicha, "shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksak-ki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O'zini-o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir-oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiga ega bo'la olmaydi".

XX asrning ikkinchi yarmida **ikkinchi nazariya** paydo bo'ldi. Ushbu "umumiy farovonlik davlati" nazariyasi bilan bog'liq holda, munisipal (o'zini o'zi boshqarishga doir) konsepsiya ham paydo bo'ldi. Munisipalitetlar jamiyatning barcha tabaqalari manfaatlarini ta'minlovchi va qo'riqlovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraldi. Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlarda munisipal kengashlar maqomi huquqiy jihatdan munisipal ijroiya boshqaruvidan yuqori qo'yilgan bo'lib, ularning vakolatiga quydagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo'yicha me'yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy etish, shuningdek, ko'pchilik davlatlarda munisipalitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni belgilash.

AQSh ijtimoiy-siyosiy hayotida ham munisipalitetlar muhim o'rin egallaydi. Munisipal maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, sanitariya ishlari, suv bilan ta'minlash, parklar, yong'inga qarshi xizmatlarni boshqarish asosan munisipal kengashlar tasarrufidadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) kengashlar o'z vakolatlarini ijroiya organlariga berish huquqiga ham ega.

Sobiq SSSR davrida mahallaning mazmuni va vazifalari butunlay soxtalashtirilgan edi. Bu davrda mahallalar o'zining huquqiy maqomini yo'qotdi. Ularning asosiy faoliyati sobiq kommunistik partiyaning mahalliy tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashdan, shuningdek, sho'raviy odatlarni targ'ib qilish, oilalardagi marosimlar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda kommunistik partiyaning "ko'z va qulog'i" bo'lib turish kabi vazifalardan iborat bo'lib keldi. Bu davrda qadimdan ma'naviyat, ta'lim va tarbiya masalalarini hal etib kelgan mahallalarning o'rni deyarli yo'qqa chiqarildi.

Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi (2.1.1-rasm). O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina o'zini o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahallaning maqomini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatimizda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldi. Jumladan, mustaqillik davrida yurtimizda 10 mingdan ko'proq o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldi.

Boshqaruv soxasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat berildi.

Islom Karimov

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Demokratiya, oshkoralik, fikrlar xilma-xilligi tamoyili.
2. Vorislik tamoyili.
3. Ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish.
4. Yuksak ma'naviyat tamoyili.
5. Mahalla xavfsizligini ta'minlash tamoyili.
6. Fuqaro yig'ini raisi (oqsoqoli) va maslahatchilarining o'z mas'uliyatini his qilish tamoyili.
7. Ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, ijtimoiy kafolat tamoyili (jamoatchilik va o'zaro yordam).
8. Kengash, mashvarat (maslahatlashish) tamoyili.
9. Insonparvarlik.
10. Mustaqillik va h.k.

Bunday boshqaruv tamoyillari sifat va miqdor ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi.

Sobiq sho'ro davrida **ma'muriy-buyruqbozlik tizimi** quyidagi tamoyillarga asoslangan edi:

1. Byurokratlarcha markazlashuv.
2. Nomenklatura (yuqoridan ro'yxat asosida tayinlash) boshqaruvi.
3. O'ziga o'zi xizmat qilish, shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yish.
4. Buyruqbozlik (majburlash, dahshatli qarorlar chiqarish).
5. Demokratiyani tan olmaslik.
6. Rasmiyatchilik (qog'ozbozlik).
7. Mahdudlik (maxfiy ma'lumotlar asosida boshqarish).
8. Konservatizm va h.k.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolari yig'inlari, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldaga mahalla fuqarolarining yig'ini (vakillar yig'ilishi)

Fuqarolar yig'inining kengashi (fuqarolar yig'inining raisi, uning maslahatchilari, komissiyalarning raislari va mas'ul kotib)

Fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar

Fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi

Tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo'lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun xujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuzilgan ma'muriy komissiyalar

2.1.1-rasm.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazishda mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi. Bu esa Prezidentimiz tomonidan e'tirof etilgan, markaziy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlarini borgan sari mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'tkazib borish lozimligi xususidagi g'oyaning amaldagi tasdig'idir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlar natijasida mahalla institutining roli tobora oshib bormoqda. Bu esa fuqarolarimiz turmush tarzining yanada yaxshilanishida mahalla institutining o'ni va roli naqadar


beqiyos ekanini ko'rsatib bermoqda. Mahallalarning o'zini o'zi boshqarish organlari sifatidagi mavqeini yanada oshirish, roli va ahamiyatini tobora kuchaytirish maqsadida, Prezidentimiz Islom Karimov va hukumat tomonidan juda ko'plab farmon va qarorlar qabul qilindi. Faqat bizga xos bo'lgan mahalla instituti boshqa davlatlarda uchramaydigan, betakror milliy qadriyat va an'analarga asoslangan jamoaviy tuzilmadir. Mahalla boshqaruvi davlat hokimiyati organlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Hokimiyat – bu kishilar, ijtimoiy guruhlar hamda sinflarning faoliyatiga, xulq-atvoriga, harakatlariga, iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, ijtimoiy mexanizmlar, shuningdek, kuch ishlatish, zo'rlik qilish, ishontirish qobiliyatlari bilan ta'sir etuvchi faoliyatning alohida shaklidir(2.1.2-rasm).

Davlat hokimiyati (davlat apparati) – bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan muayyan tuzilmaga birlashgan davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining tizimidir.

Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta sub'ekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarining yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

Islom Karimov



2.1.2-rasm. Mamlakatimizda davlat hokimiyati sub'ektlari

Prezidentlik instituti va uning shakllanishi. Prezident so'zi lotincha bo'lib, "oldinda o'tiruvchi" degan ma'noni bildiradi. O'zbekiston tarixida prezidentlik boshqaruvi birinchi bor 1990 yil 24 martda ta'sis etildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Islom Karimov saylandi. 1991 yil 18 noyabrda "O'zbekiston Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu qonunga 1997 yil 26 dekabr va 1999 yil 19 avgustda hamda 2003 yil 24 aprelda, 2007 yil 11

aprelda o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Mustaqillik yillarida prezidentlik instituti to'la shakllandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi 19-bobining 89-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Prezidentlik lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq prezident bo'lishi mumkin emas. Prezident fuqarolar tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 7 yil muddatga saylanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" mavzusidagi ma'ruzasida davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifa bo'lgan mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish yo'llarini belgilab berdi. Shunga ko'ra, 2006 yili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)" loyihasi matbuotda e'lon qilinib, xalqning fikr mulohazalari o'rganildi va natijada ushbu qonun Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yili 29 martda ma'qullandi. Prezident Islom Karimov 2007 yil 11 aprelda "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga imzo chekdi. 2010 yil 27 yanvardagi Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi Prezident ma'ruzasida ham aynan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tildi. Ana shu "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)"gi Qonunga ko'ra, Konstitutsiyamizning 89-moddasi yangi tahrirda qabul qilindi.

Bugungi kunda Konstitutsiyamizning Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi" degan qoida belgilab qo'yildi. Natijada Prezidentning ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sifatidagi norma olib tashlandi, parlament faoliyatiga oid "muxolifat", "ko'pchilik" kabi tushunchalar kiritildi.

89-moddasida "O'zbekiston Respublikasining

2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo'ldi.

Islom Karimov

93-moddaning 15-bandi quyidagicha tahrir qilindi: "15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli".

102-moddaning ikkinchi qismi quyidagicha tahrir etildi: "Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi". Ushbu qonun 2008 yil 1 yanvaridan kuchga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimining tugatilishi davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Demak, mustaqillik yillarida mamlakatimizda prezidentlik instituti shakllanib, u yanada takomillashdi, uning huquqiy negizlari mustahkamlandi. (2.1.1-jadval).

Prezidentimiz Islom Karimov davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, prezidentlik institutini yanada liberallashtirish, dunyodagi rivojlangan davlatlar boshqaruvi tizimiga mos tizimga o'tish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi. Bu takliflar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96-moddasiga taalluqlidir.

Mamlakat Prezidenti turli sabablarga ko'ra, o'z vazifasini bajara olmaydigan holat yuzaga kelgan taqdirda noaniqlik, ushbu moddani turlicha talqin etishga yo'l qo'ymaslik maqsadida uning yangi tahririni quyidagi mazmunda bayon etish taklif qilindi: "Mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda, mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi".

2.1.1-jadval

Prezidentlik instituti faoliyatining shakllanish davri

Davlat boshlig'i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.
Fuqarolarning huquq va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlar kafili.
1990 yil 24 mart – Prezident lavozimi joriy etildi.
1991 yil 18 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va unga 1997 yil 26 dekabrda, 1999 yil 19 avgustda, 2003 yil 24 aprelda, 2007 yil 11 aprelda o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.
1991 yil 29 dekabr – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti saylandi.
1995 yil 26 mart – I.A.Karimovning vakolatlarini 1997 yildan 2000 yilga qadar uzaytirish bo'yicha referendum o'tkazildi.
2000 yil 9 yanvar – Prezident saylovida I.A.Karimovning (91.9 foiz)g'alabasi.
2002 yil 22 yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o'zgartirildi.
2007 yil 23 dekabrda Prezident saylovida to'rtta nomzod ichidan I.A. Karimov g'alaba qozondi (88.1 foiz).
Mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni (93-moddaning 20-bandi).
O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi (93-moddaning 24- bandi).
Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida mamlakatimizda ikki palatali parlamentning barpo etilishi natijasida Prezident vakolat muddatining o'zgartirilishi va unga tegishli ayrim vakolatlarning Senat va Bosh vazirga o'tkazildi. 2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan norma chiqarib tashlandi, davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga oid, ya'ni Oliy Majlis Qonuchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalariga hukumat dasturlariga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmagan taqdirda o'zini muxolifat deb e'lon qilishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. 2009 yil 1 iyuldan kuchga kirgan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlarining takomillashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mazkur yo'nalishdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Parlament). Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat har bir davlatda o'ziga xos xususiyatga ega va turlicha ataladi (masalan, AQShda – Kongress, Shvesiyada - Riksdag, Xitoy Xalq Respublikasida – Xalq vakillari umumxitoy majlisi). O'zbekistonda bunday hokimiyat Oliy Majlis deb nomlanadi. Uning maqomi, tizimi, tuzilishi, vazifalari, ish faoliyatiga oid qoidalarni belgilashda dunyodagi ilg'or davlatlarning va umuman, oliy qonun chiqaruvchi organi tashkil qilish bo'yicha xalqaro tarixiy tajriba chuqur o'rganilgan va inobatga olingan.

O‘zbekistonda Oliy Majlis ayni paytda hokimiyatning qonun chiqaruvchi va vakillik organi hisoblanadi, uning tarkibidagi deputatlar xalq mafaatlarini ifodalaydi. Oliy Majlis 5 yil muddatga saylanadi. 25 yoshga yetgan O‘zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga ega.

2.1.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti	
<i>Shu kungacha bo‘lgan holat</i>	<i>Prezidentimizning muhim takliflari</i>
<p>93-moddaning 8-bandi: 8) Ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta‘minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi.</p>	<p>93-moddaning 8-bandi: 8) Respublika oliy hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta‘minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi.</p>
<p>93-moddaning 12-bandi: 12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi.</p>	<p>93-moddaning 12-bandi: 12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi.</p>
<p>93-moddaning 15-bandi: 15) viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha‘ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.</p>	<p>93-moddaning 15-bandi: 15) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha‘ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.</p>
<p>93-moddaning 16-bandi: 16) Respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to‘xtatadi, bekor qiladi.</p>	<p>93-moddaning 16-bandi: 16) Respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to‘xtatadi, bekor qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli.</p>
<p>96-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti betobligi sababli o‘z vazifasini bajara olmasligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo‘shma qaroriga ko‘ra tuzilgan davlat tibbiy komisiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o‘n kun muddat ichida palatalarning qo‘shma favqulodda yig‘ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oyigacha bo‘lgan muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha</p>	<p>96-modda. Mamlakatning amaldagi Prezidenti o‘z vakolatlarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlarini vaqtincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy ichida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunga to‘liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o‘tkaziladi.</p>

bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga umumxalq saylovi o‘tkazilishi shart.	
---	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning 2010 yil 12 noyabrda o‘tkazilgan qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusidagi ma’ruzasi hamda mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishda Oliy Majlis Senati va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini kuchaytirish borasidagi vazifalari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Aslida parlament fransuzcha “parler”- gapirmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rasmiy so‘zlashish joyi ma’nosini anglatadi. Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament qonun bo‘yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo‘lib, hududiy saylov okruglari bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil.

***O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi. 76- modda***

ko‘ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to‘lgan fuqarolardan saylanadi. Parlamentarizm tajribasi shuni ko‘rsatadiki, parlament bir palatali va ikki palatali bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. XX asarning so‘nggi o‘n yilligida ikki palatali parlamentlar soni 45 tadan 75 taga ko‘paydi. Hozirgi zamonda ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendensiyasiga aylandi. 2000 yilning 14 martida Parij shahrida bo‘lib o‘tgan jahon senatlarining maxsus anjumanida parlamentning ikki palatali bo‘lishi mamlakat hayotida ijobiy rol o‘ynaydi, degan xulosaga kelindi.

1990-1994 yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, bir palatali, 150 deputatdan iborat edi. 1995-2004 yillarda parlament Oliy Majlis nomi bilan atalib, bir palatali va uning 250 deputati mavjud edi.

Mustaqillik yillarida xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 deputat, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 nafar deputat saylanishi yo‘lga qo‘yildi.

2005-2009 yillarda Oliy Majlis ikki palatali parlament bo‘lib, uning quyi Qonunchilik palatasi 120 deputat, Senat (yuqori palatasi) esa 100 senatordan tashkil topdi, jami 220 deputatdan iborat bo‘lib keldi.

Ikki palatali milliy parlamentni tashqil qilish masalasi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 2000 yil 25 mayda Oliy Majlisning 2-sessiyasida ilgari surildi. “Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o‘zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma’naviy ongi ulg‘ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o‘tish taklifini kiritmoqchiman, ya’ni biz 2004 yilda bo‘ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim”⁷.

Oliy Majlisning 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, 2002 yil 27 yanvarda referendum o‘tkazildi. Shu asosdagi “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Asarlar,8-jild. Toshkent:O‘zbekiston, 2000- 483-bet.

2002 yil 12 dekabrda Oliy Majlisning 10-sessiyasi xalqimizning xohish irodasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlar qabul qildi. Shuningdek, 2003 yil 24 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to‘plangan parlamentarizm tajribasi, O‘zbekiston xalqining qadriyatlari va mentalitetini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlamentimiz vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

Qonunchilik huquqi faoliyatini quyidagicha izohlash mumkin(2.1.4-rasm).

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan kiritiladi

Qonunchilik palatasi Spikeri qonun loyihasini dastlabki tarzda kўrib chikadigan kўmitaga topshiradi. Mas'ul kўmita xulosa tayёрlaydi

Qonunchilik palatasi kengashi mas'ul kўmita xulosasi asosida qaror qabul qiladi

Kўrib chikish uchun qabul qilingan qonun loyihasi tegishli materiallar bilan Qonunchilik palatasining kўmitalariga yuboriladi

Qonunchilik palatasi kengashi mas'ul kўmita taqdim etgan qonun loyihasini birinchi ўqishda kўrib chikish uchun Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish tўg'risida qaror qabul qiladi

2.1.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasidan qonun loyihalarining o‘tish tartibi.


O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat (2.1.5-rasm).

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro huquq andozalari va ilg‘or xorijiy davlatlar talablariga mos yangi saylov qonunchiligi yaratildi. O‘zbekistonda saylov qonunchiligi, ya‘ni parlament 4 bosqichdan iborat taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi:

Birinchi bosqich. Konstitutsiyamiz qabul qilingunga qadar davr bo‘lib, bu davrda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti saylovi va Referendum to‘g‘risidagi bir qator qonunlar qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich. Konstitutsiyamiz qabul qilingandan to 1997 yilgacha davom etdi. Bu davrda milliy saylov tizimi shakllantirildi.

Uchinchi bosqich. 1997 yildan to 2003 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda amaldagi saylov qonunlariga ayrim o‘zgartishlar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi.



2.1.5-rasm.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida:


O‘zLD Partiyasi, O‘zMTD Partiyasi, O‘z “Adolat” SD Partiyasi fraksiyalarining Demokratik bloki tuzilgan va u samarali ishlab turibdi.

O‘zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi timsolida parlament muxolifati faoliyat ko‘rsatmoqda.

To‘rtinchi bosqich. 2003 yildan 2005 yilgacha bo‘lib, bu davrda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog‘liq saylov qonunlariga o‘zgartishlar kiritildi va 2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis quyi Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazildi⁸.

Qonun ijodkorligi jarayonining huquqiy asoslari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi va Senati to‘g‘risidagi qonunlar.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi va Senatining reglamenti to‘g‘risidagi qonunlari.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni va h.k.



2.1.6-rasm.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo‘lida katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lmoqda. (2.1.6-rasm)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-bobi moddalariga quyidagi o‘zgartishlar kiritish mo‘ljallandi (2.1.3-jadval):

2.1.3--jadval

78-modda.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari	
Shu kungacha bo‘lgan holat	Kiritish mo‘ljallanayotgan tegishli o‘zgartishlar
78-moddaning 15-bandi: 15) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash.	78-moddaning 15-bandi: 15) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash. Shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish.

⁸ Usmonov Q. O‘zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. -Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.-11-12-betlar.

Demak, qonun chiqaruvchi va mahalliy hokimiyat organlariga hamda Senatga 2009 yil 27 dekabrda o'tkazilgan saylovlar jarayonida va endilikda quyidagi mezon va talablar ustuvor qilib belgilanmoqda:

1. Oliy Majlisga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi (lot. erk, ixtiyor, xohish) bildirish huquqi berilmoqda. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi Prezident vakolati doirasidan chiqarilmoqda.


2. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartib belgilanib, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi (saylovchi tashkilot vakillarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qarorlar) instituti joriy qilinmoqda.

3. Oliy Majlisga hokimiyat vakillik organlari va tashabbuskor guruhlardan nomzod ko'rsatish instituti tugatildi.

4. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalarga berildi.

5. Oliy Majlisga saylovlarni tayinlash instituti tugatildi va uning o'rniga "Saylov kampaniyasi boshlanishini e'lon qilish" instituti joriy etildi. Bu vazifani Markaziy saylov komissiyasi amalga oshiradigan bo'ldi.

Ikki palatali parlament faoliyatining shartlari quyidagicha (2.1.7-rasm).



2.1.7-rasm. Ikki palatali parlament faoliyatining shartlari.

6. Siyosiy partiyalarning vakolatli vakili Qonunchilik palatasiga kiritildi. Bu institut saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda qatnashadi. Unga to'ldirilgan imzo varaqalarini tekshirishda qatnashish huquqi berildi. Oliy Majlis deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakili 5 nafardan 10 nafargacha ko'paytirildi.

7. Deputatlik o‘rinlarini kvotalash instituti kiritildi. Ya’ni 15 deputatlik o‘rni ommaviy jamoat tashkiloti – O‘zbekiston Ekologik harakatiga berildi. Ekologik harakatga deputatlik o‘rinlarini kvotalash instituti nomi berildi.

Ijro etuvchi hokimiyat (Vazirlar Mahkamasi). Ijroiya hokimiyat – davlat hokimiyatining uch asosiy tarmoqlaridan biri.

O‘zbekistonda davlat hokimiyatining tamoyili mavjud sharoitlarning o‘ziga xosligini inobatga olish, jahondagi rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan ijodiy foydalanish asosida amalga oshirilmoqda. Shunga ko‘ra, ijroiya hokimiyat davlat hokimiyati tizimining bir tarmog‘i hisoblanadi.

Qonunlar ro‘yobga chiqarilishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlash ijro etuvchi organlarning asosiy vazifasidir. Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga muvofiq, ikkinchi ijro etuvchi hokimiyat, ya’ni mamlakat hukumati Vazirlar Mahkamasiga yuklatiladi. Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.


Ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Odatda ijroiya hokimiyat parlamentga o‘tkazilgan saylovlardan so‘ng kamida bir oy ichida shakllantiriladi.

Ijroiya hokimiyat organlari tizimiga Vazirlar Mahkamasi rahbari Bosh vazir, hukumat-vazirliklar, davlat qo‘mitalari rahbarlari, viloyatlar, tuman va shahar hokimlari, ular rahbarligidagi bo‘limlar va boshqarmalar, shuningdek, korxonalar, tashkilot va muassasalarning ma’muriyati ham kiradi (2.1.8-rasm).

Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Islom Karimov



2.1.8-rasm.

Ijroiya hokimiyat organlari jamoaviy rahbarlik asosida va yakka tartibda huquqiy hujjatlar qabul qilish yo‘li bilan tegishli sohalarni boshqarish, rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, ularni amalga oshiradi. Ijroiya hokimiyat idoralarining tizimi, huquqiy maqomi va vakolatlari Konstitutsiyaga binoan Oliy Majlis tomonidan belgilanadi.

Mustaqillik yillarida Vazirlar Mahkamasi, ya'ni ijroiya hokimiyat – hukumat tarkibi 4 marta yangidan tasdiqlandi. 1993 yil 6 mayda qabul qilingan, 1993 yil 29 avgustda yangi tahrirda joriy etilgan “Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, **birinchi marta** Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi 1995 yil 23 fevralda tasdiqlandi. **Ikkinchi marta** 2000 yil 11 fevralda, **uchinchi marta** 2005 yil 4 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi tasdiqlandi. **To‘rtinchi marta** 2010 yil 12 martda Vazirlar Mahkamasi tarkibi quyidagi tartibda belgilandi: Vazirlar Mahkamasi a‘zolari – 8 ta, vazirlik - 14 ta, davlat qo‘mitalari - 9 ta⁹, jami 31 ta.

Biz hammamiz shuni aniq anglab olishimiz zarurki, saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi va siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘ladigan boshqa qator chora-tadbirlar o‘z mazmun-mohiyati bilan mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab beradi.

Demak, bugungi kunda:

I. Vazirlar Mahkamasi a‘zolari: Bosh vazir, uning birinchi o‘rinbosari va 6 nafar o‘rinbosari mavjud.

II. Vazirliklar


1. Moliya vazirligi.
2. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiya va savdo vazirligi.
3. Iqtisodiyot vazirligi.
4. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi.
5. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
6. Sog‘liqni saqlash vazirligi.
7. Madaniyat va sport ishlari vazirligi.
8. Mudofaa vazirligi.
9. Ichki ishlar vazirligi.
10. Tashqi ishlar vazirligi.
11. Adliya vazirligi.
12. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.
13. Xalq ta‘limi vazirligi.
14. Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

III. Davlat qo‘mitalari

1. Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi.
2. O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi.
3. Davlat soliq qo‘mitasi.
4. Davlat bojxona qo‘mitasi.
5. Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi.
6. Davlat statistika qo‘mitasi.
7. Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi.
8. Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi.
9. Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasi.

2005 yili Vazirlar Mahkamasi rahbari Bosh vazir lavozimi joriy etildi. Konstitutsiyaning 89-moddasi birinchi bandidagi Prezidentga tegishli vakolatlar ijroiya hokimiyatga o‘tkazildi. Bu holat Fransiya va Rossiya davlatlari Konstitutsiyalari normalarida ham mavjud. Vazirlar Mahkamasi qonun, farmon, farmoyish, qaror ijrolarini ta‘minlash maqsadida maxsus qarorlar qabul qilish hamda nazorat yo‘li bilan boshqaruvni amalga oshiradi, ijro hokimiyatini ta‘minlaydi.

⁹ Xalq so‘zi, 2010 yil 13 mart



2.1.9-rasm.

О‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-bobi 99-104-moddalariga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlarining tuzilishi quyidagicha (2.1.9-rasm).

Shu jihatdan qaraganda, Davlat (hukumat) o'zining bosh funksiyasini, islohotlarni tartibga solib turish, qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash orqali bajaradi. Vazirlar Mahkamasi Prezident va Oliy Majlis oldida javobgardir.

O'tgan davr mobaynida hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish borasida hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muozanatining samarali tizimini yaratishga doir huquqiy asoslar qabul qilindi. Bunda O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunining ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz.

Ushbu konstitutsiyaviy konun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini tayinlash va lavozimidan ozod etish, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari nomzodini tayinlash va tasdiqlash tartiblari hamda Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari deputatlarining viloyat hamda Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazorat qilish vazifalari to'g'risidagi masalalarda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga oid normalarni o'zida mujassam etdi.


Shuni unutmasligimiz kerakki, mazkur islohotlarning muvaffaqiyati, avvalambor, mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlarimiz sur'ati, fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligiga va o'z-o'zidan ayonki, birinchi navbatda siyosiy partiyalarning yetakchilik darajasiga, ularning O'zbekistonimiz taqdiri va kelajagiga daxldor bunday ulkan mas'uliyatli vakolatlarni o'z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog'liqdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalarining dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligi yoki mosligi yuzasidan blok tuzishlari, parlamentdagi ko'pchilik va ozchilik hamda muxolifat kabi qoidalar nazarda tutilgan. Ayniqsa, har bir siyosiy partiya fraksiyasining vakili Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari lavozimini egallash bo'yicha kafolatli huquqqa egaligini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini lavozimiga tayinlash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining siyosiy partiya fraksiyalari bilan maslahatlashuv institutining yaratilishi siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirishda katta ahamiyat kasb etdi. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari nomzodini lavozimga tayinlashdagi maslahatlashuv instituti ham siyosiy partiyalarning mahalliy organlari faoliyatining yanada faollashishiga hissa qo'shmoqda.

Mazkur maslahatlashuv instituti orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan siyosiy partiya faollarining yanada yaqindan muloqot qilish imkoni yaratildi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining faoliyatida siyosiy partiya guruhlarining rolini kuchaytirish asosida tegishli halq deputatlari kengashlari ishini tashkil qilish yanada demokratlashdi. Chunonchi, halq deputatlari viloyat va Toshkent shahar kengashlaridagi partiya guruhlari tomonidan viloyat va Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazorat qilish funksiyasiga oid normalarning mavjudligi vakillik hokimiyatining rolini kuchaytirishga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 98-moddasining Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga doir normalariga quyidagi mazmunda qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish taklif qilinmoqda (2.1.10-rasm).




2.1.10-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritiladigan qo‘shimcha va o‘zgartishlar (taklif).

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning nazariy asoslari mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan. O‘zbekistonning o‘z yangilanish va taraqqiyot yo‘li 4 prinsipga asoslanadi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

- xalqimizning ma'naviy me'rosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik¹⁰.

Demokratik jamiyatda qonun zaminida ish ko'ruvchi hokimiyatning obro'yi baland bo'ladi va kishilar bunday jamiyatga jazo tahlikasidan emas, balki uning xatti-harakatlarini ma'qullaganliklari tufayli bo'ysunadilar. Hokimiyat – kishilarning yurish-turishi, xatti-harakatlari va odatlariga qonuniy asosda ta'sir o'tkazish imkoniyatidir (2.1.11-rasm).




2.1.11-rasm.

Jamiyat va davlat hokimiyat organlari o'zaro hamkorlik asosida bir-biriga ta'sir o'tkazadi. Davlat hokimiyati organlari jamiyatda tartibotni ta'minlaydi va kishilarni birlashtiruvchi g'oyalarni ishlab chiqadi. Har bir hokimiyat organining vakolatlari hokimiyat vakolatlari doirasidan chetga chiqish, uni suiste'mol qilish va davlat hokimiyatining boshqa organlari faoliyat sohasiga aralashishning oldini olish maqsadida nihoyatda aniq qilib belgilab beriladi. Konstitutsiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati, sud hokimiyati organlari davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifalar yurtimizda qonuniy asosda belgilab qo'yilgan (2.1.12-rasm).

¹⁰ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Asarlar, 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.– 76-bet.




2.1.12-rasm.

Umuman, hozirgi kunda mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida islohotlar chuqurlashtirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan kiritilishi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilishi, Oliy Majlis palatalari qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qilishi, bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqishi borasidagi kiritilgan takliflar ushbu yo'nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga ko'taradi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan Bosh vazirning qaror qabul qilishi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligiga nomzodlar Bosh vazir tomonidan taqdim etilishi Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir vakolatlarini oshirib, ularning mas'uliyatini kuchaytiradi.

Umuman, so'ngi yillar mobaynida Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish borasida muhim vazifalar belgilab berildi (2.1.13-rasm).



2.1.13-rasm.

Demak, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bo'yicha quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin:

1. Davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy bo'linish prinsipi yanada demokratlashtirilmoqda.
2. Markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari, ma'muriy organlar vakolatlari, davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli kamaytirilmoqda.
3. Boshqaruv sohasidagi markazlashtirish cheklanmoqda.
4. Viloyat, tuman, shaharlardagi mahalliy o'zini o'zi boshqarish idorasi - mahalla tizimi islohoti o'tkazilib, uning roli yanada oshirilmoqda.
5. Ikki palatali parlamentning davlat hokimiyatini tashkil etishdagi huquqiy maqomi mustahkamlanmoqda.
6. Yuqori palata – Senat hududiy manfaatlarni ifoda etmoqda.
7. Quyi – Qonunchilik palatasi faoliyati doimiy professional asosda amalga oshirilmoqda.
8. 2007 yilda O'zbekiston Konstitutsiyasi 89-moddasiga tuzatishlar kiritildi. Prezident - davlat boshlig'i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi, hamkorligi ta'minlanmoqda.
9. Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimi tugatilib, Bosh vazir lavozimi joriy qilindi va bu jarayon yanada liberallashtirilmoqda.
10. Davlat hokimiyatining 3 ta sub'ekti: davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi taqsimlanish yanada mustahkamlanmoqda.
11. Siyosiy tizimni modernizatsiya qilish, isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichiga qadam qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar asosida Prezident tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatish va uni tasdiqlash demokratik prinsipning yangi tartibi o'rnatilmoqda. Oliy Majlisga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqi berilmoqda.
12. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya Bosh vazir nomzodini ko'rsatish huquqiga ega bo'lmoqda.
13. Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi belgilanib, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi instituti joriy etilmoqda.
14. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi parlament a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda Bosh vazirni lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qilinadi. Bunda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.
15. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilsa, Prezident vaqtincha Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va Oliy Majlisni tarqatib yuboradi.
16. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi Prezident vakolatidan chiqarilmoqda.
17. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 96-moddasining yangi tahririga ko'ra, Prezidentning vazifa va vakolatlariga doir yangi takliflar asosida 78- va 93-moddalarga tegishli o'zgartishlar kiritish belgilab berildi.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasi Majlislarida raislik qilishga haqli.
19. Mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vakolatlarini bajara olmaydigan holatda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha Oliy Majlis Senati raisi zimmasiga yuklatiladi hamda bunda uch oy ichida qonunga muvofiq Prezidentlik saylovi o'tkaziladi.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Bosh prokurori, Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi hamda Oliy Majlis Senati tasdig'iga kiritadi .
21. Oliy Majlis Senati Bosh vazir hisobotlarini eshitadi va muhokama qiladi.
22. Oliy Majlisga hokimiyat vakillik organlari va tashabbuskor guruhlardan nomzod ko'rsatish huquqi tugatildi.
23. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalarga berildi.
24. Siyosiy partiyalarning vakolatli vakili Qonunchilik palatasiga kiritildi.
25. Deputatlik o'rinlarini kvotalash instituti joriy etildi.

